

**FILOLOGIYANING DOLZARB
MUAMMOLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI
(22-23-may, 2024-yil, Urganch)





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

Avaz O‘tar tavalludining 140 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan

FILOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

(22-23-may, 2024-yil, Urganch)

**Urganch davlat universiteti Kengashi yig‘ilishining 2024-yil 25 apreldagi
9-sonli bayonnomasi qaroriga muvofiq nashr etishga tavsiya etilgan.**

**“XORAZM YOSHLARI”
NASHRIYOT-MATBAA UYI
URGANCH- 2024**

KBK: 83.3(50')

MB: A21

Avaz O‘tar tavalludining 140 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Filologiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari [Matn] / Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti.-Urganch: Xorazm yoshlari nashriyot matbaa uyi, 2024.-260

UO‘K: 821.512.133.09-1

ISBN: 978-9910-770-09-8

HAMKORLARIMIZ:

**Turkiyaning Pamukkal’e universiteti
Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Folklor Instituti
Qozog‘iston Respublikasi Jumabek Tashenev nomli universitet
Namangan davlat universiteti**

MAS’UL MUHARRIR:

Salomat MATKARIMOVA – *UrDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

TAQRIZCHILAR:

Zebo SAIDJANOVA - *UrDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsent v.b, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*

Nasiba SABIROVA – *Xorazm viloyati PYMO ‘MM “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori(DSc)*

Mazkur to‘plamda “Filologiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari jamlangan.

To‘plam filolog olimlar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar va barcha qiziquvchi kitobxonlarga mo‘ljallangan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

© Urganch davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti. Avaz O‘tar tavalludining 140 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Filologiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (22-23-may, 2024-yil, Urganch).

© “Xorazm yoshlari” nashriyot-matbaa uyi. Urganch – 2023.

Tashkiliy qo‘mita raisi:

B.Abdullayev, *UrDU rektori, fizika-matematika fanlari doktori.*

Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosarlari:

Z.Ibragimov, *UrDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.*

G‘.U. Urazboyev, *UrDU xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori*

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

UrDU:

D.G‘ayipov (*O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani, f.f.d, prof.*),

S.Matkarimova (*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.n, dots.*),

A.Primov (*O‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.n, dots.*),

S.Ruzmetov (*Rus tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, PhD, dots.*),

S.Sariyev (*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori v.b, f.f.d.*),

B.Rahimova (*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, f.f.n.*)

M.Pirnazarova (*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, f.f.n.*),

S.Atajanov (*Ilmiy ishlar va xalqaro hamkorlik bo‘yicha dekan o‘rinbosari, PhD, dots.v.b.*),

D.Allaberganova (*O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi*)

F.Atajanova (*O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi*),

S.Matnazarova (*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi*),

D.Qo‘ziyeva (*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi*),

R.Ganjayeva (*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi*).

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti:

M.Asadov (*O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o‘rinbosari, f.f.d, professor*).

QarDU:

D.To‘rayev (*Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasini professori*).

NamDU:

O.Karimov (*f.f.n, dotsent*).

Bahrom ABDULLAYEV,

Urganch davlat universiteti rektori, f.-m.f.d.

MA'RIFATPARVAR SHOIR

XIX arning so'nggi choragi – XX asrning birinchi choragida yashab ijod etgan Xorazm adabiy muhitining taniqli namoyandalardan biri ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar o'g'li o'zining noyob iste'dodi va salohiyati bilan adabiyotimiz tarixida munosib o'rin egalladi. Shoirning adabiy merosi o'zining rang-barangligi, janrlar xilma-xilligi, ijtimoiy muammolarning xalq qalbiga yetib boradigan sodda va ravon uslubda bayon qilinishi, umuman, ijodiyotining xalqqa yaqinligi va manzurligi bilan alohida ko'zga tashlanib turadi.

Avaz O'tar dunyoqarashi keng, davr voqea-hodisalarining tub mohiyatini anglagan holda xolis baholovchi, ilg'or fikrli inson edi. Ijtimoiy-ma'naviy hayotda tarixiy burilishlar va sifat o'zgarishlari boshlanayotgan bir davrda yashab ijod etgan shoir ijodida, bir tomondan, an'anaviy mavzu va janrlar keng taraqqiy etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning mazmun-mohiyati yangi davr qarashlari bilan yanada boyidi, shakliy rang-baranglik kasb etib, poetik imkoniyatlari kengaydi.

Avaz O'tar ijodiga xos xarakterli xususiyatlardan biri ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib etish hisoblanadi. Uning she'rlari jaholat va nodonlikka qarshi ilm-ma'rifatga da'vat ruhida yozilgan. Jahondagi o'zgarish va taraqqiyotdan qisman bo'lsa-da xabardor bo'lgan ijodkor "Til", "Maktab" singari turkum she'rlarida barchani ilm-ma'rifatga oshnolikka, xorijiy tillarni o'rganishga da'vat qiladi. Xususan, "Til" she'rida xorijiy tillarni egallashni jahon bilan tillashuv, muloqot vositasi sifatida talqin qilgan shoir chet tillarni ona tilidek erkin bilishga undar ekan, ota-onalarni farzandlarini ilm-fan uyiga yuborishga da'vat etib, unda o'qiganlar jahonda ilg'or shaxslar bo'lib yetishishini bashorat qiladi hamda o'zining til bilmasligidan o'kinib, shundan bag'ri mudom qon ekanligini, yosh avlod ham shunday kuyga tushib qolmasligi lozimligini ta'kidlaydi.

Avaz O'tar qoloqlikdan, jaholatdan qutilishning birdan bir chorasi zamonaviy ta'lim, maktab-maorif ekanligini anglab yetadi va "Maktab" she'rida o'z millati jaholat botqog'iga botib tanazzulga yuz tutganligini e'tirof etar ekan, yurt kattalari, boylarini maktab ochishga bel bog'lashga da'vat etadi. Shoir maktab farzandlarning umrini obod etishini, inqiroz

shamoli yetgan har qanday millatni yuksalish va taraqqiyot yo‘liga, dunyo sahnida barqarorlikka, baxt va farovonlik manziliga yetkazishini komil ishonch bilan ta’kidlaydi.

Ma’rifatparvar shoir Avaz O‘tar o‘g‘li hayot yo‘lini o‘rganish, uning asarlarini tahlil va talqin qilish bugungi kun yoshlarini har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib kamolga yetishida muhim o‘rin tutadi. Shoir tavalludining 140 yilligiga bagishlangan konferensiyaning asosiy maqsadi ham shoir asarlarida tarannum etilgan vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik kabi qator ezgu g‘oyalarni tadqiq-u tashviq etish orqali yosh avlod qalbida ilmga ishtiyoq, ezgulik va ona yurtga, xalqiga fidoyilik bilan xizmat qilish tuyg‘ularini kuchaytirishga qaratilgan.

Konferensiyaga xorij va respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan ishtirokchilarga o‘zining samimiy minnatdorchiligimni bildiraman.

Konferensiya ishiga omad tilayman!



I. AVAZ O‘TAR HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH MASALALARI

JAVONMARDLIK VA AVAZ O‘TAR SHE‘RIYATI

**Maqsud ASADOV,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti direktor o‘rinbosari,
filologiya fanlari doktori, professor**

Mashhur mutasavviflardan biri Abul Hasan Xaraqoniy javonmardlikka quyidagicha ta‘rif bergan edi: “jvonmardlik uchta buloqqa ega bo‘lgan daryodir: saxovat, shafqat, Haqdan boshqaga ehtiyoj sezmaslik”. Hayotiy maslag-u matlabi ezgulikka, himmat-u marhamatga, samimiyat-u sidqqa uyg‘un bo‘lgan tiynati sof, fitrati pokiza, fikrati teran zotlar, shubhasiz, ana shunday nekbin tamoyillarga amal qilib umr kechirishgan. Jvonmardlikka xos go‘zal fazilatlar mazmun-mohiyatini ommaga kengroq anglatish, ularning targ‘ibi, tashviqi bilan mashg‘ullik yo‘lida asrlar mobaynida adabiyot muhim vosita o‘laroq beminnat xizmat qilib kelgan. Xususan, mumtoz she‘riyat yetuk axloq sohibini tarbiyalashda, Haqni nohaqdan, oqni qoradan, yaxshini yomondan farqlay biladigan, irodasi mustahkam, qat‘iyati yuksak, borlig‘ida erk-u hurriyat epkinlari taralgan mard, tanti va olijanob SHAXSni kamolot toptirishda alohida mavqe egallagan. Darhaqiqat, she‘riyat tafakkur yog‘dusi, ko‘ngil mayog‘i, ruhiyat mash‘alasi.

Asl tuyg‘ular, beg‘ubor va samimiy hislar inson ko‘ngliga, shubhasiz, so‘z shukuhi bilan inadi. Chinakam iqtidor sohibi uchun esa so‘z badiiy did, yuksak nafosatni ifoda etish vositasigina emas, balki bir qator: rostlik, adolat, muhabbat, sadoqat, ishonch, e‘tiqod va o‘zlik ramzi hamdir. Adabiy matn mohiyatining o‘ziga xos sehr-u jozibasi aynan so‘z orqali yuzaga chiqadi. Matnning ruhi ham, joni ham, borligi-yu borlig‘i ham so‘zga, uning ta‘sir quvvati va estetik zavqiga chambarchas bog‘liq. So‘z – qudrat, she‘r esa hikmatdir. Adabiyotning bosh vazifasi kitobxonda so‘z tafti orqali qalbni hidoyat quyoshi nurlari bilan charog‘on etish, millat, xalq va yurtga daxldorlik hissi ila yashash tuyg‘usini singdirishdan iborat. Zo‘ravonlikka qarshi isyon, haqsizlik, mutelig-u tobelikka qarshi g‘alayon ko‘tarmasa, vatan taqdiri, yurt ravnaqi, millat kelajagi, insoniyat baxt-u saodati uchun bezovtalik hissi ko‘nglini o‘rtamasa, har qanday iste‘dod mo‘rt va muvaqqat, mangulikka daxldorlikdan butkul yiroqdir.

Xorazm adabiy muhitining yetuk vakili, she‘ri isyonida, isyoni she‘rida nash‘u namo topgan, ma‘rifatparvar va xalqparvar shoir Avaz O‘tar o‘g‘li she‘riyati haqida so‘z borganda, eng avvalo, ana shunday kechinmalar qalbni chulg‘ab oladi. Shubhasiz, Avaz isyonkor shoir, Haq va haqiqat mehvariga toza vijdon, samimiyat, g‘urur va hamiyat bilan yuzlangan pokiza e‘tiqod sohibidir. Uning she‘rlarini o‘qir ekanmiz, tasavvurimizda fikriy mahdudlikdan xoli, irodasi Haqqa taslim bo‘lgan hol va ruh sohibining yorqin qiyofasi bor bo‘y-basti bilan gavdalanadi. Avaz ijodi xalqning asrlar mobaynida yashab kelayotgan o‘ziga xos ma‘naviy qadriyatlaridan, og‘zaki ijod

namunalaridan, islom dinining hayotbaxsh g'oyalari, aniqrog'i, Qur'oni karim, Hadisi sharifdan, ulug' salafdari, xususan, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy kabi so'z san'atining yirik darg'alari o'lmas asarlaridan oziqlanadi, ularning umrboqiy kuchiga tayanadi. Avaz O'tar she'riyatini ichdan nurlantirib turadigan tamoyillarga irfoniy adabiyotning javonmardlik, axiylilik, futuvvat singari maslag-u g'oyalari ham kiradiki, biz maqolada aynan javonmardlik haqida to'xtalamiz.

Ayonki, oqillik javonmardning yorqin fazilatidir. Aql-u fasohatda mushohadaga yon berib, mulohazakorlik bilan ish ko'ruvchi dono kishi tabiatan sokin, vazmin, ortiqcha qiziqqonlik va hovliqmalikdan anchayin yiroq bo'ladi. U haqiqatning ko'ziga hamisha tik boqa oladi, rostlik, haqsevarlik maqomida qoyim turadi, bu hayotning o'tkinchi hoyu-havaslariga sira aldanmaydi, hayotiy matlabiga yot qarashlarga keskin va murosasiz munosabat qiladi. Oqil odam – ikkiyuzlamachilik, riyokorlik, munofiqlik chegarasini sira kesib o'tmagan, sofdil, iymoni butun, e'tiqodi toza odam. Shu sababli, ma'rifatdan begona, ma'naviy qiyofasi kemtik, qalb ko'zi so'qir, tafakkur olami to'zigan nodon kimsalar bilan «hamdam-u damsoz» bo'lish – «oqil kishi» uchun do'zax azobiga teppa-tengdir. «Nodon ila hamdam-u damsoz o'lub o'lturg'ondin» ko'ra «zindonda sokin bo'l»moq «oqil kishi» uchun xotirjamlik va halovat baxsh etadi:

*Oqil kishiga yaxshidur zindonda sokin bo'lg'ali,
O'lturg'onidin hamdam-u damsoz o'lub nodon ila...[1, 32]*

Suhbat – asl erlarga xos ulug'vorlik nishonasi. Mumtoz adabiyotda er va eran deganda el-yurt dardi bilan yashaydigan, xalqni o'z ortidan yaxshiliklar yo'lida ergashtira oluvchi, qat'iyati mustahkam, shijoati o'tkir, hamiyati baland zotlar tushuniladi. Erning g'ayrati faqat jang maydonida emas, nafi bilan mujodalada, oqibat-u xayrida, saxovat-u himmatida ham namoyon bo'ladi. Avaz O'tarning yuqoridagi misralarida talmeh san'ati vositasida Qur'oni karimning "Yusuf" surasiga ishora borligini payqash u qadar qiyin emas: «Agar O'zing mendan ularning makrlarini nari qilmasang, ularga ko'ngil berib nodon kimsalardan bo'lib qolurman...» (Yusuf surasi, 33-oyat).

Yuqoridagi satrlar o'z she'rlarida javonmardlik ta'limoti g'oyalarini jo'shqin kayfiyat ila ifoda etgan Pahlavon Mahmudning quyidagi ruboiysini ham beixtiyor xotirga keltiradi:

*Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidin bermoq falakka bo'yoq.
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidin ko'ra yaxshiroq.*

Shoir «nodon suhbatiga» yo'liqishdan ko'ra o'ziga qanday azoblarni ravo ko'rmoqda: «Uch yuz Ko'hi Qof» tog'ini kelida tuyib, yanchishni (1), shafaq o'rnida yurak qoni bilan falakni bo'yashni (2), tor, qorong'u va zax zindonda bir asr – butun umr mashaqqatga duchor bo'lishni (3). Bular inson tasavvuriga sig'maydigan darajada og'ir va dahshatli qiynoqlardir. Garchi mubolag'ali bo'lsin, ammo yomonni yaxshi, egrini to'g'ri deb soxta kibr-u manmanlik bilan yolg'on da'vosidan qaytmaydigan «nodon»lar davrasidan ko'ra uqubat-u zahmatlar yuz chandon «yaxshiroq»dir. Bunday kimsalar haqida ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiyning bahosi yanada keskinroq:

«Nodon – eshak. Balki eshakdin ham kamrak. Eshakka har ne yuklasang ko‘tarur va qayon sursang, u yon borur, aql va tamiz da‘viysi yo‘q...» [2, 508]. Zamonaviy shoirlarimizdan biri go‘yo salaflaridan ta‘sirlanganday:

*Nodon, johil bilan olishmoq abas,
Zero unda bo‘lmas sira andisha.
Shishani toshga ur yo shishaga tosh
Alqissa, baribir sinadi shisha.*

– deb yozganida naqadar haqli edi.

Javonmardlikning nazariy jihatlarini tushuntirib bergan Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniyy” asarida quyidagi fikrlarni o‘qiymiz: “Javonmardlik ikki sifat ustiga qurilgan: biri do‘stlarga foyda keltirish bo‘lib, undan saxiylik hosil bo‘ladi. Ikkinchisi dushmanlarga zarar keltirish bo‘lib, bu shijoat sababidir... Futuvvatning “fe” harfi fanoga dalildir, toki bu yo‘lga kirgan solik o‘z sifatlaridan foniy (ozod, mahv) bo‘lsin, zero razil sifatlar bilan u boqiy bo‘la olmaydi. Birinchi “te”si tajridga dalildir. Futuvvatning “vov”i vafoga dalildir. Ya‘ni zohir va botin odoblarini asrashga dalildir. Oxirgi “te”si Oллоhdan o‘zga barcha narsani tark etishga dalildir” [3, 9].

Saxiylik, oliyhimmatlik, qo‘li ochiqlik, halimlik, katta-yu kichikka birday yaxshi muomalada bo‘lish kabi yuksak insoniy fazilatlar javonmardlikda alohida qadrlanadigan go‘zal amallardir. Avaz O‘tar she‘riyatida ham odamlilik sifati, eng avvalo, ehson-u saxovat bilan ulug‘lanadi. Jumladan, bir she‘rida shoir yozadi:

*Ey, xush ul odamki, bordur jud-u ehson qilg‘uchi,
Desa bo‘lg‘usi oni dorayn aro masruri ganj. [1, 68]*

Mumtoz adabiyotda jud – bu jo‘mardlik, saxiylik, mutlaq xayr-ehson sohibi bo‘lmoq demak. Qushayriyning yozishicha, so‘fiylarning nuqtayi nazarida jo‘mardlikning dastlabki bosqichi – saxovat; ikkinchisi – jud; uchinchisi esa isordir [4, 72]. Deylik, mol-davlatidan bir qismini o‘zida saqlagan kishi – saxiy, ko‘p miqdorini xayr-u ehson qilib, oz qismini olib qolgan odam – jud sohibi, o‘z ehtiyoji yoki kun kechirishi uchun zarur bo‘lganinigina qoldirib, boshqasini ezgu ishlarga sarf qilgan kishi – isor egasi sanalgan. Ahli tasavvuf uchun jud va saxo o‘rtasida u qadar farq bo‘lmaydi. Shu sababli, yuqoridagi misrada, “jud-u ehson” o‘zaro ma‘nodosh sifatida qo‘llanib, e‘not san‘atini ham hosil qilgan.

Shayx Hasan Basriyga ko‘ra, Xudoyi taolo “Nahl” surasining 90-oyatida javonmardlarga xos bo‘lgan barcha go‘zal fazilatlarini jamlagan: “Albatta, Alloh adolatga, ezgu ishlarga va qarindoshga yaxshilik qilishga buyurar hamda buzuqchilik, yovuz ishlar va zulmdan qaytarur. (U) eslatma olursizlar, deb sizlarga nasihat qilur”. Darhaqiqat, hamisha ezgulikka, yaxshilikka, nekbinlikka da‘vat qilish ruhi Avaz O‘tar she‘rlarida alohida mavqe tutadi. Ayniqsa, olihimmat kishilar tavsif-u ta‘rifida shoirning ko‘tarinki, ulug‘vor qiyofasi yanada yorqinroq gavdalanadi:

*Kim olihimmat o‘lsa ahli olam ichra, ey ahbob,
Ango lozim gar etsam sadqa mol-u naqdi jon himmat.*

“Mahbub ul-qulub” asarida saxovat-u himmat haqida, jumladan, quyidagicha yozilgan: “Saxovat odamig‘a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamda yuz ming futuh. Himmatsiz kishi er sonida emas, ruhsiz badanni kishi tirik

demas...”[2, 507]. Himmat insonni ulug‘laydi, boshqalar oldida mavqe-martabasini yanada yuksaltiradi, himmat sohibining nomi har qanday zamonda hurmat-e‘tibor bilan eslanadi, vaqtlar o‘tsa hamki, olihimmat zotning ezgu ishlari yodlanaveradi – umrboqiylikka loyiq ko‘rilaveradi. Birgina misol: Hotami Toyi nomining Sharq olamida ma‘lum-u mashhur bo‘lishi ham aynan himmati tufaylidir:

*Kishiga umri jovid ermasa himmat nedin qolmish,
Hanuz ovozai Hotamdin olamda nishon himmat. [1, 185]*

Xullas, javonmardlik g‘oyalarining badiiy adabiyotdagi ifodasi nafaqat mumtoz adabiy matn mohiyatiga teranroq diqqat qaratishga, balki ijodkor dunyoqarashining o‘ziga xos jihatlarini mushohada qilishga ham yordam beradi. Qolaversa, fikriy yaqinlik, ifodadagi mushtaraklik, maslak va maqsad uyg‘unligi Avaz O‘tar ijodiga Pahlavon Mahmud she‘riyatining ta‘siri masalalarini ham kengroq tadqiq qilish imkoni borligiga ishora qiladi. Aslida, bu yaqinlikka javonmardlikning ta‘siri mavjudligini e‘tibordan soqit qilmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avaz. Saylanma. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1984. – 366 b.
2. Alisher Navoiy. TAT. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. –766 b.
3. Koshifiy, Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati. Fors-tojik tilidan N.Komilov tarj. – Toshkent: Xalq merosi, 1994. – 170 b.
4. Uludağ Süleyman. Tasavvuf terimlari sözlüğü. Istanbul, 1995 – 604 s.



AVAZ O‘TAR SHOHBAITLARI

Ergash OCHILOV,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi.
E-mail: e-ochilov@mail.ru. Tel: +998946204764
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada Avaz O‘tarning badiiy barkamol baytlari – shohbaytlari tahlili misolida shoir san‘atkorlik mahoratining ayrim qirralari yoritiladi.

Аннотация: В статье освещаются некоторые аспекты художественного мастерства поэта на примере анализа художественно совершенных стихов Аваза Утара – шахбейтов.

Annotation: In the article, some aspects of the poet’s artistic skills are highlighted on the example of the analysis of Avaz Otar’s artistically perfect verses - shahbayts.

Kalit so‘zlar: shohbayt, bayt, mahorat, tashbeh, talmeh, tazod, so‘z, ibora.

Ключевые слова: шахбейт, бейт (двустушие), мастерство, сравнение, талмех (поэтическая фигура), антитеза, слово, фраза.

Key words: shahbayt, bayt (a two-line poem), mastery, comparison, talmeh (poetic figure), antithesis, word, phrase.

Biror shoir haqida so‘z ketganda, avvalo, kishining ko‘z oldiga uning mashhur she‘rlari keladi. O‘quvchi biror she‘rini yoki misrasini takrorlab yurmagan shoir shoirmi?

Avaz O‘tar ham qisqa, ammo sermazmun hayoti davomida xalqning dard-u g‘amlarini bayroq qilib ko‘targan isyonkor she‘rlari bilan el ko‘nglidan joy oldi va uning otashin misralari o‘quvchilar tilidan tushmay keladi. Shoirning o‘zi she‘r-u baytlar ichidagi har satri shohbayt kabi shuhrat tutganligi haqida faxr-u iftixor bilan:

*Shohbayt yanglig‘, ey Avaz, nazmingni har bir misra‘i,
Ovoza topmishdur base abyot bila ash‘or aro [1,145], –*

deb yozgan edi.

Ma‘lumki, Sharqda badiiy so‘zning nufuzi nihoyatda baland bo‘lgan – favqulodda tashbehtar, kutilmagan iboralar, nafis lutflar, nozik qochirimlar juda qadrlangan, badiiy kashfiyot darajasidagi she‘r va baytlar tildan tilga, kitobdan kitobga ko‘chib yurgan. Shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy jihatdan mukammal, qasida yoki g‘azalning asosiy mohiyati, yetakchi g‘oyasini o‘zida mujassam etgan baytlar mumtoz adabiyotda “shohbayt” deb yuritilgan. “Shohbayt qasida yoki g‘azalda o‘zining salmoqli ma‘nosi, jozibali yorqin uslubi bilan boshqa barcha baytlardan ajralib turadi. Ana shunday bayt matla sifatida kelsa, san‘at sifatida husni matla va maqta shaklida kelganda esa husni maqta deb yuritiladi” [2,262]. G‘azal binosining poydevori matla bo‘lgani uchun shoirlar matlaga katta mas‘uliyat bilan yondashib, uning go‘zal va barkamol chiqishiga intilganlar. Aytish mumkinki, matladan qanoat hosil qilmay turib g‘azalning o‘ziga kirishmaganlar. Shuning uchun ham asosan matlalar shohbayt darajasiga ko‘tarilgan. Tazkiralarda shoirlarning mahorati mezoni sifatida ko‘pincha matlalarining keltirilishi bejiz emas. Lekin shohbayt faqat matlada emas, badiiy barkamol g‘azallarining xohlagan joyida kelishi mumkin. Kuzatishlar ularning ko‘proq maqtadan oldingi baytda kelishini ko‘rsatadi.

Avaz merosini ikki qismga ajratish mumkin: Sharq mumtoz she‘riyatining buyuk namoyandalariga ergashib yozgan an‘anaviy mavzudagi she‘rlari va davr talabi, zamon ehtiyojiga javoban bitgan ijtimoiy yo‘nalishdagi, tanqidiy ruhdagi, fosh etish xarakteridagi she‘rlari. Zamonaviy mavzudagi she‘rlari davr ruhini aks ettirgani, odamlarning tilining uchida turgan so‘zlarni aytgani jihatidan o‘z-o‘zidan yangilikdir. Ayni paytda, an‘anaviy mavzudagi she‘rlari ham ohorli timsol-u tashbehtar, teran va serqirra fikr-u mushohadalarga boyligi bilan badiiy barkamollik kasb etadi. Shohbayt darajasidagi ko‘plab baytlari Avazning salohiyati yuksak shoir bo‘lganligidan dalolat beradi. Chunonchi:

*Ajal ming yil xaloyiq qasdi jonin etsa ham bo‘lmas
Ayon ko‘z ostida bo‘lg‘on bir imoi nihoningcha [1,44].*

Bu yerda mahbubaning ko‘zining osti bilan qilgan bir imosi ajalning ming yil mobaynida xaloyiq joniga qasd qilganidan ustun qo‘yilmoqda. Quyidagi baytida esa azaliy va abadiy hayot haqiqatini obrazli yo‘sinda mana bunday ifodalaydi:

*Ko‘r charx ishini, ey ko‘ngul, yeb g‘atm qoqin, vah, humo,
Yer borho shahd-u shakar, qand ila pechakni magas [1,176].*

“Qushlar shohi humoga qattiq so‘ngakni-yu iflos pashshaga shahd-u shakarni rizq qilib bergan bu notanti dunyoning adolatsizligini ko‘r!” Humo va pashsha, qoq suyak va shahd-u shakarining o‘zaro bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi tazod san‘atini hosil qilib, baytning ta’sir kuchini oshirgan. Bu san’atdan o‘zaro zid so‘zlar, tushunchalar, iboralarni bir-biriga qarshi qo‘yish orqali fikrni ta’sirchan ifodalash, go‘zal badiiy timsollar, lavhalar yaratishda foydalaniladi. Bunday olib qaraganda, bu san’atni qo‘llashdan osoni yo‘q, chunki hayotda hamma narsa o‘z ziddiga ega. Masalan: oq-u qora, do‘st-u dushman, halol-u harom, past-u baland va hokazo. Lekin buyuk so‘z san’atkorlari hech kimning xayoliga kelmagan favqulodda va ohorli tazodlar topib, fikrlarini badiiy barkamol va ta’sirchan shaklda ifodalaydilar. Boshqa baytida esa talmeh san’ati vositasida o‘z fikri ohorli va go‘zal bir shaklda ifodalaydi:

Malul o‘lma, Avaz, zindoni furqat ichra qoldim deb –

Ki, shah bo‘lmoqg‘a Yusuf Misr aro zindon erur bois [1,177].

“Ey Avaz, hajr zindoni ichra qoldim deb xafa bo‘lmaki, Yusufning Misr sultoni bo‘lishiga uning zindonda yotishi sabab bo‘ldi”.

Talmeh mumtoz she’riyatda eng ko‘p uchraydigan badiiy san’atlardan biri. Bunda mashhur bir qissa, voqea yoki asarga ishora qilish orqali aytilajak fikr, ifodalanajak holat, bayon etilajak maqsadni cho‘zmay, so‘zni muxtasar qilinadi. Shunga ko‘ra talmeh she’rda oz so‘z bilan ko‘p ma’noni ifodalash san’ati deyiladi. Talmeh shoirdangina emas, o‘quvchidan ham muayyan darajada bilimdonlikni, ko‘p narsadan xabardorlikni taqozo etadi. Aytaylik, Yusuf voqeasidan bexabar o‘quvchi keltirilgan bayt ma’nosini chaqolmaydi va uning ayni misralardan oladigan estetik zavqi to‘kis bo‘lmaydi.

Ma’lumki, Yusuf alayhissalom tuhmat tufayli zindonga tashlanganida Misr sultonining bir tushini ta’birlagani uchun avval uning vaziriga aylanadi, u vafot etgach esa, farzandi bo‘lmagani uchun taxtiga ega chiqadi. Bu tarixiy voqeadan Avaz o‘z badiiy maqsadi yo‘lida foydalanib, ayriliq zindonda qolganingda ham umidingni yo‘qotmaki, Yusuf zindon tutqunidan Misr sultoni maqomiga yuksaldi deb, firoq iskanjasidagi tushkun ko‘ngillarda umid o‘tini yoqadi. Yaqinidan judo bo‘lgan kishi g‘am-qayg‘uga botadi. Bunday kishining hayoti go‘yo kunduzsiz kechadan iborat. Qoralikni tamsil etib kelishi jihatidan ayriliq zulmat zindonga o‘xshaydi – shuning uchun ham shoir “furqat zindoni” iborasini qo‘llaydi. Baytda, shuningdek, tutqun va shoh zidligi tazod san’ati bo‘lib kelyapti. Avaz o‘z fikrlarini ifodalash uchun timsol-u tashbehlarni hamisha hayotdan oladi va aytmoqchi bo‘lgan so‘zlarini obrazli yo‘sinda ifodalab, o‘ziga xos badiiyat durdonalarini yaratadi. Jumladan, bir baytida o‘zining boshiga tushgan ayanchli savdolari bir soatda 7 ta, haftasiga esa 250 tagacha g‘azal yozish qobiliyatiga ega favqulodda iste’dodi, beqiyos mahoratini sabab qilib ko‘rsatadi va bu holni to‘tining qafasga tushishiga uning chiroyli sayrashi bahona bo‘lishi bilan dalillaydi:

Suxansanj o‘lmakim, ey dil, qafasband o‘lmoqig‘a, vah,

Hamisha to‘tilarg‘a shakkarin ilhon erur bois [1,177].

O‘z fikrini asoslash uchun bunday chiroyli dalil keltirish aslida hind uslubiga xos bo‘lib, bunda birinchi misrada shoir bir fikrni ilgari suradi, ikkinchi misrada uni

tasdiqlovchi hikmatli yoki obrazli fikrni keltiradi. Bu uslubda bitilgan she'rlarning badiiy teran va yuksakligi ham, ularni tushunishning og'ir va murakkabligi ham shunda. Ayni jihatdan ular ko'pincha bir-biriga bog'lanmaganday ham tuyuladi, alohida-alohida mustaqil misralarday taassurot qoldiradi. Ular aslida shaklan emas, mazmunan, zohiran emas, botinan bog'langan. Bu baytda tashbeh san'ati yetakchi: mohir shoir xushovoz to'tiga, uning mahorati qushning go'zal ovozigacha o'xshatilyapti. Avaz baytlarida bir necha badiiy san'atlar mahorat bilan qo'llansa-da, ulardan biri hamisha yetakchi bo'ladi. Avaz teran va serqirra fikrlarini ham xalqona sodda til va uslubda ifodalashi bilan mashhur. Inson yashar ekan, bir tomondan, dunyo mehri, jozibasini, ne'matlari, maishatlari uni o'ziga tortsa, ikkinchi tomondan, oxirat g'ami o'z holiga qo'ymaydi. Ayni jihatdan banda arosatda qolganday ko'rinadi. Ana shu azaliy va abadiy hayotiy haqiqatni shoir oddiygina qilib quyidagicha ifodalaydi:

*Bo'lsa boshimda, ey Avaz, man zori mahzun naylayin,
Oshubi dunyo bir taraf, anduhi uqbo bir taraf [1,198].*

Bu yerda dunyo va uqbo bir-biriga qarama-qarshi qo'yilib, fikrning ta'sir quvvati kuchaytirilyapti. "Bir taraf" so'z birikmasining takrorlanib kelishi esa takror san'atini yuzaga chiqargan. O'tli nolasi bilan tinglovchi yuragini chertayotgan tanburni u ham bir oy yuzli go'zalning oshig'i bo'lsa kerakki, jon tomiridan tor eshib, dilo'rtar navo qilyapti deb lutf etadi:

*Navo aylar – bir oyning oshiqimu,
Tutub jon ragidin setor tanbur?[1,167].*

Ma'shuqaning noz-u ishva bilan oshiq ahlining aql-u sabrini olishini uning noz-u ado arg'umog'iga minib, olam elining aql-u hush-u sabr-u toqati kulini ko'kka sovurish uchun otlangani orqali tasvirlab, betakror badiiy manzara yaratadi:

*Olg'ali olam elini sabr-u hush-u toqatin,
Ashhabi noz-u ado uzra savorim sizmusiz?[1,78].*

Avaz ko'pincha betakror tashbehlarini nozik lutflar vositasida taqdim etadi. Chunonchi, quyidagi baytida "Sening qo'lingga har qanday qog'ozni ham tutish munosib emasligini andisha qilib, dilim arzini jon pardasiga yozib yo'llasam, buning sira hayron qoladigan joyi yo'q", – deya ohorli tashbeh kashf etadi:

*Yozib jon pardasig'a arzi dilni aylasam irsol,
Tong ermaskim, munosibmu oning ilkiga har kog'az [1,71].*

Bu – Avazning badiiy kashfiyoti. Boshqa biror mumtoz shoir ijodida bunday tashbehni uchratmaymiz. Shoirning shoirligi ana shunday kutilmagan va favqulodda tashbehlarda yarq etib ko'zga tashlanadi. Avaz qo'llagan ko'pgina tashbehlar oddiylik barobarida ohorli ham bo'ladi. Aytaylik, mana bu baytda mahbubaning fe'l-u atvori ham xuddi husni kabi go'zal deya, hech kimning xayoliga kelmagan yangi tashbeh topadi:

*Husni betimsoli yanglig', ey ko'ngul, olam aro,
Ul parivashg'a erur af'ol ila atvor zeb [1,50].*

Badiiy kashfiyot mahsuli bo'lgan bunday durdona baytlar Avaz O'tarning betakror iste'dod sohibi bo'lgan mohir shoir ekanligidan dalolat beradi. Ma'lumki, sho'ro

davrida hukmron mafkura taqozosi bilan Avazning davr talabi, zamon ehtiyojiga javoban bitgan ijtimoiy yo'nalishdagi, tanqidiy ruhdagi, fosh etish xarakteridagi she'rlariga asosiy urg'u berilib, merosining asosiy qismini tashkil etgan ishqiy she'riyati tadqiqotlar doirasidan chetda qolib kelgan edi. Mustaqillik yaratgan imkoniyatlar tufayli endi ana shu muazzam merosni har tomonlama keng va chuqur o'rganib, Avazning an'ana doirasidagi o'ziga xosligi, shoirlilik mahorati va asarlari badiiyati sirlarini ochib berish o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avaz. Saylanma (Nashrga tayyorlovchilar: Y.Yusupov, V.Rahmonov). – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
2. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2014.



АВАЗ УТАР – СТРАДАНИЯ, НАДЕЖДЫ, ЛЮБОВЬ

**Айджана АВАЗОВА,
к.ф.н. доцент УрГУ.**

***Аннотация:** В данной статье рассматривается жизнь и творчество великого узбекского поэта, энциклопедиста, знатока медицины, Аваза Утара. Внимание уделяется становлению Аваза Утара, как поэта, а также анализируются основные мотивы его творчества. В работе особо отмечаются труды известных ученых, которые посвящали свои произведения и мемуары одному из величайших поэтов нашего края.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk o'zbek shoiri, qomusiy olim, tibbiyot mutaxassisi Avaz Utarning hayoti va ijodi ko'rib chiqiladi. Avaz Utarning shoir sifatida shakllanishiga e'tibor qaratilib, ijodining asosiy motivlari tahlil qilinadi. Maqolada viloyatimizdagi ulug' shoirlardan biriga o'z asarlari va xotiralarini bag'ishlagan taniqli olimlarning ijodi alohida qayd etilgan.*

***Annotation:** This article examines the life and work of the great Uzbek poet, encyclopedist, medical expert, Avaz Utar. Attention is paid to the formation of Avaz Utar as a poet, and the main motives of his work are analyzed. The work especially notes the works of famous scientists who dedicated their works and memoirs to one of the greatest poets of our region.*

***Ключевые слова:** стихи, лирика, мемуары, поэзия, скорбные мотивы, дух времени, литература.*

***Kalit so'zlar:** she'rlar, lirika, xotiralar, she'r, g'am motivlari, zamon ruhi, adabiyot.*

***Key words:** poems, lyrics, memoirs, poetry, mournful motives, spirit of the times, literature.*

«Он был всегда открыт и откровенен с народом. На его стихи создавали

музыку и пели. Записей о нём много, а публикуемое сегодня можно значительно дополнить, ведь почитание и открытие Аваза Утара будет продолжаться...»

(М.Кошчанов)

От города Ургенча до Хивы рукой подать. Новые постройки с большими окнами потеснили в Хиве глиняные дома с плоскими крышами. Летом – зной, но остались каналы (арыки, питаемые великой рекой Джайхун (Амударья), несущие прохладу жителям города – музея под открытым небом. Хорошо помню дом, где жила бабушка – Розия. Дом был из глины, в узком переулке. В те далёкие времена казался большим, огромные резные ворота с причудливым орнаментом – два кольца для стука, внутри маленькое покрытое навесом помещение, слева стойло для лошадей. Внутри маленький садик с единственным огромным тутовником, но выдавший и сохранивший в себе тайны обитателей дома. Небольшая супа и сразу сохранившаяся с тех дальних времён три резные двери из дерева, куда нам не разрешали входить, там за второй дверью живёт дух Аваза, – говорила бабушка Розия. В этой комнате родился – поэт. Аваз родился поэтом. Стены данной комнаты составили суть его сути, душу его души. Они видели, как уже в 14 лет он был «Жаден до стихов», испытал ни с чем несравнимое наслаждение, повторяя стихи Навои, Фирдоуси, Джами и Агахи.

Во всяком случае, там шла кипучая, напряжённая, шумная, весёлая, а порою тайная, скрытая от посторонних – жизнь. Старшие, кто знал и общался с Авазом, говорили: «он, как и всякий подросток ловил рыбу, смотрел на звёзды, плавающие облака, которые откладывали свойственные его сознанию мысли».

Прошло много лет, но зажигаются те же звёзды, которые были свидетелями раздумий и поэтических открытий Аваза.

«Хива – есть основание Хорезма: не забудьте, что пока крепок корень, то и крепко дерево; не будет корня, на чём оно будет держаться?» Когда это было сказано? Тысяча, две тысячи лет тому назад?

За забором этого дома, когда-то был размещён первый маслозавод. В воздухе всегда пахло жмыхом. В 1884 году 25 августа в семье табиба (лекаря) Палванияза сына Гадаинияза (Утар-бобо) и Равияжон родился сын и родители дали ему имя Аваз (голос). Имеющиеся сведения о детстве и отрочестве Аваза я могу лишь дополнить некоторыми сведениями услышанные мною от моего отца Авазова Карима Утаровича и моей бабушки Розии – спутницы недолгой жизни поэта.

Отец Аваза – Палванияз сын Гадаинияза достаточно просвещённый для своего времени человек. Жил более века, видевший правление трёх ханов (Мухаммед Рахимхан – Феруз 1863-1910), (Исфандиярхан 1910-1918), (Саид Абдуллахан 1918 -1920). Был парикмахером, лекарем. Занимался медициной, интересовался литературой и искусством был знаком с учёными, музыкантами, поэтами и писателями. В его доме собирались медики, поэты, писатели Комиль Хоразми, Ахмаджан Табиби, Мутриб, Чокар, Ходим, Мирзо, Комиль Девоний,

Лаффасий и другие.

В восемь лет Аваз был отдан в мектеб (начальную школу), в одиннадцать лет поступил в медресе. Всё свободное время посвящал книгам Навои, Бедия, Хафиза, Машраба. Прочитанное развивало его воображение и речь, рождало определённые для его возраста порывы. Его влекла и таджикская литература Фердоуси, Джами, Низами, Ганджавий, которая была для него познанием мира. Любимыми книгами Аваза были произведения Навои «Хамса», «Чор диван» по которым Аваз учился слагать стихи, черпать мысли мудрости. К четырнадцати годам стал писать стихи, размышлял о жизни, мысли связывал с тем, что видел вокруг. В душе его рождалось острое чувство справедливости. За всю свою короткую жизнь страстно ненавидел любое проявление неправды и жестокости.

Период нравственного становления Аваза просматривается сквозь толщу лет весьма смутно, но именно, в юношеские годы он познакомился во всеми действующими лицами исторической драмы, название которой – жизнь. К восемнадцати годам стихи Аваза знал народ. Об этом стало известно во дворце Хивинского хана Мухаммеда Рахимхана Феруза. Феруз-хан будучи любимым литературы и искусства приблизил молодого поэта ко двору в число придворных поэтов. Наставником Аваза стал Ахмаджан Табибий оценивший оригинальность, одарённость, талант молодого юноши. Порывы Аваза были настолько сильны, что он старался познать и научиться всему, чем владел его учитель.

В нём сочетались мечтательность и трезвость мышления, однако увлечённость поэзией не вытеснила до конца реальный подход ко всему, происходящему вокруг. В ранний период своего творчества Аваз воспринимал несовершенство жизни по-своему. Не от мира уходить, а идти в мир, проповедовать учение, просвещение, разоблачать, если придётся пострадать за это. Об этом говорят строки из его лирики: «знайте, я выражаю печаль и горе этого времени, являюсь песчинкой страдающего моего народа».

Ахмаджан Табиби будучи главным среди придворных поэтов, обязанностью которого было знакомить о творческой деятельности поэтов, особо отметил поэтический дар Аваза в своих мемуарах «Мажмуаи си шуара пайрави Ферузошохий». У современника Аваза Хасанмурада-кори Лаффасий есть строки об Авазе в его книге «Тазкираи шуаро», где автор отметил оригинальность и своеобразие молодого поэта. Придворные поэты Бабаджан Таррох Азизов - Хадым в книге «Хоразм навозандалари» также пишут об одарённости Аваза. В частности Бабаджан Таррох пишет: «Аваз владел разными науками, он был отличным парикмахером, замечательным поэтом, знатоком медицины».

Однако, между школьными годами и временем стремления к литературному творчеству, прошло не просто три-четыре года, но и ряд происходящих перемен в жизни и обществе. Именно они сыграли решающую роль в становлении Аваза Утара, как поэта. Он держал невиданный по своей жестокости и суровости экзамен - человек, поэт, просветитель. По словам бабушки Розии, Аваз больше находился среди простых людей, чем во дворце хана. Поэтому, во всех его

поэтических произведениях предметом пристального и глубокого художественного исследования является народ. Будучи сторонником новых человеческих отношений, творя в духе Алишера Навои, продолжая и развивая идеи Муниса, Агахи, Камила Хоразми, Табиби- Аваз Утар сказал, своё, кровное. Об этом часто рассказывал Палванияз сын Гадайнязя единственному внуку - Авазову Кариму Утаровичу.

Отвергнув все иные пути, преодолев сомнения и колебания у Аваза появилась неодолимая потребность отразить думы и чаяния родного народа. Современники в стихах молодого поэта усмотрели эту коллизию, которая не перестанет занимать его короткую жизнь. Именно столкновение всего, присущего подлинно человеческому - любви, добра, нежности, совести, долга со всем противостоящим человечности - ненависти, злу, своекорыстию, невежеству, жестокости, грабежу, насилию. Так чувство выражать глубокое сочувствие народу - займёт центральное место в душе Аваза.

В моей памяти остался рассказ моей бабушки Адолат (по матери) «Аваз был высок, сухощав, с большими чёрными глазами и маленькими усиками. Он всегда носил френч цвета хаки, любил гарцевать на коне. Когда возвращался домой, девушки из соседних домов, находившиеся в тот момент на крыше, раскладывающие фрукты на крыше для сушки бросали краткий взгляд на его статную осанку». Бабушка Розия часто открывала огромный, железный музыкальный сундук, с удивительным орнаментом, чтобы достать нам сладости, немного призадумавшись брала в руки его френч и мы с замиранием слушали её рассказы. Я слушала внимательно, всё ею сказанное запечатлелось в моей памяти на всю жизнь. Ещё она часто любила повторять, что Аваз выходя из дома обязательно опоясывал стан светлым матерчатым поясом, который вскоре оказался исписанный стихами, его страсть к поэзии была сильнее огня. Учение, просвещение противопоставлял всяческому злу, тьме и насилию.

Помимо оригинального художественного таланта Аваз вообще был незаурядной, богато одарённой натурой, обладал исключительно яркими интеллектуальными качествами. По словам современников, близко знавших его «он был замечательным рассказчиком, обладал острословием». Похвалы Ахмаджана Табиби - несомненно- радость творчества и литературный успех во многом целили его «большой дух, но укротить владеющую им «бунтующую» идею – страсть никто не смог.

За забором, где родился и жил Аваз, находился маслозавод, там работали русские ссыльные, с которыми Аваз часто встречался, общался, они знакомили его с газетами, журналами, произведениями Пушкина. Об этом рассказывала бабушка Розия.

Так «дух времени» утверждался в поэзии Аваза всё твёрже и определённое. Общественно-политическая атмосфера в Хиве накалялась, складывалась иная ситуация. Раздумывая о будущем родного народа, поэт выражает мысли о просвещении, о языке, об учёбе, о создании школ нового типа чтоб народ благоустроить создавайте школы, чтоб жилось привольно детям открывайте

школы, свет ученья развеет горе и заботу, вы детей своих с надеждой отправляйте в школы». В детях видел утешение сердца, будущего зёрна, «язык душою мира называя», призывал изучать «язык друзей, язык соседа». «По-русски я не говорю, скорбит душа моя немая» - писал Аваз.

Несмотря на ряд скорбных мотивов Аваз был оптимистом. Его такие, как «пусть будет для народа жизнь моя жертвой, я душу посвящаю ему, если время отправит меня в путь тлена, пусть ко мне придут потомки времён». Прожив короткую жизнь, отведав опала, зиндан и порку, он всё же оставил в литературе своё слово.



OGAHİY ADABIY AN'ANALARINING AVAZ O'TAR SHE'RIYATIGA TA'SIRI XUSUSIDA

Dilshod G'AYIPOV,
filologiya fanlari doktori, professor,
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiy adabiy an'alarining Avaz O'tar tomonidan davom ettirilishi xususida fikr-mulohazalar yuritiladi. Shu bilan bir qatorda, Avaz O'tar badiiy mahoratining ba'zi qirralari tahlilga tortiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается продолжение литературных традиций Агахи Авазом Утаром. Кроме того, будут проанализированы некоторые аспекты творческого мастерства Аваза Утара.

Annotation: This article highlights the artistic interpretation of the ideas of enlightenment and jadidism in the poetry of Avaz Otar. The artistic skill of the poet in the expression of these ideas is revealed.

Kalit so'zlar: Ogahiy, Avaz, an'ana, o'ziga xoslik, badiiyat, ma'rifatparvar, xalqparvar.

Ключевые слова: Агахи, Аваз, традиция, художественность, просветительство, народ.

Key words: Avaz Otar, poet, poetry, enlightenment, jadidism, skill, poetics.

O'zbek adabiyotining yetakchi namoyandalaridan biri Avaz O'tardir (1884-1919). Bu nodir iste'dod egasi 35 yillik umri davomida o'zidan boy adabiy meros qoldirgan. Avaz O'tarning iste'dodi kamol topishida Sharq she'riyatining ulug' namoyandalari ijodi asos vazifasini o'tagan. Ayniqsa, Avaz O'tar she'riyatiga Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Tabibiy ijodi ta'siri sezilib turadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shoir Avaz an'ana ta'sirida qolib ketmadi, u an'anaviylikdan o'ziga xoslik tomon bora oldi. Mahoratli shoir bo'lib yetishdi. Nafaqat sermahsullikda, balki badiiy mahorat borasida ham yorqin iste'dod egasi ekanligini isbotlay oldi.

Avaz O'tar ijodiga Sharq adabiyotining ulug' shoirlari qatorida Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning ham she'riyati katta ta'sir ko'rsatgan. Buni Avazning

o‘zi ham e’tirof etgan edi:

*Ogahiydek, ey Avaz, nazmingda ta’sir o‘lmasa,
Soda ash’oring bila devoni daftardin ne haz* [1, 4].

Darhaqiqat, Avaz she’riyatining takomil topishida Ogahiyning ham o‘rni bor. Adabiyotshunos M.Yo‘ldasheva yozadi: “Avazning ko‘pgina g‘azallari Ogahiy g‘azallariga hamohang. “Ustina”, “Arzimas”, “Aylansun” radifli g‘azallari shular jumlasidandir. Avaz o‘z g‘azallarida Ogahiyga izdoshlik qiladi, uning fikrlarini davom ettiradi va rivojlantiradi” [2, 45]. Haqiqatdan ham, bu fikrlar to‘g‘ri va qo‘llab-quvvatlashga loyiq. Adabiyotshunos M.Yo‘ldasheva o‘z fikrlarining isboti sifatida Ogahiyning “aylansun” radifli g‘azali bilan Avazning ham xuddi shunday radifli g‘azalini qiyoslaydi. Tahlil natijasida Avazning she’ri tatabbu’-g‘azal ekanligini isbotlaydi. Darhaqiqat, Avaz devonlarida Ogahiy ijodi ta’sirida yozilgan she’rlarni ko‘plab topish mumkin. Bu holat nafaqat uslubda, ifodada, tasvirda, balki g‘oyaviy yo‘nalishda ham ko‘rinadi. To‘g‘ri, Avaz Ogahiyning ko‘rmagan, u bilan hamsuhbat bo‘lmagan. Biroq Ogahiy Avazning ulug‘ ustozini, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ularning fikr-qarashlarida, tasvir mahoratida ham yaqinlik bor.

Ogahiyda ham, Avazda ham “Ishq” radifli g‘azal mavjud. Bu g‘azallar tahlili har ikkala shoir dunyoqarashi nihoyatda yaqin bo‘lganligini dalillaydi. Ogahiy yozadi:

*Bu mahfil ichra kimga ichirsa sharobi ishq,
Aylar murodi nash’asidin komyob ishq.*

*Bo‘lg‘usi kom bodasidin sarxush ul kishi –
Kim, bag‘rin etti shavq o‘ti ichra kabob ishq.*

*Ikki jahon mamoliki ma’mur bo‘lg‘usi,
Qilg‘an kishiga kishvari jonin xarob ishq* [3; 183].

Avaz esa quyidagicha o‘xshatma qiladi:

*Kimga ichirsa bu ko‘han dayr ichra gar sahboyi ishq,
Aylab damodam mast etib olam aro rasvoyi ishq.*

*Ikki jahonning mulki ham ma’mur bo‘lgisidurur,
Buzg‘on kishiga kishvari jonini sarto poi ishq* [1; 349].

Bu olamni Ogahiy “mahfil” deb tasvirlasa, Avaz “ko‘han dayr” deya keltiradi. Ogahiy Alloh kimga ishq sharobini mahfilda, olamda ichirsa, u murodi sururidan, nash’asidan o‘zini maqsadiga yetgan hisoblashini, u orzu bodasidan sarxush bo‘lishini, bag‘rini shavq o‘ti ichida ishq kabob qilishini mohirona tasvirlaydi. Uchinchi baytda esa shoir kimniki jon kishvarini ishq xarob qilgan bo‘lsa, uning ikki jahon mamlakati obod bo‘ladi, deya go‘zal fikrlarni keltiradi. Avaz esa piri dayr kimga bu ko‘hna olam ichra gulgun rangli ishq mayini ichirsa, u mast etib, olam aro ishqda rasvo bo‘ladi, deya ta’riflaydi, Ogahiy g‘azalining uchinchi bayti bilan Avaz g‘azalining ikkinchi bayti nihoyatda o‘xshash. Avaz ham kimniki boshdan oyoq jon kishvarini ishq buzadigan bo‘lsa, uning ikki jahon mulki obod, ma’mur bo‘ladi, deya ustozini fikrlariga monand so‘z aytadi.

Ogahiyning “Ishq” radifli g‘azali 9 bayt, Avazniki 7 bayt. G‘azallar baytlarining ko‘pchiligida o‘xshashlik seziladi, biroq bir-biridan ma‘no-mazmun jihatdan, ifoda yo‘sini tarafidan farqlanadigan baytlar ham bor. Badiiy san‘atlardan foydalanish jihatdan ham ancha farqlar mavjud.

Har ikkala shoirning “Sham” radifli g‘azalida ham hamohanglik bor. Ma‘lumki, mumtoz adabiyotda sham’ ba’zi o‘rinlarda oshiq, ba’zi o‘rinlarda ma’shuqa, ayrim o‘rinlarda xalq dardida yongan fidoyi inson obrazi sifatida keladi. “Sham” radifli ikkala g‘azalda ham sham’ ishqqa muhtalo bo‘lgan oshiq sifatida kelgan. Ogahiy yozadi:

*Har kecha tinmay qilur so‘z-u gudoz izhor sham’,
Go‘yiyo mandek erur bir oshiqi diydor sham’* [3, 170].

Avaz g‘azalining matla‘si esa quyidagicha:

*Go‘yo maningdek bir pari ishqida zor sham’,
Har tun etar boshdin oyoq so‘z-u gudoz izhor sham’* [1, 238].

Ko‘rinadiki, har ikkala g‘azalda ham shoirlar sham’ni o‘zlariga qiyoslaydilar. Sham’ ham ular kabi ma’shuqa ishqida zor, har tun nola qiladi, bag‘rini olovga beradi.

Keyingi o‘rinlarda ham shoirlarning fikr qarashlarida bir-biriga o‘xshashlik seziladi. Jumladan, Ogahiy shunday yozadi:

*Yetkura olmas ulus jonig‘a rohat partavin,
To kuyub ko‘rmas ravo o‘z jonig‘a ozor sham’* [3, 170].

Avaz misralari esa quyidagicha:

*Bazm ichra rohat partavin solg‘aymu erdi,
Tokim kuyub yetkurmasa, o‘z jonig‘a ozor sham’* [1; 238].

Darhaqiqat, Ogahiy va Avaz sham timsoli orqali chinakam oshiq obrazini yarata olganlar. Avaz ustoz Ogahiy misralariga hamohang she‘rlar bitib, haqiqiy shogirdlik kalomini aytgan.

Mumtoz adabiyotimizda qo‘llaniladigan obrazlardan biri nosihdir. Nosih – nasihatgo‘y demak. Nasihatgo‘y aksar mumtoz asarlarda salbiy obraz sifatida gavdalanadi. Jumladan, Ogahiy g‘azallarida ham:

*Ul oyning ishq i jurmidin meni yozg‘urma, ey nosih,
Malomat tig‘ini joning‘a bir dam urma, ey nosih* [3, 88].

Avaz yozadi:

*Mango qilma malomat ko‘p tariqi ishq aro, nosih,
Magar tushmaydurur boshing‘a ondin mojaru, nosih* [1, 261].

Ko‘rinadiki, har ikkala g‘azalda nosihga, ya‘ni nasihatgo‘yga salbiy munosabat bor. Har ikkala shoir nosihning malomatlaridan zorlanadi. Ishqdan bebahra nosihning va‘zlari oshiqni bezdiradi. Shuningdek, nosihning oshiqning may tarkini qil, deyishi uning nodonligidan ekanligi shoir tomonidan ta‘kidlanadi. Bir so‘z bilan aytganda, Ogahiy ham Avaz ham haqiqiy oshiq obrazini nosih obraziga qarama-qarshi qo‘yadi.

Ogahiyning fikriy olamidan ta’sirlanish Avaz O‘tarning Ogahiy g‘azallariga bog‘lagan bir qancha muxammaslarida ham ko‘rinadi.

Avaz ijodini kuzatib, shunga amin bo‘ldikki, u Ogahiy va boshqa so‘z san‘atkorlari

ijodidan bahra olib, ustozlar ta'sirida qolib ketmadi. Yangi obrazlar yaratishda, beqiyos tasvir va ifodada, badiiy san'atlarni qo'llashda, yangi-yangi qofiya va radif yaratishda o'ziga xoslikka erishdi. Avaz O'tar ulkan shoirga, buyuk so'z san'atkoriga aylandi. Shu bilan bir qatorda ulug' ma'rifatparvar, xalqparvar va hurriyatparvarga aylandi. Har tilni bilish bani odamga jondir, maktab oching, deya ma'rifatparvarlikning go'zal namunasi yaratdi. Yo'q jahon mulkida bizdek ojiz-u bechora xalq, deya millat dardini kuyladi. Xalqim uchun to'kilsa qonim, deya haqiqiy vatanparvarning so'zini aytdi. Bir so'z bilan aytganda, adabiyotni insonga, millatga xizmat qildiradi. Ustozlari ijodidan ta'sirlangan Avaz O'tar ular qatoriga buyuk shoir, ulug' ustoz sifatida qo'shildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avaz. Devon. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
2. Yo'ldosheva M. Avaz she'riyatida an'ana va mahorat. - Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2011.
3. Ogahiy. Ta'viz-l-oshiqin. Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2014.



JAHONKIM, EY KO'NGUL, HARGIZ EMASDUR AMNIYAT JOYI...

Salomat MATKARIMOVA,
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Urganch davlat universiteti (O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Avaz O'tar ijodida jahonning badiiy talqini, dunyoning bebaqoligi va unga qarshi o'laroq insonning baqoga erishish imkoniyati xususidagi poetik xulosalari tahlilga tortilgan.

Аннотация: В этой статье обсуждаются художественная интерпретация мира в творчестве Аваза Утара, а также его поэтические выводы о нестабильности мира и о том, как человек может достичь вечности.

Abstract. This article discusses the artistic interpretation of the world in the work of Awaz Utar, as well as his poetic conclusions about the instability of the world and how a person can achieve eternity.

Kalit so'zlar: Avaz O'tar, jahon, bebaqollik, inson, baqo.

Ключевые слова: Аваз Утар, мир, нестабильность, человек, вечность.

Keywords: Awaz Utar, peace, instability, man, eternity.

Avaz O'tar o'zbek adabiyotida ijodining rang-barangligi, qamrovi nihoyatda kengligi, uslubining sodda va ravonligi, o'z davri ijtimoiy muammolarini ko'tarib chiqish barobarida ularga oqilona yechimlarni she'riyat tili bilan bayon qilganligi bilan ajralib turadigan ilg'or fikrli inson, hassos shoirdir. "... u eskidan yangini idrok etish, yangilikni qadim asosida kashf etishdek noyob salohiyatga sohib edi"[5, 3]. Uning she'rlarida ishq iztiroblari ham, davr muammolari ham, olam va odam munosabatlari ham, inson ruhiyatidagi evrilishlar, qalb tug'yonlari-yu isyonlari ham birdek akslanadi. Quyida biz shoirning bir qit'asi tahlili misolida uning dunyo va uning buqalamunligiga munosabati, jahonning har lahzada turlanib turuvchi tabiati, oxiri

yo‘q o‘yinlari-yu bevafo, bebaqoligi va unga qarshi qo‘yilgan insonning boqiylikka erishishi masalasi xususidagi poetik xulosalariga to‘xtalishga jazm qildik.

Avaz O‘tar o‘z qit‘asini ko‘ngilga murojaat qilishdan boshlaydi:

Jahonkim, ey ko‘ngul, hargiz emasdur amniyat joyi,

Oning sokinlari bo‘lmas xalos ofatni domidin [1, 306 b].

Shoir ko‘ngilni bu jahon eminlik, xotirjamlik joyi emasligidan ogohlantirar ekan, unda manzil tutganlar balo-yu ofat tuzog‘idan omonda qolmasliklarini uqtiradi. Binobarin, bu dunyo muvaqqat makon, yo‘lovchi bir qo‘nib ketuvchi karvonsaroydir. Unda muqim qolish imkoni yo‘q. Kelganning ketmaga, bu olam koshonasida tug‘ilganning o‘tmagi bor. Olamga kelgan lahzadan boshlab umrining intihosi tomon yo‘lga chiqqan inson atrofida hozir-u nozir o‘limning 99 sababiga chap berib, o‘z orzu-maqсадlariga yetmoq ilinjida qancha va qandayligi noma‘lum bo‘lgan umr manzillari sari shoshgancha ketib boradi. Bu orzular ba‘zan asosli, ba‘zan xomxayol. Har qanday holatda ham uning uchun olg‘a intilish sababi, umrining yetaklovchi bosh kuchi. Ana shu umidli orzular qanotida o‘zini o‘lmaydigandek, mangu yashaydigandek, bu yorug‘ olamning abadiy mezbonidek his qiladi, har maqsadiga yetganida ko‘ngil ajib bir osudalik, xotirjamlik tuyadi. Ayni paytda bu qoniqish, bu huzur-halovat jahonning ofat tuzog‘dagi xo‘rakligini unutadi. Beixtiyor uning tuzog‘iga tushib qolganini, dunyo hoy-u havaslariga berilib, o‘zini, o‘zligini boy berib qo‘yganini sezmay qoladi, umr ne‘matini isrof qilib, oxir-oqibat pushaymon hosilini o‘rishga majbur bo‘ladi. Zero, Avaz bir g‘azalida ta‘kidlaganidek:

Ushbu jahon obodidur oxir xarob, ey do‘stlar,

Turg‘un binoi suv uza misli hubob, ey do‘stlar [2, 150].

Shoir talqinicha, jahonning har qanday obodligi oxiri xarob, vayronadir. Chunki bu dunyo go‘yo suv uzra hubob kabi bunyod qilingan bir binokim, hubob yorilib yo‘q bo‘lgani kabi uning ham to‘satdan yakun topmog‘i, tanazzulga yuz tutib, izsiz g‘oyib bo‘lmog‘i bor. Shuning uchun shoir qit‘ada o‘z fikrlarini davom ettirar ekan, kimdakin ushbu olamda aysh-u rohat istab, shodlik jomini talab qiluvchi bo‘lsa, oxir-oqibat mehnat-u kulfat domidan sam-zahar no‘sh qiladi, deya ogohlantiradi:

Kimikim onda istar ersa aysh ila tarab jomin

Qilur oshom samlar mehnat-u kulfatni domidin [1, 306 b].

Darhaqiqat, bu borada bashariyat tarixi boylig-u mansab orqasidan aysh-u tarab jomini sipqorgan qancha shohlar-u akobirlar, dasti uzun kishilar hayotidan ko‘p guvohlik keltiradi. Birgina shohlik uzugi bilan ins-u jin, dev-u odamlarni o‘z hukmi farmonida tutgan Sulaymon (a.s.), yarim dunyoni zabt qilgan Iskandar, taxti quyosh nurlaridan porlagan Jamshid, sha‘n-u shavkati zamin-zamonni mahv etgan ulug‘ podshohlar, ne-ne mol-u mulk egalari – birortasiga bu dunyo vafo qilmadi. Shu sabab shoir boshqa bir g‘azalida obro‘-martaba, mansab-u amalga faxr etmoq, mag‘rurlanmoqdan qaytarib, shunday yozadi:

Dahr izz-u johig‘a, ey kimsa, mag‘rur o‘lmakim,

Gar baqo bo‘lsa anga Jamshid-u Iskandar qani? [1, 186 a].

Garchi bevafo dunyo ne-ne jamshid-u iskandarlarning avji falakdan o‘tgan shon-u shavkatini yerparchin qilib, bistarini qaro tufroq qilgan bo‘lsa-da, uning tabiatiga baqo

yot esa-da, lirik qahramon - shoir baqosiz jahonda boqiylik topmoq yo'lini axtaradi. Binobarin, "Avazning lirik qahramoni hayot kurashlarida chiniqqan, mashaqqat-u zahmat olovida toblangan, shijoat-u jasoratda, qat'iyat-u qanoatda boshqalarga o'xshamagan metin irodali shaxs. Uning umidsizligi zamirida ishonch, zaif-u notavonligi ortida kuch-qudrat, baxtsizligi zaminida saodat-u iqbol bo'y ko'rsatib turadi" [3, 244]. Boqiylik tilagan inson nima qilmog'i lozim? Asrlar bo'yi manguликka intilib kelayotgan, abadiy tiriklik suvini izlab, sargardon kezinmish g'arib jon nima qilsa maqsadi hosil bo'ladi? kabi savollarga Avaz qit'a yakunida shunday javob beradi:

Fano sarmanzilin azmini qilmoqlig' erur avlo

Baqo istar kishiga olamin mulki maqomidin [1, 306 b].

Ko'rinadiki, qit'a orifona yechim bilan nihoyalangan: boqiylik istagan kishi olam mulkida maqom tutganidan ko'ra fano sarmanziliga azimat qilmoqligi, ushbu manzilga yetmoq uchun jidd-u jahd bilan kirishgani afzal. Zero, N.Komilov Fariddin Attor so'zlari bilan aytganidek: "Fano bo'lsang, "mening zotimdan musaffo bo'lasan", kavnu makon seniki bo'ladi. Dunyoviylikni oradan ko'tarsang – butun olamlarni qamrab olasan. Shunda avval-u oxir degan tushunchalar qolmaydi, zamon va makon o'lchovidan tashqarida bo'lasan. "Yake shav, Boyazid-u bas maro bin, Daruni juzvi kull ayni baqo bin" (Boyazid, fano bo'lib vahdatga – birlikka aylanginda, keyin meni ko'rgin, o'zingni – qismni butun – kull ichida ko'rganday, baqo – abadiyat ichra ko'rgin)... inson vujudi tuproqdan bo'lgani uchun foniydur. Ammo ruh abadiylik topishi mumkin, chunki u Mutlaq ruhning juz'i. Lekin ruh jismdan ajralmasdan ham shu martabani egallashi mumkinmi? Mumkin, deydi tasavvuf ahli. Agar inson kamoloti oliy darajaga ko'tarilib, u Haqqa vosil bo'lgan bo'lsa, aynan mutlaq foniylig, ya'ni ilohiy ma'rifat, hikmat-u donish-la limmo-lim bo'lib, moddiy vujudni unutib, ruhiy ilohiy vujudga aylanishi mumkin. Shaxsiy "men"ning kayhoni "Men" bilan birlashishi, kayhoni Ruh qiyofasini olishi kamolotning oliy darajasi hisoblanadi va shu martabada inson Abadiyat deb atalmish bepoyon muhitga qo'shilib, boqiylik topadi" [4, 67]. Avaz O'tar nazarda tutgan "Fano sarmanzili"dan murod ham ana shu Abadiyat, boqiylikdir. Shoir talqinicha, kamoloti oliy darajaga ko'tarilish boqiylik istagan insonning eng ulug' maqsadiga aylanishi lozim. Bu borada muvaffaqiyatga erishish har bir kishining o'ziga bog'liqligi, bebaqo dunyo sabab yuzlangan omadsizlig-u komi noravoligida hech kimni ayblab, malomat qilmasligi, aksincha, maqsadiga yetmoq istagan odam lahza bo'lsin xobi farog'at – farog'at uyqusiga ketmasligi, mudomo bedor bo'lib, o'zidan, nafsidan ogoh bo'lishi shartligi Avazning yana bir g'azalida shunday ifoda etiladi:

*Ushbu dunyo bebaqodur, ey rafiq,
Hech odamga malomat aylama.*

*Ey Avaz, olamda maqsud istasang,
Lahzaye xobi farog'at aylama [2, 33].*

Xulosa qilganda, Avaz O'tar foni dunyoning bebaqo sharoitida ham inson boqiylikka erishib, o'zini manguликka daxldor qilishi mumkinligini, buning uchun

jahonning mayda tashvishlaridan yuqori tura olishi, nafsini ruhga xizmat qildirib, niyatni to'g'irlashi, hayotining har lazasini bedorlik va ogohlik bilan o'tkazib, ilm-u ma'rifat hosil etib, yuksak maqsad sari dadil odimlashi lozimligini uqtiradi. Avaz O'tarning bu kabi she'rlari irfoniy mazmunning badiiy suratlari, shoir tasavvufiy-ma'rifiy qarashlarining betakror ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Avaz. Devon. O'zR FASHI Qo'lyozmalar fondi, Qo'lyozma, inv. № 942.
2. Аваз. Сайланма. (Нашрга тайёрловчи: Юнус Юсупов ва Ваҳоб Раҳмонов). – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
3. Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. –Т.: “ТАФАККУР”, 2020.
4. Комилов Н. Тасаввуф. Тавҳид асрори. – Т.: ЎЗБЕКИСТОН, 1999.
5. Ҳаққул И. Исёнкор қалб ва ижод соҳиби // Ўзбек тили ва адабиёти, 2019. - № 4. – Б.3-9.



AVAZ O'TAR SHE'RLARIDA HURRIYAT VA MA'RIFAT MASALALARINING BADIY TALQINI

Sirdaryoxon O'TANOVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: Maqolada Avaz O'tar she'rlarida hurriyat va ma'rifat masalalarining badiiy talqini tahlil etilgan.

Аннотация: В статье проанализирована художественная интерпретация вопросов свободы и просвещения в стихах Аваз Утара.

Abstract. In the article analyzed the artistic interpretation of freedom and enlightenment in the poems by Avaz Utar.

Kalit so'zlar: Avaz O'tar, hurriyat, ma'rifat, she'r, taraqqiyot.

Ключевые слова: Аваз Утар, свобода, просвещение, поэзия, развитие.

Keywords: Avaz Utar, freedom, enlightenment, poetry, development.

So'zda mohir Avaz O'tar she'rlari davrning dolzarb muammosiga aylangan Milliy istiqlol, Hurriyat, Ittifoq, Taraqqiyot va Ma'rifatni anglatish kabi mavzularda yozilgani bilan yanada diqqatga molikdir. U o'zi mansub hududning eng og'riqli nuqtalarini teran anglagan ziyoli, olim, ko'lamdor shoir edi.

Ijtimoiy-siyosiy voqelikning badiiy ifodasi janrlar strukturasi va obrazlar tizimidagi o'zgarishlarni, badiiy talqindagi ijtimoiylashuvni, individual idrokni, yangi uslubiy yo'nalishlarni hamda publitsistik ifodaga asoslangan realistik tasvirni taqozo etdi. Bular yangilanayotgan davr, uning adabiyotining xos belgilari edi. Avazning she'rlari badiiy jihatdan go'zal, poetik ifodasi mukammal, mazmunan va g'oyaviy pishiq bo'lmasa-da, davrning muhim chizgilari hozirjavoblik va tezkorlik bilan, eng maqbul shakllarda ifoda etilgani bilan diqqatga molik. Asosiysi, an'anaviylik va zamonaviylik uyg'un bir shaklda namoyon bo'lib, ikki maydonga ko'prik vazifasini bajarib berdi. Bunga uning birgina "Millat" radifli g'azali ham dalil bo'la oladi.

Avaz "Ey millat" undovi ostida butun Turkiston ahlini kurash zamoni yetganidan

ogoh qiladi. 1917-yilda Rusiyada bo‘lib o‘tgan Fevral inqilobiga katta umidlar bog‘lagan shoir millatning har ishida ravnaq – yuksalish bo‘lishiga astoydil ishonadi:

*Topar erkan qachon, yo Rab, hayoti jovidon millat?
Topib ilm-u hunar birla maorifdan nishon millat?*

*Vatanparvar fidoyi firqalar to bo‘lmayin paydo,
Na mumkin topmog‘i o‘lgan tanig‘a toza jon millat?[1, 19]*

Garchi bu asar aruzning hazaji musammani solim vaznida yozilgan bo‘lsa-da, an’anaviy lirikadan farqli o‘laroq, obrazlar tizimida o‘zgarishlar yuz bergan. Chunonchi, “*millat*”, “*Vatan*”, “*maktab*”, “*taraqqiy*”, “*vatanparvar*”, “*maorif*”, “*firqa*” singari so‘zlar bosh obraz o‘laroq kirib kelgani ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, ushbu she‘r misolida shuni kuzatish mumkinki, “*hayoti jovidon*”, “*komron*”, “*jonfido*”, “*g‘amxor*”, “*o‘lg‘an tan*” kabi kalimalar ishqiy lirikada tez-tez duch kelinadigan tushunchalar bo‘lsa-da, matnda tamomila yangicha yo‘sinda, millatning g‘am-qayg‘usi, vatandoshlarning hazin nolasi, istibdod ostida bemor bo‘lgan odamlarning ichki kechinmalari ifodasi uchun xizmat ettirilgan:

*Fido millat yo‘lig‘a mol-u jon etmak kerak, har kim –
Bo‘lay desa, agar avlodi mashhuri jahon millat.*

*Ochib har bir saridan maktabing unvonin aylab cho‘x,
Taraqqiy aylamasmi o‘qubon behadd-u son millat?*

*Bu yanglig‘ olam ahlidin keyin qolmay yurish ayla,
Avaz bo‘lg‘ay uyonib komkor-u komron millat.*

XX asr boshlarida Toshkentda yashab, ijod qilgan taraqqiyparvar millat oydinlaridan Sirojiddin Sidqiyning lirik merosida ham ayni radifli she‘r bo‘lib, ilgari surilgan g‘oya va masalalarda g‘oyat yaqinlik, mushtaraklik ko‘rinadi. Bu esa ijodkor hamma zamonda o‘z xalqining, elining og‘riqlariga birinchilardan bo‘lib malham izlagan fidoyi insonlar bo‘lganiga taniqlik etadi.

*Taraqqiy avjida shodon yashab minba‘d obod o‘l,
Vatan ahlini shod etsun go‘zal atvoring, ey millat.*

*Haqiqatjo‘, haqiqatgo‘ bo‘lub har bir vatandoshim,
Yurub bosh ila bo‘lsun shonli xidmatgoring, ey millat[4, 61].*

Lirik parchadan Hurriyat va Istiqlol shunchaki istak bilan qo‘lga kelmasligi, bu uchun har bir Vatan farzandi haqiqat mayog‘ini baland ko‘tarib, shonli bir xizmatkor yanglig‘ harakat qilishga chorlov ma‘nolari tushuniladi. Avaz O‘tar she‘ridan o‘quvchida yana bir boshqacha taassurot uyg‘onadi. Ilm-fan, texnika va sanoatda to‘xtovsiz ilgarilab borayotgan Yevropaning ibrat qilib ko‘rsatilishi, ammo tadanniy – ma‘naviy-axloqiy tubanlik ularning inkori ekanligini anglatishga urinish, shoir mansub bo‘lgan hudud aholisining ham endi dunyoga ochilayotganidan, atrofga tanqidiy ko‘z bilan qarayotganidan bir ishora beradi:

Taraqqiy aylamak lozim jahon ahli bo‘lub bir tan,

Bilurga borcha ilm ila hunarni yashasun millat!

Gʻazalning keyingi baytlarida esa taraqqiyini maqsad qilgan musulmon axloq meʼyorlariga, shariatga rioya qilishi lozimligi, dinsiz holda ilgarilay olmasligi, mazhabsiz esa halokat yoqasiga borib qolishi qayta-qayta eslatiladi.

*Ochib har navʼi maktab emdi himmatni qilib oliy,
Vatanni qilgʻoli obod lozim aylasak gʻayrat [1, 17].*

Ijod ahli hamma vaqtlarda boʻlganidek, taʼsirchan asarlari bilan millat ongidagi oʻzgarishlarga, tafakkurda yangilanishlarga birinchilardan boʻlib yoʻl ochishgan. Natijada, milliy davlatchilik qurish borasidagi saʼy-harakatlarning sekin-sekin boʻlsa-da, ommaning siyosiy-huquqiy bilimlarini oshirgani koʻrinadi.

Avaz asarlarini nashrga tayyorlagan olim Y.Yusupovning: “Avaz rus madaniyati, ilm-fani va rus tilini samimiyat bilan sevdi. U yoshlarni dadil suratda rus madaniyati va rus tilini oʻrganishga chaqirdi. Bu jihatdan uning “Til” sheʼri juda ahamiyatlidir” tarzidagi talqini real haqiqat boʻlib, haqiqatdan ham sheʼrdagi:

*Har tilni biluv emdi bani Odama jondur,
Til vositai robitai olamiyondur.*

*Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni gʻayrat eting, foydali kondur.*

Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni,

Anda oʻqiganlar bari yaktoyi jahondur, [1, 21] -

misralarda til bilishning dolzarbligi “foydali kon”, “yaktoyi jahon” singari istiora va tashbehtar bilan uqtirilgan. Darhaqiqat, oʻzbek adabiyotshunosligida Avaz Oʻtarning “Til” sheʼri mazmun, gʻoya, dolzarblik va badiiy ifoda jihatlaridan ham yuqori baholanib, alohida oʻrin egallagan. Til oʻrganishning mohiyati, siyosiy ahamiyati, yoshlarni faol boʻlishga chaqirish va mustaqil fikrlashga daʼvat ruhi ustunlik qilgan mazkur sodda va nihoyatda kuyunchaklik bilan yozilgan misralarda millatparvar oʻzbek ziyolisining hozirjavobligi, Vatan istiqboli, el-yurt erkinligi uchun old safda amaliy harakatga oʻtganini koʻrinadi. U oʻlkadagi siyosiy iqlimning barcha nozikliklari bilan tushungani uning ijodida ham aks eta borganki, XX asrning birinchi choragida yaratilgan adabiy asarlarga ilmiy nigoh tashlagan prof.B.Qosimov shunday degan edi: “1916-1917 yillarda yozilib, tezkorlik bilan bosilib chiqqan bu asarlar xalqimiz milliy ongidagi oʻzgarishlarni kuzatishda, mustaqillik va uning uchun kurash gʻoyasining adabiyotga kirib kelishi tadrijini belgilashda muhim ahamiyatga ega” [5, 13].

Shuningdek, Avaz bir sheʼrida maktabni vayron millatni obod etuvchi osoyish joyi, koʻngillarni shod etuvchi maʼrifat uyi ekanligiga qayta-qayta urgʻu beradi. Devonda shu mazmundagi sheʼrlarni oʻqir ekanmiz, muallif maktabga, yosh avlodga katta umid bogʻlaganini his etish mumkin. Jami 7 baytli quyidagi gʻazalning takrorlanuvchi radiflari xalqni birlikka, hamjihatlikka va jon-dil bilan gʻayrat koʻrsatishga undashi bilan yanada ahamiyatlidir:

*Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
Oʻqusin yoshlarimiz, koʻnglini shod etgusi maktab.*

*Dil-u jon birla el maktab ocharga ijtihod etsin,
Nedinkim, bizni g'am qaydidin ozod etgusi maktab.*

*Ko'ngullarning sururi dag'i ko'zlar nuridir farzand,
Alarning umrini, albatta, obod etgusi maktab.*

*Ota birla onaga farz o'qutmoq bizni majburiy –
Ki bizni yaxshiliq qilmoqqa mu'toj etgusi maktab.*

*Qay-u millatga bizdek gar nasimi inqiroz yetsa,
Anga, albatta, mustahkamlik ijod etgusi maktab.*

*Bu ne navmidlikdur?! Maktab ochsak, oqibat bizni,
Aro'si kom ila maqsudga domod etgusi maktab.*

*Avaz, himmatni qil oliy ocharg'a emdi maktabkim,
Baloi jahl-u nodonlikni barbod etgusi maktab [1, 21].*

Shoirning g'azalda maktabni komronlik – baxt kelinchagi ila maqsadiga yetgan kuyovga mengzashi, yoshlarni sof tiyatli, ilm egalari, ko'ngillar sururi, ko'zlar nuri deb tanitishi, izlarini ko'zlarga to'tiyo qilish darajasida muhabbatli bo'lishga undashi, inqiroz yetgan millatni taraqqiyotga olib chiqadigan, jahl-u nodonlikni barbod etadigan maskan deb e'zozlashini shunday izohlash mumkin: birinchidan, ajdodlarimizning o'quv dargohiga, ilm ahliga cheksiz izzat-ikromi natijasida shakllangan asriy urf-odatlariga hurmat; ikkinchidan, g'azal aynan xalq ma'rifatga chanqoq turgan chog'da toza chashma o'laroq maydonga kelgani uchun ularni rag'batlantirish; uchinchidan va eng asosiysi, shoir jamiyatda obro'-e'tibori, ta'siri tobora kuchsizlashib borayotgan din olimlariga asl vazifalarini xotirlatish, tarixiy missiyalariga munosib bo'lishga da'vat; to'rtinchidan, alg'ov-dalg'ovli bir davrda ota-onalarga farzandlarini o'qitish farz ekanligi yuzasidan bir eslatma. Boshqa bir g'azalning mazmunida aks etgan ifoda: lirik qahramonning umidi kitobxonda ham Vatan istiqboli haqida yorug' xayollar surishga undaydi:

*Fidoyi xalqim o'lsun tanda jonim,
Bo'lub qurbon anga ruhi ravonim.*

*...Umidim: yashasin maktab bolasi,
Alar har biri bir sheri jayonim [1, 18].*

Shoir tashbeh san'atiga murojaat qilgan: maktab bolasini o'rmonda hayvonlar ustidan adolat bilan hukm yuritadigan sherga o'xshatadi. Ayni vaqtda sher misoli jasorat, fidoyilik, g'ayrat, tashabbuskorlikka chaqirmoqchi bo'ladi.

Avaz O'tarning tarjimai holini o'qiganimizda, uning saroyda o'tgan umri, davlat

amaldorlari bilan munosabatlari juda murakkab, ziddiyatli bo'lgani ma'lum bo'ladi. Balki shu sababdir bir qator she'rlarida musulmonlardan, xususan, qozi, a'lam, mufti singari mamlakatning boshqaruv siyosatida hal qiluvchi kuchga ega diniy soha amaldorlaridan kuchli yozg'irish kayfiyatlari seziladi, Islom axloqi va qonunlariga sarkashlik qilayotganlar tanqid qilinadi, mamlakatning fojiga yuz tutishiga sabab bo'layotgan kamchiliklar ro'y-rost aytiladi:

*Bu falokatlar uchun mas'ul o'lursiz oqibat,
Zulm-u istibdod ila millatni vayron etdingiz.*

*Yo'qsa, odammiz, ochib maktab ilm bildirsangiz,
Bexabar ilm-u hunardin bizni hayvon etdingiz!*

*Qaysi bir millatni, ayting, sizdek og'zi oladur,
Ittifoq ila ish etmay bag'rimiz qon etdingiz [1, 19].*

Misralar ayrim din vakillarining dunyoqarashlari hali ham eski qoliplarda qolib ketayotganligi, turg'unlik va kelajakni ko'ra olmaslik, aslida, millatning abgor holga olib borgan illatlar bo'lganiga guvohlik beradi. Bunaqa ohangdagi she'rlar aksar jadid ziyolilari qatori yana bir toshkentlik shoir Mullo Sodiq Imonquli ijodida ham uchraydi:

*...Bo'ldi g'olib zulmati bid'at shar'iyyat nurina,
Qop-qorong'u bo'ldi, anvori hidoyat qolmadi.*

*...Hubbi millatni qilur da'vo, o'zi mulhid¹ erur,
So'zlarinda, ishlarinda bir sadoqat qolmadi.*

*... Shar'ning tahqir ila millat nechuk olg'a ketar,
Ne ajab, bunlar ichinda zi daroyat qolmadi [3, 61].*

Ha, mutafakkir olim M.Behbudiy ham "Oyina" jurnali orqali millatning yuqoridagidek mayda-chuyda muammolarga o'ralashib, asl muddao hosil bo'lmay qolayotganini taassuf bilan yozgan edi. O'tgan asrning boshlarida xalq og'ir sinovli kunlarni boshdan kechirgandi. Avaz O'tar tanazzulga tushib qolgan qora xalqning ahvoriga behad kuyinadi:

*Xalqi olamni bori aylar taraqqiy kun-bakun,
Biz tanazzul aylabon qolduk, eduk ne qora xalq? [1, 18].*

Xalqonalik va soddalik qorishig'ida yuzaga kelgan asarda chorasiz, tang ahvolda qolgan kishilarning qiyofasi bor fojiasi bilan bo'y ko'rsatgan. O'sha davrda odamlarning og'ir turmush tarzi, hukumatning adolatsizligi ortidan chekayotgan qayg'u-iztiroblari inja tuyg'ular, ishqqa to'la qalb nolalari, go'zallik, nafosat, yorga dil izhori kabi motivlar bilan to'la she'riyatning obrazlar olami va mavzu o'zanini keskin burib yuborganligining nechog'li tabiiyigini ko'rsatib turibdi.

Quyidagi bandeda millatdoshlarining fojiali qisimatlariga befarq qarab tura olmagan shoir qalbi faryod soladi, xalqqa yetkazilgan alamli qiynoqlar xuddi o'ziga ham

¹ Mulhid – dindan qaytgan.

qilingandek iztirob chekadi, bo‘lib o‘tgan hodisalardan cheksiz hasratga toladi:

*Ne alarda bordurur ilm-u adolatdir asar,
Ne ajabkim topmasa dodi diliga chora xalq?*

*Yetgan ofatni boshig‘a doimo taqdir deb,
Hasrat-u armon bila ketgusi bora-bora xalq [1, 18].*

Umuman olganda, g‘azalda lirik qahramonning hamvatanlariga darddoshligi, ular bilan birga ekanligi, bo‘lib o‘tgan hodisalardan qattiq afsusda ekanligi ro‘y-rost, samimiy va sodda til bilan ifoda etilgan.

Avaz O‘tar yashagan asrning ilk choragida eng ko‘p tilga olingan mavzulardan biri, bu – hurriyat. XIX asrning so‘nggi choraklarida Chor Rossiyasining vassalisiga aylantirilgan Turkiston muzofoti yangi asrga qadam qo‘yishi bilanoq erk va ozodlik istagini chuqur his etib, kurash boshladi. Bu norozilik harakatlari yildan yilga yuqori bosqichlarga ko‘tarilib, oshkora faoliyat kuchaya bordi. Avaz she‘rlarida ham afkori ommani shu mavzuga qaratish, xalq zehniyatiga Hurriyatning mohiyatini anglatish, uni qo‘lda mahkam tutib qolishga undash motivlari yaqqol namoyon bo‘ldi. Ana shunday lirik she‘rlar orasida shoirning “Hurriyat”ga bag‘ishlangan g‘azali alohida o‘ringa ega. Matla‘da Fevral inqilobidan so‘ng chor Rossiyasi istilosi ostidagi gubernatorliklardagi nisbiy erkinlik ularga chinakam mustaqillikning debochasi, degan mulohazaga olib borgani ravshanlashadi:

*Siyosat mahv bo‘ldi, yashasun olamda hurriyat,
Bori el ittifoq ila jahonni aylasun jannat [1, 17].*

Millat oydinlari Chor Rossiyasining istibdodidan ezilgan, cheksiz-chekarasiz zulm-u vayronagarchiliklaridan ozorlanishgan, Vatanimizning ma‘naviy va moddiy boyliklarini ayovsiz tashib ketilayotganidan qattiq tashvishga tushishgan hamda urf-odatlar va asriy go‘zal an‘analar, ayniqsa, e‘tiqodi toptalib kelinganidan birinchilardan bo‘lib isyon qilishgandi. Ana shunday otashin jadid ziyolisi Abdulla Avloniy ham Hurriyat uchun behad quvonib, o‘z sevinchini shunday ifodalagan edi:

*Chun bahor o‘ldi, ochildi – gul ochildi har yondan,
Bulbul aytdi oh-zorini, nola chekdi, o‘qudi.
Ko‘rdi bulbul hurriyatni, so‘yladiki: ey jonon,
To qiyomat barqaror o‘l, hech yo‘q o‘lma olamdan!
Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,
Jon qilibdur necha inson senga qurbon, Hurriyat! [2, 224]*

Avazning boshqa bir she‘rida esa o‘lkadagi chinakam ahvoldan, hali birlik hosil qila olmagan jamoalar va bir bayroq ostida kuchlanmagan millatning asl fojeasi aks etgan:

*“Hurriyatni erk” debonki yolg‘on alfozlar bila,
Oqibat mazlumlara yutdirdingiz xunobalar [1, 20].*

Bu esa hali pishib yetilmagan fikr-g‘oyalar ortidan ketish, anglanmagan erk, o‘z manfaati payida yugurgan, jaholatdan to‘la arinmagan millat farzandlari qiyofasidir. Bizningcha, ziyo, maorif, din ahlining mutaassiblarcha mulohaza yuritishlari, davlat

boshqaruvini bo‘lar-bo‘lmasga shariatga taqashlari, taraqqiyotni shariatda deb bilishlari, astoydil Istiqlool istasalar-da, maqsadlari hosil bo‘lmay qolganligining sabablaridan biri bo‘lgani yanada ochiq ko‘rinmoqda:

*Bor umidim tezdin bo‘lg‘usi hurriyat kuni,
Ey Avaz, qolmas bulut ostida doim oftob [1, 20].*

Shoir devonida taraqqiyot, rivojlanishga intilish istagini turli shakllarda undashga to‘la lirik matnlar mavjud. Umuman, Avazning “Maktab”, “Xalq”, “Millat” radifli g‘azallari mavjud lirik matnlar orasida tug‘ilib o‘sgan ota makonga samimiy mehru-muhabbat, o‘zi mansub o‘lkaning farovon turmushga erishuvini astoydil umid qilish, jonini ham fido qilishga shay turgan mukammal lirik qahramon qiyofasi tasvir etilgani bilan diqqatga molik.

Ma‘lum bo‘lyaptiki, lirik asarlarda obrazlar tizimi va an‘anaviy badiiy tasvir mezonlari keskin o‘zgarishga yuz tutgan hamda davrdan shikoyat etish, zamon o‘zgarishlari, axloq-odob, pand-nasihot motivlari tobora ommalasha borgan. Shu davrda yashab o‘tgan qalam ahli shu tarzda Vatan ozodligi, millat erki va jamiyat ozodligi uchun o‘z hissalarini qo‘shishga erishdilar. Eng muhimi, jamiyatning ilg‘or vakillari, ziyoli qatlamiga, ayniqsa, shoirlariga ko‘z tikkan xalq millatning butun shaxsiyatlarini, haqiqiy fidoyilarini kashf qila oldi.

Sermahsul shoir Avaz O‘tarning “Devon”idagi she‘rlarning ba‘zilari din va saroy amaldorlariga qasdma-qasd bitilgandek taassurot uyg‘otsa-da, aslida, shu millat, shu o‘lka, shu vatandoshlarning birligi, taraqqiysi, ittihodi, orzu-intilishlarini ozmi-ko‘pmi yuzaga chiqarishga xizmat qilgani haqiqatdir. Shoir asarlarining ma‘rifat bilan yo‘g‘rilgani, milliy tuyg‘u, vatanparvalikka chaqiruvchi badiiy puxta she‘rlar ekanligi tahlillarda anglashildi. Shuningdek, ko‘p asrlardan buyon sinovdan o‘tib kelayotgan yana bir hodisa shuki, Sharq xalqlari har vaqt nazm bilan oshno bo‘lgan. Ularning ong-u shuuriga, tuyg‘ulariga chiroyli so‘z, hikmat aytish bilan ta’sir etish, ko‘pincha, ijobiy samaralar bergan. Garchi muallif aruzda ijod qilgan bo‘lsa-da, an‘anaviy poetik ifodalari, she‘riy san‘atlarning qo‘llanishi, shubhasiz, mumtoz adabiyotning qat‘iylashgan poetik qonuniyatlaridan, yorqin namunalaridan osonlik bilan voz kechish mumkin emasligini bildiradi. Mumtoz vazn va qofiyalar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, g‘oya va mavzu, radif qo‘llash va obrazlarda yangilanishlar yaqqol bo‘y ko‘rsatdi. Xususan, “Vatan”, “millat”, “Hurriyat”, “maktab”, “firqa”, “taraqqiy”, “fan”, “til”, “texnika” kalimalari obraz darajasiga ko‘tarilib, radif vazifasini ham bajargani fikrimizning dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аваз. Сайланма. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Юнус Юсупов ва Ваҳоб Раҳмонов). – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
2. Авлоний А. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. Шеърлар, ибратлар. Тўпловчи, нашрга тайёрловчи ва ва сўзбоши муаллифи: Б.Қосимов; Изоҳлар луғатни тузувчи: О.Тўлабоев. – Тошкент: “Маънавият”, 1997.
3. Мулло Содик Имонкули. Шеър. Ал-Изоҳ. 1917 йил 22 июль. №5. – Б. 61.
4. Сирожиддин махдум Сидкий. “Таронаи Ислом”. Ал-Изоҳ. 1917 йил 15 июль. №4. – Б. 61.
5. Сидкий Хондайликий. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият”, 1998.



AVAZ O‘TAR SHE‘RLARINING ASLIYAT VA TABDIL QIYOSI

Sohiba MADIRIMOVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
O‘zbek adabiyoti tarixi kafedrasida dotsenti
ToshDO‘TAU

Annotasiya. Maqolada Avaz O‘tar qo‘lyozma devoni 1984-yilda e‘lon qilingan she‘rlari ila solishtirilib, ilk bor matnshunoslik va manbashunoslik aspektida o‘rganildi.

Абстрактный. В статье рукописный сборник Аваза О'тара сравнивается с его стихами, опубликованными в 1984 году, и впервые изучается в рамках текстологии и источниковедения.

Abstract. In the article, Avaz O‘tar's manuscript collection was compared with his poems published in 1984, and was studied for the first time in terms of textual studies and source studies.

Kalit so‘zlar: Avaz O‘tar, qo‘lyozma, devon, g‘azal, muxammas, she‘r.

Ключевые слова: Аваз Отар, рукопись, деван, газель, мухаммас, поэма.

Keywords: Avaz Utar, manuscripts, devan, gazal, muxammas, poem.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda adabiyot, san‘at, madaniyat rivoj topdi. Bu davrda ko‘plab tarjimonlar, kotiblar hamda Feruz, Tabibiy, Niyoziy, Mutrib, Avaz O‘tar kabi yuksak ite‘dodli shoirlar ham yashab ijod qilgan. Bularning ko‘plab rang-barang asarlari yosh avlodni tarbiyalashda mayoq vazifasini bajaradi. Ayniqsa, Avaz O‘tar she‘rlarining hikmatga boyligi o‘quvchini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu kungacha Avaz O‘tar hayoti va ijodiga oid tadqiqotlar amalga oshirilib, she‘rlari nashr qilingan.

Mustaqillikdan oldin Avaz O‘tar she‘rlari 1976-yilda V.Rahmonov tomonidan nashr qilingan [Avaz, 1976. 388]. Ushbu nashr O‘zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Avaz O‘tarning “№7102, 942 hamda 3451 raqamli qo‘lyozma devonlari”da e‘lon qilingan she‘rlar asosida amalga oshirilgan. Bunda **244 ta** g‘azal, **3 ta** mastazod, **2 ta** murabba‘, **32 ta** muxammas, **2 ta** musaddas, **2 ta** musamman, “Tarje‘bandi xomisa”, **1 ta** tarje‘band, **2 ta** soqiynoma, **49 ta** ruboiy, **29 ta** qit‘a, jami **367 ta** she‘r bor.

1984-yilda e‘lon qilingan nashr ham V.Rahmonov tomonidan amalga oshirilgan. Bunday she‘rlar ham shoir qo‘lyozma devonlari tarkibidan tanlab olinib, “Saylanma” tarzida beriladi. “Saylanma”da shoirning **413 ta** g‘azal, **4 ta** mastazod, **9 ta** murabba‘, **39 ta** muxammas, **2 ta** musaddas, **4 ta** musamman, **1 ta** tarje‘band, “Tarje‘bandi xomisa”, **4 ta** soqiynoma, **73 ta** ruboiy va **29 ta** qit‘a bor. Ushbu nashrda shoirning **579 ta** she‘ri e‘lon qilingani ma‘lum bo‘ldi.

Bu ikki nashrdagi she‘rlarni qiyoslaganimizda **474 ta** she‘r qayta nashr qilingan. Bir-birini takrorlamagan she‘rlar ham bor. Bularning soni **116 tani** tashkil etadi. 1976-

yildagi nashr **112 ta** she'r bilan to'ldirilib, (**169 ta** g'azal, **1 ta** mustazod, **7 ta** murabba', **7 ta** muxammas, **2 ta** musamman, **2 ta** soqiynoma, **24 ta** ruboiy) 1984-yilda qayta nashr qilingan. Biroq 1976-yilda e'lon qilingan "Ne latofat bordurur gulda ruxi humrosicha" (7 bayt), "Ey sho'xi barno, surating aylar mani surat misol" (7 bayt), "Mahzun dilim, yorab, qachon topg'usidur borho farah?" (9 bayt) misralari bilan boshlanuvchi g'azallar negadir 1984-yilda qayta nashr etilmagan.

Shu kunga qadar ushbu nashrlardagi she'rlar Avaz O'tar ijodining badiiyatini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Bular asosida bir qancha maqolalar, nomzodlik dissertatsiyalar yozilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar, asosan, 1984-yildagi "Saylanma" asosida bajarilgan. Shunday bo'lsa-da, bu nashr matniiy kamchiliklardan xoli emas. Ushbu nashrda bayt tarkibining qisqarishi yoki so'zlarning o'zgarishi kabi juz'iy farqlar ham bor. Shoir qo'lyozma devonlarini ushbu nashr bilan qiyoslaganimizda quyidagi farqlar ko'zga tashlandi:

a) bayt va so'zlarning tushib qolishi;

b) so'zlarning o'zgarishi.

Bayt va so'zlarning tushib qolishi 30 dan ortiq o'rinda ko'zga tashlanadi. Shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiramiz. №942 raqamli qo'lyozma devonda "*Vafovu mehr erur borho xisol¹ mango*" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azal ko'chirilgan. Bu g'azal "Saylanma" nashrda 6 bayt [Saylanma, 1984. 30-bet]. Tushib qolgan bayt qo'lyozma devonda 5-o'rinda berilgan:

Ne tongki, Yusuf Misrini istayub basdur,

Hamul nigori parivash Yusuf misol mango [№942-inv, 9^a-bet].

"*Bo'sayi bergil labingdin, ey pari paykar, mango*" misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g'azal "Saylanma" nashrda 8 bayt [Saylanma, 1984. 140-bet]. Tushib qolgan bayt g'azalning 7-baytidir:

Bil g'animat aysh ila ishrat ovonin², ey ko'ngul,

Dahr arokim, umrg'a yo'qdurur vafo birla baqo [№942-inv, 9^a-bet].

"*O'lukka jon berur jonbaxshi guftoringg'a sallamno!*" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azal "Saylanma" nashrda 6 bayt [Saylanma, 1984. 144-bet]. Tushib qolgan bayt qo'lyozma devonda 6-o'rinda berilgan:

Ochib oraz bu dam bazmimg'a kirsang, ey parisimyo,

Degaylar ko'rgan el, yori vafodoringg'a sallamno [№942-inv, 11^{a/b}

bet].

So'zlarning tushib qolishi:

"*Ochg'och jamolidin niqob ul nozaninu mahliqo*" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azal ko'chirilgan [№942-inv, 2^a-bet]. Buning maqta' qismidagi "**gar**" so'zi nashrdan tushib qolgan:

Aylar Avazni ul go'zal vaslig'a mahram, ey rafiq,

Tong yo'qki, qilsa shodlig' birla ___ afg'on-u navo.

[Saylanma, 1984. 149-bet].

G'azal rajazi musammani solim (mustaf' ilun, mustaf' ilun, mustaf' ilun,

¹ "Xislat" so'zining ko'pligi.

² Vaqtlar, zamonlar.

mustaf' ilun). (--V/--V/--V/--V-) vaznida yozilgan. "Gar"ning tushib qolishi g'azal vazniga ta'sir etgan.

"Ey, ishq eli, dildoringiz nooshno, nooshno" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azalning yettinchi misrasi "Saylanma" nashrga quyidagicha ko'chirilgan:

*Talx o'lsa doim komingiz, ne ayb, _____ **ushshoqim,***

Ul la'li shakarboringiz nooshno, nooshno.

"Saylanma"da keltirilgan bu holat vaznda saktalikni yuzaga keltirgan. Bu g'azal 942 raqamli qo'lyozma devonning 8^{a/b}-sahifalariga,

*Talx o'lsa doim komingiz, ne ayb, **ey ushshoq, kim,***

Ul la'li shakarboringiz nooshno, nooshno – bo'lib to'g'ri

ko'chirilgan.

G'azal vazni: rajazi musammani solim (mustaf' ilun, mustaf' ilun, mustaf' ilun, mustaf' ilun). (--V/--V/--V/--V-).

№942 raqamli qo'lyozma devonda "Sarvi qading erur base ra'no" misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g'azal ko'chirilgan. Bu g'azalning uchinchi misrasidagi "va" bog'lovchisi "Saylanma"dan tushib qolgan:

Qoshlaringmu ___ yoki ikki hilol,

Ko'zlaring uzra, ayo qamarsiymo? [Saylanma, 1984. 144-bet].

Ushbu baytning ikkinchi misrasidagi "**-lar**" (Ko'zlaring) shoir qo'lyozma devonida uchramaydi:

*Qoshlaringmu **va** yoki ikki hilol,*

***Ko'zing** uzra, ayo qamarsiymo? [№942-inv, 2^a-bet].*

So'zlarning o'zgarishi:

So'zlarning o'zgarishi bilan bog'liq o'rinlar ko'plab uchraydi. Bu esa shoir badiiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Masalan, "Behjat qilurg'a borho bor bir suxandon yor shart" [942-inv, 102^b-bet]. misrasi bilan boshlanuvchi g'azalning birinchi baytidagi "Behjat" so'zi nashrda "Suhbat", "Oni" so'zi esa "Oning" shaklida berilgan:

***Suhbat** qilurg'a borho bor bir suxandon yor shart,*

***Oning** qo'lidin bo'lmoq-o'q sarmasti sarshor shart.*

[Saylanma, 1984. 189-bet].

بهجت "Behjat" so'zi fors tilidan olingan bo'lib, ikki ma'noni o'zida ifodalaydi. Birinchisi, *shodlik, quvonch*. Ikkinchi ma'nosi esa *go'zallik nafosat*.

Ushbu g'azalning oltinchi misrasidagi "G'amu ozor" birikmasi nashrda "**Erur ozor**" bo'lib o'qilgan:

Kim istirohat orzu gar qilsa vuslat yavmida,

*Furqat tunida doimo chekmak **erur** ozor shart.*

[Saylanma, 1984. 189-bet].

Shu g'azalning to'qqizinchi misrasida esa nashrga "Eykim, tilarsan yor ila hamsuhbat **o'lmoq orzu**" bo'lib ko'chirilgan. Natijada vazn saktaligi yuzaga kelgan. Bu g'azal №942 raqamli qo'lyozma devonda,

*Ey kim, tilarsan yor ila hamsuhbat **o'lmoqni mudom,***

Behuda qilma multamas, ul ishda bor bisyor shart –

bo'lib to'g'ri ko'chirilgan. G'azal rajazi musammani solim (mustaf' ilun, mustaf' ilun,

mustaf'ilun, mustaf'ilun: --V/--V/--V/--V-) vaznida yozilgan.

“O'lukka jon berur jonbaxshi guftoringg'a sallamno!” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azalning yettinchi misrasi “Saylanma”ga “Gul o'zni **tark** qilg'ay uyolgandin chaman ichra” bo'lib ko'chirilgan [Saylanma, 1984. 144-bet]. Avaz O'tarning №942 raqamli qo'lyozma devonida ushbu bayt quyidagicha berilgan:

*Gul o'zni **g'arqi**¹ gil qilg'ay uyolg'ondin chaman ichra,
Deyub qadingni ko'rgach, sarvi raftoringg'a sallamno!*

[№942-inv, 11^{a/b}-betlar].

G'azal hazaji musammani solim (mafoiy'lun, mafoiy'lun, mafoiy'lun, mafoiy'lun: V---/V---/V---/V---) vaznida yozilgan. Nashrdagi saktalik g'azalning ham vazniga, ham bayt mazmuniga ta'sir etgan.

Avaz O'tarning “Husnu malohatda erur xublarga shah ul dilrabo” misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g'azali 942 raqamli qo'lyozma devonidan o'rin olgan [№942-inv, 10^b-11^a-betlar]. Bu g'azalning to'rtinchi va beshinchi misralaridagi “Xoliyi” va “Solib” so'zlari “Saylanma”da quyidagicha ko'zga tashlanadi:

*Gar tiyra bo'lsa tole'im, ne aybkim, ey do'stlar,
Xossa xatt-u kiprik-u chashmi siyah ul dilrabo.*

***Aylab** tag'ofulg'a o'zin, holimdin o'lmay boxabar,
Aylab bahona qilg'usi mandin gilah ul dilrabo.*

[Saylanma, 1984. 138-bet].

G'azal vazni rajazi musammani solim (mustaf'ilun, mustaf'ilun, mustaf'ilun, mustaf'ilun: --V/--V/--V/--V-).

Ushbu g'azalning “Shah”, “Nigah”, “Siyah” kabi qofiyalari nashrlarda “O” cho'ziq unlisi bilan “Shoh”, “Nigoh”, “Siyoh”, “Gunoh”, “Sipoh”, “Kuloh” qilib ko'chirilgan. Uchinchi va beshinchi baytlardagi “Gilah” qofiyasi “Gila”, “Yanah” esa “Yano” shaklida xato berilgan.

Avaz O'tarning “To yorutmoqliqg'a chashmi ashkborim kelmadi” misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi Habib taxallusida ijod qilgan shoir g'azaliga yozilgan [942-inv, 245^{a/b}-betlar]. Bu muxammasning maqta' qismida “Mehnat” hamda “Habib” so'z va taxallusi berilgan. Bular “Saylanma”da quyidagicha ko'zga tashlanadi:

*Bor boshimda ofatu ranju baliyat behasib,
Borho furqat aro man telbag'a **minnat** nasib,
Ne ajab, bo'lsam Avazdek beqaroru beshikib,
Chun raxti to'foni havodisdin **habib,**
Bo'ldi yakson qolmay osori g'uborim kelmadi.*

[Saylanma, 1984. 248-249-betlar].

Muxammas ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun: -V--/V--/V--/V-) vaznida yozilgan.

Ushbu baytdagi “Mehnat” so'zining “**Minnat**”ga o'zgarishi bayt mazmuniga ta'sir etgan. Muxammasning to'rtinchi misrasi esa №942 raqamli qo'lyozmada xato

¹ G'arqa – cho'mgan, botib ketgan.

ko‘chirilgan. Nashrda ham bu xatolik saqlangan. Muxammasning “*Chun raxti to‘foni havodisdin Habib*”dagi “Habib” esa shoir taxallusi hisoblanib, atoqli ot bo‘lib kelgan. Nashrda esa “habib” shaklida kichik harf bilan berilgan. Misradagi bu xatolikni keyinchalik Habib qo‘lyozma devoni orqali qiyosiy o‘rganish zarurati bor.

V.Rahmonov Avaz O‘tarning O‘zR FASHI saqlanayotgan №942 raqamli qo‘lyozma devondagi she‘rlari asosida 1976-yilda **367 ta**, 1984-yilda esa qayta to‘ldirib, “Saylanma” tarzida shoirning **579 ta she‘rini** e‘lon qiladi. Bu nashrlarda shoirning jami **590 ta she‘ri** e‘lon qilingan. Bu esa shoir she‘rlarining to‘rtidan bir qismini tashkil etadi.

Avaz O‘tar she‘rlari badiiyatini o‘rganishda tadqiqotchilar bu nashrlardan foydalanib, bir qancha maqolalar, dissertatsiyalar yozishgan. Biroq e‘lon qilingan she‘rlar matni qiyosiy-matniy jihatda o‘rganildi. Natijada “*Bayt va so‘zlarning tushib qolishi*”, “*So‘zlarning o‘zgarishi*” kabilar ko‘zga tashlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзаев В. Аваз Ўтар ўғли. – Тошкент, Ўзбекистон Фанлар академияси. 1961. – Б. 71;
2. Қобулов Н. Аваз Ўтар ўғли – мутафаккир шоир (Таваллудининг 100 йиллигига). – Тошкент, 1984. – Б. 28;
3. Қобулов Н. Аваз Ўтар ўғли – демократик адабиётининг йирик вакили. – Тошкент, 1985. – Б. 74;
4. Расулова Ф. Аваз Ўтар ўғлининг маърифий-педагогик қарашлари. Педагогика фан.номз... дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 133;
5. Раҳмонов В. Аваз. Девон. – Тошкент, Ғафур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. – Б. 370.
6. Раҳмонов В. Аваз. Девон. Сайланма. – Тошкент, Ғафур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1984. – Б. 330
7. Саиджонова З. Жадидчилик ва Хоразм адабий муҳити//Шарқ юлдузи. 2016. №4; - Б. 1-7;
8. Юлдашева М. Аваз шеърлятида анъана ва маҳорат. Филология фан.номз... дисс. – Тошкент, 2006. – Б. 147.



AVAZ O‘TAR – MOHIR RUBOIYNAVIS

**Zebo SAIDJANOVA,
PhD, UrDU dotsenti**

Annotatsiya: *Maqolada Avaz O‘tar she‘riyatining ruboiy janriga oid o‘ziga xos xususiyatlari hamda shoirning mahoratini ochishdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности поэзии Аваза Утара, относящиеся к жанру рубайи, и ее роль в раскрытии таланта поэта.*

Abstract. *The article discusses the features of Avaz Utar's poetry related to the rubaiyat genre, and its role in revealing the poet's talent.*

Kalit so'zlar: Janr, mahorat, mavzu, obraz, qofiya

Ключевые слова: Жанр, мастерство, тема, образ, рифма

Key words: Genre, skill, theme, image, rhyme

Sharq poetikasida ruboiy faqat hazaj bahrining axrab va axram tarmoqlarida yozilishi va albatta to'rt misradan iborat bo'lishi qat'iy belgilangan. Abu Ali ibn Sino, Shayx Najmiddin Kubro, Mirzo Abdulqodir Bedil singari donishmandlar o'zlarining ma'rifiy-axloqiy, ilohiy qarashlarini ruboiylarida ifodalashgan [2, 5].

Ruboiy musiqa va qo'shiqning avj lahzalarini eslatadi. Bunda fikr bilan birga his-tuyg'ular bilan barobar tug'yonga kelib g'oyani mo'ljaldagi yuksaklikka ko'tarib chiqishga yordamlashadi. Shuning uchun she'rning bu turini lirikaning ko'proq falsafiy mazmunga ega bo'lgan turi deb hisoblaymiz" [3, 59-60].

Ruboiyda konkret g'oyaviy mazmun butun ruhi, butun zavqi, yuksak ehtirosi bilan eng to'liq va mo'jaz suratda o'zining tugal poetik ifodasiga erishmog'i kerak. Ruboiy fikr, ifodada ixchamlik va teranlikni talab etadigan janr. Shoir ruboiyda fikrning aniq va muxtasarligi bilan bir qatorda uning mantiqiy qudratiga ham qat'iy rioya qilgan bo'lishi kerak. Ana shundagina G'afur G'ulom ta'biri bilan aytganda "ruboiy – olam-olam mazmunlarning javharini yig'ib to'rt satrga sig'dira olish mahorati... qatradada okean, uchqunda quyosh mazmunini berish san'ati" [5, 417] ekanligi yorqin ko'rinadi.

Badiiy ijodda bir yoki ikki emas, o'nlab adabiy janrlarda mahorat bilan ijod qilish buyuk iste'dodlarga xos xususiyatdir. Avaz O'tar ana shunday san'atkorlardan edi. Ma'lumki, o'zlarining axloqiy, ma'rifiy va ilohiy qarashlarini targ'ib qilmoq uchun she'rning har xil turlaridan foydalangan orif shoirlarning e'tibori ko'proq ruboiyga qaratilgan bo'lgan. Avaz O'tar ijodida Sharq mumtoz adabiyotidagi deyarli barcha peshqadam lirik janrlar yangi taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarilib, yuksak kamolotga erishdi. Shu jumladan, Avaz O'tar she'riyatida ruboiy janri ham salmoqli o'rinni egallaydi.

Avaz O'tar she'riyatida ruboiylarning mazmun-mohiyati, mavzular olami ancha kengaydi. Ularda falsafiy-ma'rifiy, ishqiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy mavzular qalamga olinib, yangi-yangi badiiy obrazlar, timsol-u tamsillar vositasida yetakchi g'oyalarning o'quvchi shuuriga yuksak san'atkorlik bilan yetkazilishiga erishildi. Avaz O'tar she'riyatida muhabbat mavzuida qalamga olingan va ko'proq ma'shuqa ta'rif-tavsifiga bag'ishlangan ruboiylar mayjud.

Jononki, g'amingda ko'zlari giryonman,

Shab-ro'z asari kulfati hijronman.

Yod aylabon orazing gulin chun bulbul,

Har lahzada tortaman base afg'on man[1, 319].

Va yana bir ruboiyda o'z tuyg'ularini shunday ifodalaydi:

Ey mug'bacha, bu damda ketur gulgul jom,

Kim oni demish hakim: dofe'i olom.

No'sh aylayin oni tinmayin, boshim aro,

Bu soat erur bale jafoi ayyom.

Bu ikki ruboiyda Avaz ruboiylariga xos asosiy jihatlar o‘z aksini topgan. Shoirning boshqa ruboiylari ham mavzusi, obraz xarakteri, badiiy fazilatlar bilan yuqoridagi ruboiylardan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, aytish kerakki, bu va boshqa asarlar ruboiy janrining original namunalari bo‘lib, ular didaktik xarakterga egadir. Avaz O‘tar ruboiylarida hayotdagi barcha nosozliklarni oldini olish uchun odamlar yaxshi xulq va fazilatlarini kasb etishi, yomon illatlardan poklanish lozimligini ta’kidlaydi. Bu falsafiy o‘gitlarini hikmat darajasidagi ruboiylarida ajoyib obrazlar vositasida ochib bera oldi:

*Ey kimsa, hamisha qilma izhor tama’,
To qilmasun oqibat sani xor tama’.
Kaj anglab aning komi dilin, gardundin –
Hech aylamagay oqil-u hushyor tama’.*

“Tama’ – barcha xorliklar boshi” ekanligini ochiq va sodda usulda aks ettira olgan. Quyidagi ruboiyda esa shoir himmat sohibi bo‘lish yuksak baxt, davlatga asos bo‘lishi, vosila bo‘lishi haqida donishmandona fikrlarini ifoda qila olgan:

*Kim ersa agar jahon aro himmatlig’,
Bil oni hamisha baxtlig’-u davlatlig’.
Himmatli kishi topib murod o‘lsa dog‘i,
Hotam kibi doim o‘lg‘usi shuhratlig’.*

Avaz ijodidagi ko‘pchilik ruboiylar uchun xos asosiy xususiyatlar shuki, ularda mazmun teran, ifoda tarzi jozibali va ravon, badiiy san’atlar va tasviriy vositalar xilma-xil tarzda qo‘llangan. Bu badiiyat unsurlari ham shunchaki shakl, tashqi bezak hodisasi emas, balki mazmun bilan uzviy bog‘langan, yaxlit holda asarning umumiy ijtimoiy-estetik mohiyatini obrazli, yorqin ifodalashga qaratilgan. Fikrimiz isboti sifatida, Avazning o‘zbek xalqining milliy taomlaridan – palov haqidagi obrazli ifodalar bilan tasvirlangan ruboiysini keltiramiz:

*Ahbob, erur rohati jon yog‘li palov,
Kim bergusi haz yegan hamon yog‘li palov.
Ozurdalig‘ yetgusi choy ichmay,
Go‘yo yetmish ushbu zamon yog‘li palov.*

Avaz O‘tar haqiqiy iste’dodli ruboiynavidir. Chunki Avaz ruboiylari ham shakl, ham mazmun jihatdan mukammal yozilgan. Ular badiiy bo‘yoqlarga, xilma-xil san’at va tasvir vositalariga boy. Avaz O‘tarning ko‘p ruboiylarida to‘rttala misra qofiyalangan va radiflidir:

*Ham ikki yuzing oy bila xurshid **misol**,
Ham qoshlaring hay’ati erur ikki **hilol**.
Ham shakli ikki ko‘zing durur Chini **g‘izol**,
Ham sabza-u rayhon sango bu xat ila **xol**.*

Odatda shoirlarning ruboiyda taxallus qo‘llashlari juda siyrak uchraydigan hodisadir. Bu narsa Navoiy va Bobur ruboiylarida uchraydi. Avaz O‘tar ham ustozlari izidan borib, qator ruboiylarida mohirlik bilan taxallusdan foydalanadi:

*To bo‘ldi ul oyning ishqig‘a zor **Avaz**,*

*Chekmak ishidur kulfatu ozor Avaz.
Javr ila jafu chekib qilur subh-u maso,
Mehr ila vafo rusumin izhor Avaz.*

Ko‘rinadiki, o‘zbek adabiyotida juda qadimgi davrlardayoq dunyoga kelgan ruboiy asrlar o‘tishi bilan o‘sib, o‘zgarib, yangi xususiyatlar bilan boyib bordi. Ruboiyning o‘zbek she‘riyatida haqiqiy yuksalish bosqichlariga ko‘tarilishida Xorazm adabiy muhiti vakillari Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Ogahiy, Ahmad Tabibiy, Komil Xorazmiylar qatorida Avaz O‘tar singari shoirlarning alohida xizmatlari katta bo‘lgan. Manbalar guvohlik berishicha, Avaz Xorazmdagi jadid adabiyotining eng yirik, sermahsul namoyandasi edi. Ulkan ijodiy merosining hozirgacha faqat beshdan bir qismi nashr etilganini hisobga olsak, fondlarda saqlanayotgan qo‘lyozma va toshbosma asarlarini o‘rganish tufayli shoir poetik iste‘dodi va ma‘rifiy yetukligining yangi qirralari kashf etilishi mumkin[4, 7]. Demak, Avaz adabiy merosini joriy imloga tabdil qilib nashr ettirish adabiyotshunosligimiz oldida turgan navbatdagi dolzarb vazifalardan biridir.

Xullas, Avaz O‘tar ruboiy janrini yangi fikr, tuyg‘u, yangi obrazlar, go‘zal badiiy san‘atlar bilan boyitgan ijodkordir. Avaz O‘tar ruboiylari buyuk shoirning teran faylasuf, o‘z davrining donishmandi bo‘lgan ulkan mutafakkirligini ko‘rsatuvchi muhim badiiy hujjatlar sifatida juda qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avaz O‘tar. Saylanma. –Toshkent:1984.
2. Haqqulov I. O‘zbek adabiyotida ruboiy. –Toshkent:1981.
3. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. –Toshkent:1961.
4. Саиджонова З. Жадидчилик ва Хоразм адабий мухити//Шарқ юлдузи. 2016. №4; - Б. 1-7.
5. G‘afur G‘ulom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. 1-jild. –Toshkent: 1971.



AVAZ O‘TAR ASARLARI ELEKTRON LUG‘ATINI YARATISHNING LINGVISTIK MODELII

Shahnoza ALIMOVA,
f.f.f.d, Urganch davlat universiteti
Bonu SA‘DULLAYEVA,
talaba, Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Zamonaviy davrda milliy ma‘naviy merosimizning yirik namunalardan biri bo‘lgan Avaz O‘tar asarlarini o‘rganish o‘zining ilmiy asoslariga

ega. Lirik namunalardan biri bo'lgan Avaz O'tar asarlarini o'rganish, uning asarlari dialektik lug'atini yaratish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada bu masalani ilmiy tahlil qilish va ular bo'yicha yangicha ko'rinishdagi sxemalar tayyorlash mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlari: Avaz O'tar asarlari tahlili, Avaz O'tar asarlari lug'ati, lug'at sxemalari, model, Avaz O'tar asarlar modeli, milliy korpus.

Abstract. The study of Avaz O'tar's works, which are one of the great examples of our national spiritual heritage in modern times, has its own scientific basis. Studying the works of , Avaz O'tar one of the lyrical examples, creates the need to create a dictionary of his works. In our research, the main emphasis is on scientific analysis of this issue and preparation of new-look schemes for their application.

Keywords: Analysis of Avaz O'tar's works, dictionary of Avaz O'tar's works, vocabulary schemes, model, model of Avaz O'tar's works, national corpus

Аннотация: Изучение произведений , являющихся одним из великих образцов нашего национального духовного наследия современности, имеет свою научную основу. Изучение произведений Аваз Утар, одного из лирических образцов, порождает необходимость создания словаря его произведений. Основной упор в нашем исследовании делается на научный анализ этого вопроса и подготовку новых схем их применения.

Ключевые слова: Анализ произведений Аваз Утар, словарь произведений Аваз Утар, словарные схемы, модель, модель произведений Аваз Утар, национальный корпус.

Bugungi kunda tilimizga boshqa chet tillaridan so'zlar kirib kelishi jadallashgan va bu zamonaviy axborot texnologiyalari bilan bog'liqligini esa hech kim inkor eta olmaydi. So'zlarni o'zlashtirish har qanday tilning so'z boyligini rivojlantirish va kengaytirishning hal qiluvchi omilidir. Shu bilan birga lug'at boyligimizni rivojlantirishda ichki qatlamga kiruvchi adabiyot namunalari ham murojaat qilamiz. Biroq shuni tan olish kerakki, til jamiyatdagi o'zgarishlar bilan birga rivojlanadi. Shu sababli, lug'at yaratish jarayonlarini takomillashtirish, lug'at omborini boyitish va zamonaviy tildan foydalanishga mos keladigan davriy yangilanishlar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Til modeli deb ham ataladigan lingvistik model inson tilini tushunish va yaratish uchun mo'ljallangan sun'iy intellektga asoslangan tizimdir. Bu tabiiy tilni qayta ishlash va sun'iy intellekt dasturlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Lingvistik modelning asosiy maqsadi ma'lum bir tilda so'z ketma-ketligining ehtimolini bashorat qilishdir [2, 24].

Elektron lug'at, shuningdek, raqamli lug'at sifatida ham tanilgan, so'z ma'nolari, tarjimalari, imlolari va til bilan bog'liq boshqa tafsilotlarga tezkor kirishni ta'minlash uchun mo'ljallangan ko'chma elektron qurilma yoki dasturiy ta'minotdir [1, 56]. U qo'shimcha funksiyalarni taqdim etish bilan birga an'anaviy qog'oz lug'atlarning zamonaviy o'rnini bosuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur sohaning rivojlanishi natijasida turli nomlarda elektron lug'atlar yaratilmoqda. Eng mashhur elektron

lugʻatlar sirasiga CONTEXT, ABBY LINGVO, MULTITRAN, POLYGLOSSUM, MULTILEKS kabilar kiradi.

Avaz Oʻtar asarlari elektron lugʻatini yaratishda maʼlumotlar modeli loyihalashning birinchi bosqichida soʻzlarning joylashuvi va ularning ifodalanishi katta rol oʻynaydi.

Modelni lingvistik asoslash uchun “Gulruhlar aro...” deb boshlanuvchi ruboiysidan foydalanamiz.

*Gulruhlar aro mehr-u vafo nodiru shoz,
Juz mehnatu ozor-u jafo nodiru shoz.
Vasl ayshini ayyomini der ahli xirad,
Andoqki gul umriga baqo nodir-u shoz* [5, 314].

Soʻzlarni tahlil qilishda modellaridan foydalanish Avaz Oʻtar asarlari lugʻatini yaratishning asosiy bosqichi hisoblanadi.

Baytlarni tahlil qilish modellari:

Baytlar tarkibidagi soʻzlarni tahlil qilish.

Tinish belgilarini tahlil qilish.

Baytlar tarkibidagi soʻzlarni boʻlaklab olish modellari.

Soʻzlarni izohlarga moslashtirish.

Baytlar tarkibidagi soʻzlarni umumiy maʼnosini izohlash.

Baytlar tarkibidagi soʻzlarni nutqiy koʻrinishga aylantirish.

1. Bayt tarkibidagi soʻzlarni tahlil qilish.

Baytlar tarkibiga nazar soladigan boʻlsak soʻzlar va belgilar quydagicha asoslanadi. Baytlardagi belgilar oʻz navbatida asosiy va ikkilamchi belgilar maʼnolarini oʻzida jamlaydi.

Gulruhlar, aro..., mehr, vafo nodiru, shoz, juz, mehnatu, ozoru, jafo, nodiru, shoz, vasl, ayshini, ayyomini, der, ahli, xirad, andoqki, gul, umriga, baqo, nodir, shoz kabi baytlarda qoʻllanilgan soʻzlarning barchasi asosiy belgilar tarkibini shakllantiradi.

Kompyuter dasturlashda kalit soʻzlar odatda vergul bilan ajratiladi (lingvistik nuqtayi nazardan boʻsh joy ekvivalenti) va dasturiy taʼminotning maʼlumotlar modelida belgilar sifatida saqlanadi, har bir belgi oʻziga xos semantik ahamiyatga ega. Keyinchalik bu mazmunli belgilar ilmiy asoslangan tushuntirishlar bilan bogʻlanadi.

2. Tinish belgilarini tahlil qilish. Elektron lugʻat modelini yaratish jarayonida tinish belgilarini tekshirish va ularning umumiy mazmunini ajratib olish kerak edi. Tokenni tahlil qilish bosqichida har bir token tahlil qilinadi va keyinchalik maʼlumotlar modelida qayd etiladi. Tokenizatsiya har qanday matn tahlili uchun bajariladigan dastlabki ishlov berish vazifalaridan biri boʻlganligi sababli, koʻplab tokenizatorlar keng qoʻllaniladigan NLP kutubxonalariga kiritilgan [3,18].

3. Baytlar tarkibidagi soʻzlarni boʻlaklab olish modellari. Gʻazal baytlarida uchraydigan soʻzlarni kompyuter tiliga tarjima qilish jarayonida lingvistik modeldan foydalaniladi. Kompyuterlar sohasida soʻzlar orasidagi boʻshliqning mavjudligi yangi soʻzning boshlanishini anglatadi. Tokenizatsiya modelidan foydalanish ketma-ket belgilarni diskret birliklarga ajratishni osonlashtiradi. Tokenizatsiya maʼlumotlarni qimmatli birliklar ketma-ketligiga aylantiradigan asosiy jarayondir [4,32].

4. Bu bosqichda soʻzlar izohlarga moslashtiriladi.

5. *Baytlar tarkibidagi soʻzlarni umumiy maʼnosini izohlash.* Umumiy maʼnoda baytda qatnashgan barcha soʻzlar izohlanadi va foydalanuvchiga baytning mukammal maʼnosi taqdim qiladi. Bu jarayonni shakllantirish uchun har bir bayt umumiy tahlil qilinadi va umumiy izohlanadi, moslashuvchanlik asosida har bir bayt indekslanadi va maʼlumotlar modelida qayd qilib boriladi.

6. *Baytlar tarkibidagi soʻzlarni nutqiy koʻrinishga aylantirish.* Matnlarni nutqiy koʻrinishga aylantirish texnologiyasi yozma matnni eshitiladigan nutqqa aylantiradi, bu esa kompyuterlarga jumlar yoki paragraflar kabi yozma tarkibni ogʻzaki soʻzlarga aylantirish imkonini beradi.

Xullas, lirik namunalardan biri boʻlgan Avaz Oʻtar asarlarini oʻrganish, uning asarlari dialektik lugʻatini yaratish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bunday lugʻatlar raqamli lugʻat sifatida soʻz maʼnolari, tarjimalari, imlolari va til bilan bogʻliq boshqa tafsilotlarga tezkor kirishni taʼminlash uchun moʻljallangan koʻchma elektron qurilma yoki dasturiy taʼminot vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Avaz Oʻtar. Saylanma. –T.: Gʻafur Gʻulom. 1984.
2. Christopher. D. Foundations of Statistical Natural Language Processing(NLP). – Hinrich Schütze . 1999.
3. Gilles-Maurice de Schryver. ” LEXICOGRAPHERS’ DREAMS IN THE ELECTRONIC DICTIONARY AGE” International Journal of Lexicography. No. 2. 2003.
4. Poʻlatov A.Q. Kompyuter lingvistikasi. – T.: 2009.
5. Xolmonova Z. T. Kompyuter lingvistikasi asoslari. –T.: 2016.



AVAZ OʻTAR SHEʼRIYATIDA MAʼRIFATPARVARLIK VA JADIDCHILIK GʻOYALARINING BADIY TALQINI

Guliston ABDULLAYEVA,
mustaqil tadqiqotchi,
Urganch Ranch texnologiya universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Avaz Oʻtar sheʼriyatida maʼrifatparvarlik, jadidchilik gʻoyalarining badiiy talqini xususida soʻz boradi. Bu gʻoyalar ifodasida shoir badiiy mahorati ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема художественной интерпретации идей просветительства и джадидизма в поэзии Аваза Утара.

Раскрывается мастерство творца в передаче указанных идей.

Annotation: This article highlights the artistic interpretation of the ideas of enlightenment and jadidism in the poetry of Avaz Otar. The artistic skill of the poet in the expression of these ideas is revealed.

Kalit so‘zlar: Avaz O‘tar, shoir, she‘riyat, ma‘rifatparvarlik, jadidchilik, mahorat, badiiyat.

Ключевые слова: Аваз Утар, поэт, поэзия, просветительство, джадидизм, мастерство, художественность.

Key words: Avaz Otar, poet, poetry, enlightenment, jadidism, skill, poetics.

Ma‘lumki, jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Kavkazda bog‘chasaroylik Ismoilbek Gasprali tomonidan boshlangan. Bu harakat, avvalo, ma‘rifatparvarlik ko‘rinishida namoyon bo‘lgan. Keyinchalik jadidchilik harakati sifatida maydonga keldi va butun bir ijtimoiy hayotni yangilashni nazarda tutdi. Mazkur harakat turli hududlarda turli darajada vujudga keldi. Jadidchilikning ulkan tadqiqotchisi B.Qosimov shunday yozgan edi: “Jadidchilik yakrang emas, bir xil babaholanishi mumkin emas. Jadidchilik Turkiston, Buxoro, Xivada turli miqyos va ko‘lamda namoyon bo‘ldi”[2,16]. Darhaqiqat, jadidchilikning asosi Xorazmda quyidagilarga borib taqaladi. Bu haqda adabiyotshunoslar H.Abdullayev, M.Yo‘ldoshyevalar shunday yozadi: “Xorazmda jadidchilikning asosi – ma‘rifatchilik shoh saroyi amaldorlari, shaxsan Feruz tomonidan boshlandi va dastlab madaniy-adabiy sohada ko‘rindi”[3,14]. Ma‘rifatparvarlik takomil topib, jadidchilik ko‘rinishini oldi. Feruz davri Xorazm adabiy muhitining yetakchi namoyandalaridan biri Avaz O‘tar she‘riyatida ham ma‘rifatparvarlik, jadidchilik g‘oyalari umrining so‘nggi yillari ijod namunalarida aks etdi. Jadidlar, eng avvalo, maorifni, matbuotni, adabiyotni yangilashga harakat qildilar. Bularni o‘z badiiy asarlarida, maqolalarida qalamga oldilar. Shuningdek, yoshlarning ilm olishi, til o‘rganishi, xotin-qizlarning ma‘rifatli bo‘lishi masalasiga asosiy masalalardan deb qaradilar. Bu kabi g‘oyalar ma‘rifatparvarlarning, jadidlarning asarlarida o‘z aksini topdi. Avaz O‘tar she‘rlarida ham bu kabi g‘oyalar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir “Maktab” radifli she‘rida maktab ochishga, unda yoshlarni o‘qitishga da‘vat etdi. Maktab g‘am kishanlaridan insonlarni ozod etishini, farzandlar umrini obod qilishini go‘zal misralarga joyladi:

*Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
O‘qusin yoshlarimiz, ko‘nglini shod etgusi maktab.
Dil-u jon birla el maktab ocharga ijti hod etsin,
Nedinkim, bizni g‘am qaydidin ozod etgusi maktab.
Ko‘ngullarning sururi, dog‘i ko‘zlar nuridir farzand,
Alarning umrini, albatta, obod etgusi maktab...[1;38].*

Jadidlar chet tillarini o‘rganish masalasini ilgari surdilar. Chunki dunyoga chiqish uchun dunyoviy ilm-fan lozimligini ular anglab yetdilar. Dunyoviy ilm-fanni egallashning bir vositasi til o‘rganishdir. Turkiston jadidlarining boniysi Mahmudxo‘ja Behbudiy bu masalaga doir “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasini yozdi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘rganishning ahamiyati ochib berildi. Avaz O‘tar esa chet tillarni o‘rganish masalasini she‘rga soldi:

*Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositai robitai olamiyondur.
G'ayri tilini say' qiling bilgali yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g'ayrat eting foidai kondur... [1,180].*

Jadidlar millat va milliyat masalalariga katta e'tibor qaratganlar. Jahon sahnida millatning o'z o'rniga ega bo'lishi uning ilm-u ma'rifatga, fidoyi farzandlariga bog'liqligi ta'kidlangan. Avaz O'tar ham millat kelajagi uchun qayg'uradi. Vatanparvar fidoyi firqalar paydo bo'lishini istaydi. Millat yo'liga insonlar moli va jonini fido qilishi lozimligini uqtiradi. Shundagina millat bolalari, vakillari jahonga mashhur bo'lishidan bong uradi:

*Topar erkan qachon, yo rab, hayoti jovidon millat?
Topib ilm-u hunar birla maorifdin nishon millat?
Vatanparvar fidoyi firqalar to bo'lmayin paydo,
Na mumkin topmog'i o'lgan tanig'a toza jon millat?!
Fido millat yo'liga mol-u jon etmak kerak, har kim
Bo'lay desa, agar avlodi mashhuri jahon millat [1,194].*

Ma'lumki, XVI-XIX asrlarda yurtimizda taraqqiyot orqaga ketdi. Faqat o'z maishatini o'ylagan ko'pgina xonlar, amirlar xalqni tanazzulga boshladi. Bu holni o'z ko'zi bilan ko'rgan ma'rifatparvarlar xalqning og'ir ahvoriga achindi. Ular tanazzuldan chiqish yo'llarini ko'rsata boshladilar. Avaz O'tar Xorazmda ana shunday ma'rifatparvarlarning yalovbardorlaridan biri bo'ldi. O'zining xalqchil, g'azabnok fikrlari bilan millatni ilm-ma'rifat egallashga chorladi. Xalqni ko'zlarini ochishga da'vat etdi. Shu yo'l bilan taraqqiyotga erishish muqarrarligini ko'rsatdi. Otashin chaqiriqlar bilan xalqchil she'rlar yozdi:

*Yo'q jahon mulkida bizdek ojiz-u bechora xalq,
Zulm tig'i birla bo'lg'on bag'ri yuz ming pora xalq.
Bir necha avboshlar mundog' hukmron aylasa,
Qolmag'ay, ori, na yanglig' mehnat-u ozora xalq...
Ko'zlarin ohista-ohista agar ochsa zamon,
Ey Avaz, bo'lmas muningdek borho ovvora xalq [1;245].*

Shoir xalqni qoloqlikka yuz tutishiga sabab bo'lganlarni ham ayovsiz fosh qildi. Ularga nafratini ochiq-oshkora bayon qildi. Boshqa ma'rifatparvarlarda, jadidlarda bo'lgani singari chaqiriq, da'vat yo'lidan borib, ba'zi misralarda sof badiiyatdan uzoqlashdi. Shunday bo'lsa-da, bu she'rlar xalqchilligi bilan, reallikka asoslangani bilan shuhrat qozondi.

*Yo'q bo'ling tezdin ko'zimdin, xalq aro sharmandalar,
Xalq g'amidin o'zni narroq tutg'uchi begonalar.
Hayqirib erta-yu kech sizlar muazzin o'rnida,
Bo'ldingiz yolg'onchilikda el aro ovozalalar...
Ey Avaz, qil jidd-u jahd sen el bilan shom-u saboh,
Qolmagay olamda bori xon-u haromizodalar [1,169].*

Avazning xalqparvarlik ruhida yozganlaridan bosh maqsadi erk-ozodlik edi. Ozodlik tufayli millat mavjud bo'lishini u anglab yetdi va shu bois ham erkni kuyladi. Bir she'rida erkni kuylaganini zo'r mahorat bilan qalamga olgan bo'lsa, boshqa bir g'azalida xalqi uchun qoni to'kilishini orzu qildi:

*Qabih onlarda erkni kuyladim, do'stlar, birodarlar,
Ezilgan elga bo'lg'ay bu zamon iqbol yorug' borgoh [1,153].*

Yoki:

*Na yaxshi o'ylakim, ma'qul-u manzur,
Avaz, xalqim uchun to'kulsa qonim [1,129].*

Xullas, Avaz O'tar milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakilidir. Uning asarlarida ma'rifatparvarlik, jadidchilik g'oyalari o'ziga xos tarzda qalamga olindi. Shoir yangi maktablar ochishni, yoshlarni ilm-fan egallashlari uchun sharoitlar yaratishni, chet tillarini o'rganishni targ'ib qildi. Xalqning og'ir ahvolidan dili ozorlandi. Millatning barcha jabhalarda taraqqiyotga erishishi uchun ilm-ma'rifat zarurligini she'rga soldi. Eng asosiysi, erkni kuyladi, o'zi misolida insonlarni xalqi uchun jon fido qilishga chorladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avaz. Devon. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
2. Qosimov B. Jadidchilik/O'zbek tili va adabiyoti. 1990. №4.
3. Abdullayev H, Yo'ldoshyeva M. Xorazm jadidchiligi xususida (masalaning qo'yilishiga doir) // Badiiy tafakkur va adabiy jarayon. 2008. №10.



MUTRIB XONAXAROBIIY VA AVAZ O'TAR SHE'RIYATIDA DIALEKTIZMLARNING QO'LLANISHI

Adolat ALLABERGANOVA,
*O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi,
Urganch davlat universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mutrib Xonaxarobiy va Avaz O'tar she'riyati tilida ifodalangan dialektizmlar tahlil qilingan va lingvopoetik jihatdan badiiy xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ikkala ijodkor lirikasida sheva elementlarining o'xshash tomonlari izohlangan.

Аннотация: В данной статье анализируются диалектизмы, выраженные в

языке Мутриба Хонахароби и поэзии Аваза Утара, и показаны их лингвопоэтические художественные особенности. Также схожие аспекты диалектных элементов объясняются в текстах обоих исполнителей.

Annotatsion. In this article, dialectisms expressed in the language of Mutrib Khonaharobi and Avaz O'tar's poetry are analyzed and their linguopoetic artistic features are shown. Also, the similar aspects of dialect elements are explained in the lyrics of both artists.

Kalit so'zlar: Lingvopoetika, lirika, eski o'zbek tili, badiiy matn, dialektizm, o'g'uz, leksika, sheva.

Ключевые слова: Лингвопоэтика, лирика, староузбекский язык, художественный текст, диалектизм, огузы, лексика, диалект.

Key words: Lingvopoetics, lyrics, old Uzbek language, artistic text, dialectism, Oghuz, lexicon, dialect.

Xorazm adabiy muhitida ijod qilgan Mutrib Xonaxarobiy va Avaz O'tarlar Xiva shevasi vakili bo'lib, og'uz lahjasi elementlari ularning ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbek tili sheva va lahjalarga nihoyatda boy til hisoblanadi. Ayniqsa, o'g'uz shevasi turkiy tillarga xos asosiy xususiyatlarni o'zida namoyon qiladi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib nasriy asarlarga emas, nazmiy asarlar ham jonli tilga yaqinlashdi. Asar tili orqali haqqoniy tuyg'uni tasvirlash va xalq so'zlashuv tilini kitobiy tilga singdirish, shirador tildan foydalanish orqali kitobxonni asarga oshufta qilish chinakam ijod sohibining mahorati hisoblanadi. Xalq so'zlashuv tiliga xos xususiyatlarni ijodkor asarlarida shevaga xos so'zlarni qo'llashida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Mutrib Xonaxarobiyning quyidagi she'rida sheva elementlari o'z ifodasini topgan:

*Alimdin ixtiyorim ketganini,
Ko'rib lutf ayladi yor vafodor.*

Ushbu baytda qo'llangan "alimdin" so'zi "qo'limdan" so'zining Xorazmcha (Xiva, Xonqa, Urganch) shevasi hisoblanadi. Mutribning quyidagi g'azalida hudud shevasidan mohirona foydalanilganligini kuzatamiz:

*Qachon qilsam nigoh ruxsori toboningni gizlarsan,
Tilar ersam ziloling la'li xandoningni gizlarsan.*

Bu bayt Mutribning "Gizlarsan" radifli g'azalining matlasi hisoblanadi. G'azalning barcha baytlari ana shu radif bilan yakunlanadi va g'azalni o'qiganda *gizlarsan* so'zi musiqiy ohang berib, Xorazm shevasini namoyon qiladi. Radif sifatida qo'llangan bu so'z hozirgi o'zbek tilida *yashirmoq*, *berkitmoq* ma'nosini beradi. Shoir baytda *yashirarsan* demay, xalq so'zlashuv tilida *gizlarsan* deb qo'ya qoladi, ya'ni qachonki men nigohimni qaratsam, porloq, nurli yuzingni yashirasan, ziloling tilasam la'li xandoningni, ya'ni kulgungni yashirasan deydi. Yoki maqtada:

*Agar mutrib kabi olsam qo'ling'a sozi ziynat,
Ajab ikki sumanso anbar afshoningni gizlarsan.*

Boshdan oxirigacha shevaga xos *gizlarsan* so'zi g'azalning barcha baytlarda takror-takror qo'llanadi va to'liq Xorazm ijodkoriga xos ohang va koloritni bera oladi.

Mutribning zamondoshi Avaz O'tar she'riyatida ham Xorazm shevasiga xos birliklarni uchratishimiz tabiiy. Chunki har bir ijodkor o'z ilhom torlarini chertib, dilidagini qog'ozga tushish paytida o'z xalqi farzandi ekanini unutmaydi, iloji boricha misralarda xalqiga xos ruhni bag'ishlashga urunadi. Jumladan, "Millat" radifli g'azalida o'g'uz lahjasi Xiva shevasiga oid quyidagi birlik ko'zga tashlanadi:

*Bu yanglig' olam ahlidin keyin qolmay yurush ayla,
Avaz, bo'lg'ay uyonib komgor-u komron millat [1,194].*

Baytda hozirgi o'zbek tiliga xos uyg'onib so'zi o'rinda Xorazm shevasiga xos uyonib so'zi qo'llangan. G'azal mazmuni millatning ilm-ma'rifatli, hunarli bo'lishi, jaholatdan uyg'onishi, taraqqiy qilishiga qaratilgan bo'lib, shoir bu maqsadga erishish uchun har kim mol-u jonini fido etishi kerakligini uqtiradi:

*Fido millat yo'lig'a molu jon etmak kerak, har kim,
Bo'lay desa, agar avlodi mashhuri jahon millat [1,194].*

G'azal maqtasida esa mazmun kuchini oshirish va xalqqa qarata da'vat kuchli ifodalash uchun shevaga xos uyonib so'zidan foydalanadi. Bu so'zni Mutrib zamondoshi Avaz ijodida adabiy tilga xos shaklda ham uchratishimiz mumkin:

*Yotar erdi to hashr uyg'onmayin,
Saningdek esa odamizoda shayx.*

Ko'rib turganimizdek, "Shayx" radifli g'azalda uyg'onmoq so'zining adabiy me'yor shakli qo'llangan va o'z navbatida eski o'zbek adabiy tiliga xos lingvistik xususiyatlarni namoyon qilgan. Demak, Mutrib va Avaz O'tarlar leksikasida o'g'uz guruh (Xorazm shevasining o'g'uz guruhiga yaqinligi tufayli) tillarining ta'sirini uchratamiz. Mutribda:

*Ko'rgach yuzingni bo'lmisham majnuni sargardon sango,
Yo'q chorai dardi dilim fosh etgali pinhon sango [3,1].*

Avaz O'tarning yana bir she'rida leksik dialektizming yorqin ifodasini ko'rishimiz mumkin:

*Bilmadim, yo rabbano, vah ne balodur o'ksuruk,
Kim tutub behadd-u son jonim olodur o'ksuruk [1,108].*

Yoki:

*Har kasalg'a mubtalo bo'lg'onni ko'rdum dahr aro,
Borchasidin ham yomonroq mojarodur o'ksuruk.*

Xorazm shevasida ishlatiluvchi o'ksuruk so'zi adabiy tilda yo'tal deb yuritiladi. She'r mazmunidan ma'lumki, muallif o'ksuruk bo'lgan va bu kasallikdan qattiq aziyat chekkan. Shunisi ma'lumki, rasmiy doiralarda yoki yozma nutqda, albatta, adabiy tilga amal qilish shart, lekin har bir shaxs o'z fikrini erkin ifodalashda, shuningdek, o'z ichki dard va quvonchlarini bayon qilishda o'z shevasidan foydalanadi va o'zi tug'ilib o'sgan hududga xos ruhni gavdalantiradi. Boisi, har bir sheva insonning ruhiyatidan mustahkam o'rin egallagani bo'ladi. "Har bir xalq o'z mahalliy shevalarida muloqot yuritadi, binobarin, xalq o'z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig'ini, moddiy va ma'naviy dunyosini, his-tuyg'ularini ifoda qiladi hamda bu jarayonda u to'xtovsiz rivojlanish sari faoliyatda bo'ladi va boyib boradi" [2, 62].

Xuddi shu hol badiiy adabiyotda ham o'z aksini topgan. Avaz O'tar ham dardini

kuchli bayon qilish uchun ushbu “o‘ksuruk” radifli g‘azalda sheva elementlarini juda ko‘p o‘rinda qo‘llagan:

*Har kasalg‘a mubtalo bo‘lg‘onni ko‘rdum dahr aro,
Borchasidin ham yomonroq mojarodur o‘ksuruk.*

Ushbu baytda *barcha* jamlash olmoshi *borcha* tarzda shevaga xos fonetik o‘zgarishda qo‘llangan.

Yoki keyingi baytda:

*Ro‘z-u shab doru yedim, sud etmadi bir zarracha,
Tong emaskim, gar der ersam bedavodur o‘ksuruk.*

Yuqoridagi baytda *doru yedim* birikmasi ham o‘g‘uz lahjasiga oid birlik bo‘lib, bu birikma adabiy tilda yoki Xorazm shevalarining qarluq lahjasida *dori ichmoq* shaklida qo‘llaniladi. Bugungi kunda ham Xiva aholisi vakillari o‘z shevalarida *dori ichmoqni dori yemoq* shaklida qo‘llaydilar va misrada ishlatilgan birikma ham shoirning Xiva sheva vakili ekanligini yana bir bor namoyon etadi.

Xullas, Navoiy, undan keyingi davrda Ogahiy, Munis o‘zbek adabiy tilida buyuk asarlar yaratib, o‘z asarlari bilan o‘zbek tilini xalq tiliga yaqinlashtirgan bo‘lsa, Mutrib Xonaxarobiy va unga zamondosh Avaz O‘tar ham shu an’anani davom ettirdilar. Buning dalilini yuqoridagi izohlar orqali ma’lum qisminigina ko‘rdik. Demak, har bir ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratini va asar tili imkoniyat darajasini baholash uchun, avvalo, leksik vositalarga, ularning ma’nosiga va tuzilishiga diqqat qaratish lozim. Har qanday matnda tilning turli birliklari o‘ziga xos tarzda ishtirok etadi. Zero, Mutrib va Avaz O‘tar she’riyati tilining tarkibiy tahlili o‘zbek adabiy tilining leksik taraqqiyotini o‘rganishga, shoirlar she’riyati tilining davri hisoblanuvchi – eski o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda katta imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аваз Ўтар ўғли. Сайланма. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.
2. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent. Nodirabegim nashriyoti, 2021.
3. Пирназаров М. Мутриб Хонахаробий. Рисола-мажмуа. – Тошкент, 2001.



II. O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI

YURT MUSTAQILLIGINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQUISHDA JADIDCHILIK G‘OYALARI TA’SIRI

Damin TO‘RAYEV,
filologiya fanlari doktori, professor (QarDU)
Obit KARIMOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
(NamDU)

Annotatsiya: Milliy istiqlol g‘oyasining shakllanishi va kamol topishida tariximizdagi turli ijtimoiy-siyosiy harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana

shunday siyosiy harakatlardan biri jadidchilik harakatidir. Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining mazmun va mohiyati, maqsad va vazifalari ochib beriladi. Xususan, uning asosiy g'oyasini yurt mustaqilligi, xalq ozodligi, uning ma'rifati va madaniyatini yangi bosqichga olib chiqishdagi faoliyatiga urg'u berilgan. Maqolada jadidchilikning dastlabki faoliyatida qaysi yo'nalishlar yetakchilik qilgani, so'ngra madaniy-ma'rifiy jabhaning qaysi sohalarini qamrab olganligi haqida tahliliy fikr yuritiladi. Maqolaning asosiy qismida jadid g'oyalarining bugungi kunda - Yangi O'zbekistonni bunyod etishimiz jarayonidagi o'rini ko'rsatib berishga asosiy e'tibor qaratilgan. Maqolaning xulosa qismida, jadidlar olg'a surgan g'oyalar bugungi kunda jamiyat va millat manfaatini himoya qilishda qanchalik dolzarb ahamiyat kasb etishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Jadid, jadidchi, jadidchilik, usuli jadid maorifi, matbuot, teatr, adabiyot, san'at, g'oya, jadid adabiyoti.

Abstrast: Various socio-political movements in our history are important in the formation and maturation of the idea of national independence. One of such kind of political movement is the jadidism. In this article written about the content and essence, goals and objectives of the jadids' a movement that arose in the Turkestan region in the late 19th and early 20th centuries. In particular, jadids' work in bringing enlightenment and culture to a new level, their main idea were emphasized by the independence of the land, the liberation of the people. In the article, the author provides an analytical idea of which directions led in the early activities of jadidism, and then which areas of the cultural and educational front were covered. In the main part of the article, the main focus is on showing the place of jadids' ideas in the process of our construction of today - New Uzbekistan. In the summary section of the article, the advanced ideas of the jadids show how relevant importance they have today in protecting the interests of society and the nation.

Key words: Jadid, jadids, jadidism, method of jadid education, press, theatre, literature, art, idea, jadid literature.

KIRISH: Jadidchilik xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi muhim siyosiy harakat hisoblanadi. Bu harakat mustamlaka Turkistonning yangi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bo'lgan ehtiyoji asosida XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida ulkan aql-zakovat va tafakkur egalari tomonidan yuzaga kelgan edi. Jadidchilik harakatining asosini yurt mustaqilligi, xalq ozodligi, uning ma'rifati ta'lim-tarbiyani va madaniyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish tashkil etar edi. Natijada xalqimiz so'zlashuv tilida "jadid", "usuli jadid" degan so'z va iboralar qo'llana boshladi. "Jadid" so'zi arabcha bo'lib – yangi, yangilik tarafdori ma'nosini anglatadi. Bog'chasaroylik qrim-tatar ziyolisi Ismoil G'aspirali asos solgan bu harakat dastavval maorifda, so'ngra matbuot va teatr, adabiyot va san'atda keng faoliyat ko'rsata boshladi. Darhaqiqat, Ismoil G'aspirali uning asosiy maqsadini "... boshqa bir uquv, boshqa bir maktab demak dagildir" deya ta'riflagan edi. Istiqloq sharofati bilan bu harakat faoliyatini o'rgangan mutaxassislar uni haqli ravishda "Milliy uyg'onish davri" deb atashadi.

XX asr boshlarida o'lkadagi eski maktablarda o'qitish usullari o'rniga yangi tartib

va tarbiya usuli qo‘llanila boshlandi. Jumladan, o‘quvchilarning xat-savod chiqarishida hijo tizimi o‘rniga tovush tizimi kiritildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin kabi fidoyilar sa‘y-harakati bilan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo‘qon shaharlarida “usuli jadid” maktablari ochildi va ular tomonidan bu maktablar uchun turli fanlar bo‘yicha darsliklar yaratildi.

Jadidlar tomonidan nashr etilgan “Oyina”, “Samarqand”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Al-isloh” kabi jurnallar matbuot taraqqiyotida va millat ongining uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi. Ularda nashr etilgan maqolalar yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanishida asosiy omil bo‘ldi.

Jadidchilik harakatining asosiy g‘oyasini yurt mustaqilligi, xalq ozodligi, uning ma‘rifati va madaniyatini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish tashkil etar edi. Shuning uchun ham bu harakat faoliyat ko‘rsatgan davrni “Milliy uyg‘onish davri” deb atashadi. Jadidchilik dastavval maorifda, so‘ngra matbuot va teatr, adabiyot va san‘atda keng faoliyat ko‘rsata boshladi. Umuman olganda, jadidchilik harakatini o‘sha davr adabiy jarayonisiz tasavvur etish mumkin emas. Istiqlol va ozodlikni targ‘ib qiluvchi adabiyot o‘z navbatida “jadidchi”, “jadid adabiyoti”, “jadid adabiyotchisi” deb yuritila boshladi. M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, A.Fitrat, Hamza, A.Qodiriy, Cho‘lpon kabi ijodkorlarimiz jadid adabiyotining atoqli namoyandalari sifatida tom ma‘noda millatning uyg‘oq ko‘zlari edi. Chunki ular o‘z asarlarida millat taqdiri, yurt mustaqilligi va ozodligi haqida qayg‘urdilar. Ana shu maslaklari, millat kelajagi yo‘lida o‘limga tik borishdi. Aytish mumkinki, bular yaratgan badiiy asarlarda olg‘a surilgan va ulug‘langan g‘oyalar milliy istiqlol g‘oyasining sarchashmalari hisoblanadi. Chunki ular o‘z asarlarida kuylagan va olg‘a surgan g‘oyalar mamlakatimizning bugungi ma‘naviy-iqtisodiy taraqqiyot tamoyillariga mos bo‘lib, hozirgi avlod orzu-intilishlariga hamohangdir.

Masalan, A.Fitratning ma‘rifatparvarlik va milliy istiqlol tuyg‘ulari, yurtning madaniyati va iqtisodiy ahvolini yaxshilash borasidagi qarashlarining badiiy ifodasi sifatida 1912-yilda Istambulda tojik tilida nashr etilgan “Hind sayyohi qissasi” e‘tiborlidir. Darhaqiqat, A.Fitratning mazkur asari yoshlarda milliy faxr-iftixor tuyg‘ularini shakllantirish, ularni vatanparvarlik va millatga fidoyilik ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Kitobxon asar bosh qahramoni - sayyoh hikoyasi orqali XX asr boshlaridagi Qarshi vohasidagi mavjud Qarshi, Shahrisabz, Kitob shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan tanisha boradi. Voqealarning sayyoh (muallif) tilidan bayon qilinishi esa asar uslubining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, tasvirlangan voqealar va olg‘a surilgan g‘oyalar mohiyatini ochish hamda tushunishda, kitobxon bilan o‘zaro aloqani “ushlab” turishda juda ham qo‘l kelgan. Sayyoh Qarshi shahrida to‘quvchi korxonasi bilan tanishar ekan, Qarshi alachalari nafis va chidamlilik borasida ruslarning matolaridan ustun turishidan faxrlanadi. Va bu alachalarning bir paytlar Madinai munavvaragacha hududda shuhrat topib, Farangiston molini sindirganligini iftixor ila hikoya qilib beradi. U korxonaga egasining hunarmandchilik kelajagini o‘ylamay ish tutishidan ranjiydi. O‘z xalqining Ovro‘pa xalqlari singari o‘n yil, yigirma yil, hattoki yuz-ikki yuz yil keyingi rivojini ko‘zda

tutish lozimligini uqtiradi. Bu bilan muallif nafaqat o'z davri, balki kelajak avlod taqdiri va o'lka xalqining baxt-saodati to'g'risidagi g'oyalarini bayon qiladi.

Biz hozirda mustaqil yurtimizning ravnaqi, XXI asrdagi avlodning kelajak taqdiri, ularning farovon hayoti haqida o'ylayapmiz. Vaholanki, Fitrat XX asr boshlarida bu kabi muammolarni yechishda ilg'or xalqlar tajribasini o'rnak qilib ko'rsatib, uni tushuntirish asosida olg'a surgan edi. Muallifning o'lkamiz katta yer osti boyliklariga egaligi haqidagi bashorati to'g'riligi bugungi kunda Qashqa vohasidagi Muborak, Sho'rtan, Ko'kdumaloq kabi tabiiy yer osti konlarining kashf etilishi bilan isbotlandi. Muallif olg'a surgan g'oyalar yuzaga chiqib, mazkur boyliklar mustaqil mamlakatimizning istiqboli, xalq farovonligi yo'lida xizmat qilmoqda. A.Fitrat orzu qilgan g'oyalar Qashqa vohasida Yurtboshimiz rahbarligida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarining samarasi sifatida yuzaga kelgan Sho'rtangaz, Muborak va Ko'kdumaloqdagi neft va gaz korxonalarining mustaqil yurtimizning iqtisodiyoti rivojida o'rni va jahon ilm-fan texnikasining murakkab va eng yuksak sifatli uskunolari asosida ishlayotgan zavodlarni boshqarayotgan davrimiz qahramonlari jasoratini mashhur adiblarimizdan Odil Yoqubov "Qashqadaryo gurunglari" nomli publitsistik asarida ehtiros bilan tasvirlab berdi.

XX asr o'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri Cho'lpon o'z davri manzaralarini xalqqa tushuntirishda, uni erkka yetaklashda, ma'rifatli qilish va yurt mustaqilligi uchun kurash tuyg'usini uyg'otishda adabiyotni asosiy vosita deb bildi: "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan,... o'chgan, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkur yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirdg'on, chang va tuprog'lar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydirg'on buloq suvi bo'lg'onlikdan bizga g'oyat kerakdir"[1, 37]. Badiiy adabiyotning ana shunday qudratli kuchi tufayli adib o'z asarlarida mustamlakachilikning siyosiy mohiyati va imperiyaning qattol qiyofasini ochib berdi, vatanparvarlik va erklarparvarlik g'oyalarini olg'a surdi.

Darhaqiqat, badiiy adabiyotning taraqqiyot xususiyatlari o'z davri tamoyillari bilan bog'liq. Bunda adabiyot davrni harakatlantirib turuvchi milliy va umuminsoniy g'oyalarga xizmat qilishi kerak, albatta. Jadid yozuvchilarining asarlarida aynan ana shunday g'oyalar targ'ib qilingan desak xato bo'lmaydi. Jumladan, M.Behbudiyning "Padarkush". Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi bayonoti", A.Qodiriyning "Baxtsiz kiyov", "Millatimga", "Ahvolimiz", Hamzaning "Yangi soadat" kabi asarlarida ma'rifatparvarlik, madaniy- ma'naviy, iqtisodiy, axloqiy-maishiy masalalar talqini orqali targ'ib qilingani fikrimiz dalilidir.

Badiiy adabiyotda milliy g'oyani targ'ib qilish haqida gap ketganda milliylik masalasini chetlab o'tib bo'lmaydi. Chunki adabiyotdagi milliylik undagi g'oya va milliy tafakkurni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan. Shuni eslash joizki, har bir milliy adabiyotda, dastavval, o'sha xalqning xarakteri, hayoti, urf-odatlarini yaratiladi. Milliy tasvir va milliy ruhdan mosuvo bo'lgan asarning badiiy kuchi ham yo'qdir. Zero, badiiy asardagi milliylik mahdudlik va fikriy qashshoqlikdan uzoq bo'lishi, tasvir va g'oyalarni o'zida tajassum etgan obrazlar umuminsoniy va dunyoviy mazmun

kasb etishi kerak. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarini ko‘z oldimizga keltiraylik. Asarda o‘zbek xalqi hayotining milliy manzaralarini ko‘ramiz. Yusufbek hoji, O‘zbek oyim, Mirzakarim qutidor, Oftob oyim, Otabek, Kumush obrazlari tasviri orqali faqat o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy tafakkur va milliy hayot nafasi ufurib turadi. Xalqimizda “Otasining bolasi” degan hikmatli maqol bor. Bu maqol negizida farzand otasiga o‘xshaydi, otasiga tortgan degan ma’no yotadi. Romanda muallif Otabek xarakterini tasvirlar ekan, uning fe’li-atvorida elning vallahati bo‘lgan Yusufbek hojining fazilatlarini mujassam etganiga urg‘u beradi. Buni kitobxon Otabekning marg‘ilonlik nomdor kishilar bilan bo‘lgan muloqotida ko‘rishi ham mumkin:

– “Otaning bolasi-da, – deb Ziyohi shohichi mehmonlarga qarab qo‘ydi.

– Umri uzoq bo‘lsin, – dedi Akram hoji, – yigitlarimiz ichida eng aqlligi ekan... agar xon ko‘tarish manim qo‘limda bo‘lsa edi, xon qilib Otabekni ko‘tarar edim...”

Akademik M.Qo‘shjonov iborasi bilan aytganda, yuksak madaniy saviyasi, umuminsoniy ma’nosi bilan Abdulla Qodiriy yaratgan obrazlar xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishda katta xizmat qildi. Bugun ham, xususan, xalqimizning mustaqillikka erishgan davrida ham xizmatda bo‘lajagi aniq.

Xo‘sh, bugungi hayotimiz uchun, jamiyatimizning ijtimoiy-ma’naviy hayotida jadidchilikning o‘rni qanday? Bugungi yoshlarimiz jadidchilikning millatimiz hayoti va jamiyat tarixidagi xizmatlarini anglashadimi? Nega endi jadidchilik harakati faoliyat ko‘rsatgan davrdan bugungacha bir asrlig vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, jadidchilik olg‘a surgan g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga e’tibor berilmoqda. Ana shular haqida o‘ylaganda davlatimiz rahbarining 2023-yil 11-12-dekabr kunlari poytaxtimizda o‘tkazilgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqloq va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigining nihoyatda dasturulamal ahamiyatga ega ekanligi barcha ziyolilarimizning ko‘nglidagi gap edi. Ushbu tabrikda Yurtboshimizning “Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir” degan fikrlari o‘z hayotiyliigi bilan birga barcha ziyolilarni tahlikali zamonda jadid bobolarimizga xos faollik va tashabbuskorlikka undovchi, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga chorlovchi xususiyatlari bilan ham e’tiborlidir. Prezidentimiz o‘z qarashlarida jadidchilik g‘oyalarining umrboqiyliigi haqida ular ko‘zlagan ezgu-niyatlar bilan bugungi istiqloq yillaridagi intilishlarimiz, orzu-istaklarimiz o‘rtasida uzviylik mavjudligiga e’tiborini qaratmoqda.

Muhtaram Prezidentimizning Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida so‘zlagan nutqida ham xalqimizni ozodlik va ilm-ma’rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizning xizmatlarini ulug‘lab, ularning g‘oyalari jamiyatimiz rivoji uchun dasturulamal bo‘layotganini alohida ta’kidladi:

Xulosa va takliflar: Bugungi ma’rifiy-ma’naviy hayotimizda faoliyat yuritayotgan millatimiz ziyolilari, adabiyot va san’atning yetuk vakillari Prezidentimizning

fikrlaridan ruh va ragʻbat olib, jadidchilikning mazmun va mohiyatini, xususan, ular olgʻa surgan gʻoyalarning Yangi Oʻzbekistonni bunyod etish strategiyasi bilan vobastaligini yurtdoshlarimizning ongu-tafakkuriga singdirishga astoydil kirishganligi ham quvonarli holdir.

Xullas, jadidlar olgʻa surgan millatni maʼrifatli qilish orqali obod Vatan qurish gʻoyasi bugungi avlod zimmasidagi muhim masalalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choʻlpon. Adabiyot nadir. –T.: “Choʻlpon” nashriyoti, 1994 yil.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy oʻzlik, istiqlol va davlatchilik gʻoyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. “Yangi Oʻzbekiston” gazetasi, 2023-yil 12-dekabr.
3. Mirziyoyev Sh. Maʼnaviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. “Yangi Oʻzbekiston” gazetasi, 2023-yil 23-dekabr.
4. Oʻzbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidchilik harakatidan milliy mustaqillikka qadar. –T.: 1998.
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: 1999.
6. Jadidchilik va milliy istiqlol tantanasi. –T.: 2002.
7. Qosimov B. Milliy uygʻonish. –T.: 2002.
8. Choʻlpon. Asarlar. 1-3 jildlar. –T.: 1994.
9. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. –T.: 1999.
10. Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-2 jildlar. –T.: 2000.



XORAZM DOSTONCHILIGI RIVOJIDA BAXSHILARNING OʻRNI

Sabirova Nasiba Ergashevna,
*Xorazm VPYMOʻMM Tillarni oʻqitish
metodikasi kafedrasini mudiri, professor v.b.,
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya: Ushbu maqoladi soʻz baxshi ijrochiligining paydo boʻlishi doston janrining shakllanishi bilan bogʻliq ekanligi, qadimgi madaniyat oʻchoqlaridan biri boʻlgan Xorazmda sanʼatning shakllanishi va taraqqiy etishi haqida soʻz boradi. Shuningdek, Xorazm vohasida eng qadimgi baxshi, oʻz navbatida baxshilar piri Oshiq Oydin haqida ancha ishonarli maʼlumotlar saqlanib qolganligi va bu bilan bogʻliq dostonlar, ularning tarixi haqida ilmiy maʼlumotlar keltirilgan.

Аннотация: В статье рассматривается становление эпического жанра, становление и развитие искусства в Хорезме, одном из центров древней культуры. Также в Хорезмском оазисе есть очень убедительные сведения о древнейших бахши, в свою очередь, пир бахши Ашик Айдын и связанные с ними

былины, научные сведения об их истории.

Annotation: This article deals with the formation of the epic genre, the formation and development of art in Khorezm, one of the centers of ancient culture. Also, in the Khorezm oasis there is a very reliable information about the oldest bakhshi, in turn, the piri of bakhshis Ashik Aydin, and related epics, scientific information about their history.

Kalit soʻzlar: baxshi ijrochiligi, doston janri, zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”, eng qadimgi baxshi, Oshiq Oydin piri, oshiq baxshilar, “Kitobi dadam Qoʻrqut”, Qoʻrqut ota.

Ключевые слова: перформанс бахши, эпический жанр, священная книга зороастризма «Авесто», древнейший бахши, Ашик Айдын пири, ашик бахши, «Китаби дадам Коркут», Коркут ота.

Key words: Bakhshi performance, epic genre, the sacred book of Zoroastrianism "Avesto", the oldest bakhshi, Ashiq Aydin piri, ashik bakhshis, "KitabidadamKorkut", Korkutota.

Baxshi ijrochiligining qachon paydo boʻlganligini, albatta doston janriningshakllanishi bilan bogʻlashga toʻgʻri keladi. Ayrim manbalarda “X-XI asrlarda dostonlarni doʻmbira joʻrligida aytiladiganlari yuzaga kelgan. Dostonning bunday namunalari Kaspiy va Orol dengizlari boʻylaridagi qadimgi koʻchmanchi turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihagoʻylar koʻpayib borgan sari ustoz-shogirdlik anʼanalari vujudga kela boshladi”[1], deb yozadi tarixchi olim T.Pardaev. Professional baxshichilikning shakllanishi bilan bogʻliq holda masalaga yondoshilsa, ushbu fikrga qoʻshilish mumkin. Biroq, baxshichilikning qoʻshiq shaklidagi turli koʻrinishlari yuqorida taʼkidlaganimiz kabi ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi. Qadimiy madaniyat oʻchoqlaridan biri boʻlgan Xorazmda sanʼatning shakllanishi va taraqqiy etishi miloddan oldingi davrlarga toʻgʻri keladi. S.P.Tolstovning “Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasini izlab” kitobida sanʼat tarixi uchun muhim boʻlgan quyidagi soʻzlar bor: “Tuproq qalʼadagi marosimlar zali devorlarida rombsimon kataklarga mashshoqlarning rasmi ishlangan. Shu rasmlardan biri-arfa cholgʻu asbobini chalayotgan ayolning sargʻish rangdagi nafis rasmi butunicha saqlanib qolgan. Shu xonada surnay va qum soati shaklidagi qoʻsh nogʻora tasvirlangan naqsh fragmenti ham topildi. “Arfachi ayol xonasi” ostidan doʻmbiraga oʻxshash ikki torli cholgʻu asbobining pardasini ushlab turgan odamning qoʻli tasvirlangan naqsh fragmenti, yana bir xonadan esa niqob bilan oʻynayotgan ayol tasviri topildi. Bularga oʻxshash rasmlarni Rim davridagi Suriya-Misr va qisman Qora dengizning Shimolidagi muzofoti tasviriy sanʼatida, Oʻrta dengiz vohasi hamda Hindiston, Eron sanʼatida yaratilgan obrazlarda uchratish mumkin. Shu tariqa bu rasmlarda ikki badiiy uslub,

ikki an'ana bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan, biroq ular qadimgi Xorazm san'ati negizida o'ziga xos o'zgarishlarga uchragan" [2]. Miloddan oldingi davridayoq shunday yuksak madaniyatga erishgan xalq orasida iqtidorli baxshilarning yetishib chiqishi ham tabiiy holdir. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"ning yaratilishi va uning "goh"larini kohinlar tomonidan kuylanishi ham kohinlik, shomonlik, baxshilik kasb-korla[3]rining paydo bo'lishiga zamin hozirlagan. Zardushtiylik dini hukmron bo'lgan davrlarda har bir Rustakda (qishloq,mahalla) otashgohlar bo'lib, unda kohinlar "Avesto" kitobini targ'ib qilishgan. Shu sababdan bo'lsa kerak Xorazm dostonlarida "Avesto" va "Shohnoma"ga aloqador mifologiya hamisha o'zini namoyon qilib turadi. Bertels bergan ma'lumotlarga qaraganda XI asrning 1 yarmida Unsuriy degan forsiygo'y shoir yashab, lirik she'rlar yozish bilan birga uchta doston ham yaratgan. U Beruniy bilan bir davrda yashab ijod qilgan. Uning "Vomiq va Uzro", "Xing but-u surxbut (Oq sanam va qizil sanam), "Shodbahru Aynul hayot" kabi dostonlarini Beruniy arab tiliga tarjima qilgan. Ushbu dostonlar orasidagi "Vomiq va Uzro" asari hozirgacha yetib kelgan. Demak, X asrlardayoq turli asotirlar negizida dostonlar ijod qilish, ularni tarjima, targ'ib qilish faol rivojlangan. O'sha davrda ijod qilingan ko'plab dostonlar syujeti turli o'zgarishlar bilan hozirgacha kelib yetgan. Albatta ularni o'qiydigan, ijro qiladigan talantli shaxslarning bo'lganligi ham tabiiydir. Xorazmda ko'l va daryolarda qayiq va kema haydovchilar o'zlarining piri sifatida Nuh payg'ambarni tan oladilar. Temirchilar ish boshlaganda Dovud payg'ambarni yodga solishadi. Xorazm baxshilari esa o'zlarining ma'naviy ustozlari sifatida Oshiq Oydinni e'zozlashadi. Bu tabarruk shaxs turkman baxshilarining ham piri hisoblanadi [4]. To'ra Mirzaevning yozishicha, Samarqand dostonchiligi doirasida baxshilar piri sifatida mulla G'oyib tan olinadi. Ushbu shaxs haqida shu nomdagi doston ham bor [5]. Shuni ta'kidlash kerakki, bir paytlari "Oshiq Oydin" nomli doston ham bo'lgan [6].

Qoraqalpoq va qozoqlarda So'ppasli Sipira Jirov, Ozarbayjonlarda Qo'rqut ota kabi shaxslar ham baxshi, jirovlar piri sifatida ulug'lanadilar. Oshiq Oydin piring nomi "Xirmondali", "Oshiq Najab", "Oshiq Alband" kabi Xorazm dostonlarida ko'plab uchraydi. Ayniqsa "Oshiq Najab" dostonida uning faoliyat doirasiga katta e'tibor qaratilgan. Najab Oshiq Oydin piringa xizmat qilib, uning dutorini sovg'a sifatida olishga muvaffaq bo'ladi. "Xirmondali" dostonida soz va so'z borasida hech bir kimsa yenga olmagan Xirmondalini Oshiq Oydin aytishuvda yengib chiqadi. "Oshiq Alband" dostonida Oshiq Oydin piri epik qahramon taqdirining eng qaltis damlarida Albandga duch kelib, unga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, dalda bag'ishlaydi:

*Tanisangiz nafas etgan piringman,
Oshiqlarning maqsadini bilurman,
Sango duo etgan Oydin piringman,
Ko'pyig'lama, sevar yorni ko'rarsan [7],*

deb ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Dostonlarda oshiq-baxshilar, piri bo'lgan ushbu shaxs haqida ko'plab rivoyatlar to'qilgan. Aytishlaricha uning qabrini tunagan baxshilarga piri sharob tutar ekan, agarda uni shogird ichsa, ulug' sozanda, oshiq-baxshi bo'lib yetishar ekan. "Oshiq Mahmud" dostonining O'ZR FA TAFI folklor bo'limining qo'lyozmalar fondida 1431-

raqamli inventarda saqlanayotgan qo'lyozmasida Mahmudjon va Nigorxonlar suvga cho'kib hayotdan ko'z yumganlarida Oshiq Oydin pir ularni "Jon tana gir" kuyini chalib tiriltiradi. Oshiq Oydin pir dastlabki xalifa Abu Bakr Siddiq (632-634) bilan aloqador silsilaga borib bog'lanadi. Bu silsila o'ziga xos g'oyaviy oqim bo'lib, so'fiylik silsilasi deb yuritilgan. Bu oqimga Abu Ali Ibn Sino, Abul Hasan Haraqoniy, Abu Sayid Maxnaiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Mansur Xalloy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Hamadoniylar ham kirganlar. Oshiq Oydin pir maqbarasining shayxidi saqlanadigan "Tazkirat ul Husayin" nomli kitobda bu haqda aniq ma'lumotlar bitilgan. Shayxning vafoti hijriy yilning 632-sida voqe bo'ldi. Mudqat muboraklari shahri Bo'stonning Diyorbakr haddida hamda Bag'dodda ikki joyda ham ziyoratgohlari bor turur". Bertelsning "So'fizm va so'fiylik adabiyoti" kitobida ushbu davr bilan aloqador muhim ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, o'sha kitobda as-Suhravardiy degan muallifning "Avoriful-maorif" degan ishi haqida so'z yuritib, uning adabiyot va san'at rivojiga qo'shgan katta ulushi xususida aytib o'tadi. Uning Giloniyning shogirdi ekanini ta'kidlab, 1255 (melodiy) yilda vafot etganini qayd qiladi [8]. Ushbu shaxsning Oshiq Oydin pir ekanligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Chunki biz yuqorida ta'kidlab o'tgan "Tazkirat ul Husayn" asarida Oshug'iddinning vatani shariflari Suhravarddir deyilgan. Yana o'sha kitobda aytilishicha shayx hazratlarining "Avorif sharif as Salohiy Had" degan asari ham bo'lib, u Makkada chop etilgan. "Oshiq Najab" dostonida Oshiq Oydingning shahri Bo'stonda yashaganligi, 360 so'fisi borligi, 115 yoshda ekanligi aytib o'tilgan. "Xirmondali"da ham shunga yaqin ma'lumotlar berilgan. Uning Chingizxon bosqinidan keyin 16 yil yashaganligi haqida ma'lumot beruvchi manbalar ham mavjud. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda haqiqatan ham Oshiq Oydin pirning shajarasi Eronning Suhravard shahri bilan uzviy bog'lanadi. Ular uch qarindosh Najib Suhravardiy (1097-1168), Shayx Shahobiddin Abu Hafs Yahyo Suhravardiy (1115-1191) Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy, (1144-1234) bo'lib, Najib Suhravardiy ularga ustozlik qilgan [9]. An-Nasaviyning yozishicha, Xorazmshoh Muhammadning obro'-e'tibori yuksalib, ulug'vor ishlarga qo'l urib boshlaydi va Bag'dodga yurish maqsadini amalga oshirishi ma'lum bo'lib qoladi. Uning bu maqsadidan qaytarish uchun eng obro'li, shayxlar shayxi nomini olgan Shixobiddin as-Suhravardiy Xorazmga elchi qilib yuboriladi. Biroq Xorazmshoh shayxni mensimay kutib oladi. Hatto ancha navbat kutib huzuriga kirganda unga o'tirishga ruxsat bermaydi. Nihoyat shayx unga payg'ambar hadislaridan so'zlamochi ekanini aytadi. Xorazmshoh bunga rozi bo'lib, pastga tushib tiz cho'kib o'tirib, shayxni tinglaydi. Shayx hadis orqali uni urush qilish maqsadidan qaytishga undaydi. Biroq bu harakatlar bekor ketadi. Nihoyat u Bag'dodga yurish qiladi. Ammo qo'shini tabiat injiqliklari tufayli parokandalikka uchraydi. Bundan ta'sirlangan Xorazmshoh as-Suhravardiyning so'ziga amal qilmaganidan pushaymon etib, shayxni qaytadan Xorazmga elchi sifatida kelishga taklif etadi [10]. Sal o'tmay Chingiz bosqini yuz beradi. Shayx Shixobiddin Suhravardiyning Xorazmshoh tomonidan yaxshi kutib olinmaganligi, Shayxning bashorati to'g'ri chiqib, Xorazmshohning xor-zorlikda halok bo'lishi Oshiq Oydingning xalq orasidagi obro'si oshib pir darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'lganligi ehtimolga juda yaqin. Umar Suhravardiyning o'g'li Shayx Zayniddin

(Zayniddin bobo) ham diniy va jamoat arbobi bo'lgan. O'sha soha bo'yicha u Toshkentga ham kelgan. Umar Suhravardiy asos solgan suhravardiylik tasavvuf tariqati deb ataluvchi bu oqim ikki daryo oralig'ida zohidlik maktabi negizida tarkib topgan bo'lib, uning a'zolari hunarmandlar va o'qimishli ziyolilar xisobiga kengayib borgan. Suhravardiylik sunniylik aqoyidchilari bo'lib mo'tadil so'fiylik qarashlarini targ'ib qilganlar. Ular dunyoviy ilm bilan ilohiy ilmning uzviy bog'lanishini tan olishgan. Umar Suhravardiy o'zining 63 bobdan iborat "Avorif ul maorif" asarida "dunyoviy ilm-go'yoki sut, ilohiy ilm esa-uning qaymog'idir" deb yozadi. Uning asarlari arab, fors, nemis va ingliz tillarida nashr etilgan. Maboda e'tibor berilsa, Oshiq Oydin pir baxshilarning Qambar, bobo esa sozandalarning piri sifatida mashhurlik kasb etadi. O'tgan asrning 90-yillarida Oshiq Oydin pir qabri joylashgan Vos qal'asida Oshiq-baxshilar musobaqasi o'tkazish an'anaga aylangan edi. 1991 yilda bu yerda baxshilarning xalqaro bellashuv ko'rigi bo'lib o'tgan. Bu anjumanda Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston respublikalaridan kelgan ko'plab baxshilar ulug' pir qabrini ziyorat qildilar. Ayniqsa Xorazm, Toshovuz va Qoraqalpoq baxshilari bu tadbirda faol ishtirok etishdi [11]. "Kitobi dadam Qo'rqut" eposining barcha shoxobchalarida faol harakat qiladigan asosiy obraz Qo'rqut otadir. Bu obraz haqida turli olimlar turli fikrlar bildirishgan. V.V. Bartoldning ko'rsatishicha, u bahodir emas, balki urug' oqsoqolidir. Unda xalq donoligi mujassamlashgan [12]. Qo'rqut ota bashoratchi baxshi va afsonaviy shaxs. O'z navbatida u sehrgar, shomondir [13]. Binobarin, Qo'rqut ota kitobning bosh qahramoni emas. Lekin uning fikrlari, qiyofasi, jami hodisalar va qahramonlar taqdirida tutgan o'rniga ko'ra butun asarni birlashtirib turuvchi qahramon rolini o'ynaydi [14]. Qo'rqut ota haqida dastlab fikr yuritgan shaxs Abul G'oziy Bahodirxondir. Buyuk tarixchi olim "Shajarai tarokima" asarida Qo'rqut otani 14 joyda tilga oladi. Uning ko'rsatishicha, Qoraxo'ja o'g'li Qo'rqut Inal Yavi xonning vaziri bo'lib, 295 yil umr kechirgan, uchta xon davrida vazirlik qilgan, g'aroyib ishlarni amalga oshirgan. Butun o'g'uz eli unga bo'ysungan, biror farzand tug'lsa, albatta u kelib ism qo'ygan [15]. T. Mirzaevning yozishicha, Salor Qozon turkumini tashkil etuvchi qahramonlik qo'shiqlari Sharqiy Turkistondan kelgan turkiy qabilalarga tegishli bo'lib, XI asrda saljuqiylar davrida bu turkum Kichik Osiyo va Kavkazga o'tib, "Kitobi dadam Qo'rqut" tarkibidan joy oldi [16]. "Go'ro'g'li" turkumining ustuvorlik qila boshlashi bilan Qo'rqut ota to'g'risidagi doston unutilib ketgan: XIX asr boshlariga kelib, "Kitobi dadam Qo'rqut" eposining yozma nusxalarga ko'chirilishi an'analari asosida "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari ham yozuvga olinib boshlagan. Qo'rqut ota haqida jiddiy tadqiqotlar olib borgan X.G. Ko'ro'g'li o'zining "Shaman, polkovodets, ozan" (evolyutsiya obraza dede – Korkuta) maqolasida Qo'rqut ota shaxsida shomonlik, o'zonlik (baxshi) xususiyatlari mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi, o'z navbatida uning sarkarda (polkovodets) bo'lganligiga shubha bildiradi [17]. Qozoq-qirg'iz asotirlarida Qo'rqut ota shomon obrazi sifatida talqin qilinadi. Etnograf Ch.Ch. Valixonov Qo'rqut otaning o'limdan qochishi motivini shomonlik bilan bog'laydi. Qirg'iz shomonlaridagi ushbu rivoyatda Qo'rqut ota birinchi shomon sifatida e'tirof etiladi. O'rta Osiyodagi yozma yodgorlik-

“Do‘st Sulton tarixi” kitobida esa Qo‘rqut ota baxshilar piri sifatida tasvirlanadi. Qozoq baxshilari shu sababdan dostonni boshlash oldidan undan yordam so‘rashadi, iltijo qilishadi. Qadimgi davrga oid afsonalarda Qo‘rqud ota shomon tarzida tasvirlansa, Islom dini ta‘sirida yaratilgan so‘nggi afsonalarda u avliyo darajasiga ko‘tarilgan. A.Divaev bu haqda Qozonli hududidagi Xorxut toponimi bilan aloqador afsona borligini tasdiqlaydi. Uning yozishicha, Xorxutning qabri 1880 yilgacha saqlangan, keyin uni Sirdaryo yuvib ketgan [18]. Abulg‘oziy Bahodirxon Qo‘rqud otani donishmand vazir sifatida tasvirlasa, Rashididdin asarlarida baxshi, O‘zon tarzida beriladi. O‘zon atamasi turkmanlarda ham uchraydi. Maxtumqulining bir she‘rida shunday misralar bor:

*Davlat ela galar bo‘lsa,
Boshdan burun o‘zon galar.
Davlat eldan getar bo‘lsa,
Mulla bilan to‘zon galar [19].*

O‘zon atamasi ilgari Xorazmda ham ishlatilgan.

Qo‘rqud otaning lashkarboshi tarzida berilishi Abulg‘oziyda ham bor bo‘lib, bu ma‘lumot ikki shaxsning ismini aralashtirish natijasida kelib chiqqan. Bundan tashqari o‘g‘uzlarda shu nomdagi urug‘ ham uchraydi [20].

Bu ikki shaxs haqidagi fikr K.A.Inostranov ishlarida ham uchraydi. Qolaversa, lashkarboshining ismi Qirqud tarzida yozilishini A.N.Kononov ham birinchilardan bo‘lib, aniqlagan edi. Folklor asarlarida Qo‘rqud-shomon, afsungar, tabib, uning musulmonlikka aloqasi rasmiyatchilik tariqasida qayd qilinadi xolos. Tarixiy asarlarda esa bu shaxs musulmon dinining muqaddas kishilaridan biri sifatida ta‘kidlanadi. X.G.Koroglining mazkur maqolasida Qo‘rqud ota faoliyatiga doir masalalar keng doirada tahlil etiladi. Yuqorida keltirilgan barcha tafsilotlar Qo‘rqud ota obrazining to‘laqonli qiyofasini gavdalantira oladi. Maqola oxirida “Kitobi dadam Qo‘rqud”ning g‘arb o‘g‘uzlarida tarqalgan yodgorligi xususida so‘z yuritiladi. Barcha afsona va rivoyatlarda Qo‘rqud-shomon, o‘zon, davlat arbobi, hukmdor maslahatchisi, barcha o‘g‘uz elining donishmand ustoz sifatidagi evolyutsion obraz sifatida gavdalantiriladi. Uning baxshi sifatidagi faoliyati hech qachon yo‘qolmagan. O‘z navbatida uning tarixiy prototipini izlashga ham asos yo‘q.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pardaev T. O‘zbek dostonchilik maktablarining teran ildizlari ma‘naviyatimiz asosi. / Jahon sivilizatsiyasida... –B.117.
2. Tolstov S.P. Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2014. –B.214-215. (380)
3. Бертельс Е.Э. История литературы и культуры Ирана. –М.: Наука, 1988. –С.24. (558)
4. Карриев Б.А. Эпические сказания о Кероглы у тюркоязычных народов. -М.: Восточная литература,1968. -С.134.
5. Мирзаев Т. Эпос и сказитель .-Т.: Фан, 2008.-С. 66.
6. Жирмунский В.М.. Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос.-М.: ГИХЛ, 1947. -С.294.
7. Oshiqnoma, Pkitob, Urganch, «Xorazm», 2006, 187-bet.
8. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. - М.: Наука, 1965, -С. 485.
9. O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 8-tom. -T.: “O‘zbek milliy ensiklopediyasi”, 2004, 184-185-

betlar.

10. An-Nasaviy Shixobiddin Muhammad, Sulton Jaloliddin Manguberdi tafsiloti. -T.: "O'zbekiston", 2006, 30-40-betlar.
11. Oshiq Oydin-94, Dashxovuz, 1994,3-bet.
12. Бартольд В.В. Коркуд, соч. т.в-М.: 1968, С.41.
13. Короглы Х.Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. –М.: Наука, 1983, С.61.
14. Nazarov B. "Qo'rg'ut ota kitobi" haqida. // "Yoshlik", 1988, №5, 40-bet.
15. Кононов А.Н. Родословная.туркмен.Сочинение Абу-л-Газы хана хивинского,-М.,-Л.: Изд. Ан, 1958.
- 16.Mirzaev T. Qahramonlik eposining yuzaga kelishi.// O'zbek folklorining epik janrlari, -T.: Fan, 1981, 43-bet.
17. Короглы Х.Г. Шаман, полководец, озан (эволюция образа деде –Коркута). // Советская тюркология. –Баку, 1972, №2. –С.48-62.
18. Диваев А. Несколько слов о могиле Хорхут-ата-ЗВО РАО, Т.Х.СП.б. 1896. – С.193-194.
19. Магтымгулы. Ашгабат, «Туркменистан», 1977. –Б.234. (678)
20. Короглы Х.Г. Кўрсатилган мақола, 52-бет.



SAYYID G'OZIY TO'RA VA UNING IJODI HAQIDA

Sohiba UMAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorazmlik shahzoda shoir Sayyid G'ozii to'ra Otajon to'ra o'g'li hayoti va ijodi haqida so'z yuritiladi. "Devoni G'ozii"ning qo'lyozma nusxalari matniy jihatdan tahlil etiladi.

Аннотация: В этой статье рассказывается о жизни и творчестве сына хорезмийского поэта Сайида Гази Тора Отаджана Тора. Текстуально анализируются рукописные копии "Девони Гази".

Annotation: This article talks about the life and work of the Prince poet Sayyid Ghazi Thura Otajan Thura. Manuscript copies of the "Devani Ghazi" are textually analyzed.

Kalit so'zlar: Xorazm, adabiy muhit, shoirlar, G'ozii, devon, devonchilik, manba, nusxa, qo'lyozma, matn.

Ключевые слова: Хорезм, литературная среда, поэты, Гази, деван, источник, копия, рукопись, текст.

Keywords: Khorezm, literary environment, poets, Ghazi, devan, source, copy, manuscript, text.

Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniy o'z yaqinlari, ya'ni og'a-inilari va ularning

farzandlarini ham san'atga da'vat etgan, ularni she'rlar yozishga undagan. Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" asarida Otajon to'ra va uning farzandlari haqida shunday yoziladi: "Ushbu yil Otajon to'ra baqo olamig'a yuz qo'yub, ondin Muhammadamin to'ra va Sayyid G'ozii to'ra va Sayyid Asad to'ra otlig' uch o'g'ul yodgor qoldi. Ul hazrat o'zlari Komron taxallusi bila mutaxallis etib, she'r ham aytur erdilar"[1, 252]. Otajon to'ra she'rlarini jamlab, devon ham tartib bergan. "Otajon to'ra 1903-yilda Xevada vafot etadi va o'zining Gandimiyon qishlog'idagi maqbarasiga daft etiladi. Undan Muhammadamin to'ra, Sayyid G'ozii to'ra, Sayyid Asad to'ra kabi farzandlar qolib, ular zamonasining devon tartib bergan yetuk shoirlari edilar" [3, 27].

Sayyid G'ozii to'ra Muhammad Rahimxon soniy – Feruzning inisi Otajon to'raning ikkinchi o'g'li bo'lib, shahzoda shoirlardan biri hisoblanadi. Sayyid G'ozii to'raning tug'ilgan va vafot etgan yili turli manbalarda turlicha ko'rsatilgan. Xususan, Xiva davlat hujjatlarida Sayyid G'ozii to'ra 1871-yil may oyida Xivaning Deshon qal'asi O'r mavzesida tug'ilgan deyilsa, "Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehrisi"ida taxminan G'ozii 1860-1920-yillarda yashaganligi qayd etiladi.

Sayyid G'ozii to'raning adabiy muhit ta'sirida adabiyotga bo'lgan qiziqishi ortadi, 25 yoshidan boshlab g'azallar yoza boshlaydi. Bobojon Tarroh – Xodimning "Xorazm shoir va navozandalari" kitobida yozilishicha, shoirning adabiy nomi o'z nomi bo'lgan. Sayyid G'ozii to'ra she'rlariga G'ozii taxallusini qo'yib, bobosi Feruzga taqdim etadi va xonga bu ma'qul bo'ladi. Sayyid G'ozii to'raning ko'rinishi va fe'l-atvori haqida "Xorazm shoir va navozandalari" kitobida shunday ma'lumotlar beriladi: "Sayyid G'ozii to'ra xushbichim, sariq soqol, fe'l-atvori juda yaxshi kishi edi. So'zlashib o'tirgan vaqtida yonidan ketmasam ekan, deb orzu qilardik. Juda ham shirinso'z, xushchaqchaq odam edi" [2, 38].

Sayyid G'ozii to'raning lirik she'rlari "Devoni G'ozii"ga jamlangan. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehrisi"ida "Devoni G'ozii"ning 909/IV raqamli nusxasi ko'rsatilgan[4, 111]. Biz O'zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan ushbu nusxa bilan tanishganimizda bu nusxa bir nechta devondan iborat kitob ekanligi ma'lum bo'ldi. Kitobga avval "Devoni Sultoniy", "Devoni Sa'diy", "Devoni Sodik", "Devoni G'ozii", "Devoni Asad"lar kiritilgan. Ushbu nusxaning kitobat xususiyatlariga tavsif beradigan bo'lsak, kitob qatiq qalin qog'oz bilan muqovalangan, uchta o'yma naqsh tushgan, dastlabki 2 varoq ochiq qolgan, rus fabrika siliq qog'ozida nasta'liq xatida qora siyoh bilan hoshiyasiz, satrlar ikki ustunga 17 qatordan yozilgan. Asosiy matndagi she'rlar qizil siyoh bilan raqamlangan, poygir qo'yilgan. Kitobning asosiy matni yozilgandan keyin orasiga turli joyda qo'shimcha varoqlar qo'yilib, yelimlangan. Shuning uchun kitobning asosiy matni orasidagi bir yoki bir necha varoqli qo'shimchalar mavjud. Bu qo'shimcha varoqlar nusxaning qog'oz turi, sifati bilan ham farqlanadi. Ammo yozuvi bitta kotib qalamiga mansub, degan tasavvurni beradi.

Kitobning oxirida kolofon keltirilmagan, ammo "Devoni Sodik"ning oxirida

“kotib mulla Bobojon Tarro ibn Abduaziz maxdum” deb yozilgan. Kitobdagi devonlarning yozuvi bir xilligiga asoslanib, “Devoni G‘oziy”ning kotibi ham Muhammad Rahimxon II Feruzning saroy kotiblaridan Bobojon Tarroh – Xodim deb bilamiz.

Kitobning 239-281-varoqlarida yangi 1-sahifadan 53-sahifagacha “Devoni G‘oziy”idagi turli xil janrdagi she’rlar keltiriladi. 17-sahifagacha devonga qo‘shimcha varoqlar solinmagan va G‘oziyning 38 ta g‘azali berilgan. Kitobning 247-varog‘idan qo‘shimcha varoqlar solingan.

“Devoni G‘oziy” Xorazm devonlari (Feruz, Ogahiy, Xodim, Sultoniy, Sa’diy kabilar) uchun xos an’anaga binoan ushbu mat’la bilan bilan boshlanadi:

*Zihi xoliqkim, xalq ayladi arz-u samo paydo,
Falak uzra mulk birla qilib arshi a’lo paydo.*

G‘azal ushbu maqta bilan yakunlanadi:

*Ilohiy, sen o‘zung G‘oziyg‘a qilg‘il lutfila ehson,
Bo‘lur mahzun dilida har nafas xavf-u rajo paydo.*

“Devoni G‘oziy”da asosiy matndagi she’rlar soni va janrlari quyidagicha ekanligi ma’lum bo‘ladi: g‘azallar – 120ta, muxammas – 7ta, qasida - 2ta.

Devonning asosiy matni sahifalangan, shuning uchun orasiga qo‘yilgan varoqlar ajraladi. Jumladan, 29-30-sahifalari o‘rtasida kelgan bir varoqda ikkita 7 baytli g‘azallar keltiriladi. Shulardan biri:

*Olam aro g‘avg‘o solur ey sho‘xi yakto surating,
Har kim ko‘rar Majnun o‘lur ey sarvi ra’no surating –*

bayti bilan boshlanadi.

G‘oziyning taxmislariga keladigan bo‘lsak, ular asosan Navoiy, Feruz, Munis g‘azallariga bitilgan. Jumladan, devondagi 2-muxammas Alisher Navoiyning “Badoe’ ul-vasat” devonidagi “Ulki solg‘ay shu’la a’zosig‘a o‘tlug‘ ohlar...” deb boshlanuvchi g‘azaliga bitgan.

Ma’lumki, Xorazm adabiy muhitida muxammasnavislik keng tus olgan va ijodiy hamnafaslik zamona shoirlari o‘rtasida ham bo‘lgan. Shahzoda shoirlar Sultoniy, Sa’diy, Asad va G‘oziyning g‘azallariga ham muxammaslar bitilgan.

Avaz O‘tarning “Ruxsori guling uzra xaydin chu gulob etding” deb boshlanuvchi muxammasi G‘oziy g‘azaliga bitilgan. Muxammasning oxirgi bandi shunday yakunlanadi:

*Yoring, Avazo, bu dam yo aylagusi bozi,
Qalbini magar oning ozdurg‘usi g‘ammozi,
Qilgusi tag‘ofil ko‘b chashmini fusunsozi,
Lutfila nazar solmay nazmingg‘a ul oy G‘oziy,
Ishqida g‘azal aytib bir necha kitob etding.*

Sayyid G‘oziy to‘ra XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining Feruz, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Avaz O‘tar, Rojjiy, Komyob, Sultoniy, Sa’diy Xorazmiy kabi namoyandalari bilan hamnafas yashadi. Ulardan sharq mumtoz an’analarini o‘rgandi va o‘zi ham devon tartib berdi. O‘zbek adabiyotining ajralmas qismi bo‘lgan XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari Xorazm adabiy muhitida

faoliyat olib borgan, devon tartib bergan ushbu shahzoda shoir ijodi hanuzgacha to‘liq o‘rganilmagan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Баёний. ‘Шажараи Хоразмшохий’. – Т.: ‘Камалак’, 1991.
2. Бобожон Тарроҳ Азизов - Ходим. Хоразм навозандалари. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.
3. Раҳим Д, Матрасул Ш, Жумахўжа Н. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Иккинчи китоб. – Т.: ‘ЎЗБЕКИСТОН’, 1995.
4. Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси феҳристи. – Т.: ‘Янги аср авлоди’, 2000.



CHO‘LPON SHE’RIYATIDA MARSIIYA JANRI

Normat YULDASHEV,
Filologiya fanlari nomzodi
Termiz davlat universiteti
Nasiba XO‘JANOVA,
TerDU magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada marsiya janr xususiyatlari, tarixi va genezisiga doir nazariy masalalar beriladi. Shuningdek, Cho‘lponning marsiya janridagi she‘rlari tahlil qilingan.

Аннотация: в данной статье представлены теоретические вопросы об особенностях, истории и генезисе жанра марсия. Также анализируются стихи Чулпана в жанре марсия.

Annotation: this article presents theoretical information about the features, history and genesis of the marsiya genre. Chulpan's poems in the marsiya genre are also analyzed.

Kalit so‘zlar: marsiya, janr, lirika, epitafiya, kechinma, an’anaviylik, kanon, jadid, shakl, motam, mazmun, shakl.

Ключевые слова: марсия, жанр, лирика, эпитафия, опыт, традиция, канон, джадид, форма, траур, содержание, форма.

Key words: marsiya, genre, lyrics, epitaph, experience, tradition, canon, jadid, form, mourning, content, form.

Turkiy adabiyotshunoslikda marsiya haqida birinchi bo‘lib yozgan Shayx Ahmad Taroziy lirik janrlarni shakli va mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratgan. Bular: qasida, g‘azal, qit‘a, ruboiy, masnaviy, tarji‘, musammat, mustazod, mutavval, fard. Keyin u yana yozadi: “Bu o‘n nav’ she‘rkim, zikr qilduk, har qaysida agar Tengri azza va jallag‘a hamd aytsalar, oni tavhid derlar. Va agar Muhammad Mustafo alayhi-s-salot va-s-salomni vasf qilsalar, na‘t derlar. Agar Tengri Hazratinda tazarru’ qilsalar, munojot o‘qurlar. Va xulafoyi roshidinni ta‘rif qilsalar, manoqib va manqabat va tamadduh o‘qurlar. Va agar o‘lgan kishini zikr qilsalar, marsiya derlar. Agar kimarsani nafrin qilsalar, hajv va mazammam derlar. Va agar hazil qilsalar, mutoyiba derlar”[1, 116]. Ma‘lum bo‘ladiki, Taroziy ko‘rsatgan o‘n nav’ she‘r — shaklga tegishli. Hamd, na‘t, munojot, manoqib, marsiya, hajv kabilar esa shu shakllarda ham yozilishi mumkin, ular alohida shakliga ega emas.

Lirik janrlar bo‘yicha maxsus tadqiqot yaratgan R.Orzibekov ham shu fikrda. U marsiyalarni oddiy-traditsion, ta‘rix-marsiya, kitoba-epitafiya qabilida tasnif qiladi. Oddiy-traditsion marsiyalarning o‘zi g‘azal, muxammas, musaddas, musamman, ko‘proq va asosan tarkibband shakllarida yozilganligini qayd qiladi. Faqatgina Huvaydo bir marsiyasini masnaviy va g‘azal aralash yozgan ekan[2, 260]. Qizig‘i shundaki, R.Orzibekov kitobida Alisher Navoiygacha bizning adabiyotimizdagi marsiya bo‘lgani aytilmagan. Olim O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining o‘ziga xos epitafiyalar ekanligini aytadi, “Devonu lug‘otit turk”dagi Alp Er To‘nga marsiyasini eslatadi: “Arab poeziyasida marsiyalardan alohida devon tartib bergan Al Xansa (575-664), fors-tojik adabiyotida Anvariy va Muhtasham Koshoniy, turk adabiyotida Kamol Posho, turkiy adabiyotlarda Fuzuliy, Maxtumquli va boshqalar ijodida turli-tuman psixologik kechinmalar va munosabatlarni ifodalovchi marsiyalar salmoqli o‘rin tutadi”[2, 266].

Alisher Navoiy esa marsiya janrini ham kanonlashtirdi. U uchta (ikkita o‘zbekcha va bitta forscha) marsiya yozdi, ularning har uchasi tarkibband shaklida, ramali musammani maxbuni mahzuf vaznida (foilotun failotun failotun failun / — v — — / v v — — / v v — — / v v —) yozilgan. Cho‘lponning zamondoshi bo‘lgan S.Ayniyning ukasi vafoti bilan yozilgan marsiyasi ham tarkibband shaklida, fors tilida yozilgan.

Cho‘lpon she‘riyatida, umuman, jadid she‘riyatida desak ham bo‘ladi, marsiya janri alohida o‘rin tutadi. Shoir o‘z zamonasida haq va haqiqat, millat va Vatan yo‘lida jonlarini fido qilgan buyuk salaflari, do‘stu birodarlariga bag‘ishlab marsiyalar yozgan. Marsiya Sharq she‘riyatida keng tarqalgan janr bo‘lib, uning janr xususiyatlari haqida ko‘plab ma‘lumotlar berilgan. “Marsiya — arabcha, yig‘lamoq, aza tutmoq, qayg‘urmoq ma‘nolarini bildiradi. She‘riy terminalogiyada esa vafot etgan biror shaxs sifatlarini tavsiflovchi, maqtovchi, unga bo‘lgan shoir munosabatini ifodalovchi, lirik qahramonning qayg‘u hasratlarini tasvirlovchi asardir”[3].

Cho‘lponning ilk marsiyasi “Ma‘rifatparvar bobomiz muhtaram Ismoil Gaspirinskiy hazratlari haqida ta‘ziyanomamiz” deb nomlangan. Marsiya ilk bor “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining 1914-yil 24-sentabr sonida “Hamidiy” taxallusi bilan bosilgan. Ta‘ziyanoma o‘n olti yoshli o‘spirin qalamiga mansubligini e‘tiborga olsak,

tasvirdan ko‘ra bayon ustunligini sezish qiyin emas. Dinu millat ma‘rifati yo‘lida “jon” bergan ulug‘ ustozning oltmish besh yoshda ajal mayini no‘sh etib bemahal ketganligi yosh lirik qahramonni iztirobga soladi. Marsiya o‘n ikki baytdan iborat bo‘lib masnaviy yo‘lida yozilgan.

Cho‘lponning ikkinchi marsiyasi “Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasiga” deb nomlangan. Ma‘lumki, “...Behbudiy 1919-yilning bahorida – 25-martda Shaxrisabzda qo‘lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Uning qatli haqidagi xabar o‘sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma‘lum bo‘ladi. 1920 yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi. O‘nlab marsiyalar yozildi”[5, 233]. Jadid shoirlari A.Fitrat, S.Ayniy, Cho‘lpon, Botu bu musibatni o‘z marsiyalarida ifoda etdi. Cho‘lpon marsiyasi yetti banddan iborat bo‘lib, 4+4+4+4+4+4+2 tarzida cho‘lponona bandlashgan:

*Belgisiz qabringni qora tunlarda
Amalimning shamin yoqib izladim.
Qizil va pok qoning islarin sochgan,
Kuchsiz kuyi yurishimni tezladam*[5, 62].

Marsiya an‘anaviy o‘n bir hijoli barmoqda yozilgan. Jadidlar uchun ulug‘ yo‘lboshchidan judo bo‘lish og‘ir bo‘lgan. Shu vajdan shoir Behbudiy o‘limiga sabab bo‘lgan “oq kallalik qora dev”larga o‘z nafratini bildiradi. O‘zini shu hukmron muhitning oldida ojiz sanaydi. She‘rning oxirgi bandi anjabeman usulida fikrni ta‘kidlash uchun ikki misrada ifodalangan:

*Ana, soyadim qalbimdagi gullarni
Termak uchun chaqiraman qo‘llarni.*

Marsiya janr sifatida ko‘proq mazmun bilan bog‘liq, u turli shakllarda yozilishi mumkin. Ammo bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, marsiya-g‘azalga marsiya-muxammas bog‘lash o‘zbek she‘riyatida ilk marta Cho‘lpon tomonidan amalga oshirildi. Chunki marsiya nihoyatda subyektiv, ichkin kechinmalarni ifoda etadigan janr bo‘lgani sababli, o‘zganing g‘am-alami ifoda etilgan g‘azalni asos qilib olish biroz g‘alati bo‘lib ham tuyuladi. Ammo Cho‘lpon dadillik bilan shu xil tajribaga qo‘l urgan va uni muvaffaqiyat bilan uddalagan. Cho‘lponning do‘sti, shoir Abdulla Alaviy vafoti munosabati bilan onasi Habibaxonim yozgan g‘azalga marsiya-muxammasi mavjud bo‘lib, 1931-yilning boshlarida yozilgan. Cho‘lpon bilan A.Alaviy o‘rtasidagi do‘stlik rishtalari 1923-yildan Toshkentdagi dorilmualliminda o‘qib yurgan yillaridan boshlangan. A.Alaviy iste‘dodli shoir sifatida endigina tanila boshlagan 23 yoshida 1931-yilning 1-yanvarida og‘ir xastalikdan vafot etadi. Bundan Cho‘lpon qattiq qayg‘uga cho‘mgan. Shu kunning o‘zida “Abdulla Alaviy abadiy uyquga ketdi” deb boshlanadigan marsiyasini yozgan. Marsiya to‘rt band, o‘n olti misradan iborat bo‘lib, chuqur qayg‘uli ohangga yo‘g‘rilgan:

*Ey ulviy yo‘ldoshim, yumshoq tilingni
O‘limning omonsiz panjasi oldi.
Men sendan ayrildim, shu ondan boshlab
Tilimda so‘z degan nasa yo‘goldi.* [5. 278].

O‘sha mash‘um voqea munosabati bilan Abdulla Alaviyning onasi Habibaxonim

farzandi o‘limi munosabati bilan marsiya g‘azal yozadi. Cho‘lpon esa Habibaxonimning marsiya-g‘azaliga muxammas bog‘laydi. Cho‘lponning marsiya-g‘azalga muxammasi o‘n bir banddan iborat bo‘lib Habibaxonim yozgan marsiya g‘azalning ohangi, vazni, qofiyasini saqlagan holda tazmin yo‘lida yozilgan:

Muxammas-g‘azal oxirigacha mahzun, tushkun va g‘amgin bir kayfiyat ila davom etadi. Marhumning surati va siyratiga xos chizgilar beriladi. “...adab ahlining zori” ko‘kka yetib, shoir, adiblarning madori yo‘qligi lirik ifodalarda tasvirlanadi:

*Tufrog ‘i aning surma-yu, qabri vatanimdir,
O‘lsam-da qavushsam-menga shul birgina tadbir,
Cho‘lpon qoshida oy edi ham kun edi ul bir,
Sho‘rlik ona har qancha kuyib yig‘lasa arzir,
Ketdi bu jahondin jahon ahlining sarosi.* [5.281].

Cho‘lponning xotira-bag‘ishlov xarakteridagi “Ketding” she‘ri Rahmatulla Sultonovga bag‘ishlangan. “Rahmatulla Sultonov atoqli adabiyotshunos olim va dramaturg Izzat Sultonning akasi bo‘lib, O‘sh shahrida tug‘ilgan. Taxminan 1900 yillarda tug‘ilgan bu zotning aksar umri Andijonda kechgan”[6, 16]. Cho‘lpon Rahmatulla Sultonov bilan 1910-1912 yillarda Andijonda yangi ochilgan rus-tuzem maktabida birga o‘qishgan. Rahmatulla Sultonov rus-tuzem maktabidan so‘ng madrasani ham tugatib, Toshkentdagi dorilmualliminda tahsil olib, Andijonda o‘qituvchilik qilgan. Cho‘lponning yoshlikdagi do‘sti bilan munosabatlari juda samimiy bo‘lgan. Shoir har gal Andijonga borganida u bilan ko‘rishib, she‘riyat, adabiyot haqida suhbatlashib qaytgan. R.Sultonov 1921 yil ayni qirchillama yigit yoshida sil kasalligidan vafot etgan. Bu yo‘qotish shoir ruhiyatiga qattiq ta‘sir qildi. Uning “Ketding” radifli she‘ri shu munosabat bilan yozilgan:

*Yo‘ldoshim, zim-ziyo bo‘lding-da, ketding,
Bor eding, yo‘qolding, o‘lding-da, ketding,
Gul eding, ochilmay so‘lding-da, ketding,
Yo‘qlik dengiziga to‘lding-da, ketding.*

Marsiyada do‘stining bu olamdan ko‘karmay, yasharmay “yo‘qlik dengiziga” singib ketgani o‘ziga xos poetik vositalarda ifodalangan. Marsiya o‘ziga xos ritmik jihatdan shakllangan, ilk banddagi “ketding” radifining keyingi bandlarda takrorlanib kelishi ma‘noni ta‘kidlashga, kuchaytirishga xizmat qilgan.

Cho‘lponning “Ulug‘ yo‘lovchiga”, M.Gorkiy vafotiga bag‘ishlangan “Yaxshi bor, ustoz” marsiya she‘rlari ham borki, shoir unda yaqin kishilari vafotiga o‘z musibatlarini izhor qilish barobarida ijtimoiy muhit mazaralarini ham muhrlay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шарқ мумтоз поэтикаси. (Ҳамидулла Болтабоев талқинида). – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.
2. Orzibekov R. O‘zbek lirik she‘riyati janrlari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
4. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002.
5. Чўлпон Абдулхамид Сулаймон ўғли. Асарлар. Тўрт жилдлик. I жилд. – Тошкент: “Akademnashr”, 2016.
6. Наим Каримов. Истиқлолони уйғотган шоир. – Тошкент: “Маънавият”, 2000.



SHUKRULLONING “CHOLLAR” DOSTONIDA SOVET KISHISI VA VOQELIGI TALQINI

Saida KURBANOVA,
filologiya fanlari nomzodi,
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Shukrulloning “Chollar” dostoni, unda badiiy talqin etilgan sovet kishisi obrazi va voqeligi tahlil etilgan.

Annotatsiya: В данной статье анализируется поэма “Чоллар” народного поэта Узбекистана Шукрулло, образ советского человека и советская действительность, которые художественно осмыслены в нем.

Annotation: This article analyzes Shukrullo’s poem “Old Men”, the image of a Soviet man and the Soviet reality, which are artistically interpreted in it.

Kalit so‘zlar: doston, Shukrullo, sovet kishisi, sovet voqeligi, badiiy talqin, mo‘ysafidlar obrazi.

Ключевые слова: поэма, Шукрулло, советский человек, советская действительность, художественная интерпретация, образ стариков.

Key words: poem, Shukrullo, Soviet man, Soviet reality, artistic interpretation, image of old men.

Iste’dodli shoir, dramaturg, tarjimon, publitsist Shukrullo ijodida doston janri ham alohida o‘ringa ega. Shoirning “Chollar”, “26-inchi tongotar”, “Otash va gul”, “Rossiya”, “Ikki qoya”, “Ko‘ngil chirog‘i” dostonlari adabiyotshunoslar nazariga tushib, tadqiq etilgan. Ammo bu dostonlar sho‘ro davrida yaratilgani uchun asarlar vulgar sotsiologizm metodi asosida tadqiq etilib, o‘rganilgan. Xususan, Shukrulloning “Chollar” dostoni N.Rahimjonov, B.Nazarov kabi o‘nlab olimlar tomonidan tahlil qilingan bo‘lishiga qaramasdan, Shukrullo dostonlarini bugungi istiqlol davri adabiyotshunosligi mezonlari asosida qayta tadqiq etish ehtiyoji mavjud. Binobarin, akademik B.Nazarov “Chollar” dostonining yartilish tarixi haqida shunday yozadi: “Bir kun ustoz Oybek shoir Shukrullo bilan suhbatlashib qoladi. Mo‘ysafidlar haqida xuddi ularning o‘zidek bo‘lib gapirib berayotgan Shukrulloga ustoz Oybek “O‘zingizni ko‘rmasdan bu gaplaringizni eshitgan odam sizni oltmishga kirgan chol deydi. “Chollar” degan poema yozing”, - deydi.

Shukrullo aka dostonlardagi aksariyat qahramonlarning prototiplari bo‘lgan. Xususan, “Chollar” dostonidagi Salim xarakterining hayotiy asoslarini aniqlash uchun shoirning qo‘shnisi Zokir parvoznig tabiatini bilish kerak” (Nazarov, 2016: 108).

Shoir “Javohirlar sandig‘i” asarida mazkur dostonning yaratilish tarixi haqida shunday ma’lumotlarni yozgan: “Bir kuni Oybek aka bilan suhbatda poemachilik va obraz yaratish haqida uzoq gaplashdik. Gap orasida qandaydir bir mo‘ysafid haqida gapirib berdim. Birdaniga Oybek aka menga qarab:

– Necha yoshga kirdingiz? O‘zingizni ko‘rmasdan, bu gaplaringizni eshitgan odam, sizni 60 ga kirgan chol, deydi. “Chollar” degan poema yozing, – deb qoldi.

Urush chog‘ida dalalarda asosan qizlar bilan chollar mehnat qilgan edi. Men kolxoz hayotini bilsam ham, ammo aniq kishilarni ko‘z oldimga keltira olmagan edim. Oybek akaning maslahati sabab bo‘lib, o‘ylay boshladim. O‘z otam va boshqa mo‘ysafidlarning xarakterlari, so‘zlashishlarini xayolimdan o‘tkazib, ularni kolxoz dalalariga olib chiqib, kolxozchi chollarni tasavvur qilib, asar yozishni o‘yladim. Poemadagi Salim obrazining yaratilishiga qo‘shnimiz Zokir parvoz asos bo‘ldi” (Shukrullo, 1977: 152-153).

Shukrullo asarlarining ijodiy biografiyasini, adibning adabiy-estetik qarashlari silsilasini tadqiq etishda “Javohirlar sandig‘i” asari o‘ziga xos manba bo‘lib xizmat qiladi. Kuzatilayotganidek, Shukrulloning “Chollar” dostonidagi Salim obrazi uchun qo‘shnisi Zokir parvoz prototip sifatida tanlagan. Ammo qolgan obrazlar umumlashma, sof to‘qima obrazlardir.

“Chollar” dostonida Tolipboy, Qo‘chqorboy, Samsoqqul ota, Sheramat ota, Salim, Parpi usta kabi chollar obrazi aks ettirilgan. Dostonga urushdan keyingi yillar voqeligi asos qilingan bo‘lib, keksa, mo‘ysafid chollar vataniga xizmat qilish uchun kolxozda ishlab, davlatga topshiriladigan paxta planini oshirish uchun kecha-kunduz javlon urib, mehnat qilishadi. Kuzatilayotganidek, Shukrulloning “Chollar” dostonida Sho‘ro davri mafkurasini o‘zida teran aks ettirgan mo‘ysafidlar obrazi sof ma‘noda ijtimoiy-siyosiy davrning g‘oyalarini ifodalagan buyurtma obrazlardir. Ammo davr va mafkura nuqtayi nazaridan qaralsa, dostonida yaratilgan Chollar obrazining haqiqatan ham real asoslari bor:

Mana doston qahramoni Samsoqqul ota shunday deydi:

O‘ltirishar Tolipboy ota.

Qo‘chqor ota, Sher ota, yana ...

Gaplashishar o‘tgan-ketgandan,

Ko‘rpachada qurib chordona.

Ishlar edi avval kolxozda,

Bog‘bon bo‘lib, bo‘lib paxtakor.

Sheramat ota choyxonaga bosh,

Har birining o‘z hunari bor (Shukrullo, 2009: 171).

Dostonida mehnatkash, vatanparvar, fidoyi o‘zbek qariyalarining tahsinga sazovor jonkuyarligi tarannum etilgan. Mazkur dostonni tahlil etgan adabiyotshunos N.Rahimjonov shunday yozadi: “Chollar” asari Shukrulloning ijodkor sifatida shakllanganining bir belgisi sifatida maydonga keldi. Poemaning mundarijasi unchalik murakkab emas. O‘zbek mo‘ysafidlarining ma‘naviy jihatdan yuksakligini paxta dalalarida, mehnat fonida aks ettirish asarning asosiy mazmunini aks ettiradi. Sirdan qaraganda, poemaning sujeti ham oddiy, u qadar murakkab emasdek taassurot qoldiradi. Darhaqiqat, Samsoqqul ota, Qo‘chqorboy ota, Tolibboy ota, Sheramat ota va yana ko‘p mo‘ysafidlarning kolxozda zvenolarga bo‘linib, yoshlarga bosh-qosh bo‘lgani holda paxtadan yuqori hosil olishi, yurt boyligiga boyluk qo‘shishi va ana shu jarayondagi oliy insoniy fazilatlarini, olijanobliklari, ma‘nan yuksakliklari asarning

o‘zak sterjenini tashkil etadi” (Rahimjonov, 1983: 123).

Darhaqiqat, dostonida N.Rahimjonov ta’kidlaganidek, bir nechta mo‘ysafidlar urushdan keyingi davrda vatan iqtisodiyotini ko‘tarish uchun yoshlar kabi “staxonovcha”siga ishlashga kirishib ketib, paxtazorda javlon urib mehnat qilishadi. Biri yarim tunda traktor haydasa, ikkinchisi paxtazorni sug‘oradi, uchinchisi esa ko‘chat ekib, bog‘ parvarishlaydi:

Ishlar jadal, gumbur arava.

Kuymanadi har kim o‘zicha,

Tolib ota bog‘i bilan band.

Ko‘chat ekar, tokini ochar,

So‘ri qilar, mevalar payvand.

Bir qo‘lida gulqaychi, sezmas –

Soqoliga ilashgan poxol.

Taqir-tuqur ovoz keladi,

Shiypon qurar Parpi usta ham.

Goh mix qoqar ho‘llab og‘zida,

Chakkasiga qistirgan qalam (Shukrullo, 2009: 179-180).

Aytish mumkinki, “Chollar” dostonida Sovet mafkurasi andozalariga mos ravishda o‘zbek paxtakor-dehqonlarining “mehnatkash obrazi” badiiy gavdalantirilgan, shuningdek, ular sovet ideologiyasiga xos chuqur vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan obrazlardir. N.Rahimjonov ta’kidlaganidek, “...poemada mehnatga muhabbat, xalq va Vatan ishiga sadoqat, xalqimizning yaratuvchilik faoliyatiga ma’naviy vorislik his-tuyg‘ulari avlodlar silsilasining uzviyligini, hayotning barqarorligini ta’minlaydi, degan yaxlit g‘oyaviy asos bilan birlikda namoyon bo‘ladi” (Rahimjonov, 1983: 126).

Haqiqatan ham, Shukrulloning “Chollar” dostonida Sovet hukumatining “Proletar” sinfni ulug‘lash, “ishchi-dehqon” obrazini bosh qahramon sifatida adabiyotda muhrlash talabidan kelib chiqib, sxematik, sun‘iy obrazlar yaratilgan. Zero, adibning o‘zi keyinroq yozgan bir essesda bu haqda shunday yozadi: “O‘zbek mo‘ysafidlarining keng ichki dunyolari, saviyalari har tomonlama ochilmaganligini keyinchalik o‘zim sezib qoldim. Ular tom ma’nodagi badiiy obrazlar darajasiga ko‘tarilmagan edilar. Ular faqat kolxoz, o‘z oila davrasida fikr yurituvchi kishilar bo‘lib qolgan edilar. Uni yana qaytadan ishlab, mo‘ysafid dehqonlar obrazini yaratishni niyat qilib qo‘ygan edim” (Shukrullo, 1977: 153). Adib o‘zi tan olib aytganidek, u “Chollar” dostonida garchand o‘zbek qariyalarining mehnatkash, vatanparvar, ichki dunyosi va saviyasi baland obrazini yaratishni niyat qilgan bo‘lsa-da, ular sun‘iyroq va badiiyat nuqtayi nazaridan biroz zaif chiqdi. Ammo dostonida peyzaj manzaralari, keng paxtazor, tun va kun tasvirlari katta mahorat bilan tasvirlangan.

Xulosa shuki, Shukrulloning “Chollar” dostonidagi o‘zbek mo‘ysafidlari obrazini yaratish yo‘llaridagi ijodiy izlanishlarini o‘rganish va tadqiq etish bugungi istiqlol davri adabiyotshunosligi uchun ham muhimdir. Qolaversa, adibning “26-tongotar”, “Gul va tosh”, “Rossiya”, “Ikki qoya” kabi dostonlari zamonaviy o‘zbek dostonchiligi taraqqiyotida alohida o‘ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Назаров Б. Шеърлари – оқ тўши қалдирғоч / Шукрулло ижодининг олмос қирралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016.
2. Шукрулло. Жавоҳирлар сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.
3. Шукрулло. Чоллар / Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Шарқ, 2009.
4. Раҳимжонов Н. Шоир ва давр. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.



ZAMONAVIY O‘ZBEK DOSTONCHILIGI VA MATNAZAR ABDULHAKIM IJODI O‘RNI

Bekposhsha RAHIMOVA,
f. f. n, UrDU dotsenti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek dostonchiligi tadriji va dostonchilik janri rivojida shoir, tarjimon, publitsis Matnazar Abdulhakim asarlarining o‘rni masalasi tahlilga tortilgan. Shoirning “Javzo arafasi”, “Ko‘chki”, “Ko‘prik” dostonlari haqida umumiy ma’lumot berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется роль творчества поэта, переводчика, публициста Матназара Абдулхакима в развитии современного узбекского эпоса и эпического жанра. Даны общие сведения об эпосах поэта «Жавзо арафаси», «Кучки», «Куприк».

Annotation: This article analyzes the role of poet, translator, publicist Matnazar Abdulhakim's works in the development of modern Uzbek epic and epic genre. General information about the poet's epics "Javzo arafasi", "Kochki", "Kuprik" is given.

Kalit so‘zlar: doston, sujet, mavzu va g‘oya, ijodkor uslubi, lirik kechinma, obraz, badiiyat, falsafiylik, ramziylik.

Ключевые слова: эпос, сюжет, тема и идея, творческий стиль, лирический опыт, образ, художественность, философия, символизм.

Key words: epic, plot, theme and idea, creative style, lyrical experience, image, artistry, philosophy, symbolism.

O‘zbek adabiyotining ajralmas qismi bo‘lgan Xorazm adabiy muhiti namoyandalari

ijodi istiqloq yillarida yanada keng rivoj oldi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bu diyorda tug'ilib kamolga yetgan Erkin Samandar, Omon Matjon, Komil Avaz, Matnazar Abdulhakim, Gavhar Ibodullayeva kabi o'nlab shoir va yozuvchilar o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotganini xalqimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi" [1, 247]. Istiqloq davri she'riyati, dostonnavisligi, publitsistika va tarjimashunosligida Matnazar Abdulhakim adabiy merosining o'rni benihoya katta. Ko'p qirrali ijodkor Matnazar Abdulhakimning hayoti ham, ijodi ham ibrat namunasidir. Iste'dod bilan yozilgan badiiy asarlarni mutolaa qilib, ular zamiridagi serqatlam ma'no olamiga kirib borgan sayin dilimizda sohir tuyg'ular, qalbimizda nekinlik, fikrimizda teranlik uyg'onadi, tafakkurimiz boyib boradi. Aql va his-kechinma uyg'unligidan tug'ilgan bunday manzumalarda muallifning shaxsiyati beixtiyor xayolan ko'z oldimizda gavdalanadi. Matnazar Abdulhakim shunday maqomdagi ijodkorlardan biri edi. Zero, ijodkor shaxsiyati ijod jarayoni va asardagi komponentlardan biri sifatida ularda oshkora yoxud pinhona tarzda muayyan darajada iz qoldiradi, ayrim xislatlar asarlarga ko'chadi. Matnazar Abdulhakim bitiklari bu hodisaning ibratli namunasi ekanligi xususida ancha yozildi va yozilmoqda. Tadqiqotlarda muallif shaxsi chinakam inson va betakror ijodkor mutanosibligining timsoli ekanligi aks ettiriladi. Matnazar Abdulhakim XX asr oxiri va XXI asr boshidagi o'zbek adabiyoti tarixiga shoir, tarjimon va adabiyotshunos-publitsist sifatida kirdi, "donishmand shoir" maqomida tanildi. Uning o'ttizdan ziyod kitoblari, original va tarjima asarlari, Sharq tafakkuri falsafasi munosabatlariga doir tahliliy bitiklari davr adabiyoti, estetikasi va badiiy publitsistikasi takomiliga muayyan hissa bo'lib qo'shiladi. Matnazar Abdulhakimning teran falsafiy-ijtimoiy qarashlari, ibratomuz hikmatli fikrlari turfa she'riy shakllarda turli miqyos va darajada aks etsa ham ularda muallifning o'ziga xos poetik nigohi, badiiy tafakkur tarovati qabarib turadi.

"Badiiy adabiyot inson ruhini uyg'otib, uni zulm-u zo'ravonlikka ko'nikish-dan, jo'nlikdan, jaholatdan, befahmlikdan, beta'sirlikdan xalos etishi mumkindir", - deydi adabiyotshunos Q.Yo'ldoshyev [3, 156]. Darhaqiqat, adabiyot xazinasidan o'rin olgan chinakam ijod namunalari ana shunday ezgu maqsadni ko'zlaydi. *Zero, ijtimoiy-siyosiy sohalardagi alohida tub burilishlar, jamiyatning milliy-ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar hamda yangilanishlar, eng avvalo, badiiy adabiyotda o'z aksini topadi. Ana shu bois ham, keyingi yillarda yaratilayotgan asarlarda inson dunyoqarashi, tafakkur tarzida yuz bergan va berayotgan evrilishlar bor bo'yicha ko'zga tashlanayotir.* Buni zamonaviy o'zbek dostonchiligi misolida ham ko'rish mumkin. Istiqloq yillarida yaratilgan doston janridagi izlanishlar haqida so'z ketganda, ta'kidlash joizki, Mahmud Toir, To'lan Nizom, Sirojiddin Sayyid, Ikrom Otamurod, Matnazar Abdulhakim, Usmon Qo'chqor singari shoirlarning bu janrda yaratgan asarlari mavzu ko'lamdorligi va uslubiy o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. So'nggi yillar o'zbek adabiyotshunosligida doston janri taraqqiyotini o'rganish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, Mahmud Toir, S.Sayyid, A.Qutbiddin, I.Otamurod, U.Qo'chqor dostonlari borasida adabiyotshunoslikda bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Matnazar Abdulhakim ijodida ham doston janri alohida o‘ringa ega bo‘lib, shoir dostonlari zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetuk namunalari sanaladi. Adabiy jamoatchilik tomonidan donishmand shoir deya e‘tirof etilgan Matnazar Abdulhakim Navoiyning chinakam muxlisi va bilimdoni edi. U Ustozning barcha doston va she‘rlarini ko‘p mutoalaa qilar, mag‘zini chaqishga intilib, ulardan ilhomlanar edi. Uning “Xamsa” dostonlariga yuksak muhabbati bor edi, shu sababli bu sohadagi faol bardavomlikni ko‘ramiz. Bu hol dostonlarda ham ko‘rinadi. Masalan, Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni bilan “Ko‘prik” dostonida ayrim mushtarak va xos jihatlar namoyon bo‘ladi: 1) Har ikkala asarda ham epik ko‘lam kengroq bo‘lib, adolat, raiyatparvarlik va shafqat motivlari oldingi o‘ringa chiqarilgan; 2) Shoh Iskandar va Xonqa hokimi Muhammad Aminiddin obrazlarida realistik va qisman romantizm unsurlari tabiiy omuxtalanib, muxlislarda samimiyat uyg‘otadi; 3) Navoiy dostonida Iskandar talqinidagi qistirma hikoyatlar shogird asarida ham saqlanib, Polvon kanali, suv, aqlli eshak kabi bir qancha xalqona rivoyat va hikoyatlar keltiriladi; 4) Ustoz dostoni masnaviy yo‘lida bir xil vaznda yozilgan bo‘lsa, Matnazar Abdulhakim an‘anadan biroz chekinib, o‘z dostonini turli janr va vaznlarda, aruz va barmoq o‘lchovlarida yozgan. Zero, buni asar xarakteri va uslub taqozo etgan; 5) qistirma rivoyatlar nisbiy tugallikka ega bo‘lib, sujet tarkibida ikkinchi darajali atributlardir. Bular muallifning muayyan fikrlarini tasdiqlash, epik tasvirni kengaytirishga xizmat qilgan. Shuningdek, Matnazar Abdulhakim she‘r va dostonlarida Navoiy dostonlari qahramonlari Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Mehinbonu, Bahrom, Dilorom nomlarining bot-bot tilga olinishida ham ma‘lum ma‘no hamda maqsad mujassami bor. Shoir dostonlarida an‘analarni boyitish va davom qildirish barobarida o‘ziga xoslik, betakrorlik, uslubiy yangilanishlar ustuvorlik qiladi. Matnazar Abdulhakim tarix vositasida bugun uchun zarur gapni uqtirishga harakat qiladigan hassos ijodkorlardan biridir. U yaratgan uchta doston nafaqat mavzusi, balki tuzilishi jihatdan ham bir-biridan farqlanadi.

“Ko‘chki” ijtimoiy-falsafiy doston bo‘lib, arab shoiri As-Saolibiyning (XI asr) “Yatimat at-dahr” asari ohanglarida yozilgan, har bir bandi 8, 10, 12 misradan iborat. Uni donishmandlikka yo‘g‘rilgan hayot haqiqati haqidagi badiiy madhiya deyish mumkin. Matnazar Abdulhakim ijodini bir dengizga qiyos etsak, ushbu turkum shu dengizning eng qimmatbaho marjonidir. Chunki turkumdagi har bir she‘rda yaxlit mushohada va tugallik bor. Ba‘zi she‘rlar o‘zidan oldingi yoki keyingi she‘rning davomidek tuyuladi, lekin har bir she‘rda mantiqan tugallik bor. Turkum 144 ta she‘rdan tashkil topgan.

“Javzo arafasi” asarini shoir lirik doston deb ataydi. Unda qahramonning hayotsevarlik tuyg‘ulari, sevish va sevilishga intilgan qalb olami liro-romantik tarzda tarannum etiladi. Ma‘lumki, muhabbat mavzusida shoirlar juda “ko‘p va xo‘b” yozadilar. Matnazar Abdulhakim talqinida bu mavzu ko‘p asrlik badiiy tajribalar sarchashmasidan fayz va rag‘bat olgan hamda betakror talqin va mahorat bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Muhabbat talqini fikr va tuyg‘u yaxlitligida badiiy sayqal topadi, qog‘ozga, so‘ngra ko‘ngillarga ko‘chadi. Shoirga xos teran nigoh va ohorli badiiy topilma ifodasi shundan tug‘iladi. Bunda fikr va kechinma uyg‘unligi,

ramziy obrazlilik alohida bo‘rtib turadi. Darhaqiqat, shoirning har bir satridan kuchli muhabbat ifori taralib turadi, mavzu qamrovi kengligi, shakl rang-barangligi va poetik ma’no hamda muallif nigohining o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Ularning barchasiga xos mushtarak xususiyat esa voqelikka faol munosabat, undan chuqur hayotiy mazmun topish va uni go‘zal, ta’sirchan ifodalashdir. Shoirning “Javzo arafasi” lirik dostonida oshiq qalbning samimiy va sodda dil izhorlari Matnazar Abdulhakim talqinida o‘zga xos mahorat bilan badiiy talqin qilinadi. Zeroki, lirik dostoniga xos xususiyatlardan biri ularda lirik qahramon tuyg‘u-kechinmalari tasviriga keng o‘rin beriladi. Shuning bilan birga lirik kechinma asosiga qurilgan bunday dostonlarda ma’lum bir hayotiy voqea ham qoliplovchilik vazifasini bajaradi va shu taxlit lirizm epiklik bilan uyg‘unlashib ketadi. Matnazar Abdulhakim “Javzo arafasi” lirik dostonida sevish va sevilishga intilgan qalb olami ehtirolari badiiy mahorat bilan tasvirlaydi:

*Ilhaq, qa’r-qa’ridan mushtoqdir osmon,
Bor oftobi, barcha yulduzi bilan*

*Seni qattiq qo‘msar Urganch bog‘lari
Har yaprog‘i, har bir ildizi bilan [2, 61].*

Shoir dostonida “daraxt”, “yaproq”, “ildiz”, “tomir”, “oftob”, “yulduz”, “olov” kabi poetik obrazlardan shu daraja o‘rinli foydalanadiki, ular fikriy ravonlik, rang-baranglik, ifodalilik, salmoqlilikni oshirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, shoir “daraxt” timsoli orqali go‘zal tashxis namunalarini yarata olgan:

*Biz ham asli, o‘zi, bir juft daraxtmiz
Birimiz bo‘lganmiz jo birimizga.
Ayriliq – yolg‘ondir. Qattiq chirmashgan
Tomirimiz tomirimizga [2, 61].*

Ko‘rinadiki, bu o‘rinda “daraxt” obrazi insonlashtiriladi. Matnazar Abdulhakim inson ruhiy holatini, g‘oyatda ichkin kechinmalarini tuymoqqa intiladi, poetik timsollar vositasida muhabbat mavzusini mahorat bilan badiiy talqin qiladi.

Shoirning yana bir dostoni “Ko‘prik” deb nomlanib, mazmun va shakl jihatdan o‘zgachalikka ega. U voqea va tuyg‘ular uyg‘unligini mujassamlashtirib, to‘rtlik, g‘azal, rivoyat, muxammas, sonet janrlari sintezini yaxlit matnga birlashtiruvchi tarixiy mavzudagi asardir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Matnazar Abdulhakimning “Javzo arafasi”, “Ko‘chki”, “Ko‘prik” dostonlari mustaqillik davri o‘zbek dostonchiligiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi. Shoir dostonnavisligida mumtoz adabiy dostonchilik an‘analarini davom ettirish va ularga ijodiy yondashib, mavjud an‘analarni boyitish, *millat va Vatan taqdirida munosib nom qoldirgan tarixiy shaxslar obrazlarini badiiy gavdalanirish, sujet va ifodada uslubiy yangilanishlar bo‘y ko‘rsatadi. Kuchli lirik tug‘yonlarni o‘z qatiga singdirgan, falsafiy-intellektual mazmun kasb etgan shoir dostonlari ruhiy-psixologik talqin va ramziy-majoziy ifodaga boy, kechinmalar quyuuq, tasvir tabiiydir.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. Abdulhakim M. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent. G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2017.

3. Yo‘ldoshyev Q. Yoniq so‘z. –Toshkent. “Yangi asr avlodi”. 2006.



JILVAKOR SO‘Z TAROVATI

Nasiba DJUMANIYAZOVA,
UrDU dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir Asqar Mahkam ijodi talqiq qilingan, shuningdek, uning bir qator she‘rlari tahlil qilingan.

Аннотация: В статье исследована поэзия поэта А.Махкама, также анализированы его некоторые стихотворения.

Annotation: In this article was investigated poetry of Askar Mahkam.

Kalit so‘zlar: lirik asar, obraz, janr, san’atkorlik, falsafiy tafakkur, lirik qahramon, sujet.

Ключевые слова: лирическое произведение, образ, жанр, мастерство, философские размышления, лирический герой, сюжет

Keyword: creative direction, poetry, poetic, meaning, allegorical role, kavertet, muhammas poem.

She‘r shoir qalb torlaridan yangrab chiquvchi sadodir. O‘zbek she‘riyatida Asqar Mahkam ijodi alohida hodisa desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoirning “Ishq”, “Tavajjuh”, “Vahdat kuyi” kabi qator she‘riy to‘plamlari uning ijodiy izlanishlaridagi go‘zal va betakror namunalariga boyligi bilan diqqatga sazovordir. Janr xususiyatlari va mavzu ko‘lami jihatdan ham shoir she‘riyati rang–barangdir. Shoir yaratgan har bir she‘rida o‘zini taftish qiladi. O‘zligini izlaydi va bu yo‘lda komillikka qadam tashlab, ruhiy rivoj yo‘lini tanlaydi. “Ma‘lumki, insoniyat hayotida yuz bergan barcha muhim voqea-hodisa-yu o‘shis-o‘zgarishlar, avvalo, ijodkor shaxs ko‘nglida iz qoldirib, so‘ng badiiy so‘zga do‘nadi. Millat hayotidagi eng kichik o‘zgarishni ham tuyish, uning belgilarinida teran anglash chinakam ijodkorning qismatidir”[1,131]. Darhaqiqat, shoir har bir she‘rida go‘zal va betakror poetik ifoda va tasvir mahoratini aks ettiradi. Misralar qatida nafaqat, o‘z dardlari balki butun insoniyatga tegishli g‘ussa va shodliklarni namoyon qiladi.

Uziladi yaproqlar sekin,

Tumanlarga chayqalib cho‘kar

Xotiralar oqibat bir kun

Yaproq yanglig‘ yo‘qlikka cho‘kar [3, 63].

Shoir yaproq timsoli orqali o‘z ma‘nosi va ko‘chma ma‘nodagi talqinni yoritgan. Daraxtdan uzilib tushgan yaproq o‘z vazifasini ado qilib, daraxtni tark etganidek, bir kun kelib inson hayotidan ham xotiralar uzilib ketaveradi. Xotiralarni yaproqqa o‘xshatilishi ham bejiz emas, chunki bu xotiralar qatida qanchadan qancha orzu-

armonlar, shirin va iztirobli lahzalar jamlanadi. Inson tafakkurida kechgan har bir jarayon uning xotirasida muhrlanib qoladi va eslanganda unga og‘riq yo zavq beradigan kechinmalar shaklida namoyon bo‘ladi. Shoir bu o‘rinda yaproq timsoli orqali o‘xshatish san‘atini qo‘llagan. Tuman tavsifi orqali esa yo‘qotish ma‘nosi akslantirilgan.

Dilband yomg‘irlarim kelayotirlar

Meni tashlab ketgan ma‘yus qizlardek.

Dilgir nasimlarim elayotirlar

Bargrezon bog‘larda hur tovuqlardek...[3, 63].

Bugungi o‘zbek she‘riyati o‘z taraqqiyotining muhim hayotiy hodisalarni tasvirlash va dolzarb muammolarni aks ettirishdan ko‘ngil manzaralarini chizish va ruhiy holatlarni moddiylashtirish bosqichiga o‘tib o‘tdi. To‘g‘ri, bugun ham dolzarb kundalik hodisalarga bag‘ishlangan, muhim siyosiy voqealar yoki odam ko‘nglining ijtimoiy mohiyati ifodalangan tizmalar yaratilayotir. Lekin aksar hollarda chin she‘riyat ko‘ngil holatini manzaralashtirish, sezimlar chigalligi va iztiroblar rangini chizish, ranglarning tovushini berishga tutingan[2, 163].

Asqar Mahkamda har bir so‘zni obrazga aylantirish mahorati baland va o‘z o‘rnida so‘zlarga chuqur va etuk mazmun yuklashga harakat qiladi. Yomg‘irlar bu lirik qahramon ko‘nglidagi alam-iztiroblar ekanligi bilan birga ularga dilband sifatlashi orqali shoir uning lirik qahramon qalbiga yaqin ekanligini ham tasvirlaydi. Bu yaqinlik dardni o‘zini deb bilgan har bir inson ko‘ngilga eshdir. Shoir ma‘yus qizlar timsoli bilan lirik qahramon dilidan ko‘chib ketgan mehrsizlik va oqibat kabi tushunchalarni satrlarga singdirib yuboradi. Dilgir nasimlar esa juda yoqimli hislar og‘ushida qolgan va bu go‘zallik timsolini tovuqlarga mengzanilishi ham originallik kasb etgan.

Xullas, shoir Asqar Mahkam she‘rlarida obraz yaratish mahorati o‘ziga xos tarzda ifoda etilgan. Shoir she‘rlari tahlili orqali timsollar tabiati ta tasvir xususiyatlari yorqin aks ettiriladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
2. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
3. Маҳкам А. Ваҳдат куйи.–Т.: 2021.



“SHAYX NAJMIDDIN KUBRO” TARIXIY FOJIASINING YARATILISHI HAQIDA

Manzura PIRNAZAROVA,
f.f.n, UrDU dotsenti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Omon Matjonning “Shayx Najmiddin Kubro” tarixiy fojiasining yozilishi haqida ma‘lumotlar beriladi. Dramada tarixiy talqin masalasiga, shuningdek tarixiy shaxsni talqin qilishda tarixiy manbalar va hujjatlar tahlili zarurligi kabi muammolarga diqqat qaratilgan.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о написании

исторической трагедии Амона Матжона «Шейх Наджмиддин Кубро». В драме уделяется внимание исторических интерпретации, а также необходимости анализа исторических источников и документов в интерпретации исторического деятеля.

Abstract: This article provides information about the writing of Amon Matjon's historical tragedy "Sheikh Najmiddin Kubro". In the drama, attention is paid to the issue of historical interpretation, as well as the need for analysis of historical sources and documents in the interpretation of a historical figure.

Kalit sozlar: tragediya, tarixiy drama, tarixiy manba, manoqib, prototip

Ключевые слова: трагедия, историческая драма, исторический источник, manoqib, prototip.

Key words: tragedy, historical drama, historical source, manoqib, prototyp

Tarixiy shaxs dramaturgiyaning muhim jihati bo'lib, uni talqin qilishda alohida yondashuvni talab qiladi. Jahon adabiyotshunosligida tarixiy shaxsni dramatik kontekstda talqin qilish va metodologiyasiga oid qator ishlar bajarilgan. Tarixiy dramaturgiya uzoq va boy tarixga ega bo'lib, bu jarayonda tarixiy talqin masalasi markaziy o'rin tutadi. Lekin qanday qilib tarixiy shaxsni sahnada asliyatiga yaqin tasvirlashimiz mumkin? Bu jarayonda qanday usul va yondashuvlardan foydalansa bo'ladi? Bu masalada bir necha nuqtaga e'tibor qaratish lozim ko'rinadi. Jumladan, tarixiy shaxslar talqini. Tarixiy shaxsni talqin qilishning birinchi bosqichi tarixiy manbalar va hujjatlar tahlilidir. Sahna asarlari mualliflari tarixiy shaxsning hayoti va xarakterini, ularning motiv va maqsadlarini sahnada to'g'ri yetkazish uchun nihoyatda puxta o'rganadilar. Tarixiy fakt va hujjatlarni tahlil qilgandan keyin dramaturg oldida tarixiy shaxsni talqin qilish vazifasi turadi. Ular sahnada ishonchli va jonli obraz yaratish uchun tarixiy personaj xarakterining mohiyatiga kirib borishi, uning motivlari va his-tuyg'ularini tushunishi kerak. Tarixiy shaxs talqini dramaturgdan *tarixiy aniqlik* va *ijodiy erkinlik*ni hisobga olgan holda muvozanatli yondashuvni talab qiladi. Masalan, "Shayx Najmiddin Kubro" tarixiy fojiasidagi piri murshid tomonidan aytilgan "Zobitlar almashar, shajaralar uzilar. Vatanning nomlanishi o'zgarar, ammo uning asli, ma'nosi o'zgarurmi?! Kecha afrig'iylar, g'aznaviylar, somoniylar... Bugun xorazmiylar, ertaga butunlay boshqa urug'-amirlar kelur! Ammo bularning barchasi tuprog'imizning mo'tabar onalik yorlig'i tuqqan go'shalik mavqeini o'zgartirgaymu?! Yo'q! Gap fuqarolarning aql-idroki, kuch-qudrati, istaklari kimga, nimaga yo'naltirilganida!" [1, 73]. degan so'zlari tarixiy aniqlikdan ko'ra afzal deb topilgan ijodiy erkinlik mahsulidir.

Badiiy asarda tarixiy shaxs talqini asar muallifi, janri va shakliga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Biroq, umuman olganda, bunday talqin muayyan g'oyalar yoki tushunchalarni yetkazish, shuningdek, o'quvchi yoki tomoshabinga hissiy ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, tarixiy adabiyotda tarixiy shaxslar ko'pincha qahramon yoki uning ziddi, kuchli yoki kuchsiz, ideal shaxs yoki jinoyatchi sifatida namoyon bo'ladi. Mualliflar ushbu shaxslardan tarixiy voqea va hodisalarga nisbatan o'z

qarashlarini singdirish, shuningdek, muayyan g'oyalar yoki xatti-harakatlar namunalari ahamiyatini ta'kidlash uchun foydalanishlari mumkin.

Tarixiy shaxsning talqinidan asarda dramatik keskinlikni yaratish uchun ham foydalaniladi. Masalan, muallif o'quvchi yoki tomoshabinda hamdardlik yoki rag'bat hissini uyg'otish, shu orqali asarga, uning qahramonlariga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida tarixiy shaxsni ma'lum bir nuqtai nazardan ko'rsatishi mumkin. Biroq, bunday talqin, ayniqsa, muallif noto'g'ri yoki haddan tashqari soddalashtirilgan talqinni ishlatsa, bahs-munozaralarga sabab bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tanqidchilar, muxlislar asarda tarixiy shaxs yoki tarixiy voqealarni to'g'ri aks ettirilmagan, degan haqqoniy e'tirozni bildirishlari mumkin.

O'zbek tarixiy dramalari shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rgangan D.Rahmatullaeva ta'kidlaganidek, "O'zbek tarixiy dramalarining aksarini tarixiy-biografik xarakterdagi asarlar tashkil qiladi. Xalqning buyuk o'tmishdoshlari, jamiyat va xalq hayotida muhim o'rin tutgan shaxslar hayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqish natijasi sifatida dunyoga keladigan bu kabi asarlarning o'ziga xosligi tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning uyg'unligiga biografik turga mansub ekan, bu asarlarda tarixiy haqiqat, badiiy to'qima asliga (prototipiga) asoslanishidir. Tarixiy mavzudagi dramalarning aksari tarixiy-darajasi, ularning o'z tarixiy prototipiga muvofiqligi va birikuvi oqibatida yuzaga kelgan xarakterlarning o'z munosibligini aniqlash muhimdir" [4, 19].

Omon Matjon "Shayx Najmiddin Kubro" tarixiy fojiasini yozish uchun katta ko'lamdagi manbalarni o'rganib chiqdi. Ma'lumki, Najmiddin Kubro faoliyati Ibn al Asirning "Al-komil fi t-tarix", Juvayniyning "Tarixi jahongushoy", Rashididdin Fazlullohning "Jome at - tavorix", Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Fariduddin Attorning "Tazkirat ul- avliyo", Abdurahmon Jomiyning "Nafohot ul-uns", Alisher Navoiyning "Nasoim ul- muhabbat", Ali Safiyning "Rashohotu aynil – hayot", Sayfiddin Boharziyning "Avrod ul-ahbob va fusus ul-odob", Ibn al-Karbaloyining "Ravzat ul-jinon", Hamdulloh Qazviniyning "Tarixi guzida", Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Habib us-siyar", Abulg'oziyning "Shajarayi turk" va boshqa manbalarda aks etgan. Shu bilan birga Najmiddin Kubro haqida xalq og'zaki ijodidagi obrazi haqidagi qissalar va manoqiblar ham mashhur bo'lib, "Shayx Najmiddin Kubro qissasi", "Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro", "Ibn Xojib qissasi" kabi asarlar shular jumlasidandir.

Omon Matjon Najmiddin Kubro tasavvuf ta'limoti haqidagi M.H.Bursaviy, Dj.S.Trimingem, Devin De-Viz, Usmon Turar, Asad Jo'shon, Moxir Izz, Yu.Zaydon, K.Makrey, F.Mayer, Ye.E.Bertels va boshqalar qalamiga mansub xorijiy; N.Komilov, A.SH.Juzjoniy, I.Haqqul, M.Oripov, H.Aliqulov, R.Nosirov, Q.Bo'ronov, R.Shodiev, G.Navruzova, B.Ochilova, O.Sharipova, S.Ismoilov, E.Zoirov, M.Qodirov, M.Safarboev, O.Safarboev, Z.Is'hoqova, A.Bektosh va boshqalar vatandosh tadqiqotchilar ishlari bilan ham yaxshi tanishib chiqadi.

Fojiada dramaturg asarni o'qigan yoki sahnada tomosha qilgan kishilarda aziz avliyoning so'zlari sifatida ta'sir qilishidan umidvor hamda shu mas'uliyatni anglagan inson o'laroq Shayx Najmiddin Kubro tilidan aytilgan har bir so'zga alohida e'tibor

qaratadi. Masalan, Shayx Najmiddin Kubro “Odob us-sufiyya” (So‘fiylar odobi”) asarida (tariqatdan ta’lim beradigan) “O‘sha pir shariat, tariqat va haqiqat imlari sohibi bo‘lsin hamda usuli dinda olim, tariqatda orif bo‘lsin. Shariat odoblarini tariqat va haqiqat sirlari orqali anglagan bo‘lsin. Toki murid shariat masalalarida biror mushkulotga uchrasa o‘z ilmi orqali uni muridga yechib bera olsun” (A‘zamjon Toshboev tarjimasida [3, 43]. – deydi. Najmiddin Kubro “Usuli ashara” asarida yozadi: “Shayx valiylik suvi ila murid vujudidagi kirlarni va unga keyinroq ilashadigan chirkinliklarni poklaydi”. “Valiylik suvidan maqsad ilohiy fayzdurki, inson bu doira ichiga kirmaguncha o‘sha fayzni ko‘nglidan o‘tkaza olmaydi” [4, 19]. Fojiada Shayx tilidan aytilgan “Yovuzlar-fitnakor, xudkashlar emin-erkin, adovat yo‘llari to‘silmagani zamonda yaxshilar ko‘nglida aziz xislatlar susayadi, eranlar ko‘kragida shijoat alangasi pasayadi, fayzu fazilatlar o‘rnini tahluka, sabrsizlik oladi” [2, 88]. so‘zlari bir tomondan Shayx Najmiddin Kubroning murshidlik salohiyatini namoyon qilsa, ikkinchi tomondan tarix fonida zamon muammolari, ehtimol, barcha zamonlar muammolarini o‘rtaga tashlashdir. Omon Matjonga ushbu fojiani yozishda ilhom manbalaridan biri “Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro” bo‘lganiga shubha yo‘q. A.Bektasheva yozishicha, asarni ilk bor tadqiq etgan olimlar, aksariyat holda, unda zikr etilgan voqealarni bayon qilish bilan chegaralanishgan. Turkman olimi N.Halimov esa uning tarixiylik qiymatiga e’tibor qaratadi va asar Rashididdinning “Jome”’sidan ilhomlanib yozilgan, degan fikrga keladi. Ammo ular manoqibning manbasi, undagi obrazlar, prototiplar xususida aniq bir xulosa berishmagan”. Olima “mazkur manoqib Abdurahmon Jomiyning “Nafahot” va Alisher Navoiyning “Nasoyim ul muhabbat” asari ta’sirida yaratilgan. Shuningdek, undagi mulla Abdurahmonning prototipi Najmiddin Kubroning xalifasi Shayx Raziiddin Ali Lolo, birvarakay uchta obraz – shahzoda Abdulloh, Bag‘dod tabibining o‘g‘li Jamiljon va juhud bolakayning prototipi esa Shayxi Valitaroshning ikkinchi bir xalifasi Shayx Majididdin Bag‘dodiydir”[1, 15]. – degan xulosaga keladi.

Omon Matjon esa fojiada Abdul Jalil obrazi orqali manoqiblarda aks etgan voqealarni tasvirlashga intiladi. Natijada Abdul Jalil ukasi Abdul Xalil juftligida o‘ta reallashadi, voqealar o‘ta hayotiy tus oladi. Shayxning xun to‘lashga rozi bo‘lib, uzrgohlik bilan xonaqohga kelgan Xorazmshohga javobi manoqiblarda bitilganidek keskin ohangda berilgan: “Meni chopganida, mening jonimni olganida, meni jannatiyu, o‘zini bihishtiy aylar erdi! Ulug‘ shoh ham xijolat azobida turmagan bo‘lar edilar. Bilmadim bu savob endi kimda ketadi!” [2, 53]. Asarda O‘zloq shoh va Jaloliddin siyosat dunyosidagi raqiblar emas, ma’nan bir-birining ziddi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ham Omon Matjonning dramaturg sifatidagi mahorati bo‘lib, bu holatda ularning siyosiy muxolifati ildizlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bektasheva A.R. Tariqat, ma’rifat va she’riyat mushtarakligi (Shayx Najmiddin Kubro hayoti va ijodi misolida). Filolol.fanlar fals. doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019.
2. Omon Matjon. Diydor aziz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 2011.

3. Safarboyev M. Najmiddin Kubro – qutbi dahr. (Sxema va diagrammalar. Uslubiy qo‘llanma.) – Urganch: UrDU noshirlik bo‘limi, 2011.

4. Rahmatullayeva D. XX asr ozbek dramaturgiyasi va teatr sahnasida tarixiy drama (shakllanish va rivojlanish muammolari) San‘atshunoslik fanlari doktori diss. avtoref. – Toshkent, 2004. <https://www.bukhari.uz/?p=26441>.



ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA ERKIN TARBIYA TEKNOLOGIYASINI QO‘LLASHNING AHAMIYATI

Venera ATAXANOVA,
f.f.f.d.(PhD), dots v/b.
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot fanini o‘qitishda g‘arb pedagoglarining erkin tarbiya texnologiyasini qo‘llashda ularning fikr xulosalari qisqa tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье кратко анализируются мнения западных педагогов по поводу использования технологии бесплатного образования в преподавании литературы.

Abstract: This article briefly analyzes the opinions of Western educators regarding the use of free education technology in teaching literature.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, adabiyot, texnologiya, erkin tarbiya texnologiyasi,

Ключевые слова: Педагогика, литература, образовательные технологии, студенты

Key words: Pedagogy, literature, educational technologies, students.

Milliy pedagogika ilmi va amaliyotida shaxs ijodiy potensialini ongli ravishda o‘zining rivojlanishiga qaratish tendensiyasi hukmronlik qilmoqda. Erkin, ijodkor shaxsni tarbiyalash g‘oyasiga pedagoglar va faylasuflar hamma zamonlarda katta e‘tibor qaratganlar. Pedagogika ilmida erkin tarbiya konsepsiyasi bolaning hayoti, axloqi va faoliyatiga har xil cheklovlar qo‘yish va unga hokimlik qilishga qarshi turadi. Erkin tarbiya tarafdorlarining ideali bola rivojlanishi va qobiliyatiga cheklov yoki taqiqlar qo‘ymaslikdan iborat bo‘lgan. G‘arbda bu fenomen M. Monten, M.

Montessori, J. J. Russo, Rossiyada L. N. Tolstoy, V. A. Suxomlinskiy, Sh. A. Amonashvili, K. N. Ventsel singari pedagoglar tomonidan o'rganilgan.

Erkin tarbiya tushunchasi shaxsning o'zligini anglashi, o'z-o'zini rivojlantirishi shaklida Sokrat falsafasida ham markaziy g'oyalardan biri bo'lgan. U ta'lim-tarbiyada o'quvchi erkinligi masalasiga bolaning o'zligini anglashi, unda faollikni uyg'otish va oshirish usuli deb qaragan. Bu g'oya Monten pedagogikasida ham o'z aksini topgan. Har ikkisi ham o'quvchilarini o'zlarining hamkorlari deb bilishgan. Sokrat: «Men hech qachon hech kimning o'qituvchisi bo'lmaganman. Lekin kimdir mening suhbatimga moyil bo'lsa, bunga hech qachon monelik qilmaganman», degan ekan. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi Sokratning nazarida ham jismoniy, ham ruhiy barkamol shaxsni shakllantirishdir. O'quvchi o'zining kamoloti uchun intilsagina bu maqsad amalga oshishi mumkin.

Fransuz faylasufi Jan-Jak Russo: «Inson mukammal bo'lib tug'iladi, ammo jamiyat o'zining tarbiyasi bilan uni mayib qiladi», - degan ekan. Russo bolaning erkiga daxl qilmaslikni, uni hech narsaga majburlamaslikni taklif qilgani holda, tarbiyalanuvchiga nisbatan qat'iyatli va talabchan bo'lishni unutmazlikni, ayni zamonda, har qanday injiqliklarini qondiravermazlikni ham ta'kidlaydi. U odamni o'z ixtiyori bilan yaxshiliklarga yo'naltirish shu ishni kuch bilan qilishga majburlashdan ko'ra yaxshiroq deb hisoblaydi.

L.N.Tolstoy ta'lim mazmuni va maktabning ichki tuzilishini o'quvchilarning xohishlari asosida amalga oshirish, bilimlarni ixtiyoriy tarzda o'rganish kutilgan samarani berishini ta'kidlaydi.

Rus pedagogi K. N.Ventsel ham ta'limda erkin tarbiyanitarg'ib qilgan. Uning fikricha, axloqiy fazilatlar o'quvchilarning «|miyasiga joylab qo'yish» bilan emas, balki bolada ma'naviy sifatlarga ixtiyoriy moyillik uyg'otish yoli bilan singdirilishi lozim.

Taniqli fransuz pedagogi – gumanist S.Frene: «Jamiyatning demokratlashuvi maktabning demokratlashuvidan boshlanadi. Avtoritar maktab demokratik jamiyatning bo'lajak fuqarolarini shakllantira olmaydi», – degan ekan. Mustaqil mamlakatining o'z fikriga ega bo'lgan fuqarolarini shakllantirish uchun butun ta'lim tizimini bugun jamiyat talab qilayotgan avlodni tarbiyalashga qaratish, har bir darsni, xususan, maktab adabiy ta'limini erkin tarbiya texnologiyasiga tayangan holda tashkil etish davr talabidir.

Albatta, har qanday ta'lim-tarbiya tizimini shaxsga u yoki bu darajadagi bosimsiz amalga oshirish qiyin. Ammo bugungi milliy pedagogika ilmida buni imkon qadar minimal darajaga tushirish yo'llari qidirilayotgan ekan, bu jarayonda erkin tarbiya texnologiyasiga tayanish, muallimlardan esa maksimal darajada natija beradigan metod va usullardan foydalanish talab etiladi.

O'quvchilar o'zlari kelishgan holda istalgan timsolni - kim vatan, kimdir qiz, qay biridir baxt, yana kimdir ozodlik timsolini tanlab, o'zlari tanlagan mavzuga asoslangan holda guruhlarga birlashadilar. O'z qarashlarini matndan misollar keltirgan holda asoslashga intiladilar. O'zaro kelishilgan holda xulosalar chiqariladi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi fikrlarni tinglash, ularning asosiga diqqat qilish, guruh

a'zolarining fikr va xulosalariga isbot talab qilishdan iborat bo'ladi. Tahlil jarayonida o'quvchilarning fikrlariga daxl qilinmaydi, e'tiroz bildirilmaydi. A'zolarining xulosalari bir-birlariga qarshilantirilmaydi. Faqat birgina nozik jihat bor: tahlil jarayonida o'quvchilarning fikrlari, qarashlari sog'lom, toza ma'naviyat mahsuli ekani ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Agar ozgina chetlangan o'rinlar bo'lsa, o'qituvchi buni nazoratga olishi kerak bo'ladi. Chunki har qanday erkinlikda ham ma'lum mezonlar mavjud. O'zbek tarbiyashunosligi tayanadigan milliy ma'naviyat, o'zbekona axloqiy mezonlar, qanday tarbiya asosida bo'lmasin, shakllanib kelayotgan shaxsning ruhiyatiga singdirib borilishi bosh maqsaddir. Guruh a'zolari chiqargan turfa xulosalarini o'zaro umumlashtiradilar yoki har bir a'zo o'z xulosasida qoladi. Guruh a'zolarining har biri o'z qarashlarida qolishga haqli. Bu ham ta'lim va tarbiyadagi erkinlikning xususiyatlaridan biridir. She'r yozilgan davrga tayaniladigan bo'lsa, undagi Go'zal timsolini vatan deyish uchun ham, ozodlik deyishga ham, baxt deb qarashga ham asos bor. Chunki XX asr boshlarida vatanni ozod ko'rishni hamma narsadan ortiq ko'rgan shoir Cho'lpon ko'ngil istaklarini asarida go'zal timsoli zamiriga berkitishi ham tabiiy hol edi. Vatanning ozodlik ramzi bo'lmish oqqa burkanishi, baxt va erkdan, mustaqillik shodligidan "yanoqlari"ga qizil yugurishi shoir fantaziyasining mahsuli, deb qarash ham mumkin.

Agar sinfdagilarning barchasi asar matni bilan tanishganidan So'ng (Go'zalni qiz timsoli deb bilsalar, demak tahlilni umumiy holda mushkul etish ham mumkin. Badiiy matn tahlilini umumiy holda umalga oshirishda dars jarayoni asar matni yuzasidan o'rta savol-topshiriqlar ko'magida amalga oshiriladi.

Ko'rinadiki, ta'lim va tarbiya jarayonida tarbilanuvchilarning erkinligi masalasi "oydan tushgan" yoki erishib bo'lmaydigan haqiqat emas. Hamma gap uning mohiyatiga kira bilishda. Har qanday g'oya yoki qarashlarning mazmun-mohiyati to'g'ri va to'liq anglashilsa, uni amalga oshirish jarayoni ham osonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday ta'limda, xususan, adabiyot o'qitishda imkon qadar o'quvchilarning erkinligini ta'minlashga urinish bu jarayonda samaradorlik garovidir. Shunda qobiliyatli o'quvchilar o'z imkoniyatlari darajasida ilgarilab boraveradilar, qolganlar esa qo'llaridan kelganicha harakat qilib ularning orqasidan ergashaveradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Монтень Мишель. Опыты. Избранные произведения в 3-х томах. Том 2. Пер. с фр. – Москва: «Педагогика», 1992. 560 с.
2. Монтессори М. Дом ребёнка: Метод научной педагогики: Пер. с итал. – Гомель 1993.
3. Нерсесянц В.С. Сократ. – Москва: «Наука», 1977. 151 с.
4. O'zbek tilining izogli lug'ati. 5 jildlik. 4-j. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. 1-j. 144-b.



ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDA BADIY TASVIR VOSITALARI ISTIFODASI

Sarvar ATA JANOV,

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Samandarning “Nazm nafasi” hamda “Bahor oqshomlari” to‘plamlaridan joy olgan she’rlari tahlilga tortilib, adibning an’anaviy raqamlar, alliteratsiya usuli va so‘z takrori kabi badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanishi haqida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье анализируются стихи Эркина Самандара из сборников “Nazm nafasi” и “Bahor oqshomlari” и рассказывается об умелом использовании писателем таких инструментов художественного изображения, как традиционные цифры, метод аллитерации и повторение слов.

Annotation: This article analyzes Erkin Samandar's poems from the collections “Nazm nafasi” and “Bahor oqshomlari” and talks about the writer's skillful use of artistic image tools such as traditional numbers, alliteration method and repetition of words.

Kalit so‘zlar: anafora, epifora, alliteratsiya, ohangdorlik, takror, tovush, band.

Ключевые слова: анафора, эпифора, аллитерация, тон, повтор, звук, предложение.

Key words: anaphora, epiphora, alliteration, tone, repetition, sound, clause.

Folklor va yozma adabiyot munosabati qadimiy tarixga ega. Xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyot namoyandalarini mehnatkash ommaning dili va tili, turmushi va kurashi, dunyoqarashi va odat-udumi, tashvishi va istak-orzusi bilan yaqindan tanishtirdi, badiiy ijodkorlik havasi va ko‘nikmalarini tug‘dirdi, g‘oya va obrazlarning poyonsiz olamiga olib kirdi, butun bisoti va san‘atkorlik mahoratini darig‘ tutmadi[1:10]. Ushbu an’ana zamonaviy yozuvchilar tomonidan ham muntazam davom ettirilmoqda. Ayniqsa, she’riyatda xalq og‘zaki so‘zlashuv tiliga xos obrazli ifodalardan foydalanish ancha faol davom etmoqda. Bir qator shoir va yozuvchilar kabi Erkin Samandar ijodini tadqiq qilar ekanmiz bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xalq she’riyatiga xos asosiy xususiyatlardan biri musiqaviylik, ohangdorlikdir. Chunki u kuylash uchun to‘qiladi. Kuy esa qo‘shiq bilan birga tug‘iladi. Ayni paytda qo‘shiqlarda so‘z takrori, alliteratsiya usuli an’anaviylik kasb etadi. Erkin Samandar an’anaviy raqamlarni ham lozim joylarda misralar qatiga joylagan:

Amrim yetti burjga, yetti iqlimga

Yetti ming olamga yetilsun ovoz [2, 263).

Yetti raqamining burj, iqlim, olam kabi so‘zlarga sifatdosh tariqasida berilishi shohning dabdababozligini ko‘rsatish bilan birga buyuk Xorazmshohlar davlatining ulkanligini ham ifodalashga xizmat qilgan. O‘z navbatida tovush takrori fonopoetikani ro‘yobga chiqargan. Biroq shohning uquvsizligi dramaturgning e’tiboridan chetda qolmaydi. U ulug‘ davlatni boshqarishga ulug‘ inson qodir, deganday bo‘laveradi. Ikkinchi bir joyda “Qirq” an’anaviy raqami Jaloliddin tilidan bayon etiladi:

Biz qirq og‘a-ini deman, qirq qondosh polvon,

Qirq ming sarboz dili payvand yuragimizga [2, 308).

Ushbu ifodalar “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi “Qirq minglar” dostonidagi ifodalarga juda mos keladi:

*Qirq mingi oshpazdur tillo tovoqli,
Qirq mingi g‘o‘ch yigit bodom qovoqli,
Qirq mingi mard o‘g‘lon arslon siyoqli [2, 33)*

Odatda qadimda el boshchisining 40 yigiti doimo shay bo‘lgan. Jaloliddin ham el boshchisi, uning nutqidagi ushbu an‘naviy raqamlar yangicha tushuncha kasb etadi. Shu sababli zamonaviy ruh kasb etishi uchun uning nutqiga “Qirq ming sarboz” birikmasi qo‘shilgan.

Xalq og‘zaki ijodiyotida tovush takroriga asoslangan alliteratsiya usuliga katta e‘tibor beriladi. Yuqoridagi misollarda raqamlar takroridan tovushlar takrori hosil qilingan. Natijada nutq ohangdor va ravon tarzda namoyon bo‘lgan.

Dramaturgning bu usulga e‘tibor qaratishi bejiz emas. Ayrim o‘rinlarda folklorga xos anafora va epiforalar usuliga murojaat qilib, yana tovush takroriga e‘tibor qaratiladi. Natijada dialoglarda ohangdorlik ta‘sirchanlik oshadi:

*Ey siz qalbi otash bo‘lib yongan yigitlar,
Ey siz baland cho‘qqilarda o‘sgan burgutlar,
Ey siz mening jigarlarim, yovga tashlaning [2, 378)*

Misra boshidagi anoforik takrorlar tovush uyg‘unligidan tashqari ta‘kid ohangini ham kuchaytirib, badiiy nutqni shior va da‘vatga aylantiradi, monologning sahnaviylik xususiyatini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ushbu monologning Jaloliddin tilidan berilishi uning kuch-qudratini yanada yuksaltiradi.

Anaforaga asoslangan bandlar juda ko‘p bo‘lib, ularning ma‘no-mundariyasi nutq sohibining kimligiga bog‘liq holda tanlangan. Shu sababli Jaloliddin monologida jangavorlik ohanglari ustuvorlik kasb etsa, ona obrazi tilidan aytilgan monologda mehribonlik ohanglari ko‘proq namoyon bo‘ladi:

*Men sizniki, bog‘lar, tog‘lar sizniki erur,
Men sizniki, dasht, sahrolar sizniki erur,
Men sizniki, men sizniki, men siznikimen! [2, 385)*

Ayrim she‘riy parchalarda so‘z takrori misralar qatiga singdirib yuborilgan:

*Boshlarini uz olchoqlarning, muzaffar Malik,
Muzaffarsen, muzaffarlik pasha aylagil [2, 311).*

Muzaffar so‘zi g‘olib ma‘nosini anglatadi. Shoir ushbu so‘zning turli tovlanishlarini misralarga singdirib, so‘z o‘yini va ohangdorlik bilan asar g‘oyasini yuksaltirishga erishadi.

Erkin Samandar she‘riyatida xalqona ruh turli ko‘rinishlarda jilolanadi. Shulardan biri so‘zlarning epifora shaklida takrorlanishidir:

*Bo‘g‘ishib yotadi, ho‘it it bilan,
Burga burga bilan va bit bit bilan,
Chavaq- chavaq bilan va kit kit bilan,
Senga insof bersin, odamzod [2, 263].*

Globalashuv davridagi hayot manzaralari shoirni xavotirga soladi. Qalb kechinmalarini xalqona tilda, ravon uslubda bayon etadi. She‘r tezda esda qolish

xususiyatiga ega. Erkin Samandar lirikasida o‘sha xalqona tamoyildan foydalanish an’anasi ustuvor darajaga ko‘tarilgan:

*Goh kulib tashlar nigoh,
Hajrida o‘rtaydi goh,
Goh sahar yo‘l poyladim,
Gohi tun oh-voyladim,
Ham mani xon ayladi,
Ham mani qon ayladi,
O‘zi bir tinchgina qiz,
O‘zi bir kichkina qiz [3, 30].*

Shoir ijodida so‘z takrori orqali tovush uyg‘unligini ro‘yobga chiqarish va anafora, infora va epifora kabi sintaktik resurslardan foydalangan holda she’riy misralar ijod qilib fonopoetik usulni amalga oshirish an’anasi ham uchraydi:

*Nozingga qarasam, fitnadan so‘zlar,
Sozingga qarasam, fitnadan so‘zlar,
Labingga qarasam, fitnadan so‘zlar,
Qalbingga qarasam, hammasi yolg‘on [3, 37].*

She’r misralaridagi takroriy so‘z va birikmalarda andisha, ishonch, ta’kid, xulosa kabi oshiqona tuyg‘ular o‘z ifodasiga ega bo‘lgan. Bunday toifa she’riy misralar xalq dostonlari she’riyatida faol ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. –Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1974. –Б. 382.
2. Эркин Самандар. Назм нафаси (Сайланма) –Т.: “Turon zamin ziyo” 2015 –Б. 510.
3. Эркин Самандар. Баҳор оқшомлари. –Т.: “Ёш гвардия”, 1984. –Б. 80.
4. Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. –Т.: Фан, 1971. –Б. 174.
5. Холиқова Д. Халқчиллик –муҳим мезон.// “Ўзбек тили ва адабиёти”. 2004 №5. –Б.72-73.
6. Мўминов Ғ. Прозамиз тараққиётида фольклорнинг аҳамияти.// “Ўзбек тили ва адабиёти”. 1978 №2. –Б. 62-66.



OMON MATJONNING ODDIY FOLKLORIZMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Musharraf RAHIMOVA,
UrDU doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Omon Matjon ijodida maqol va matallarning qo‘llanilish usullari, u bitgan she’rlarda iboralar qay darajada mohironalik bilan qo‘llanilganligi to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы использования пословиц и поговорок, использованных Омон Матжон в его творчестве, а также то, насколько умело выражения, использованные в его стихах.

Annotation: In this article, the methods of using proverbs used by Omon Matjon in his work, and how skillfully the expressions used in his poems are discussed.

Kalit soʻzlar: Omon Matjon, oʻzbek adabiyoti, oʻzbek mumtoz adabiyoti, maqol, matal, ibora, obrazli ibora.

Ключевые слова: Омон Матжон, узбекская литература, узбекская классическая литература, пословица, идиома, образное выражение.

Key words: Omon Matjon, Uzbek literature, Uzbek classical literature, proverb, idiom, figurative expression.

Omon Matjon Xorazm adabiy muhitining zabardast shoirlaridan biridir. Xalqimizning ardoqli shoiri qariyb oltmish yillik ijodiy faoliyati davomida “Ochiq derazalar”, “Karvon qoʻngʻirogʻi”, “Quyosh soati”, “Yonayotgan daraxt”, “Yarador chaqmoq”, “Haqqush qichqirigʻi” kabi sheʼriy toʻplamlar, “Najmiddin Kubro”, “Gaplashadigan vaqtlar”, “Choʻldagilar”, “Ming bir yogʻdu” kabi dostonlar, bir qator nasriy asarlar, maʼrifiy badiialar yaratdi.

Shoirning barcha asarlarida xalq ogʻzaki ijodiga mansub maqol, matal, rivoyat-u afsonalarga murojaatini koʻrishimiz mumkin.

Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali taʼkidlaganidek, “Omon Matjon sheʼriyati xalq afsonalari, ertaklaridan otilib chiqqan sheʼriyatdir [1].

Xalq ijodiyotidan ilhom olish, uning faol turlari boʻlgan maqollar, matallar, hikmatli soʻzlar, xalq tilining obrazli ifodalariga boy vositalari oʻzbek adabiyotining ravnaqiga mislsiz ijobiy taʼsir koʻrsatadi [2].

Omon Matjon ijodiga razm solsak ushbu anʼananing yorqin namunalariga guvoh boʻlamiz.

*Oʻn besh kishi edik kattayu kichik
Kirsak sigʻ armizmi hammamiz birdan?!
Koʻngilni keng qiling demish roviylar
Barchaga joy yetdi shu bir kaft yerdan.*

Ijodkorning mahorati shundaki, bir mazmundagi iboralarning turli shakllarini izlab topadi va oʻrni bilan samarali foydalanadi. Ayrim hollarda ushbu maqol shakllarining frazeologik variantlariga ham murojaat etadi:

*Kindir : “Yer ostida, hamma teng...”
Bu hazil topmadi maʼno.
Odamlar jips-yaqin turishgan joyda
Sirayam tangu tor koʻrinmas dunyo.*

Shoir ijod jarayonida xalq maqollarini misralar ichiga singdirib, fikriy teran xulosalar yasaydi, natijada sheʼrdagi maʼnoviylik kuchayib, falsafiylik roʻyobga chiqadi.

Quyida Omon Matjonning “Sen-men...” sheʼriy qismida uning koʻplab matallar qoʻllaganiga guvoh boʻlamiz.

*Sen kunduz rang bilmay alamli kezsang,
Men tunda ham yorugʻ osmon boʻlaman.*

Ushbu yuqorida keltirilgan sheʼriy qismda “yorugʻ osmon” obrazli iborasi insonga nisbatan, huddi, kunduzgidek hamma joyni nurafshon koʻra olish qobiliyatini ifodalaydi.

Folklor asarlari ta'sirida kamolga yetgan shoir Omon Matjon o'zidan oldingi buyuk ijodkorlar an'anasini davom ettirgan holda ijod qilib, xalq orasida katta shuhrat qozondi.

Sen itsan, o'tgan ketganga xurgan

Men-chi, katta yo'lga karvon bo'laman.

Shoir **“It xurar-karvon o'tar”** maqolini misralar qatiga singdirib, fikrining qat'iyligini isbotlash maqsadida foydalanadi.

Maqol xalq hayotini, maishiy turmushini, dunyoqarashi va intilishlarini, ko'p asrlik tajribalarini ifodalashi jihatidan katta g'oyaviy-tarbiyaviy vazifani ado etuvchi faol janr hisoblanadi. Maqol kishiga g'oyaviy yo'nalish beradi, undagi ijobiy ideallarning shakllanishiga, rivojlanishiga yo'l ochadi [3].

Shuning uchun ham o'zbek adabiyoti namoyondalari xalq ijodiga, ayniqsa, maqol va matallarga ko'proq murojaat etganlar va ulardan barakali foydalanganlar.

Omon Matjon ijodida ham maqol va matallar juda katta va muhim o'rin egallaydi. Shoir o'z she'rlarida ularni g'oyat ustalik bilan o'z o'rnida mohirona qo'llagan.

Anu... boshliq. Necha yillar tinch,

Bir idora, kirar-chiqar g'oz.

Zo'r shiori: “Sen menga tegma...”

Ishi – eski hammom, eski tos.

Maqol bor joyda matal ham bo'ladi. Matalning maqolga nisbatan qulayligi shundaki, unda kinoya, shama, ishora, hajviya, bo'yoqdorlik, mubolag'a kabi ko'plab ma'nodorlik mujassamlashib, nutqiy tasviriylik ro'yobga chiqadi.

Mana shu to'rtlikda qo'llanilgan **“Sen menga tegma”** iborasi shior tarzda ko'rsatilgan, **“eski hammom, eski tos”** maqoli esa ana shu boshliqning ish unumdorligi umuman yo'qligini ifodalashda qo'llanilgan.

Xo'sh go'yo istiqbol ko'zgusi bo'lgan

Bu joylar ne uchun qush uchmas sahro?

“Cho'l ta'rifidagi gaplar” she'rida qo'llanilgan **“qush uchmas sahro”** iborasi sahroni qay darajada sahrolik xususiyatiga ega ekanligini ifodalagan. Ijodkorning ifoda vositalaridan samarali, ustalik bilan foydalana olishi uning badiiy mahorati yuksakligini ko'rsatadi. Shoir mazkur ijodida o'zbek milliy taomi “Sumalak”ning kelib chiqish tarixini so'zlab bergan.

Folklorizm yozma adabiyot paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan qadimiy hodisadir. Har bir ijodkor folklor materialidan o'z davrining dolzarb muammolarini ochib berishda, ta'sirchanlikni va xalqchilikni oshirishda keng foydalanadi.

Men she'r yozsam,

Endi uni qog'ozga emas,

Anov yal-yal yonayotgan o'tga yozaman.

O'tning alvon shiorlari, olov lahjasi,

Qalbidagi yonishlardan so'ylar bezabon!

Shoir chuqur mazmunli fikrlar orqali qalbidagi olovdek qaynoq bo'lgan hissiyotlarini huddiki olov lahjasida ifodalashini ta'kidlaydi. Misralarda qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalar ijodkorning ruhiy holatini, turmush tarzi, kayfiyati,

dunyoqarashini ifodalab berishga xizmat qiladi.

Omon Matjon xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan maʼnaviy ozuqa olib bitilgan yuksak badiiy sheʼr va dostonlari, dramatik asarlarida vatanimizga, xalqimizga, ibratli qadriyatlarimizga mehr va sadoqatini yuksak mahorat bilan tarannum etdi. Uning folklorga tayanib yaratgan sermazmun asarlari xalqchilligi, hayotiyligi bilan adabiyotimiz hazinasidan munosib oʻrin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https://uza.uz/ru/posts/daryodil-shoirmi-yod-etib_521856](https://uza.uz/ru/posts/daryodil-shoirmi-yod-etib_521856?q=%2Fposts%2Fdaryodil-shoirmi-yod-etib_521856) Собиров О. Адабиёт ва фольклор. // Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. –Т.: “Ўқитувчи”, 1980. – С.342
3. Мирзаев Т, Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари ва унинг ушбу наشري ҳақида. // Ўзбек халқ мақоллари. – Т.: Фан, 1987–Б.24.
4. Omon Matjon. Gaplashadigan vaqtlar. Sheʼrlar. Doston. Sheʼriy qissa. Toshkent. Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1986 yil.
5. Omon Matjon. Iymon Yogʻdusi. Sheʼrlar, dostonlar. Saylanma. “Qush yoʻli” kitobidan. 1993 yil.
6. Omon Matjon. Erkin havolarda. Toshkent, Gʻafur Gulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1997 yil.



UZBEK STORYTELLING AND ITS PATH TO PROGRESS

Dilbar HASANOVA,
PhD student
National university of Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu maqolada oʻzbek hikoyachiligi, uning maʼlum bir davrlariga xos xususiyatlari, mustaqillikdan keyingi davr xususiyatlarini yoritishda yozuvchi Ahmad Aʼzamning “Oyning gardishi” hikoyasi tahlilga tortilgan.

Аннотация: В этой статье, освещая особенности узбекского сказительства, его специфику в определенных периоды, период после обретения независимости, анализируется рассказ писателя Ахмад Аъзама “Фланец луны”.

Abstract: This article analyzes the characteristics of Uzbek storytellers across different periods, with a particular focus on the features of writers during the post-independence era. In examining this period, the story "The Shadow of the Moon" by Ahmad Aʼzam is analyzed in detail.

Kalit soʻzlar: hikoya, hikoyachilik, realizm, ramz, timsol, sujet.

Ключевые слова: история, рассказывание историй, реализм, символ, эмблема, сюжет.

Keywords: story, storytelling, realism, symbol, emblem, plot.

Uzbek storytelling has a long and rich history. The story is one of the smallest forms of epic narrative. Despite its small size, the form of the story is capable of encompassing and expressing a world of meaning within itself. In this respect, the concise form, brevity, richness of content, and coherence of the story are its traditional

visible characteristics. Throughout the influence and utilization of the great heritage of world literature, stories are undergoing continuous changes in form and content. Every student of storytelling, while observing the progress of Uzbek prose, can notice that storytelling is evolving rapidly and finding its solution even in this small genre, tackling significant life issues just like in the larger epic genres.

We emphasized the long history of storytelling, particularly the formation of the national storytelling genre created at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, undoubtedly intertwined with the legitimate creation of national characters, vivid and genuine scenes of our people's life, their joys, and sorrows. Especially, in Cho'lpon's stories such as "A Rose in the Snow", "The New Girl", "Nights of Light", through depicting domestic scenes, human psychology, social environment, and social reality are revealed. Every detail and minor stroke in these stories serves to illuminate certain traits of the characters. Furthermore, the storytelling of this era is characterized by addressing moral issues. In short, the storytelling of this period is distinguished by its ability to vividly reflect life, to typify characters, and to embody social reality in the eyes of the reader.

The storytelling of the 20-30s, on the other hand, is characterized by its satirical nature. The satirical storytelling of this period, within its content framework, depicts the social character of the society without completely escaping from old clichés, portraying hypocrites who present themselves as innovators while elevating their own interests above all else, and depicting the image of opportunists who benefit from everything. Prominent creators of this period, such as Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Shokir Sulaymon, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, G'ayratiy, have produced significant works. The storytelling of this period fulfills an important milestone for subsequent storytelling, which cannot be overstated.

It is known that the story is one of the smallest genres of epic narrative. It differs from the novel and the short story in terms of its focus on character, the axis of life events, and its size and focal point. In this regard, the book "Literary Genres and Types" defines the general characteristics of the story as follows: "The story is based on a single event, it reflects characters through episodes, provides ready-made characters, shows a single state of the character, limits the number of characters, and leaves the character's condition after entering the story and after the story ends unknown" [1]. However, the emergence of new trends and the demand for literary innovation bring many of these characteristics into question. Literary scholar D. Qurbonov says about this: "The brevity of the events being described dictates a small volume for the story, a simple plot, and fewer characters. The skill of the storyteller is primarily determined by the choice of the story-forming event" [2]. The ability to choose the subject of the story-forming event is related to the skill of the creator, which has a complex socio-cultural value.

The emergence of the Independence movement not only contributed to storytelling but also facilitated the emergence of innovation in the entire Uzbek literature. Elevating humanity as "the dignity of man" in literature, depicting the most delicate nuances of the human psyche, and portraying its thoughts, dreams, and aspirations on

the main stage became the leading characteristics. These aforementioned characteristics are also finding their reflection in storytelling. The skilled writer Ahmad A'zam, through his stories, portrays various representatives of characters with his literary psychological insight, depicting societal issues with precision. He selects his characters from both the elite strata and the simple rural folk, portraying the straightforward and humble lifestyle of village people. In his story "The Shadow of the Moon," the author utilizes the perspective of a child to express societal issues.

The work is written in the spirit of realism. In this story, through the portrayal of various events and incidents around Ma'sud, who is a thoughtful character, the story takes on a biographical character. The rural life and the modesty of rural people are depicted. The main character of the story is Ma'sud. Through Ma'sud's lonely journey to the village, his dreams and aspirations become the main idea and content of the story. Throughout the story, Ma'sud is depicted as a hopeful, ambitious, and determined individual, who is absorbed in his own small world and at the same time deeply troubled as a dutiful son. Ma'sud's elder brother Akrom, who has gone to the city in search of knowledge and has not returned, expresses strong disapproval towards Ma'sud, who is hesitant to follow his brother's path and prefers to stay in the village. In one scene, Ma'sud's father expresses his thoughts, saying: "I taught him with all my might. What stubborn years they were! If he had stayed, he would have finished his studies and become a teacher. 'You're neglecting your prayers, what will you do, my son?' he said. He didn't want to elevate him to a position of authority because of his lack of religious devotion" [4]. The father is not just an uneducated man; in fact, he is a compassionate figure. He turns away, feeling hurt, after his son ignores his words and goes against his wishes.

The inner thoughts and reflections of the protagonist, Ma'sud, during his solitary journey to his maternal grandmother's village, reveal his nature and his thoughts about society. The entirety of the story unfolds through the lens of his perception. He reads a book, falls asleep, and in his dream, he searches for his own lost sheep, climbs up to the roof of the house, but the sheep does not come out from any corner. The concerns of his father, and the anxious calls of his neighbors and relatives, Mamat Mesh and Orziqul Bobo, are depicted with skill by the author, even in the character's dream.

The story is constructed on symbolic grounds. The moon in the story, its concealed state, namely its shadow, and the house as symbols have acquired symbolic significance. While the concealed moon - a symbol of the restricted traditional national values of society, and the house - a symbol of confinement, can be attributed to symbolic significance in relation to the restricted traditional national values of Uzbek society, the concealed state of the moon does not necessarily correspond to symbolic significance in the life of the Uzbek people, in which the moon plays a significant role. On the other hand, the child who cannot find his way after climbing to the roof and wandering around, symbolically acquires significance as a representation of a person who cannot find his way onto the desired path despite colliding with the traditional national values of the Uzbek people. As mentioned above, we emphasized the skill of Ahmad A'zam as a talented writer. In the story "The Shadow of the Moon," the

author's skill is evident in his portrayal of the societal conditions of a certain segment through the simplicity and humble demeanor of rural people, juxtaposed with the aspirations of the child, the moon, and its shadow as symbols.

In conclusion, Uzbek storytelling has a rich history, experiencing numerous changes over the centuries, and has continued to evolve with new themes and characters, particularly after independence.

References:

1. Adabiy turlar va janrlar (Tarixi va nazariyasiga oid) 3tomlik. T.1. -Toshkent:Fan, 1991. P.68.
2. Adabiy turlar va janrlar (Tarixi va nazariyasiga oid) 3tomlik. T.1. -Toshkent: Fan, 1991. P.68.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari Toshkent: "Navoiy universiteti", 2018. P.376.
4. Ahmad A'zam. Oyning gardishi. www.ziyouz.com
5. Ahmad A'zam. Oyning gardishi. www.ziyouz.com



ADABIY-TARIXIY TALQIN TAMOYILLARI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Ozoda OCHILOVA,
tayanch doktorant, UrDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada keyingi yillarda jahon adabiyotida kuzatilganidek, o'zbek adabiyotida ham tarixiy mavzudagi asarlarga ehtiyoj ancha kuchayganligi va bunday asarlarda adabiy-tarixiy talqin va uning tamoyillari haqidagi ayrim mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье, как наблюдается в мировой литературе в последние годы, в узбекской литературе возросла потребность в произведениях на историческую тематику, а также изложены некоторые комментарии по поводу литературно-исторической интерпретации и ее принципов в таких произведениях.

Abstract: In this article, as observed in the world literature in recent years, the need for works on historical topics has increased in Uzbek literature, and some comments about the literary-historical interpretation and its principles in such works are stated.

Kalit so'zlar: tarixiy shaxs, badiiy obraz, Najmiddin Kubro, tarixiylik tamoyili, Xurshid Davron, Omon Matjon.

Ключевые слова: историческая личность, художественный образ, Наджмуддин Кубро, принцип историчности, Хуршид Даврон, Амон Матджон.

Key words: historical person, artistic image, Najmuddin Kubro, principle of historicity, Khurshid Davron, Amon Matjon.

Dunyodagi har qanday millat tarixi uning buyuk ajdodlari, alloma va donishmand zotlari, ularning dunyoga mashhur ezgu amallari, xayrli ishlari bilan belgilanadi. Zero, o'zlikni anglash, komillik, barkamol shaxsni tarbiyalash tarixni chuqur bilishdan boshlanadi. Shuningdek, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nodir qo'lyozma asarlar, ulardagi buyuk tarixiy shaxslar hayotini o'rganish va xalqimiz hukmiga havola etish

bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Ayniqsa, istiqlol davri adabiyotida tarixni, tarixiy shaxslarni bugungi estetik, falsafiy, ijtimoiy va siyosiy tafakkur asosida qayta idrok va badiiy tadqiq etish zarurligi yaqqol namoyon bo'ldi. Garchi, "...birinchi navbatda, ularda qadimgi asl milliy qadriyatlar, qachonlardir yuz bergan tarixiy hodisalar yigirma birinchi asrning sog'lomlashgan tafakkuri asosida qaytadan taroziga solinib, boshqadan o'lchab ko'rilganligi aks etganini aytish joiz. Tarix va undagi ulkan ijtimoiy evrilishlar odamlar tomonidan amalga oshirilishi, tarixiy shaxslar ma'naviy qiyofasining tarixiy hodisalar ijtimoiy salmog'ini tayin etishi ijodkorlarimiz tomonidan anglab yetilmoqda"[4,110].

Keyingi yillarda jahon adabiyotida kuzatilganidek, o'zbek adabiyotida ham tarixiy mavzudagi asarlarga ehtiyoj ancha kuchaydi. O'tmishga, tarix sahifalariga yashayotgan zamonasi, davri voqea-hodisalari zamiridan turib nazar tashlash, uning qaridagi qimmatbaho durlarni sabr-bardosh bilan saralab topib, ularni o'tkir tafakkur bilan yoritish har bir ijodkordan katta bilim, iste'dod hamda kuchli iroda egasi bo'lishni talab qiladi. Chunki tarix har qanday holatda ham tarixligini saqlab qolishi lozim. Uni hech kim o'z istagicha o'zgartirib, bo'yab ko'rsatishga, ideallashtirishga va yoki inkor qilishga aslo haqqi yo'q. Tarixga murojaat qilingan badiiy asarlarda ajdodlar yaratgan ma'naviy boyliklar, nodir asarlar, ulardagi yuksak g'oyalar tarannum etiladi. Bu jarayonda, tabiiyki, ijodkor real voqelik va konkret shaxs haqidagi qarashlarini, insonning o'y-kechinmalari, orzu-umidlari, ruhiy olamini ma'lum estetik maqsadga muvofiq tarzda aks ettiradi. Adabiy-tarixiy talqindagi shaxs o'z xarakteri, ma'naviyati, ijobiy va salbiy jihatlari bilan turli davrlarga mansub kishilarning badiiy timsolidir. Zero, inson va jamiyat mavzusi keng ma'noda, umuman, adabiyotning asosiy mavzusi bo'lsa, Vatan va xalq manfaati yo'lida nom qozongan mashhur shaxslar va olamshumul voqealar tarixiy mavzu obyektidir. Bu mavzu silsilasida tarixiy ijodkor shaxslarga bag'ishlangan asarlarning o'ziga xos o'rni bor. "Chunki har bir tarixiy shaxs, ayniqsa, tarixiy ijodkor shaxs qismatida tarixning uch tarkibiy qismi - o'tmishi, hoziri va kelajagi bir butun uyg'unlikda yashaydi" [5,3].

O'zbek adabiy tafakkurining barcha bosqichlarida buyuk tarixiy siymolar, jumladan, pir va avliyo shaxslar, tasavvuf namoyandalari haqida turli asarlar maydonga kelgan. Yozma adabiyotda ularning turli janr va uslubdagi namunalari mavjud. Jumladan, Najmiddin Kubro, Imom al-Buxoriy, Zamaxshariy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi alloma va adiblar to'g'risida turli davr va janrlarda vujudga kelgan asarlar buning dalilidir. Bu asarlarning o'ziga xosligi shundaki, ulardagi qahramonlar faoliyati o'zlari mansub davr voqeligi bilan uyg'unlikda tasvirlanadi. Shu bois ular, bir tomondan, o'z davrining farzandi, ikkinchi tomondan, ilg'or dunyoqarashlari va yuksak ideallari bilan tarixan o'z zamonasidan ilgarilab ketgan siymolar sifatida gavdalanadilar.

Badiiylik tamoyili tarixiy asarning o'qishligini oshirish barobarida tarixiy voqelik va tarixiy shaxslarga nisbatan ishonch ruhini ham yuksaltiradi. Ma'lumki, badiiyat asar g'oyasini ochib beruvchi asosiy kalit hamdir. A.Rasulov o'zining "Badiiylik – bezavol yangilik" asarida "Badiiylik – asarning ruhi, "joni", borlig'i. Mana shu ruh, "jon" asardagi ijtimoiy munosabatlarni, xarakterlar to'qnashuvini, siyosiy qarashlarni,

mafkuraviy-axloqiy holatlarni – umuman, asarning makoni, zamoniga oid ma'lumotlarni aks ettiradi. Badiiylikning ma'ni-ma'nosi ham zamon, muhit, zamondoshlar, turlicha qarashlar haqida keng va mo'1 ma'lumot berishdir. Asar faqat va faqat badiiylikka asoslanishi lozim" [6,120],- degan fikrlarni keltiradi. Tarixiy asarlarda badiiy to'qimaning o'rni nihoyatda muhim. Ma'lumki, tarixiy asar uchun turli hujjat-ma'lumotlar, faktlar ko'p yig'iladi. Shu bois, ayrim hollarda tarixiy qissa va romanlarda badiiyat hodisasi yuzaga kelmasligi sabablaridan biri poetik tasvir o'rnini tarixiy axborot egallashida ko'rinadi. Ana shu jihatdan ham tarixiy asar yozish muallifdan o'ziga xos badiiy mahorat talab qiladi. Shuningdek, muallif uchqur fantaziyasini ishga solishi, yozuvchining "tarixni to'ldirish" huquqidan foydalana bilishi ham muhim jihatlardan biri sanaladi. Badiiylik vositasida uzoq o'tmish tarixi va buyuk siymolar hayotining kitobxonga qorong'u tomonlarini chiroyli tarzda ochiladi. Zero, "Adabiyotning asosiy xazinasi – uning badiiy olami. Shu xazina sirlari hali uncha ko'p kashf etilgani yo'q" [2,90].

Chinakam tarixiy asarlarda "tarixiy shaxslar o'z davrida tutgan sotsial mavqei, hayotdagi roli, tarixiy haqiqatga mos ravishda buzmasdan saqlanadi va to'qima yo'li bilan yaratilgan xarakterlarga bog'langan holda haqqoniy tasvir etiladi" [7,194]. Yuqoridagi xususiyatlarni dunyoga mashhur tarixiy shaxs, XII-XIII asr tasavvufining eng yorqin va eng ulug' namoyandalaridan biri bo'lmish mutafakkir olim Najmiddin Kubro (1145-1221) badiiy obrazi gavdalanitirilgan asarlarda ham kuzatamiz. E.Bertels Najmiddin Kubroni XII-XIII asr so'fiylar orasidagi eng yorqin shaxslardan biri deb baholaydi. Haqiqatan ham, "Shayx Najmiddin Kubro din va tariqatning, millat va ma'naviyatning eng porloq yulduzi erur" [3,72]. Abdurahmon Jomiyning "Nafahotul uns" asarida yozilishicha: "Ahmad yoshligidan ilmga qiziqib, islom asoslari shariat ilmlarini juda tez o'zlashtirib o'zidagi qobiliyati asosida Xorazmning manaman degan ulamolaridan o'zib ketadi va ilmiy bahslarda barchani olqishiga sazovor bo'ladi. Shu bois u "Tammatul Kubaro", ya'ni ulamolarning yetugi, ulug'vori va ilm balosi degan laqabni oladi. Buning yoniga "Najmiddin" – "dinning yulduzi" degan martabali unvon qo'shib, Ahmad ibn Umar shundan keyin Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur bo'ladi" - deyilgan. U madrasani tugatgach, o'n olti yoshlarida ilm istab o'sha davrda ilm-ma'rifat markaziga aylangan Arab xalifaligi, Misr va Eronda hadis va fiqh bilimdonlari suhbatida bo'ladi. Bag'dod, Tabriz, Nishopur, Tus, Dizful shaharlarida o'z davrining allomalaridan shariat ilmi, hadis va tafsirni chuqur o'zlashtiradi. U shariat ilmlarini o'rganish barobarida tariqatdan xabardor bo'lishga intilib yashaydi va tasavvufga ishtiyoqi balandligidan qator shayx, darveshlar suhbatidan o'tadi. Najmiddin Kubro Misr, Saudiya, Eron, Turkiya kabi mamlakatlarda bo'lib, donishmand kishilar Shayx Ismoil Qasriy, Ammor Yosir, Shayx Ro'zbehon singarilardan zohiriy va botiniy ilmlarni o'rgangan. Xorazmga qaytib kelgach esa murid to'plab, pir sifatida faoliyat ko'rsatgan. "Najmiddin Kubro falsafa va adabiyotga, Sharq tafakkuriga samarali ta'sir ko'rsatgan buyuk tafakkur sohibidir. U hamisha o'z bilimlaridan qoniqmaslik hissi bilan yashagan, ularni takomillashtirib borgan. Yuksak olam – "olami kabir" va quyi olam – "olami sag'ir" munosabatlarini talqin etishga teran bilimlarini bag'ishlagan" [1,302].

Tarixiy asarlar uchun xos bo‘lgan yana bir asosiy jihat – asar voqealari yuz bergan davrning keng ijtimoiy xarakteristikasini bera olish, voqealar ichidan eng zarurlarini tanlay bilish va ularni badiiy talqin qilishda ko‘rinadi. Bu jihatlar Najmiddin Kubro badiiy siymosi yaratilgan Omon Matjonning “Dravaxonim” (“To‘rabekaxonim”) qissasi, “Najmiddin Kubro” fojiasi, Xurshid Davronning “Shahidlar shohi” qissalariga ham taalluqlidir.

O‘zbek adabiyotida bu tarixiy siymo haqida qator badiiy asarlar yaratilgan. Najmiddin Kubro haqidagi asarlarning hammasi uchun realistik uslub xarakterli bo‘lgani holda, romantik uslub unsurlari Omon Matjon asarlarida yorqinroq aks etadi, X.Davron asarlarida esa tarixiy hujjatlilik ustuvorlik qiladi. Bundan tashqari, adabiy qahramonning monologik nutqi, dialoglar, xronologik sujet, folklor an‘analaridan foydalanish, personajlar individualligi kabi kompozitsion qismlar tasvirida ham bir tomondan, xalq poetik ijodiga, ikkinchi tomondan yozma adabiyotga xos uslubiy o‘ziga xoslik mavjudki, ular Najmiddin Kubroning ko‘lamdor faoliyatining turli vaziyatlardagi xarakter qirralarining to‘laqonli chiqishiga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ёқубов И. Бадиий-эстетик сўз сеҳри. – Тошкент. 2011. Б. 302.
2. Иброҳим Ҳаққул. Ётикод ва ижод. –Тошкент. “Фан”. 2007. Б. 90.
3. Иброҳим Ҳаққул. Шайхлар ва шаҳидлар Куброси // Тақдир ва тафаккур. –Тошкент. “Шарқ”, 2007.Б.72.
4. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент. Янги аср авлоди. 2006. Б. 110.
5. Каримов Х. Тарихий шахс ва бадиий образ: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент: ТАИ, 1999. - Б. 3.
6. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик.-Тошкент.: “Шарқ”. 2007. Б.120.
7. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. - Б. 194.



XORAZMLIK SHOIRALAR IJODIDA TOSH OBRAZI TALQINI

Nilufar ATA JANOVA,
stajor-o‘qituvchi, UrDU

Annotatsiya: Maqolada xorazmlik shoirlar ijodida tosh obrazining qo‘llanilishi xususida so‘z yuritilib, mazkur an‘anaviy obrazga har bir ijodkorning individual yondashuvi o‘rganilib, qiyosiy tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматривается использование образа камня в творчестве хорезмийских поэтов, извучается индивидуальный подход каждого художника к этому традиционному образу, проводится сравнительный анализ.

Annotatsion. The article discusses the use of the image of stone in the works of Khorezm poets, the individual approach of each artist to this traditional image is studied and a comparative analysis is made.

Kalit so‘zlar: poetik obraz, istioraviy talqin, an‘anaviy sifatlash, badiiy g‘oya, lirik qahramon, ramz, timsol.

Ключевые слова: Поэтический образ, метафорическая интерпретация, традиционное описание, художественная идея, лирический персонаж, символ,

эмблема.

Key words: Poetic image, metaphorical interpretation, traditional description, artistic idea, lyrical character, symbol, emblem.

Ma'lumki, "tosh" badiiy adabiyotimizda keng qo'llanilgan ramzdan obraz darajasiga ko'tarilgan metafora bo'lib "qattqlik" timsolidir. Tosh so'zi dastlab "suv ta'sir qilmaydigan qattiq yoki mo'rt holdagi tabiiy jins" ma'nosiga ega bo'lgan. Dastlab o'z ma'nosida qo'llanilib, keyinchalik so'zdagi qattqlik sifatidagi ma'no qirrasini faol ifodalaniib, mazkur so'zning turli xil ma'nolari vujudga kelgan. Zero, "Poetik obraz, – deb qayd etgan edi prof. B.Sarimsoqov, voqelikdagi – narsa, shaxsning ijodkor tuyg'usi, xayoli, g'oyaviy niyati bilan qayta idrok etilgan, boyitilgan nusxasidir. Mana shuning uchun ham badiiy obraz, odatda, ko'p vazifali va badiiy asarning barcha qirralarini o'zida mujassamlash qudratiga ega bo'ladi" [1:10].

Xorazmlik shoirlar, xususan, Ullibibi Otayeva, Gavhar Ibodullayeva, Go'zal Begim va Shoira Shams – barchasining ijodida tosh va bosh so'zlari birgalikda qo'llanilish holatlari ko'zga tashlanadi.

Bemavrid ochildim, fosh bo'ldim, darig'...
To'kildim, sochildim, chosh bo'ldim, darig'...
Dunyoning etagin qanday yopaman?...
Toshlariga mo'ljal – bosh bo'ldim, darig'... [2:84].

Sen azob bo'lsang ham, umrim men aytay,
Toshlar yorilsa ham, yorilmas boshim [3:16].
Payti kelsa shu qimmat boshni
Arzon toshga urib yorarlar [4:68].

"**Boshim toshga** tekkanda, seni qayg'urdim, g'arib tosh" yoki "Alam qilmaydimi senga mushtdekkina boshdan musht yeganing, sening yig'laging kelmaydimi, men sening holingga yig'layapman, tosh." [5:18].

Ko'rinayotirki, shoiralarning tasavvuridan tortib, she'rlarining til sehrigacha oddiy toshda o'ziga xos mohiyat aks etgan. Inson har qanday hayotiy ziddiyatlardan qochib qutulolmaydi. Uning boshi toshga tegishi go'yoki ichki fikriy olishuvlar, o'ziga nisbatan katta va shafqatsiz talablarga yechim vazifasini o'taydi. Ularning she'rlaridagi lirik qahramon ezgulik yo'lida xato qilish yoki mag'lub bo'lishlardan aslo cho'chimaydilar. Aksincha, "toshlar boshga urilsa-da," xuddi shu bosh va yurak bilan hayot kechirishni, qiyinchiliklarga qarshi kurashib yashashni afzal biladilar. Ular zamonaviy o'zbek kishisini tinimsiz fikrlash, aqliy taftishlar orqali hatto boshi toshga tegsa-da, omon bo'lishini tarannum etadilar. Shoirlar kitobxonni ma'naviy, ruhiy balog'atga erishish yo'lida tinimsiz intilishga chorlaydilar, oldidan chiqadigan to'siqlar-u mashaqqatlar oldida dovdirab qolmay, komillikka erishish yo'lidagi mardonavor harakatlarga chorlaydilar.

Hayotimizda shunday insonlar borki, ko'nglidan o'tkazgan o'y-kechinmalarini, qalbidagi hislarini yuzaga chiqara olmaydi, aniqrog'i, dilidagini tiliga chiqarmaydi. Shoira Ullibibi Otayeva bunday insonlarning so'zida-yu o'zligida tosh obraziga xos xususiyatlarni ifoda etadi :

*U ko'zlarda bir sirli savol,
Rostni desam fosh bo'laman, fosh.
Ishqdan tonsam – yolg'onni aytsam,
Sehri ila tosh bo'laman tosh [4:106].*

Xorazmlik shoira Shirin Soburovaning quyidagi she'rida insonlarning o'zaro diydorlashuvida yo'l shunchaki bir vosita, xolos. She'rda chinakam tashrif yuraklardan boshlanishiga ishora bor. Yo'l va yurak so'zlari tosh obrazining mazmun-mohiyatini ochishga, unda ifoda etilayotgan badiiy g'oyani yoritishga vosita vazifasini o'tagan:

*Biz yurgan yo'llarga
tosh yotqizishibdi.
oldin yuraklarga tosh yotqizishar
so'ng yo'llarga... [6:26].*

She'rdagi badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan tabiat detallari lirik qahramonning qalb harorati va ruhiy kechinmalarini namoyon etish uchun xizmat qiladi. Ahamiyatlisi shundaki, mazkur jihatlar poetik matndan nazarda tutilgan g'oyaviy-ma'naviy maqsadni ifoda etishga bo'ysundiriladi. Shirin Soburovaning ushbu she'ri ham xuddi yuqoridagidek tosh obraziga to'g'on, to'siq ma'nolarini yuklaydi:

*Tosh qo'rg'on.
Tosh qo'rg'ondan o'tib olsam marra meniki.
Marra ekan tosh – metin qo'rg'on [6:69].*

Ma'lumki, tosh obrazi xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotda necha ming yildan buyon qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy obrazdir. To'g'ri, qalam ahli uchun ma'lum bir obrazlar an'anaviy bo'lishi mumkin, biroq unga yondashuv yangicha va o'ziga xos bo'lsagina, ijodkor o'z badiiy mahoratining yuksakligini tayin etadi. Bu o'ziga xoslik hayotning o'quvchilarga sirli bo'lib ko'ringan qirralarini topish va unga badiiy ma'no yuklashida namoyon bo'ladi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida an'anaviy obrazlar endi yangi davr, zamonaviy masalalarni madh etishga qaratilmoqda. O'tmishda va hozirgi zamon she'riyatida tosh obrazi, ko'pincha, salbiy ma'noni ifodalab kelgan. Zolim, mehriy odamlar toshga qiyoslanadi. "Toshbag'ir", "toshyurak" so'zlari esa she'rdan she'rga ko'chib yuruvchi an'anaviy sifatlashlardir. Sh. Soburovaning "Toshgul" she'ri istioraviy talqinning eng go'zal namunalaridandir:

*Tosh gul ekdim
Ko'karmaganiga qo'ymayman
Suv quyaveraman,
quyaveraman.
Tosh eriydi bir kuni,
tosh gul unadi undan [6:23].*

She'rda ijodkor an'anaviy tasvirdan chekinib, tosh so'ziga yangi ma'no yuklaydiki, bu timsol mehr va muhabbat ma'nolarida namoyon bo'ladi. "Tosh gul ekdim, ko'karmaganiga qo'ymayman". An'anaviy timsoldan chekinayotgan ijodkor o'z so'zini shunday boshlaydi. Ayol farzandini dunyoga keltirdi, ammo u qaysar va o'jar bo'lib voyaga yetmoqda. Ona unga mehr tuyg'usini beraveradi, beraveradi, ("suv quyaveraman, quyaveraman") natijada, u chinakam insoniy fazilatlarini o'zida

mujassam etgan insonni kamolga yetiradi. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida inson ruhiyatining eng nozik va ahamiyatli nuqtalariga shoira ayollik vazifasi, onalik mas‘uliyatiga yondashgan holda betakror she‘riy lavha yaratgan. Toshdan gul undirishga harakat qilayotgan lirik qahramon ma‘naviyati, tafakkur tarzi va yurak hislaridan o‘quvchi hayratlanmay, hayajonga tushmay qolishi, shubhasiz. Aslida, oddiy toshning ham zamiriga go‘zallik yashiringan, bu go‘zallik esa insoniyatga matlabdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sarimsoqov B. Lirikada badiiy tafsil. O‘zbek tili va adabiyoti. 1992. 5-6-son.
2. Ibodullayeva G. Mendan ketayotgan kunlarim. Urganch: Ogahiy.2022.
3. Shoira Shams. Olov xat. Urganch: Ogahiy. 2022.
4. Otayeva U. Shukrona. Toshkent:Yozuvchi, 1998.
5. Go‘zal Begim. Sukunat jaranglari. Toshkent:Yozuvchi, 1998.
6. Soburova Sh. Ezgulik g‘olib. Toshkent: Turon zamin, 2015.



MANGULIKKA DAXLDOR SIYMO

Saodatjon GULIMMETOVA,
o‘qituvchi-stajyor,
Urganch davlat universiteti

*Men shu kunlar hasratida o‘rtanib yonmay nechun,
Hali ham vayronalarda izg‘iza achchiq tutun.
Mard Jaloliddin yiqildi jangda shu tuproq uchun,
Men shu tuproq vorisiman, men shu el farzandiman.*

Erkin Samandar

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk sarkarda va jasur shaxs Sulton Jaloliddin shaxsiyatiga bag‘ishlangan tarixiy va badiiy asarlar tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan Erkin Samandar va Shahodat Isaxonova asarlarining o‘ziga xos va umumiy jihatlari tahlilga tortilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются историко-художественные произведения, посвященные личности султана Джалалуддина, великого лидера и храброго человека. Также анализируются частные и общие аспекты творчества Эркина Самандара и Шаходат Исахановой.

Annotation: This article analyzes the historical and artistic works dedicated to the personality of Sultan Jalaluddin, a great leader and brave person. Also, specific and general aspects of the works of Erkin Samandar and Shahodat Isakhanova are analyzed.

Kalit so‘zlar: Tarix, badiiyat, haqiqat, tahlil, obraz, ramz, sujet.

Ключевые слова: История, искусство, истина, анализ, образ, символ, сюжет.

Key words: History, art, truth, analysis, image, symbol, plot.

Tarix – eng tiniq ko‘zgu. Haqiqatdan ham inson o‘zidan oldin yashab o‘tgan ajdodlariga boqib, ularning yutuqlaridan, jasoratlaridan o‘rnak, xatolaridan ibrat olib yashamog‘i darkor. Asrlar davomida nafaqat turkiy xalqlar, balki butun jahon xalqlari uchun o‘rnak bo‘lib kelayotgan milliy qahramonimiz Sulton Jaloliddin Manguberdi qilgan ishlari, aytgan so‘zlari, umuman, butun hayoti bilan davrimiz yoshlariga ham ibratdir. Bugungi kunda Jaloliddin Manguberdi tarixi haqida ko‘pgina ijodkorlar badiiy asarlar yaratganlar. Ushbu asarlar orasida Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” va Shahodat Isaxonovanning “Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika” romani asarlari alohida o‘ringa ega.

Jaloliddin Manguberdi tarixini Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy “Siyrat as-sulton Jalol ad-din Mangburni” asarida haqqoniy yoritgan. Erkin Samandar va Shahodat Isaxonovalar romanlarida mana shu tarixiy voqealarni saqlab qolgan holda, sulton hayotini badiiy tasvirlaydi. Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” asari ramziy obrazlarga boyligi bilan ajralib turadi. Jaloliddin Urganchda bir bog‘ barpo etganligi va bu bog‘ “Temir qoziq”, ba’zi manbalarda “Oltin qoziq” deb atalgani haqida ma’lumotlar keltirilgan. Asarda Sulton Jaloliddinning onasi unga mana shu bog‘ ramzi ko‘chirilgan uzuk sovg‘a qilganligi, Jaloliddin qo‘lidagi ushbu uzukka har qaraganda, bolaligi, vatani, tug‘ilib o‘sgan go‘shasidagi so‘lim bog‘lar ko‘z oldidan o‘tadi va yurtini qo‘msab, oh chekadi. Bu bog‘ va o‘sha uzuk aslida ramziylikka ega bo‘lgan obrazlardir. Chunki Chingizxonning Xorazmga yurish boshlagani haqidagi xabar tarqalgach, Alovuddin Muhammad Xorazmshoh Jaloliddinni qo‘shinlarni uyushtirib, jang qilish taklifidan keyin uni valiahdlikdan ozod qilib, chekka Bomiyon qal’asiga hokim qilib yuboradi. Jaloliddin Urganchni tark etgach, Xorazmdek azim kemani tutib turgan oltin langar kemadan uzib tashlangan edi. Endi u kemani hayot to‘fonlari istagan tarafga sudrab parchalab tashlashi mumkin edi. Haqiqatdan ham oltin qoziq sug‘urib tashlangach, buyuk Xorazm davlati parchalanib ketadi. Yuqorida ta’rifi keltirilgan bog‘ haqida yozuvchining o‘zi “Ushbu bog‘ qoldiqlari Ko‘hna Urganch qal’asining qoq markazida hozir ham yastanib yotibdi. Erta bahorda to kech kuzgacha unda tikanlar gullab turadi. Men bir borganimda unda bulbulni ko‘rib qolganman, uning zorli sayraganini eshitganman ham” [1; 21]. kabi fikrlarni keltirib o‘tadi. Yuqoridagi jumlaning o‘qiyotib, vaqtning shafqatsizligi va barcha narsa o‘tkinchi ekanligi kitobxon qalbini chuqur iztirobga soladi.

Har ikkala asarda ham Jaloliddin siymosini ochib berishda Sind daryosi bo‘yida bo‘lib o‘tgan jang tasviriga urg‘u berilgan. Chunki bu daxshatli jangda mardonavor kurashgan va omon chiqqan, keyinchalik ham vatan tuprog‘i va xalqning ozodligi yo‘lida tinimsiz kurashgan Jaloliddinning qahramonligi hali- hanuz insoniyatni larzaga keltiradi.

Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” asarida Chingizxon bilan Jaloliddin olishuvi badiiy va jonli ifodalaganki, kitobxon beixtiyor butun vujudi jumbushga kelganini sezadi. “Birinchi zarbdanoq Chingizxon o‘z qo‘lining siltanib ketganini sezdi... Jaloliddinning kuchiga qoyil qolgan bo‘lsa-da, sir boy bermaslik uchun jadal hujumga o‘tdi... Banogoh Jaloliddin uning qilichiga shunday bir zarb bilan qilich soldiki, quroli ilgidan qanday chiqib uchib ketganini sezmay qoldi xoqon. Qirq yildan

ko‘proq savashlarda qatnashib, birinchi marta qilichi qo‘ldan tushishi edi”

Chingizxonning Jaloliddin oldida o‘jizligi va unga havasini Shahodat Isaxonova quyidagicha tasvirlaydi. “Chingizxonning uyulgan qovoqlari yoyilib, qahrli ko‘zlarida havas chatnadi. Mis dubulg‘ali katta boshi hayratli irg‘alib, sultonning qorasiga taajjub ila termuldi. – Shunday o‘g‘loni bor ota ham qocharmi vo darig‘!?” [2;421].

Ikkala asarning yana bir mushtarak jihati Najmiddin Kubroga Jaloliddin e‘tiqodi va uning aytgan nasihatlariga umr bo‘yi rioya qilib yashaganligida ko‘rinadi. Jaloliddin Manguberdi nafaqat harb ilmini, diniy va dunyoviy ilmlarni ham chuqur egallagan shaxsdir. Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” romanida Jaloliddin Manguberdi necha yillik sargardonlik va kurashlar davomida Shayx Najmiddin Kubroning “Hifzul vatan, min-al iymon”, ya‘ni “Vatan himoyasi iymondandur” degan so‘zlarini bir daqiqa bo‘lsa ham unutmaydi.

Shahodat Isaxonovanning “Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika” asarida xuddi mana shu g‘oyani Najmiddin Kubro quyidagicha ifodalaydi. “– Allohning yozganidan bandasi qochib qutula olmas... Peshonamizda yovlashmoq yozig‘i bitilgan bo‘lsa, ani mardona qabul etmoq va yov nayzasini o‘zining ko‘ksiga sanchmoq er yigitning ishidir. Bul muqaddas yumushdin er yigit bo‘yin tovlamas! – Yana bir narsa borki, er yigit jon hovuchlamas! Chunki bir boshga bir o‘lim har joyda bor!” [2;292].

Ikkala asarda ham ot obrazi ramziylik darajaga ko‘tarilgan. Bilamizki otlar qadim qadimlardan insoniyatning do‘sti o‘laroq ular bilan yonma-yon yashab kelmoqda. Sulton Jaloliddinning oti ham u kabi botir va mard. “Egarda mardona o‘ltirib, to‘rt tomonga qilich sermayotgan sultonning bukilmas ruhidan quvvatlanadi Qorabayir. Qorabayirning shashtidan esa sulton kuchiga kuch qo‘shiladi. Nayzadorlarni itqitadi, qilichbozlarni yiqitadi. Navbatdagi qurshovdan chiqib ketishni o‘ylaydi sulton. Uning o‘yini qorabayir sezadi. Men sakrashga tayyorman, deganday kishnaydi. Sulton unga erk beradi. Qorabayir yog‘iy boshi uzra sakrab o‘tadi, sohil tomon boshquyun yeladi. Yidiringa aylanadi” [1;158]. Yoki boshqa bir o‘rinda “Qanot chiqardi Qorabayir. Uchmoq bo‘ldi. Qorabayir daryo tomon yeldi. Otlar unga yetolmadi. Tuzoqlar uning oyoqlaridan pastda, ko‘p pastda qolib ketdi. Chingizxon angraygancha qoldi. Qorabayir o‘zini daryoga otdi. Egarda qo‘rg‘oshindan quyilgandek qilt etmay o‘ltirgan Jaloliddin to‘lqinlarni ikkiga yorib daryoga qo‘ndi”.[1;162]. Aynan mana shu o‘rin Shahodat Isaxonova tasviri bilan o‘xshashlik kasb etadi. “Oradagi masofa juda yaqin qolganda Sulton Jaloliddin Qora dalining boshini shart chapga burdi. Tuyoqlaridan o‘t chaqnab kelayotgan tulpor gijinglab, yollarini havoda o‘ynatgancha, bor ovozi bilan pishqirdida, todadan ajralib, daryo qirg‘og‘iga tutash dara tomon o‘qday otildi”.

Asarning ko‘pgina o‘rinlarida sulton va uning oti ruhiyati bir-biriga bog‘langan holda uyg‘un tasvirlangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Sulton Jaloliddin Manguberdi obrazi tasvirlangan har ikkala asarda ham ijodkorlar qahramon shaxsiyatiga teran chizgilar berishga harakat qiladilar. Uning ruhiyatini yoritishda tarixiy dalillarga tayanadilar. Shuni ta’kidlash joizki, Jaloliddin Manguberdi haqida yaratilgan badiiy asarlarda uning yetuk sarkardalik xususiyati bilan birga uning pok insoniy xislatlari ham

namoyon bo‘ladi. Bu holat esa ushbu buyuk shaxsga bag‘ishlangan asarlarning o‘qishligini ta‘minlaydi. Kitobxonlar xalqimizning buyuk qahramoni aks etgan asarlarni barcha davrlarda ham sevib o‘qiydilar. Zero, Jaloliddin Manguberdi siymosi, chin ma‘noda, mangukka daxldordir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erkin Samandar. Sulton Jaloliddin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matba uyi, 2007. 286 b.
2. Shahodat Isaxonova. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika. – Toshkent: “Sano-standart”, 2018. 480 b.
3. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Siyrat as-sulton Jalol ad-din Mangburni. – Toshkent: “Yozuvchi”. 1999. 432 b.



GULJAMOL ASQAROVA IJODIDA AYOL RUHIYATI TASVIRI

Muyiba OTAMURATOVA,
o‘qituvchi-stajor,
UrDU (O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli o‘zbek shoirasi Guljamol Asqarova ijodining o‘ziga xos xususiyatlari yoritib beriladi. Shuningdek, ijodkor tomonidan yaratilgan she‘riyat namunalari misolida ayol ruhiyati masalasi talqin qilinadi.

Аннотация: В данной статье будут освещены уникальные особенности творчества известной узбекской поэтессы Гульжамол Аскаровой. Также на примере поэзии, созданной художницей, осмыслена проблема женской психики.

Annotation: In this article, the unique features of the work of the famous Uzbek poetess Guljamol Askarova will be highlighted. Also, the issue of the female psyche is interpreted on the example of poetry created by the artist.

Kalit so‘zlar: Badiiy mahorat, ruhiyat, estetik ideal, timsol, dunyoqarash, ishqiy lirika, poetik ifoda.

Ключевые слова: Художественное мастерство, духовность, эстетический идеал, символ, мировоззрение, романтическая лирика, поэтическое выражение.

Key words: Artistic skill, spirituality, aesthetic ideal, symbol, worldview, romantic lyrics, poetic expression.

Bugungi o‘zbek she‘riyatida inson kechinmalari va ruhiyati tasviri keng yoritib kelinmoqda. Ayniqsa ayol qalb tasviri va siyratiga go‘zal chizgilar berilgan badiiyat namunalarning adabiyotga kirib kelishi bu olamga yanada sirlik va joziba bag‘ishlaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘z she‘rlaridagi nozik va muazzam ma‘no qirralari, fikriy teranlik hamda uslubiy o‘ziga xoslik bilan alohida ajralib turuvchi iste‘dodli shoira Guljamol Asqarova ijodida ham ayol ruhiyati tasviriga keng o‘rin berilgan. Shoiraing “Oshiqlik” sarlavhali she‘rida shunday misralarga duch kelamiz:

Ayoldir, ilk bor Odam Atoni sevgan odam,

*Sevaman degan so‘zni, sadoni sevgan odam,
Xatolardan dars olar, xatoni sevgan odam,
Bandani sevmaydimi, Xudoni sevgan odam?
Sen Xudoga oshiqsan, men senga oshiqdirman.*

Darhaqiqat, muhabbat inson qalbiga u yaratilgandan boshlab jo qilingan muqaddas tuyg‘udir. Bu dunyoda ilk sevgi rishtasi ham Odam Ato va Momo Havo o‘rtasida bog‘langani muqaddas kitoblarda qayd etilgan. Shoira ushbu mazmunni satrlarga joylar ekan, bu o‘rinda yana bir haqiqatni ham dalillaydi. Inson Tangrini sevar ekan, bu muhabbat, eng avvalo, u yaratgan yaratqilarni sevish orqali yuzaga chiqadi. Shu bois, shoira Xudoni sevgan odam bandani ham sevmog‘i joiz ekanligini qayd etadi. Demakki, lirik qahramon – yor Allohga oshiq ekan, uning bandalarini ham sevmog‘i darkor. Ijodkor o‘z-o‘zidan yordan o‘zini sevishini talab qilmaydi, balki ishq asosini chiroyli dalillab beradi. Adabiyotshunos Bahodir Karim ta’kidlaganidek: “Ishqparast... Bu sifat Guljamol Asqarova she’rlari uchun men o‘ylagan bir jihat. Nazarimda, Guljamol ishqparastdir. She’rlaridagi bir xususiyat, his-tuyg‘ulari oqimi shundan darak beradi” [1; 151]. Chindan-da, shoira she’riyatida ishq talqini yuksak darajada aks etadi. Ijodkor ushbu muqaddas tuyg‘uni o‘z she’riyatining bosh mavzusi sifatida keng talqin qiladi. Guljamol Asqarovaning “Ayol zoti” she’rida ham ushbu holat yorqin aks etadi:

*Zoti ayol yashar pok gardi bilan,
Ko‘ngil shod toabad bir mardi bilan,
O‘lgan bo‘lsa o‘ldi ishq dardi bilan,
Momo Havodan to-o-o...
Guljamolgacha.*

Sharqda ayollar qadimdan poklik ramzi va nozik hilqat vakilalari sifatida yuksak qadrlanib kelgan. Shoira yuqorida keltirilgan misralarda ayollarga xos ana shu ulug‘vorlikni yoritib beradi. Bu o‘rinda ishlatilgan “pok gard” jumlasini orqali ijodkor ayolga soya solgan gard ham uning sof qalbi tufayli poklanishiga ishora qiladi. She’rda yashirin ma’no akslangan bo‘lib, aynan, “pok gard” poetik ifodasi ayol qalbidagi pokiza iztirob – ishq tajallisidir. Ayolning yonida tanho vafodor yori bor ekan, uning ko‘ngli hamisha shod va baxtiyor. Band yakunida esa ijodkor ayol zotining yaratilgan davridan to hozirgacha faqat ishq dardidan iztirob chekishini ta’kidlaydi. Bu jarayonni “Momo Havodan to-o-o... Guljamolgacha” misrasi orqali go‘zal badiiy tashbeh vositasida ifodalaydi.

Guljamol Asqarova she’riyatida, eng avvalo, shoiraning o‘z “men”i – o‘zligi yorqin aks etganligi tahsinga sazovordir. Ijodkor tevarak-atrofdan yuz berayotgan hodisalarga o‘z qalbi bilan teran nazar tashlar ekan, o‘zini taftish qiladi. Yuragida yuz berayotgan g‘alayonlarni qog‘ozga to‘kib soladi. Ba’zan dunyo tashvishlari-yu g‘avg‘olaridan iztirob chekkanida, qalbi bilan yolg‘iz qolganida Allohga iltijo qiladi:

*Jonmi, tanmi, sen o‘zing bergan,
Ko‘kka chorla, ey Oliy Mergan,*

Yerda yashab, o‘zimni yerga

urgim kelmayapti, Xudojon!!!

Yuqoridagi misralarni o'qir ekankiz, shoira bilan Alloh o'rtasida oddiy insonlar anglamas rishta mavjudligi diqqatimizni tortadi. Zero, ijodkorlarning qalbi boshqa insonlarnikidan tubdan farqlanadi. Ular dunyoni ko'z bilan emas, qalb bilan ko'radilar va angelaydilar. Shu bois, ijodkorlar Allohga eng yaqin zotlardandirlar. Shoira ana shu haqiqatga tayangan holda Allohning uni o'z qoshiga chorlashini istaydi. Chunki atrofda yuz berayotgan hodisalar uning pok ruhiyatiga yot. Shu sababdan, u o'zini anglamaydigan insonlar orasida – yerda yashab o'zini yerga urgisi kelmaydi. Uning qalbini ko'ra oladigan yagona zot – o'sha qalbning yaratuvchisi Allohdir. Shoira ul zotdan madad so'rab iltijo qiladi.

Ijodkor o'z shaxsiyatini tinimsiz taftish qiladi. Tuyg'ular silsilasini, qalb titroqlarini sahifalarga muhrlaydi. U o'zining boshqalardan ajralib turishini yaxshi anglaydi. Ayonki, hammaga o'xshamaslik, ba'zan, atrofda insonlarning e'tiroziga sabab bo'ladigan asosiy omilga aylanadi. Chunki ijodkorlar ko'ngil kishilari, ular dunyoviy istaklardan biroz holi, Haqqa, haqiqatga oshno, hamisha qalb amriga tayanishni ko'zlaydigan shaxslardir. Dunyoga nigoh tashlar ekan, shoira: “Bu yuragim bilan menga omonlik yo‘q...” – deya dadil tan oladi. Anglaganimizdek, bu olamda sof qalb bilan yashash mushkul.

“Insoniy dard bilan yo'g'rilgan she'riyat yuqumli va ta'sirchan bo'ladi. Chunki insonning qalbi kulgidan emas, dard va iztirobdan poklanadi [2; 10]. Mahoratli ijodkor Guljamol Asqarova she'riyati ham butkul ko'ngil olamining qog'ozdagi aksidir. Uning yozganlaridan she'rxonlar hamisha o'z qalblarini kashf etib boraveradilar. Shoira bilan birga iztirob chekadilar, ruhan poklanadilar. Bu she'riyat shoiraning qalami kabi o'tkir, qalbi kabi go'zal va musaffodir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bahodir Karim. Ruhيات alifbosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 364 b.
2. Hakimjon Karimov. Istiqloq davri adabiyoti. – Toshkent: “YANGI NASHR”, 2010. – 364 b.
3. Guljamol Asqarova. Oshiqlar tumori. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 84 b.
4. Xosiyat Rustamova. Ishg'ol. – Toshkent: “Akademnashr”, 2011. – 144 b.
5. Zebo Mirzo. Ishq. – Toshkent: “Akademnashr”, 2011. – 128 b.
6. Qozoqboy Yo'ldoshev. Yoniq so'z. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2006. – 548 b.



“DARYOSINI YO‘QOTGAN QIRG‘OQ” ROMANIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING BADIY TALQINI

Kishin XAJIBOYEV,
o‘qituvchi,
Urganch innovatsion universiteti.
kishinxajiboyev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida Amudaryo suvining to‘silishi, to‘rtta katta suv ombori qurilishi va buning ayanchli oqibatlariga munosabat ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Аннотация. В статье анализируется социально-философский аспект строительства четырех крупных водохранилищ и перекрытия вод Амударьи, а также трагические последствия этих действий в романе Эркина Самандара “Берег, потерявший свою реку”.

Abstract. In the article have been analyzed from a socio-philosophical point of view the damming of the Amudarya water, the construction of four large reservoirs and the sad consequences of this in the novel “The Shore That lost its River” by Erkin Samandar.

Kirish so‘zlar: tabiat, inson, to‘g‘on, Amudaryo, Jayhun, Qirtepa, Mazdubat.

Ключевые слова: природа, человек, дамба, Амударья, Джейхун, Киртепа, Маздубат.

Key words: nature, man, dam, Amudarya, Jayhun, Qirtepa, Mazdubat.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida 70-80-yillar alohida o‘rin tutadi. 1956-1957-yillarda shaxsga sig‘inish illati keskin qoralandi. Natijada mamlakatda Stalin qatag‘oni davrida adolatsizlik va haqsizlikka uchragan adabiyot namoyandalari nomi oqlandi. Adabiyotshunos S.Mirzayev fikricha: “Bu davrda xalqning siyosiy faolligi ma‘lum darajada o‘ydi. Shu bilan birga, bu davrda markazning aybi bilan ijtimoiy hayotda dabdababozlik, ko‘zbo‘yamachilik, ikkiyuzlamachilik singari illatlarga yo‘l qo‘yildi. Binobarin, bu davrda taraqqiyot silliq kechmadi. Depsinish va turg‘unlik yillari ham bo‘ldi. Ana shunga ko‘ra bu davrni katta o‘zgarishlar, o‘tmish xatolarini tuzatish va ba‘zi yangi xatolarga yo‘l qo‘yish davri deb atash mumkin” [1, 61].

Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani, “Tangri qudug‘i” romani, “Pahlavon Mahmud Piryorvaliy” kabi qissalari ham o‘zbek badiiy nasrida o‘ziga xos yangilik bo‘ldi. Chunki “...bu kabi asarlar iztirob ichida tug‘ilgan” deydi muallifning o‘zi [2, 356]. Muallif qalbidagi iztirob Vatanni sevish, uning bir qarich yerini ham avaylash, buyuk bobokalonlarimiz ruhiga hurmat, boy ma‘naviy va madaniy merosimizni asrash kabi muqaddas ishlarning mehrsiz, mol-dunyoga berilgan, obro‘parast odamlar tomonidan poymol qilinayotganligi sabablidir. Zero, haqiqiy ijodkor xalq dardi bilan yashaydi. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanidagi voqealar fikrimizni tasdiqlaydi. Romanda qalamga olingan ekologik muammo

yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri edi. Ehtimol, bu muammoni shu davrda ijod qilayotgan boshqa ijodkorlar ham yoritishni istagandir, lekin bu masalani ommaga olib chiqish oson ish emas edi. Chunki vatanimizni mustamlakada ushlab turgan sho‘ro hukumati endi Markaziy Osiyo davlatlarining boyligiga ko‘z tikkan edi. Paxta masalasi hali hech kimning yodidan chiqqan emas. “Boshqa Sovet Sotsialistik Respublikalari qatori O‘zbekiston ham Sovet Ittifoqining asosiy paxta manbayiga aylandi. 1970-yillarning boshlariga kelib O‘zbekiston SSRda deyarli barcha ekin maydonlari paxtachilikda foydalanish uchun o‘zlashtirildi” [3]. “Natijalar halokatli bo‘ldi. Pestitsidlar va zaharli o‘g‘itlardan keng foydalanish hamda almashlab ekishdan voz kechish atrof-muhit uchun halokatli oqibatlariga olib keldi. G‘o‘zaning o‘shini yaxshilash maqsadida suvning isrof qilinishi Orol dengizining qurib qolishiga sabab bo‘lib, bu esa mintaqadagi ekologik vaziyatni yanada og‘irlashtirdi. Shunga qaramay, paxta yetishtirish darajasi oshmadi. Qo‘shib yozish yoki besh yillik rejalar natijalarini sun‘iy ravishda oshirish natijasida millionlab dollar mablag‘lar yo‘qotildi. Statistik ma‘lumotlarning ishonchsizligi esa iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga to‘sqinlik qildi” [4, 99].

Romanda tasvirlangan O‘zbekistondagi mineral resurs Mazdubat tuz koni Qorayantoqliklarning rizq-nasibasi edi. Shu rizq-ro‘zdan nasibalari uzilishini bilgan Qorayantoqliklar g‘or oldida yig‘ildilar. Aminovning buyrug‘i bilan g‘orning og‘zini betonlashga kelgan quruvchilarning oldiga peshvoz chiqdilar. Betonlash tuz koni va g‘orni saqlab qolish uchun jon-jahdi bilan harakat qilayotgan qurilish injeneri Ganjaning uchastkasiga topshirildi. Bunga toqat qilolmagan Ganja bu ishdan bosh tortdi. Ganja o‘zi Aminovga “*Bu yerlarga bitta suv ombori yetadi, 4 ta bahaybat suv ombori nimaga kerak? Bu tabiatga jiddiy zarar yetkazadi. Amudaryoni bo‘g‘ish juda xavfli*” degan so‘zlari va bu borada tuzgan loyihalari uchun yoqmay yurgan edi. Fursatni qochirmasdan Aminov Ganjani ishdan bo‘shatdi. Bu ham yetmagandek, keyinroq uni qamatib ham yubordi.

Asarda tuz konini saqlab qolish uchun harakat qilgan Ganja, Buva va u boshchiligidagi qariyalar, mahalla faollari Aminov, mayor Rahmonov, Nazarov kabi qo‘g‘irchoq rahbarlar tomonidan izza qilinadi. Buvaning “*Tuz koni muqaddas joy, uni bosqilash, vayron etish mumkin emas. Shunday mo‘jizani yo‘qotishga qo‘llaring qanday boradi? Yuraklaring qanday betlaydi?*” [2, 71] degan so‘zlariga parvo ham qilmaydi. Yana bir tabiat ne‘mati, Qorayantoqliklarning muqaddas joyi yo‘q qilinadi. Nima emish, bu suv omborlari evaziga Duldulsoyni shaharga aylantirar emish. Gidrouzel ham qurib, barcha hududlarga elektr tarqatar emish, paxta, sholi ekar, maktab, bog‘cha, shifoxonalar qurar emish.

Damba qurish maqsadida tuz g‘orining og‘zini betonlab qo‘yish, bu xalqning rizqini qiyish bilan birga, tabiatga ham jiddiy zarar ekanligi Ganja bilan Buvani rosa o‘ylantirar edi. Nahotki, shunday qudratli Amudaryoning yo‘lini to‘sib, ko‘zlangan yerga boshqarish mumkin bo‘lsa? Bu shunchalik osonmi? Eh, bechora daryo? Insonlar o‘zi shunaqa, tabiatni ona deydi-yu, biroz aqlli, kuchli bo‘lib olishgach, unga xiyonat qiladi, hatto o‘ldiradi.

Romanda Orol dengizining qurib qolishida Tuyamo‘yinda Amudaryo suvining

to'silib, bahaybat to'g'onlarning va suv omborlarining qurilishi, natijada, bu yerdagi Kiyikto'qay, Bog'iston, Otaqo'rg'on, Mazdubat tuz koni kabi joylarning suv tagida qolishi, yer osti suvi yuzaga ko'tarilib, yerlarni suv bosishi, bog'-rog'larning qurib qolishi kabi muammolar obrazli yoritiladi, bu yo'lda Mazdubat tuz koni va Nayson buva yodgorligining yo'q qilinishi, Qirtepaning portlatilishi kabi masalalar konseptual o'rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, E.Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida inson va tabiat muammosi Amudaryo suvi evaziga olti milliard kub suv sig'adigan 4 ta suv ombori qurish sababli Orol dengizining qurishi tasviri jarayonida namoyon bo'ladi. Ganjaning bu baloga qarshi kurashib o'tkazgan umri, qilgan mehnatlari yozuvchi tomonidan video tasvirga tushirilgandek badiiy ifoda etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. Дарслик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
2. Erkin Samandar. G'ayb qushlari. – Toshkent: Sharq, 2009.
3. Blacmon, Pamela. In the Shadov of Russiya: Reform in Kazakhstan and Uzbekistan (inglizcha). East Lansing, Michigan, United States: Michigan State University Press, 2011.
4. Robinson, Alan G.; Sam (1997). Corporate Creativity. San Francisco: Berrett-Kochler Publishers, Inc.p. 99.



SULAYMON BOQIRG'ONIY HIKMATLARIDA TAVBA MAQOMI TALQINI

Abdulla XUDOYBERGANOV,
UrDU o'qituvchi-stajori

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf tariqatlarining asosiy maqomlaridan biri tavba maqomi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Sulaymon Boqirg'oniy ijodida tavba maqomining o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Аннотация: В данной статье собраны мысли и мнения о статусе покаяния, одного из основных статусов суфизма. Целью является раскрытие роли и значения статуса покаяния в творчестве Сулеймана Бакыргани.

Annotation: This article contains thoughts and opinions about the status of repentance, one of the main statuses of Sufism. It is aimed at revealing the role and importance of repentance status in Sulayman Bakyrqani's work.

Kalit so'zlar: Tavba, maqom, tariqat, manoqib, amal.

Ключевые слова: Покаяние, статус, порядок, manoqib, практика.

Key words: Repentance, status, order, manoqib, practice.

Sulaymon Boqirg'oniy yassaviya tariqatidagi mavjud maqomlarning mohiyatini o'z hikmatlarida tasvirlagan mutasavvuf olimlar sirasidandir. Tavbaga umumiy ta'rif berilganda quyidagi mazmun tushuniladi. "Tavba—qaytish demak, ya'ni kamolotga, oliy axloqiy sifatlarga qaytish. Tavbani bob ul-abvob — eshiklarning eshigi ham deydilar, chunki tariqatga qadam qo'ygan odamning niyati va mohiyati avvalo shu

tavbasida ayonlashadi"[2.27]. Tavba sevganiga yetishish yo'lida g'ov bo'ladigan jamiki narsalardan yuz o'girishga qasamyod etib, butun intilishi, bor diqqatini Allohga qaratish, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechish orqali erishadigan manobdir. Ijodkorning solik hayotidagi tariqat maqomlarini qabul qilish nuqtasi tavba maqomidagi amallarni bajarishida ekanligi bir qancha o'rinlardagi hikmatlarida istifoda etilgan.

*Tavba qilib Haqq'a yong'an oshiqlarg'a,
Uchmox ichra to'rt ariqda ishrati bor.
Tavba qilmay Haqdin yong'on g'ofillarga,
Tor lahadda qaytig' azob hayoti bor[1.11].*

Sulaymon Boqirg'oniy yuqoridagi misralarida tavbaning solikning Yaratgan iznida yurishi va u qaytargan qaytariqlardan tiyilgan holda zohidona hayotni tanlagani shariatga zid bo'lgan amallardan tiyishi va insonlar bilan orasidagi aloqani yaxshilash kerakligini tushunib olamiz. Tasavvuf adabiyotida komillik sari boshlanadigan tariqat yo'lining inikosi bu tavba sifatida talqin etiladi. Buni yuqoridagi she'rining davomida shunday ifodalaydi:

*Uchmox mulkin umg'on oshiq tavba qilsun,
Tavba qilib, Hazratig'a yaqin borsun.
Huru qusur, g'ilmon, vildon xodim bo'lsun,
Alvon-alvon kiyar tashrif xil'ati bor[1.11].*

Yaratgan rizosini izlash ma'nosida qo'llanilgan birinchi misradan kelib chiqadigan xulosada ifodalangan tavba qilishdan ham maqsad shu, ya'ni yaratgan rizosi ila yetishiladigan jannatdagi ta'riflanadigan mukofot, ya'ni Yaratganning visoliga yetish, uning go'zal yuziga vosil bo'lish tasvirlanadi. Misralarda yana tavba qilgan solikka u uchun beriladigan mukofotlardan undan rozi bo'ladigan jannat ahllari g'ilmon, vildonlar haqida ham tasvirlangan bo'lib, bundan maqsad tavbaning ortidan keladigan mukofotlarni tasvirlab berishga qaratiladi.

Sulaymon Boqirg'oniy ijodida tavbaning asl mazmunini ochib berishga yordam beruvchi hikmatlari bir qancha bo'lib ularning har birida o'zgacha mazmun aks ettirilgan.

*Ruhim aytur kechmish ishga nadam yebon,
Tavba suyi birla yozuq kirin yubon.
Muhabbat kamarin belga bog'layibon,
Bu dunyoga taloq berib ketoyin der[1.27].
"... kechmish ishga nadam yebon"*

misralarida solikning tavbasidan oldingi pushaymonligi tasvirlanib bunda ham tavbaning hasanotlaridan biri ekanligi tasvirlanadi. Solik qachon o'zini taftish qiladi o'zidagi yomon illatlarni qachon anglaydi faqat tavba qilsa, o'zidagi kamchiliklarni kamchilik ekanligi anglasagina bunday amallarga qodir bo'ladi. "Tavba suyi" deyilganda esa unga yaratgan tomonidan solikka berilgan bir ne'mat sifatida tasvirlanadi. Inson o'zining amalida xato amallar bor ekanligi qachon biladi unga Yaratgan tomonidan bir tavba in'om etilgandagina anglaydi. Undan keyingi misralarda fikr uzviy davom ettiriladi, ya'ni tavba in'omini olgan solikda muhabbat paydo

bo'lahi. Unga berilgan tavba ne'mat ekanligini anglab, u bilan davrdosh bo'lgan insonlar holiga ibrat bilan qaraladi. Unga bunday oliy in'omni tortiq qilgan Xoliqqa bo'lgan muhabbati yanada ortadi va tasavvuf adabiyotida o'zidagi tavbaning kushandasi sifatida e'tirof etiluvchi dunyo nomli dushmanga abadiy urush ochadi.

Xulosa qilib aytganda, Sulaymon Boqirg'oniy ijodida tavba maqomining istifoda etilgan jabhalari ko'p bo'lib unda turkiy tariqat maqomlarining avvali sifatida qaraluvchi yassaviya tariqatining mazmun mohiyatini tushunib olishimiz mumkin bo'lahi. Yassaviya tariqatida mavjud to'rt maqom qirq eshikning barchasi mutasavvuf olim ijodining birlamchi ijod manbai sifatida aks ettirilganligini yuqoridagi misollarda ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби. (Нашрга тайёрловчилар И.Ҳаққул, С.Рафиддин).-Т.: Ёзувчи, 1991.
2. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. - Т.: Movarounnahr, 2009.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. II juz. - Т.: 2008.



OGAHİY G'AZALLARIDA TAVAKKUL MAQOMINING BADIY TALQINI

Dilorom QO'ZIYEVA,
o'qituvchi-stajor,
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf tariqatlarining asosiy maqomlaridan biri tavakkul maqomi haqida fikr yuritilgan. Muhammad Erniyozbek o'g'li Ogahiy g'azallarida tavakkul maqomining o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье собраны мысли и мнения о статусе таваккуля, одного из основных статусов суфизма. В нем раскрывается роль и значение статуса таваккуля в газелях Мухаммада Эрниязбек - Агахи.

Annotation: This article contains thoughts and opinions about the status of tawakkul, one of the main statuses of Sufism. In this is revealed the role and importance of tawakkul status in the ghazals of Muhammad Erniyozbek – Agakhi.

Kalit so'zlar: Ogahiy, tavakkul, tamavvul, tariqat, sabr.

Ключевые слова: Агахи, таваккул, тамаввул, тарикат, терпение.

Key words: Agakhi, tawakkul, tamavvul, tarikat, patience.

Tasavvuf ta'limotida tavakkul kamolot manzilining oliy maqomlaridan biri hisoblanadi. Solik hayotida bo'layotgan har bir yaxshi yoki yomon voqea-hodisalarni, shuningdek, sinov-u mashaqqatlarni, yetgan aziyatlarni Haqning o'zidan deb bilishi va O'zigagina suyanish holati tavakkuldir. Tavakkul istilohiy jihatdandan "vakil qilish" ma'nosini anglatib, bir ishni qilishda boshqaga suyanish sifatida talqin qilinadi. Binobarin, tavakkul to'g'risida juda ko'plab fikr-mulohazalar, ta'riflar berilgan bo'lib,

ularning barchasi mohiyatan bir xildir. Ya'ni, Allohning o'zigagina ishonish, o'zigagina suyanishdir. Zunnun Misriydan tavakkul haqida so'rashganlarida: U: "Arboblardan holi bo'lish va sabablarni tark etishdir"[1,37], - deb javob beradi. Junayd Bag'dodiy: "Tavakkul Allohning o'zidan boshqasidan tama qilishlarini yo'qotish bilan qalb javohirlarining Allohga suyanishidir. Tavakkulning zoti bu sabablarni mulohaza qilmay, beparvolik, g'am-alamsiz va xursand bo'lmay Sabab bo'luvchidan sabablarni kutishdir"[1,38], - deya ta'rif beradi. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, tavakkul kullari Yaratganning o'zigagina suyanish va bog'lanishdir. Bu borada faqat harakat qilmay, izlanmay sababini Sababchisidan kutish tavakkul hisoblanmaydi. Biror bir maqsadga erishish yo'lida qo'ldan kelgancha harakat qilib, imkon boricha izlanib, ya'ni, sababini qilib natijasini Allohga havola qilish tavakkul hisoblanadi. Mutavakkil zotlar g'amga botmaydi, rizq uchun qayg'urmaydi. Bersa shukur qilib, bermasa sabr qiladi. Professor Ibrohim Haqqul aytganidek: "Haqiqiy tavakkalchilar uchun juvonmardlik, iymon va e'tiqod sobitligi xos bo'lgan. Ular Yaratganning o'zini yagona rahbon va g'amxo'r deb tan olishgan"[2,24]. Darhaqiqat, solik makonga yuz tutishida ham tavakkul uning qo'lidagi maqsad kalitidir. Boisi, solik manzilga yetgunga qadar qanchalik mashaqqat-u sinovlarga uchragan bo'lsa, bu yo'ldagi qiynoqlar-u aziyatlarga bardosh berib, toleyini Haqning o'ziga topshirsagina haqiqatga erishadi. Koshoniy aytadi: "Tavakkul – imon haqiqatidir"[3,28]. Solik haqiqatga erishmog'i uchun vujud va ruh birligi evaziga o'zini Haqning ixtiyoriga topshirishi lozim. Shundagina tavakkulning mohiyati yanada ochiladi. Tavakkul kishining iymonini yana-da mustahkam, islomini go'zal va botiniy olamiga xotirjamlik va osudalik baxsh etguvchi tuyg'udur. Shuningdek, tavakkul solikni nafs va shayton makrlaridan muhofaza qiluvchi posbon hamdir. Tavakkul shartli ravishda uch darajaga ajratiladi. Bular:

1. Mo'minlarning tavakkuli.
2. Xos ahlining tavakkuli.
3. Xoslar xosining tavakkuli.

Mo'minlarning tavakkuli haqida Abu Turob Naxshabiydan so'rashganlarida u: "Badanni bandalikka tashlash, qalb Parvardigorning ulug'ligiga bog'lanib, butunlay Allohga berilishdir. Agar qaytarsa rozi bo'lib sabr qilish va qadarga ko'nishdir"[1,43], - deb javob beradi. Zero, bandaning Alloh taolo farz qilgan toat-u ibodatlarda bardavom bo'lib, bergan sinov-u imtihonlarga toqat qilib yashashi, bersa shukur, bermasa sabr-u qanoat qilishligi chin mo'minlikning fazilatidir. Xoslarning tavakkuli Abul Abbas aytganidek: "Kim Allohga Allohsiz tavakkul qilsa, Allohga tavakkul etmabdi. Allohga Alloh bilan va Alloh uchungina hech bir sababsiz tavakkul qilsa, shunda u Allohga chin tavakkul qilgan bo'ladi"[1,44]. Ya'ni, solik faqir misoli har ishda va har onda Allohga muhtojligini sezishi, O'zigagina suyanishidir. Xoslarning xosi tavakkuli borasida Junayd Bag'dodiy: "Barcha ahvollarga qalbni faqat Allohga e'timod qilishi tavakkuldir"[1,112], - deya javob beradi. Mazkur tadqiqot ishimizning obyektu - Ogahiy g'azallarida yuqoridagi tavakkul darajalari o'ziga xos qalamga olingan. Quyida baytda shoirning mo'minlarga xos tavakkul darajasi qalamga olingan:

*Tangrig'a aylab tavakkul, qil qanoatni shior,
Ikki olamda kerak bo'lsa agar izzat sanga [4,31].*

Bu dunyoda Allohga tavakkul qilishlik barcha mo‘min-u musulmon bandalarga xos fazilatdir. Shoir mazkur bayti orqali ikki olamda izzatga ya‘ni, hurmat va ehtiromga sazovor bo‘lishni istasang, avvalo, qanoatni o‘zingga shior qilib, Tangriga tavakkul ayla deb ma‘rifatga chorlamoqda. Shoir bu misralari bilan ikki dunyo saodati kalitlaridan biri sifatida tavakkulni e‘tirof etmoqda. Bu o‘rinda qanoat so‘zi zamirida inson irodati, ruhning osoyishi va xotirjamligi ifodalangan. Ma‘lumki, rizq Allohning qo‘lidagi ne‘mat. Shunday ekan banda bu dunyoda hamma narsa Yaratuvchisining yaratilari ekaniga imon keltirsa, bu dunyoda ham u dunyoda ham farog‘atga yetishi, ikki olam saodatiga, baxtiga musharraf bo‘lishligi mazkur misralarda o‘zining badiiy ifodasini topgan. Alloh taolo mo‘minlar haqida shunday marhamat qiladi: “Albatta, Alloh zikr qilinsa, qalblari titraguvchi, oyatlar tilovat etilsa, iymonlarini ziyoda qiluvchi va Robbilariga tavakkul qiluvchilargina mo‘minlardir” (“Anfol” surasi, 2-oyat) [5,454]. Alloh taoloning muhabbatiga, rahmatiga erishmoqlik uchun faqat O‘zigagina tavakkul qilmoq kerak. Alloh taolo shunday deb buyuradi: “Allohga tavakkul qil. Albatta, Alloh tavakkul qiluvchilarni sevardir” (“Oli Imron” surasi, 159-oyat) [5,434]. Solikning qalbida qurbi yaqinlik hissi bor ekan, oliymaqom tavakkulchilardan bo‘lishi lozim. Oliymaqom tavakkulchi oshiq sifatida Ma‘shuqi Azalning muhabbatiga vosil bo‘lmoq uchun har ishda hech shak-shubhasiz Haqning O‘zigagina suyanishi, O‘zidagina muruvvat kutishi lozim. Yuqoridagi oyatlardan anglashidiki, Alloh taolo mutavakkillarni sevadi va ahli tavakkul bilan birga.

*Tangri tavakkul ahlig‘a bo‘lg‘ay taraf bo‘lsa qachon,
Xayli tamavvul bir taraf, ahli tavakkul bir taraf* [4,180].

Hazrat Ogahiy odamlarni ikki toifaga ajratar ekan, birinchi guruh “tamavvul” ya‘ni, boy-badavlatlilik, hashamatlilik orqasidan yugurguvchi nafsiga qul kimsalar bo‘lsa, ikkinchi guruh vakillari tavakkul ahlidir. Zero, Alloh ham tavakkul qiluvchilar bilan birga va ular tarafidadir. Mazkur baytda biz zohiran bir qarashda mo‘minlarga xos tavakkul darajasini ko‘rishimiz mumkin. Lekin mazkur misralarda botiniy ma‘noda xoslarning tavakkuli badiiy ifodasini topgan. Ogahiy Alloh roziligiga erishib, uning va‘da qilgan oxirat xursandchiliklari va jannat ne‘matlariga umid qilgan va shu maqsadda tavakkul qilgan kishilar ahli bir taraf bo‘lsa, faqat Yaratuvchisining jamoli va vasli uchun tavakkul qiluvchilar bir taraf ekanligini bayon etib, Alloh ham ular tarafidadir deydi. Haqiqiy soliklar manzilga yetishda zohiriy amallarda mustahkam turib, shu qatori botiniy olamini ham tarbiya qilishadi. Ruhiiy tarbiya topishdan asosiy maqsad esa Haq vasliga vosil bo‘lish, oshiq sifatida Ilohiy ishqdan mast bo‘lish anglashiladi:

*Qil tavakkul Haqq‘a, eldin chekmagil minnatki, ul -
Bir og‘ir yukdirki, o‘lmish necha hammol ostida* [4,41].

Mazkur baytda Ogahiy Haq taolo rizosi yo‘lida tavakkul qil, eldan biror nima olib, qilingan yaxshilik evaziga elning minnatiga qolma. Zero, kishilar minnati – bir og‘ir yukdir. Necha hammol – yuk ko‘taruvchi birovdan ko‘rgan yaxshiligi evazini ado qilolmay, hojatbarorning roziligini topolmay hamon bu yukning ostidadir, deydi. Bu bilan shoir birovdan maqsudi hosil bo‘lishini kutib, kishining minnatini tortmaslikka, nimaiki zarur bo‘lsa, Allohdan hojati ravo bo‘lishini so‘rab, unga tavakkul qilib,

qo‘lidan kelganicha harakat qilishga chaqiradi.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy she‘riyatida tavakkul maqomi solikning ma‘rifatga yuzlanishida muhim maqom sifatida talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Abdurahmon Sulamiy. Tasavvuf va uning haqiqatlari. -T.: Hilol-Nashr, 2020.
2. Haqqulov I. Tasavvuf va she‘riyat. -T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1991.
3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. -T.: Movarounnahr, 2009.
4. Muhammad Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Tavizu-l-oshiqin. Mumtoz so‘z, -Urganch: 2014.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. II juz. -T.: 2008.



SHERMUHAMMAD MUNIS IJODIDA QUYOSH OBRAZI

Sadoqat OTAMURATOVA,
Urganch davlat universiteti doktaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shermuhammad Munis ijodida keng ko‘lamda tasvir etilgan quyosh obrazining zohiriy va botiniy ma‘nolari, tasviriy vositalardan foydalanish mahorati tahlil etiladi.

Аннотация: В данной статье анализируются внешний и внутренний смысл изображения солнца, широко описанного в произведениях Шермухаммада Муниса, и мастерство использования наглядных пособий.

Annotation: This article analyzes the external and internal meanings of the image of the sun, which is widely described in the works of Shermuhammad Munis, and the skill of using visual aids.

Kalit so‘zlar: quyosh, mahbub, oshiq, ma‘shuqa, hilol, mahvash, istiora, husni ta‘lil, tanosub, tashbeh

Ключевые слова: солнце, махбуб, ошик, машуқа, полумесяц, махваш, метафора, хусни талил, таносуб, ташбех

Keywords: sun, mahbub, oshiq, mashuqa, crescent, mahvash, metaphor, husni talil, tanosub, tashbeh

Shoir lirikasida obrazlar xilma-xilligiga ro‘baro‘ kelamiz, misol tariqasida obrazlar ichida mashhur bo‘lgan oshiq va ma‘shuq, bundan tashqari, ko‘ngil, quyosh, sham, parvona hamda bir qancha tasavvufiy timsollarni keltirishimiz mumkin. Ushbu maqolada biz “quyosh” obrazini tadqiqot mavzusi qilib oldikki, uning shoir ijodiyotidagi o‘rni, obrazni yuzaga keltirgan holatlar, badiiy tasviriy vositalar haqida muxtasar ma‘lumot bermoqchimiz. Jumladan, “Ustida” radifli g‘azalining birinchi baytida:

*Mahvashim javlon qilur yakroni shabgun ustida,
Yo quyosh chobuksuvori jilva gardun ustida [1:32].*

Mazkur baytning birinchi misrasida ma‘shuqaning qop-qora ot ustida javlon qilishi, go‘yoki qorong‘u tunda zulmatni yoritib chiqqan oyga qiyos etilgan bo‘lsa, ikkinchi misrasida quyosh chavandozining falak ustida porlashi, ma‘shuqaning

quyoshga o'xshatilishidan istiora san'atining go'zalligi namoyon bo'lgan. Demak, bu baytda ma'shuqa ham zulmatni yorituvchi oyga, ham falakni porlatuvchi quyoshga qiyos qilingan. Quyosh obrazi ma'shuqa vazifasini bajarmoqda.

*Sen o'rtada quyoshsan-u, mahublar – nujum,
Nur aylar iqtibos, turub so'l-u sog'da [1:34].*

Ushbu baytda ma'shuqa quyoshga o'xshatilgani holda, o'zga mahublar yulduzlarga qiyos qilinadi va yulduzlar o'ng-u chapda turib o'sha quyoshdan nur olishi, ya'ni go'zallikdan bahra olishi, buning natijasida o'zlari ham go'zallashishi zohir etilgan. Demak, mazkur baytda ham quyosh obrazi ma'shuqa ma'nosini aks ettirgan. Natijada, tanosub, tazod, istiora she'riy san'atlari vositasida bayt mazmuni yana-da teranlashgan.

*Yo quyoshim ochti yuz shomimni ravshan qilg'ali,
Yo magar partavfikan bo'ldi mahi tobon kelib... [1:88].*

Mazkur baytda ham ma'shuqa quyosh istiorasi orqali berilib, yorning yuzidagi pardani ochishi oshiq shomini ravshan qilish uchun ekanligi, yoki baytning keyingi misrasida yorning oshiq huzuriga kelishi go'yo oyning nur sochishi, yorug'lik tarqatishiga o'xshatilishi asosida namoyon bo'lgan.

*Yuzing ko'rsam araqrezi hayo hayrat qilib dermen,
Quyosh chiqsa kerak erdi sudin yo'qkim, quyoshdin suv... [1:98].*

Oshiq ma'shuqaning yuzini ko'rganida hayo hayratidan ter to'kib, go'yoki bu quyosh chiqqanidan so'ng uning nurlaridan bahramand bo'lish asnosida inson yuzidan ter quyilishiga muqoyasa qilinmoqda.

*Yoshurding to quyoshdek orazingni parda ostida,
Erur ohim sharori, ko'k uza ermasturur yulduz [1:121].*

Mazkur baytda husni ta'lil she'riy san'atiga g'oyatda ajoyib misol keltirilmoqda: ya'ni yor quyoshdek yuzini parda ortiga yashirgach, osmondagi yulduzlar yulduz emasligi, balki oshiqning ohidan hosil bo'lgan uchqun ekanligi bayon qilingan. Bu yerda ham husni ta'lildan tashqari yor orazini quyoshga o'xshatish va falakdagi yulduzlarni oh uchqunlariga qiyoslash orqali tashbeh yuzaga kelgan.

*Ne go'zalsenkim, quyoshda yo'q jamoling ziynati,
Orazingdin partavedur bil quyoshning tal'ati [1:145].*

Bu baytda yor shunchalar go'zalki, uning go'zalligi ziynati hatto quyoshda ham yo'q ekanligi, balki quyoshning tal'atidan sochilayotgan yog'du, taralayotgan nur yor yuzi tufayli ekanligi bayon qilinmoqda. Mazkur baytda ham husni ta'lil va istiora she'riy san'atlarining badiiy nafosati bayt misralariga balqib chiqqan.

*Yuzin quyoshin ochib kelki, intizoringda
Oqardi subh kibi chashmi kavkab afshonim [1:170].*

Bu baytda "yuzing quyoshi" istiorasi namoyon bo'lgani holda, oshiq yorga yuzini ochib kelishini, uning firoqida yorning yulduz sochuvchi (porlab turuvchi) ko'zlari subh kabi oqarganligi, ya'ni ma'shuqasini nihoyatda zoriqib kutganligi namoyon bo'lgan. Bu bayt ham istiora, tashbeh she'riy san'atlari vositasida badiiy detallar bilan to'yintirilgan.

Gar quyoshdek solmasang kunduz uyimga partave,

Kel mahi shabgard yanglig' boshim uzra kechqurun [1:181].

Ushbu baytda oshiq ma'shuqaga murojaat qilyabdi: agar kunduz kuni quyosh kabi uyimga nur sochmasang, kechqurun boshim uzra tunda sayr qiluvchi oy kabi yonimga kelgin. Birinchi misrada qo'llangan "quyoshdek" so'zi tashbeh san'atini yuzaga keltirish bilan birga, obraz sifatida ham o'z ma'nosida, ham mahbubaga ishora qilish ma'nosida qo'llanmoqda. Ikkinchi misradagi "mahy shabgard" ham aslida mahbubaga ishora qilayotgan bo'lsa-da, lug'atlardagi "tunda sayr qiluvchi oy" ma'nosini ham o'zida aks ettirgan.

*Yoshurg'ali orazing quyoshin,
Ashk etti ko'zumni axtar afshon* [1:191].

Mazkur baytda ham yor orazi quyosh istiorasi orqali tasvirlangan bo'lib, yorning yuzini yashirishi oshiqning ko'zlaridan yulduzdek bo'lib ko'z yoshlari sochilishi ayon bo'lmoqda.

*Quyoshkim dahrda nur-u safo ondin namoyondur,
Jamoli olamoroying'a ul bir chashmi hayrondur* [1:218].

Quyosh dunyoga nur sochish uchun namoyon, olamni bezovchi jamolingga ul ko'z, ya'ni olamni yorituvchi quyosh ham hayrondir. Shoir ijod namunalarida mahbubaning go'zalligi quyosh misolida, olamni bezovchi, ko'ngilni yorituvchi kabi jimjimador o'xshatishlar uchraydi, bu misollarni shoirning o'ziga xoslik namunalari deb olsak, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu misralarda "quyosh" obrazi o'z ma'nosida kelgan bo'lib, ma'shuqaning go'zalligini ta'riflashda asos bo'lib xizmat qilgan.

*Ohi sardimdin qish o'lmish erdi hajrim tunlari,
Yuz quyoshidin tunim kunduz, qishim yoz etti do'st* [1:254].

Mazkur baytda Munis an'anaviy tasvirlardan chekingan holda, quyosh obraziga ayricha ma'no yuklaganligining guvohi bo'lamiz. Ya'ni ko'pchilik baytlarda ma'shuqa obrazini ifoda etgan quyosh tasviri endi do'st obrazini ifodalashga ko'chadi. Shoirning hajr tunlari sovuq ohlaridan qish bo'lgan bo'lsa, do'st yuzining quyoshi uning tunini kunduzga, qishini esa yozga aylantirgani tasvir etiladi.

*Garchi yuzung quyoshidin topdi g'amim tuni charog',
Lek yuz uzra menglaring o'rtadi ko'nglim ichra dog'* [1:284].

Ushbu baytda ham an'anaviy tarzda quyosh obrazi istiora tasviriy vositasi asosida yor yuziga qiyosan kelib, oshiqning xitobiga ko'ra yor yuzidan oshiqning g'am tuni charog'on bo'lgan bo'lsa-da, yorning yuzidagi xollar oshiq ko'nglidagi dog' bo'lib uni o'rtaganligi tasvir etilmoqda.

Xulosa o'rnida shu ta'kidlash joizki, Munisning quyosh obrazi tasvirlangan g'azallarida botiniy va zohiriy ishqning aralash holda kelishi, qolaversa, do'st obrazini quyoshga qiyoslash yuzaga kelgan bo'lib, har bir g'azalda mazkur obrazning ma'shuqa ma'nosida zohir bo'lishi badiiy san'atlar bilan to'yintirilgan holda namoyon bo'lib, o'ziga xos va an'anaviy badiiy detallarni yuzaga keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, -T.: 1980.

2. Jumayev N. Munis g'azaliyoti. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, – T.: 1991.
3. Iqboloy Adizova. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: "Fan", 2009.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. –T.: "Fan", 1983-1985.



HOZIRGI KUNDA YOSHLAR TARBIYASIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING TUTGAN O'RNI

Zamira YULDASHYEVA,
1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchi,
Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani
13-son umumiy o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarni yuksak ma'naviyatli, dunyoqarashi keng, ruhan tetik insonlar qilib tarbiyalashda xalq ertaklarining o'rni haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль народных сказок в воспитании из учащихся высокодуховных, широко мыслящих и психически свежих людей.

Annotation: This article discusses the role of folk tales in educating students to be highly spiritual, broad-minded, and mentally fresh people.

Kalit so'zlar: ertak, xalq og'zaki ijodi, tarbiya, bolalar dunyosi, muloqot.

Ключевые слова: сказка, фольклор, воспитание, детский мир, общение.

Key words: fairy tale, folklore, education, children's world, communication.

Ertak qadimiy janr bo'lib, azaldan butun bir millatning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Bu atamaning Mahmud Koshg'ariy tomonidan 1074-yilda yozilgan. "Devonu lug'oti-t-turk" asarida "etuk" tarzda qo'llanganidan bilsa bo'ladi: "Etuk – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so'z qo'llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan" [1]. Bu janrning qadimiylikni qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa bir qator turkiy xalqlar oilasiga kiruvchi millatlar og'zaki ijodida ham ertak deb atalishi, isbotlashi mumkin. Xalq ertaklarimizning badiiy ijod namunasi sifatidagi janr xususiyatlari quyidagilardan ko'rishimiz mumkin.

1. Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik jinsi (turi)ga mansub.

2. Ertaklar, asosan, nasrda yaratiladi. Faqat ayrim asarlardagina ("Yoriltosh", "Tohir va Zuhra" va boshqalar.) qo'shiqni eslatuvchi she'riy parchalar uchraydi.

3. "Bir bor ekan, bir yo'q ekan" boshlamasi va "murod-maqsadiga yetibdi" yakunlanmasi ertaklarning an'anaviy belgisi hisoblanadi.

4. Xayoliy-fantastik tasvir ertaklar sujetida qo'llanadigan ustuvor usuldir.

Bugungi kunda aksariyat ota-onalar farzandlari xarxasha qilsa, ularni yupatish uchun qo'llariga telefon berib qo'yishadi. Vaholangki, "qimmatli" vaqtini ayamadan farzandlariga o'zbek xalq ertaklarini o'qib berib, uning mag'zini chaqib, undan chiqadigan xulosani farzandiga tahlil qilib bersa, kelajakda komil inson bo'lib yetish

uchun zamin yaratgan bo‘lar edi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev mutolaa va kitobxonlik haqida fikr bildirib, jumladan, shunday degan edi: "...hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yana-da oshirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishdek vazifa turibdi". Darhaqiqat, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy ommaviy turlaridan biri bo‘lgan hayotiy uydurmalar asosiga qurilgan ertaklar kelajak avlodni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega. Chunki, ularning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingan bo‘lib bular sirasiga "Zumrad va Qimmat", "Egri va To‘g‘ri", "Urto‘qmoq", "Uch og‘a-ini botirlar", "Ahillik- ulug‘ baxt", "Susambil", "Ozodachehra", "Omon bilan Yomon", "Ochko‘z boy", "Ikki echki", "Ota nasihati", "Oltin tarvuz" kabilar kiradi. Yuqoridagi ertaklarning mavzulari har xil bo‘lishi mumkin, lekin ularning mohiyati bir xil, ya’ni ularda saxiylik, to‘g‘rilik, yaxshilik, rostgo‘lik, mehnatsevarlik, ahillik, birdamlik, mehribonlik kabi insoniy fazilatlar o‘z aksini topgan. Shuning uchun bu kabi ertaklarni o‘qigan bolalarda, birinchidan, tasavvuri va dunyoqarashi kengayadi. Ikkinchidan, ertaklardagi odatiy boshlanmalar bola nutqini shakllantiradi. Xalq ertaklari badiiy so‘z san’atining go‘zal namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir och ekan, bir to‘q ekan...» jumlasidan boshlanar ekan, ertak «murod-maqсадiga yetibdi» degan yakungacha bolalar diqqati voqyealarga to‘liq ravishda jalb etiladi. Undan keyin nima bo‘ladi, bu hodisa qanday tugaydi, degan savollar tinglovchi xayolini band etib turadi. Uchinchidan, atrofida bo‘layotgan voqeahodisalarga loqayd bo‘lmasdan tarbiyalanadi. Masalan, "Egri va To‘g‘ri" ertagida shu kabi fazilatlarning guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu ertagimizda Egrivoy o‘zining baxilligi, dangasaligi, hasadgo‘yligi sababli hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘la olmadi. To‘g‘rivoy esa o‘zining saxiyligi, mehnatsevarligi, to‘g‘riso‘zligi bilan hayotda o‘zi uchun muhim bo‘lgan baxtga, boylikka, mavqeyga erishadi.

Ertaklarning yashovchanligiga sabab ham ularning badiiy mukammalligi bilan belgilanadi. Mazmun jihatdan hayotning turli masalalari ertaklar mavzu ko‘lamini ta’minlaydi. Ertaklarda xalq milliy tiliga mansub so‘zlardan o‘rnida foydalanish seziladi. Aytuvchi o‘z hikoyasini sodda gaplardan tuzilgan aniq fikrlar vositasida davom ettiradi. Bu janrga mansub asarlarda, albatta, qizlar o‘n to‘rt kunlik oydan go‘zal, yigitlar mard, qilichlar keskir, dasturxonlar ochiluvchan, xumlar qaynama xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Ertaklarda juda boy va turli-turli o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘alar majmuasiga duch kelamiz. Shuning uchun ham og‘zaki ijodimiz tarkibidagi bu asarlar haqiqiy ma’noda qadriyatlar namunasi, madaniy merosimizning noyob gavhar – injulari darajasida e’zozlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz joizki, bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishini yoshligidan shakllantirish maqsadga muvofiqdir. "Qush uyasida ko‘rganini qiladi" deganlaridek, farzandlarimiz kitobga mehr qo‘yishi uchun avvalo, o‘zlarimiz ko‘proq kitob o‘qishimiz kerak. Zero, farzandlarimizga kitob o‘qishni targ‘ib qilishimiz emas, balki ularga o‘rnak bo‘lishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар луғати (Девони луғотит турк). III томлик. I -том. – Т.: Фан, 1960. – Б. 98.
2. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. – Т.: Fan, 1964
3. O‘zbek xalq ijodi . O‘zbek xalq ertaklari. Gulpari. – Т.: Cho‘lpon, 1969.
4. O‘zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik . 2-tom. – Т.: Adabiyot va san`at nashiryoti, 1964. – 516 b.
5. Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari \O‘zbek folklorining epik janrlari. – Т.: Fan, 1981. – B.62-69.



ERTAKLARDA XALQ TABOBATINING AYRIM KO‘RINISHLARI

Munisa MATKARIMOVA,
mustaqil izlanuvchi,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti
va folklor instituti

Annotatsiya. Maqolada ertaklarda xalq tabobatining ayrim ko‘rinishlar tahlilga tortilgan. Unda ertaklarda mistik tabobatning so‘z bilan va musiqa bilan davolash usullari uchrashi qayd qilingan.

Аннотация: В статье анализируются некоторые способы народной медицины в сказках. В нем подчеркивается заговоры и музыкатерапия как одно из средств исцеления мистической медицины.

Abstract: In this article analysed the traditions of folk medicine in fairy tales. In this discussed the charm and musical therapy as one of the potent remedies of the non-medicinal type of therapy.

Kalit so‘zlar: ertak, xalq tabobati, mistik tabobat, so‘z bilan davolash, musiqa bilan davolash.

Ключевые слова: сказка, народная медицина, заговоры, музыкатерапия, мистичекая медицина.

Keywords: fairy tale, folk medicine, the charm, the musical therapy, the non-medicinal type of therapy.

O‘zbek xalq nasrining muhim qismini tashkil etgan ertaklar nafaqat tarbiya vositasi, balki madaniy qadriyatlarimizni o‘zida mujassam etgan qomus vazifasini ham bajaradi. Ularda uzoq tarixga ega bo‘lgan, avloddan-avlodga o‘tib, xalqning necha ming yillik tajribalari natijasida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan xalq tabobatining qator davolash usullarini uchratish mumkin. Quyida biz ertaklarda xalq tabobatining ayrim ko‘rinishlariga to‘xtalishni maqsad qildik.

Tabobat bashariyat madaniyatining muhim bo‘lagi bo‘lib, jamiyat rivoji bilan yonma-yon taraqqiy etadi [3, 76]. Turkiy tilli va forsiyzabon xalqlarning og‘zaki ijodi hamda “Avesto”dagi dalillar shuni ko‘rsatadiki, Ko‘hna Sharq tibga oid qarashlarning ham qadimiy o‘chog‘i bo‘lgan. “Avesto”ning barcha qismlarida, xususan “Vendidod”da tabiblar tayyorlash, ularning burchi va vazifalari, tabobat amaliyoti, kasalliklar tasnifi, ularning paydo bo‘lish sababi va omillari, bemorlarni davolash

usullari, dorivor o'simliklar, ularning tasnifi, noyob dorivor giyohlar haqida berilgan qimmatli ma'lumotlar xalq tabobatining ildizlari ancha qadim zamonlarga borib taqalishidan guvohlik beradi. Tabiblar va ularning faoliyatidan so'zlovchi o'rinlar aks etgan xalq ertak va rivoyatlari, dostonlar, shuningdek, "xalq tabobati" tushunchasi "em", "emhana" va "emchi" kabi so'zlar bilan ifodalangan "Devonu lug'at-it turk" va "Qutadg'u bilig" asarlari ham fikrimizni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbek xalq ertaklarida xalq tabobatining turli ko'rinishlarini kuzatish mumkin. Dastlab ularni ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. Mistik tabobat ko'rinishlari.
2. Empirik tabobat ko'rinishlari.

Ma'lumki, tabiblar "Avesto"da so'z (duo) bilan davolovchilar, shifobaxsh giyohlar bilan muolaja qiluvchilar va tig' yordamida faoliyat yurituvchi kabi turlarga bo'lingan [7, 22]. Shundan kelib chiqib davolashning uch usuli – so'z bilan davolash (psixoterapiya), giyohlar bilan davolash (dori terapiyasi) va tig' yordamida davolash (jarrohlik) mavjud bo'lgan. Ammo ayrim adabiyotlarda to'rtinchi usul ham qayd qilinadi:

– Tibbiyotda davolashning uch turi bordur, sizga ulardan qay biri ko'proq xush keladi? – deya so'rashdi Bag'dodga tashrif buyurgan al-Xorazmiydan shaharning olim-u fuzalolari.

– To'rtinchisi, – dedi davradagilarga qarab xorazmlik alloma.

– Iye, o'zi davolashning uchta turi bor-ku? – hayron bo'lishdi Bag'dod fuzalolari.

Al-Xorazmiy bir zum indamadi. Keyin bayt o'qidi:

Biri so'z, doru biri, keskir pichoqdur bittasi,

Dag'i Xorazm mulkida mashhur erur sozning sasi.

– Menga davolashning Xorazmda keng tarqalgan to'rtinchi, ya'nikim soz bilan davolash usuli ko'proq yoqadi, – dedi xorazmlik alloma.

Ha, tarixda nafaqat al-Xorazmiy, balki Farobiy, Ibn Sino, Navoiy, Maxtumquli singari mutafakkirlarimiz ham musiqa bilan davolash sirlari borasida o'z asarlarida so'z yuritishgan [1].

So'z(duo) bilan va musiqa bilan davolash mistik tabobatning ko'rinishlari hisoblansa, giyohlar bilan (dori terapiyasi) va tig' yordamida (jarrohlik) davolash empirik tabobat usullari sanaladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ertaklarda mistik tabobatning 2 ta davolash usuli ko'zga tashlanadi:

1. So'z(duo) bilan davolash.
2. Musiqa bilan davolash.

"Shifobaxsh so'z(duo)lar so'zning sehrli ta'sir kuchiga ishonch asosida yuzaga kelgan bo'lib, oddiy so'zlar formulalari (tizmasi)dan murakkab badiiy janrlar paydo bo'lishigacha rivojlanish yo'lini bosib o'tgan hamda ijtimoiy hayot va atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq. Duo matni an'anaviy bo'lgan, ammo improvizatsiya elementlari ham bo'lishi mumkin. Ritmik tarkibiga ko'ra duo she'rga yaqin turadi"[2, 165]. Darhaqiqat, mistik tabobatda foydalaniladigan ayrim duolar kasallikni quvishga yo'naltirilib, she'r kabi ritmga ega:

Chiq, badbaxt, chiq.

*Chiqarmasam, menga la'nat,
Chiqmasang, senga la'nat.
Qon yalasang, qassobga bor,
Un yalasang, allofga bor.
Qorni katta boylarga bor,
Ochiq chorvadorlarga bor...
Mening bolamda nima haqqing bor.
Chiq, badbaxt, chiq.
Chiqarmasam, qo'ymayman [4, 38].*

Ertaklarda ham bemor qahramonni davolash uchun duoga murojaat qilingan o'rinlar uchraydi. "Shahzoda Asad" ertagida podshoh ikki oy zindonda yotgan shahzodani aravaga yotqizib, ko'chadan olib o'tar ekan, xalqqa "Ko'pning duosi qabul bo'ladi, deydilar. Sizlar duo qilinglar, shoyad dardiga shifo bersa, deydi. Xalq aravaning ustida o'lik singari za'farondek sarg'ayib yotgan shahzodani ko'rib, ko'zlariga yosh olib, "Xudo dardiga shifo bersin, – deb duo qiladi" [5, 262].

Duo bilan davolashda tabib, folbin, parixonlar turli ashyolar – tig'li yoki uchli o'tkir buyumlardan foydalanadilar.

"Ibn Sino va jinni" ertagida Alovuddin asab kasaliga yo'liqib, "Men ho'kizman, qassobni chaqiringlar, meni so'ysin" deb mo'rar ekan. Shunda Ibn Sino bir pichoq va qayroq tosh bilan kelib, bemorni ko'rib, "Sen semizroq bo'lganingda so'yardim, Quruq suyak mol kimga kerak. Agar sen biroz semirsang, shundagina men kelib so'yishim mumkin. Men o'zim seni boqib semirtiraman. Buning uchun men nima bersam hammasini yeyishing va ichishing kerak bo'ladi", deydi va unga foydali ovqatlar buyurib, kerakli dori-darmonlar, davo o'tlarni beradi [6, 324]. Ibn Sinoning so'zlariga ishongan bemor semirish uchun tabib buyurganini qiladi va tuzalib ketadi. Bunda so'z bilan davolashning namunasini ko'ramiz.

"Hunarli yigit" ertagida mistik tabobatning musiqa bilan davolash usulidan foydalanilgan. "Yigit devordan bir g'ijjakni olib chala boshlabdi. Dev yetti yildan buyon kasal bo'lib, hushsiz yotgan ekan, g'ijjak tovushini eshitib, o'ziga kelibdi. Yetti kun deganda tuzalib turibdi" [6, 92].

Xulosa qilganda, ertaklarda qahramonlar sog'ligini tiklashda mistik tabobatning so'z bilan va musiqa bilan davolash usullariga murojaat qilingani kuzatiladi. Bu kabi ertak materiallari o'zbek xalq tabobati manzarasini muayyan darajada to'ldirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmuhammad U. Musiqa qanday qilib qonni to'xtata oladi?! <https://medo.uz/uz/news/musiqa-qanday-qilib-qonni-toxtata-oladi?>
2. Горяева Б. Традиции народной медицины в мотивах волшебной сказки калмыков//Новые исследование Тувы. THE NEW RESEARCH of TUVA.2018.№4. Сс.161-177.
3. Епифанцева А., Епифанцев А. Народная медицина – культурный слой истории общества // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2011. – № 5. – С. 76.
4. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – T.: "Aloqachi", 2008. 560 b.
5. O'zbek xalq ertaklari. 3 tomlik. T.1. – T.: "O'qituvchi", 2007.

6. O‘zbek xalq ertaklari. 3 tomlik. T.3. – T.: “O‘qituvchi”, 2007.

7. Хомидий Х., Дўсчанов Б. “Авесто” ва тиббиёт. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2001.



QO‘CHQOR NORQOBILNING SO‘Z TANLASH MAHORATI

Nigoraxon MAHMUDQO‘ZIYEVA,
*Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti 2-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: Xayrulla Hamidov
filol. f. d. (DSc), TDSHU professori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘chqor Norqobilning so‘z tanlash uslubi tahlil qilinadi. Yozuvchining so‘z tanlashdagi mahorati uning hikoyalari misolida ko‘rsatib beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируется стиль слов Кочкора Норкабила. Мастерство писателя в подборе слов показано на примерах его рассказов.

Abstract: This article analyzes Kuchkor Norkobil’s style of word choice. The writer’s skill in choosing words is shown in the examples of his stories.

Kalit so‘zlar: uslub, mahorat, o‘zbekcha so‘zlar.

Ключевые слова: стиль, мастерство, узбекские слова.

Key words: style, skill, uzbek words.

Yozuvchi ijodidagi g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar birligi, ifoda usuliga uslub deyiladi. “Keng ma‘noda uslub tushunchasi shoir (yoki yozuvchi)ning dunyoqarashi, asarlarining asosiy leymotivini tashkil etuvchi g‘oyalar, sujet va xarakterlar doirasi, badiiy tasvir vositalari, tili va boshqalarni qamrab oladi” [1].

Yozuvchi uslubi deganda esa uning badiiy xarakter yaratishdagi o‘ziga xos tili, tasvirlash manerasi tushuniladi. Har bir chinakam ijodkor o‘z uslubiga ega bo‘ladi. Masalan, Navoiy g‘azallari yuksak badiiyligi, fikrlarning teranligi bilan, Bobur asarlari esa musiqiyliigi, tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Uslub ijodkorning o‘zligini, mustaqilligini belgilaydi. Ammo uslubni yozuvchi o‘zi o‘ylab chiqargan narsa deb qarash kerak emas. Masalan, birona o‘zbek yo‘qki, Abdulla Qodiriyning “Moziyga qarab ish ko‘rmoq xayrlidir” degan mashhur so‘zi yoki uning personajlaridan Yusufbek hoji aytgan “Bu xonadondan hech kim norizo bo‘lib ketgan emas” so‘zlarni bilmasin. Bu Qodiriy uslubining o‘ziga xosligidan dalolat beradi. Yoki bo‘lmasa, G‘afur G‘ulomning “shum bolasi” tilidan, Abdulla Qahhor yaratgan ma‘lum va mashhur personajlar tilidan aytilgan so‘zlar o‘zbek xalqi tiliga o‘tib iboralarga aylangan. Said Ahmadning “Farmonbibisi”ning har aytgan so‘zi xalqning tili va dilidan munosib joy olgan. Bu dalillar yozuvchi uslubining naqadar xalqchilligini ko‘rsatib turadi.

Har bir yozuvchining uslubi, demak, uning so‘z tanlash mahoratida namoyon bo‘ladi. Masalan, ta‘kidlanganidek, atoqli o‘zbek adibi Abdulla Qahhor o‘z asarlarini

yaratar ekan, qisqa va lo'nda gaplardan foydalanadi, bir nechta gap orqali ifodalash mumkin bo'lgan mazmuni bitta qisqa gapga sig'dira oladi. Demak, qisqalik va lo'ndalik – Abdulla Qahhorning uslubi, adibning so'z tanlash mahoratidir. Abdulla Qahhorga xos so'z tanlash mahoratini bugungi kunda faol ijod qilayotgan yozuvchi Qo'chqor Norqobil asarlarida ham ko'rish mumkin.

Xo'sh, bugungi o'zbek adabiyotining taniqli namoyandasi Qo'chqor Norqobilning so'z tanlashdagi mahorati nimalarda namoyon bo'ladi? Ushbu maqolada shu haqda so'z boradi. Maqolani tayyorlashda taniqli o'zbek olimlaridan Shavkat Rahmatullayevning ilmiy asarlariga tayanildi [3].

Ma'lumki, o'zbek tili so'zga boy, ifoda imkoniyatlari cheksiz. Shunga qaramay, bugungi kunga kelib nafaqat og'zaki nutqda, hatto yozma nutqimizda ham hech "tap tortmasdan" ajnabiy so'zlar, shakllardan foydalanishga o'rganib qoldik. Tilimizda har qanday narsa, buyum, hodisaning nomini ifodalsh uchun so'z bo'la turib begona unsurlarni qo'llab ketaveramiz. Faqat Qo'chqor Norqobil kabi adiblarimiz sharofati bilan badiiy adabiyotimizda o'zbekcha so'zlar yashab kelmoqda. Nazarimda, adib tanlagan "ohori to'kilmagan" so'zlar o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarini yuqori darajada ko'rsatib bera oladi.

Misollarga murojaat qilamiz: "*Ayol havoda cho'zilgan ochiq kaftimdagi hamyonni shaxt ila olib, g'ayriixtiyoriy holatda uning tishqulfini ochdi-da, ichidagi pulga razm soldi, menga yalt etib qaradi-yu, duv qizarib, chehrasiga yig'i nuqsi urgan siniq tabassum indi*" [2, 8]. Yozuvchining "Hamyon" hikoyasidan olingan ushbu gapda ishlatilgan "tishqulf" so'zi og'zaki nutqda "zamok" so'zini bemalol ishlatib yurgan kishilar uchun noodatiy tuyilishi mumkin. Biroq yozuvchi "zamok" so'zining o'rniga juda yaxshi muqobil bera olgan.

Yoki yozuvchi ishlatgan boshqa bir ohoriy va tamomila o'zbekcha so'zga e'tibor qarataylik: "*Odamlari uxloq, mashinalari uyg'oq ulkan shahar ko'chasida kiraulov orqa o'rindig'ida o'tirgan bola tashqarida ship-ship o'tayotgan do'konlarga jonhalak razm soladi*". Qo'chqor Norqobil "Yer aslida balanddadir" hikoyasida qo'llagan "kiraulov" so'zining o'rniga o'zbek zabonlilar "taksi" so'zidan foydalanishadi. "Taksi" so'zining etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak, ushbu so'z fransuzchadir, o'zbek tiliga esa rus tili orqali o'zlashgan. Ruslarning lug'atiga "taksi" so'zi 1907-yilda kirib kelgan, o'zbeklar esa ushbu termindan 1934-yildan beri foydalanib kelishadi. Ammo yozuvchi o'z hikoyasida "taksi" so'zidan foydalanmagan, balki unga muqobil sifatida "kiraulov" ni o'z hikoyasiga joylagan.

Ijodkorning "Yevropaning g'aroyib bir kuni" nomli hikoyasidagi ushbu jumlagi diqqat qilaylik: "*Sobir xonaga kirib ust-boshini almashtirdi. Ho'l kaltaishtonini vannadagi issiqquvurga ilib, ustidan koftasini tashlab qo'ydi*". "Issiqquvur"- ushbu termin Qo'chqor Norqobilning so'z topilmasi. Yozuvchi hikoyalarida ushbu so'zga ilk duch kelgan o'qirman uchun mazkur so'z g'alati jaranglaydi. Biroq biroz mulohaza qilganidan so'ng yozuvchi "oteplenie" degan ajnabiycha so'zning o'rniga yangi va o'zbekcha bir so'z yaratganini anglab yetadi. Darhaqiqat, rus tilidan kirib kelgan ushbu so'zning o'zbekcha muqobili ko'plab o'zbeklar tomonidan foydalanilmaydi. Ushbu so'zning o'zbekcha variantini etimologiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislargina

bilishi mumkin. Ammo ijodkor yangi kashf qilgan “issiqquvur” topilmasi “oteplenie” so‘zi uchun juda mos variant bo‘la oladi.

Qo‘chqor Norqobilning “Osmonning egasi bor” nomli hikoyasidagi boshqa bir so‘zga e‘tibor qarataylik: “Shaharda dovrug‘i dong ketgan “Korzinka” do‘konlarining biriga tirkash *ulovjoy* chetida tarvaqaylagan o‘risi daraxt soyasida mashinadan tushdim”. Ushbu gapda yozuvchi o‘zbek tiliga “ulovjoy” so‘zini olib kirdi. O‘zbek tilida ulovlar to‘xtaydigan maxsus joyni ifodalash uchun “avtoturargoh” so‘zi qabul qilingan. Biroq o‘zbeklar “avtoturargoh” so‘zidan foydalanmaydi. Haqiqatda ushbu so‘z talaffuz uchun noqulay va juda uzundur. Shuningdek, tamomila o‘zbekcha ham emas, “avto” so‘zi asli yunonchadan olingandir. Xo‘sh, unda o‘zbeklar “avtoturargoh” so‘zining o‘rniga qaysi so‘zdan foydalanishadi? Rus tilidan kirib kelgan “stoyanka” so‘zidan “avtoturargoh” ma’nosida foydalanishadi. Biroq Qo‘chqor Norqobil “stoyanka” ning o‘rniga butunlay o‘zbekcha va talaffuz uchun oson variantni taklif qilgan. Nazarimda, “ulovjoy” so‘zini o‘zbek tili iste’moliga kiritish kerak. Chunki har qanday so‘zni hosil qilish uchun o‘zbek tili imkoniyatlari juda kengdir.

Yozuvchi yoki shoirlar tildagi eng go‘zal va ta’sirchan so‘zlarni tanlab, ularga jon ato etsagina san’at asarlari yaratadi. Ammo Qo‘chqor Norqobildek yozuvchilar so‘zlarni dur kabi terib, san’at namunalari yaratibgina qolmay, tilga yangi so‘zlar olib kiradi. Yuqoridagi misollarda ko‘rganimizdek, yozuvchi o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan yoki mavjud bo‘lsa-da foydalanilmayotgan so‘zlar o‘rniga sof o‘zbekcha so‘zlarni yaratgan. Bu bilan Qo‘chqor Norqobil o‘zbek tilining imkoniyatlari naqadar keng ekanligini, har qanday narsani nomlash uchun tilimiz boy ekanligini isbotlamoqchidek go‘yo. Darhaqiqat, uning ko‘plab hikoyalarida buning yorqin isbotini ko‘ramiz. Masalan, ijodkor hikoyalarida “mashina” ning o‘rniga “ulov”, “umivalnik” ning o‘rniga esa “qo‘lyuvgich” kabi so‘zlardan foydalanadi.

Ijodkorning haqiqatda takrorlanmas va boshqalardan ajralib turadigan so‘z tanlash uslubi bor. U o‘z asarlarini turli tasviriy ifodalar, iboralar va unutilib borayotgan o‘zbek xalq maqollaridan foydalanib bezaydi. Fikrimcha, Qo‘chqor Norqobil hikoyalarida qo‘llagan so‘zlar tilimizga o‘rnashib qolgan juda ko‘p ajnabiy so‘zlarning o‘rnini bosa olishi shubhasizdir. Shuningdek, ijodkor asarlarining badiiy tili shu qadar boyki, bu o‘qirmanlarni o‘zbek tilining izohli, frazeologik va shu kabi boshqa lug‘atlarini ham varaqlashga undaydi. Shunday ekan, Qo‘chqor Norqobil o‘z uslubi bilan o‘zbek tilini bizga eslatib turuvchi so‘z zargari ekan.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati, 2-jild. – Toshkent O‘qituvchi: 1967.
2. Qo‘chqor Norqobil “Samolyotda men ham bor edim”. – Toshkent. Yangi asr avlodi: 2023. B.8.
3. Shavkat Rahmatullayev “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”. –3-jild. Toshkent. Universitet: 2009.
4. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” – Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti: 2019.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild. – Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti: 2019.
6. Qo‘chqor Norqobil “Teatrga chipta yo‘q” – Toshkent. Adabiyot: 2022



ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARIDA ORIFA AYOLLAR TALQINI

Mashhura ERGASHEVA,
*1-kurs magistrant,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU*

Annotatsiya: Ushbu maqolada esa “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi 35 orifa ayollar talqini keltirildi.

Аннотация В данной статье дана интерпретация 35 женщин-арифа из произведения «Насаим уль-Муhabбат».

Annotatsion: In this article, the interpretation of 35 arifa women in the work “Nasayim ul-muhabbat” is given.

Kalit soʻzlar: Oriflik, zohidlik, soʻfiy ayol, “Nasoyim ul-muhabbat”, orifa ayollar.

Ключевые слова: мистика, аскетизм, суфийская женщина, «Насаим уль-муhabбат», женщин-арифа.

Key words: arifism, asceticism, sufi women, “Nasayim ul-muhabbat”, arifa women.

Sharq mumtoz adabiyotini tasavvuf taʼlimotidan ayro tasavvur etish mushkul.

Masalan, tadqiq etilayotgan pir, murid, soʻfiy, orif, zohid, Jomi jam, may, darvesh va boshqa timsollar tahlil etilganda, ular haqida tushuncha va fikrlarga ega boʻlmaslik mumtoz adabiyotimiz badiiyatini faqat zohiran anglab, cheklanib qolish demakdir. Oriflik, soʻfiylik, zohidlik haqida tushunchaga ega boʻlgan holda, soʻng orifa ayollar haqida talqinimizni bayon etsak. “Olimlar tasavvuf tarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchi – zohidlik davri, ikkinchisi - oriflik va oshiqlik davri” deb Najmiddin Komilov ajratib koʻrsatgan edi. Unga koʻra zohidlik davri soʻfiylari qatoriga Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abduhoshim Kufiy va boshqalar. Oriflik davri ham oʻz ichida bir qancha davrlarga ajralib, tarmoqlanib ketadi. Xoʻsh, yuqorida taʼkidlab aytganimiz “soʻfiy” kim? Soʻfiy Iloh yoʻliga kirganlarning birinchi safida turuvchilardir, yokim “suf” soʻzining lugʻaviy maʼnosi jun va jundan toʻqilgan matodir. Soʻfiylar koʻp hollarda jun chakmon yoki qoʻy terisidan tikilgan poʻstin kiyishga odatlanganlarni soʻfiylar deyishganlar. Soʻfiy uchun na dunyodan, na oxiratdan tama boʻlmasligi kerak. Orif esa ilohiy maʼrifatni egallagan odam. Ishq odamning odamgagina boʻlgan muhabbatidan iborat emas. Bu ishq insonning Haqqa, haqiqatga muhabbati hamdir. Zohid – tarki dunyochilik, saqlanish demakdir. Xudoning marhamatiga musharraf boʻlish uchun tarki dunyo qilish zarurligi, Allohning zikriga halal beruvchi barcha narsalarni tark etish bilan izohlanadi. Bunday kamolga yetgan avliyolar toʻgʻrisidagi keng qamrovli asarlar sirasidan biri Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridir.

Taklif va tavsiyalar: “Nasoyim ul-muhabbat” asari muqaddima, 770 ta shayx (35 tasi avliyo ayollar)ning hayoti va ijodiga bagʻishlangan. “Nasoyim ul-muhabbat” asari Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” tazkirasining tarjimasini, lekin Navoiy bu

asariga erkin munosabatda bo'lib, ba'zi o'rinlarini qisqartiradi, ba'zilariga esa qo'shadi, 618 ta shayxlar sonini 770 taga yetkazadi.

Asarda 35 ta orifa ayollar haqida ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Bular Robia Adaviya, Lubbobat ul-muta'abbida, Maryam Basriya, Rayhonai Voliha, Mu'ozai Adaviya, Ufayrai Obida, Sha'vona, Kurdiya, Hafsa binti Shirin, Robiai Shomiya, Hakimai Dimishqiya, Ummi Hasson, Fotima Nishopuriya, Zaytuna, Fotimai Barda'iyah, Ummi Ali zavjan Ahmad Xizravayx, Ummi Muhammad validai Shayx Abu Abdulloh Xafif, Fotima binti Abobakr Kattoniy, Fizza, Tilmizai Sariy Saqatiy, Tuhfa, Ummi Muhammad, Bibiyaki Marviya, Ka'b qizi, Fotima binti Musanno, Joriyai Savdo, Imra'atun Misriya, Imra'atun Misriyai Uxro, Imra'atun Xorazmiya, Joriyai Habashiya, Imra'atun Isfahoniya, Imra'atun Fosriya, Bibichai Munajjimalardir. Asarda 735 shayxdan so'ng orifalarga o'rin ajratiladi. Birinchi keltirilgan avliyo ayol Robia Adaviya r. t. "Basra ahlidin erdi. Sufyon Savriy r. a. andin so'rar erdi va aning mav'izotu duosig'a rag'bat ko'rguzur erdi. n masoil so'rar erdi va aning mav'izotu duosig'a rag'bat ko'rguzur erdi. Bir kun Sufyon Robia q. s. qoshig'a kirdi va ilig ko'tarib dediki, [Allohim, sendan salomatlik so'rayman]. Robia yig'ladi. Sufyon so'rdiki, ne uchun yig'lading? Robia dediki, sen meni yig'latding! Sufyon dedi: Nechuk? Robia dediki, salomat dunyoda aning tarkidadur va sen dunyoga oludasen. Robia so'zidurki, har nimaga samaraedur va ma'rifat samarasi yuz Tengriga kelturmakdur. Va ham ul debdurki, [oz sidq ila astag'firulloh demoqlikdan astag'firulloh deyman]. Sufyon andin so'rdiki, banda Tengri taolog'a taqarrub tilar nimalardin yaxshirog'i qaysidur? Ul dedi, uldurki, bilgayki, dunyo va oxiratda andin o'zgani sevmas. Bir kun Sufyon aning qoshida dediki, [vo alamo!].

Ul dedi: yolg'on aytma, agar sen mahzun bo'lsang erdi, tiriklik senga xushguvor bo'lmag'ay erdi. Va ham ul debdurki, anduhum andin emaski, anduhingdurmen. Anduhum andindurki, anduhgin emasmen!" Robia Adaviya Basra tug'ilganligi, ilk zohidlik vakilasi ekanligini bilamiz. U Allohni sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etish tarafdori bo'lgan. Allohni hech bir tama, manfaatsiz, mutlaq sevish inson ma'naviy hayotining mohiyati ekanligini birinchilardan bo'lib ta'kidlagan. U haqida "Nasoyim ul-muhabbat"da biroz qisqa ma'lumotga uchragan bo'lsak, ya'ni Sufyon Savriy r. a. ila bahsi keltirilgan bo'lsa, Fariddun Attorning "Mantiq ut-tayr" asarida esa "Robiya Adaviya va uning haji" haqidagi hikoyat keltiriladi: "Robiyakim, uni «tojul rijob» - erkaklar toji der edilar, Ka'ba yo'lida yetti yil yonboshi bilan (sudralib) yurdi. Ka'baga yaqinlashganda, to'liq hajni topdim, deb ichida gumon qildi. Haj kuni Ka'ba tavofiga niyat qilganda, xotinlarga xos uzri voqe' bo'ldi (hayz ko'rdi). Shu bois yo'ldan qaytdi va Allohga nola qilib dedi:

– Ey Zuljalol, Ka'ba tavofi umidida yetti yil yonboshlab yo'l bosdim. Endi yettim deganda, yo'limga bunday tikan paydo qilding. Yo menga O'z uyingdan joy ber yoki o'z uyimga qaytishga yo'l qo'y — men Ka'bani tavof qilmay ketmayman.

Robiya kabi oshiq bo'lmasang, bu voqeaning sirrini ham, qadrini ham bilmaysan. Toki sen bu fasllar — suratlar dunyosida ekansan, rad va qabullar to'lqini bo'lib turadi. Gohida Ka'ba oldida yuqingni beradi, gohida dayr ichida ishingni o'nglatadi. Agar bu girdobdan boshingni tashqari chiqara olsang, har nafasda haqiqiy jam'iyat,

osoyishtaliklarni ko‘rasan. Bo‘lmasa shu girdobda giriftor bo‘lib qolasan. Charxi falak bilan birga tegirmon toshiday aylanaverasan. Bunday holatda bir nafas bo‘lsa-da, xotirjamlikdan umid yo‘q, sening vaqting bir pashshaning umrichalik qimmatga ega emas”.

Mayram Basriya r. t. Basralik orifa ayollardan bo‘lib, Robia Adaviya bilan suhbatda bo‘lgan, uning xizmatida bo‘lgan, ishq ilohiy haqida so‘z borgan bir majlisda yuragi yorilib vafot etgan:

*Nogahon ilohiy ishqni u anglab,
Hushdin ketdi, “Alloh” deya shivirlab.*

Natijalar: Asarda “...Va muhabbatda so‘z aytur ermish. Va muhabbatimiz so‘z eshitsa ermish, behol bo‘lub, yiqilur ermish. Va olamdin o‘tmakni mundoq debdurlarki, bir majlisda muhabbat so‘zi o‘tar ermish. Chun so‘z muassirroq tushubdur, yuragi yorilib, jon beribdur. Ul debdurki, hargiz ro‘ze g‘ami yemadim va aning talabig‘a ranj tortmadim, to bu oyatni eshittimki, [Va sizning rizqingiz osmonda va sizga va‘da qilingan narsa bordir]. Mayram Basriya so‘zining isboti o‘laroq Qur‘oni karimning Zariyot surasining 22-oyatidan keltiradi.

Zaytuna r. t. – uning ismi Fotima ekanligi, Abu Hamza, Junayd va Nuriy q. a.larga xizmat qilganligi va uning Nuriy xizmatidadagi bir kuni bayon etiladi: “...Nuriy xizmatig‘a bordim va dedim: hech nima yermusen? Dedi: “Hov!” Dedim: “Ne?” Dedi: “Non bila sut!” Deganini kelturdum. Ollida o‘t yonadur erdi va iligi qora bo‘lub erdi. Iligining har yerigaki, sut tegar erdi, qorasi uyulurur erdi. Chun ani ko‘rdum, aytimki, [Ey rabbim, sening do‘stlaring qanday iflosdurlar, ularning ichida biror pokizasi yo‘kdir]. Va aning qoshidin chiqdim, bir yerga yettim, bir xotun kishi manga yopushtiki, munda bir terma to‘n erdi, sen eltibsen! Va meni hokim qoshig‘a eltti. Nuriy ani eshitti va mening so‘ngumcha hokim qoshig‘a keldi va dediki, ani og‘ritmaki, avliyoullohdindur. Hokim dediki, ne chora qilayki, xasm ul to‘nni andin tilaydur? Nogoh bir qora kanizak paydo bo‘ldi va ul g‘oyib bo‘lgan nima anda. Xasm dediki, ani qo‘yungki, men iturganni toptim. Pas, Nuriy mening ilgimni tutub, ul yerdin chiqdi va dedi: nechun dedingki, [Sening do‘stlaring qanday vahshiydirlar va iflosdirlar]. Dedim: tavba qildim andinki, deb erdim.

Imra‘atun Misriya r.t. haqlarda esa Imom Yofi‘iy tarixidan bayon qiladilar, unga ko‘ra, u Misr navohiysida bir zaifa o‘ttiz yil bir yerda yashagani issiqda ham, sovuqda ham, o‘ttiz yil na suv ichgani, na ovqat yeganini aytadi, ya‘ni ro‘zador bo‘lganligi keltiriladi.

Robia Adaviya bilan boshlangan orifalar Bibichai Munajjima bilan yakunlanadi. Bibichai Munajjima r. t. – Kirmondan ekanligi, tasavvuf ilmida o‘sha davrda eng ilg‘or bo‘lganligi, ammo uning mayli darveshlik rutbasi ekanligini bayon etadilar. Podshoh haramidagilarning barchasi uni hurmatda tutganligi, o‘z manzilida masjid barpo etganligi, o‘ziga go‘rxona yasatganligi va u yerda maqbarasi joylashganligi aytiladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tasavvuf ta‘limotida orifa ayollar haqida bevosita Abdurahmon Jomiy, Faririddun Attor, Alisher Navoiy va boshqalar asaridan o‘rganib, Sharq mumtoz adabiyotida orifa ayollarning o‘rni, ularning ibratli

hayot yo‘lini tadbiq etishimiz mumkin. Jumladan, “Nasoyim ul-muhabbat” asarida 35 orifa ayollar orqali Sharq ayoli tafakkur teranligidan bahramand bo‘lamiz. Dunyoga hirs qo‘yish va o‘zlikni unutib, nafsqa qul bo‘lish kabi illatlardan forig‘ bo‘lish, ayollarning jahon ma‘naviy, ijtimoiy hayotidagi o‘rnini belgilashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami 20 tomlik. 17-tom. “Nasoyim ul-muhabbat”, “Fan” nashriyoti. –T.: 2001.
2. Komilov N. Tasavvuf. –T.: “Movarounnahr”-“O‘zbekiston” nashriyoti, 2009.
3. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. –T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.



SO‘FI OLLOYOR ASARLARIDA AXLOQ MASALASI (“SABOT UL-OJIZIN” ASARI MISOLIDA)

Zulfizar ABDULLAYEVA,
Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asaridagi insonni tubanlikka eltuvchi illatlar hamda komillikka yetaklovchi axloqiy sifatlar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Axloqiy yuksalish, “axloqi hamida”, “axloqi zamima”, komillik.

Аннотация: В данной статье были проанализованы пороки и моральные качества в произведении Суфия Оллояра “Сабот уль-оджизин”.

Ключевые слова: Моральный прогресс, “axloqi hamida”, “axloqi zamima”, совершенство.

Abstract: In this article are analysed bad behavior and good manners that contains in the “Sabot ul-ojizin” of Sufi Olloyor.

Key words: Moral progressing, “axloqi hamida”, “axloqi zamima”, perfection.

Odam qavmi necha asrlar davomida yaxshilik, ezgulik, himmat, mehr-muhabbat, fidoyilik to‘g‘risida gapirib, boshqalarni shu xislat va fazilatlarni egallashga chorlagan. Lekin vaqt o‘tgan sayin so‘z bilan amal, maqsad bilan ish orasida uzilish ortib borgan. Yolg‘on, aldov, riyo, safsata javrini tortgan kishilarning so‘z va gapdan hafsalasi pir bo‘lgan. Shunda ahli tasavvuf targ‘ib yo tashviq yo‘li bilan yaxshilik va xayrni ko‘paytirish uchun emas, balki qalb va xotirni dunyoviy qayg‘u, moddiy xirlardan tozalab, axloqlarini tarbiyalash, ko‘ngildan g‘aflatni quvish uchun qat‘iyat va aziyat chekishgan [4, 198].

Islom axloq falsafasiga ko‘ra axloqiy yuksalish imon, haqiqat va adolatdan boshlanadi. Falsafa qomusiy lug‘ati imon muayyan fikr, oliy g‘oyaning haqiqatligiga komil ishonchdan iborat shaxsdagi alohida ruhiy holatdir deb ta‘riflanadi. Islom ta‘limotiga ko‘ra imon uch unsurdan, ya‘ni, ishonch (Allohning yagonaligiga), iqrar (so‘zda istig‘for qilmoq) va amal (ezgu ishlar bilan qalb va so‘z amrini isbotlamoq) dan tashkil topgan.

Tasavvufda eng yaxshi axloqiy sifatlar va ularni amalda qo‘llash “axloqi hamida” deb yuritiladi. Axloqi hamida muayyan tamoyillarga ega bo‘lib, ular vositasida amaliy yo‘l bilan inson komillashib boradi va haqiqatgo‘yga aylanadi. Tasavvuf qoidalari, asosan, quyidagi axloq unsurlarida o‘z ifodasini topgan: 1) “talab” – komillik sari qadam; 2) “ishq” – o‘z maqsadiga mehr; 3) “ma‘rifat” – inson sirlaridan voqif bo‘lish; 4) “istig‘no” – maqsadni taqdir deb tushunish; 5) “hayrat” – insoniy fe‘l-atvordan zavqlanish; 6) “tavhid” – maqsadga ishonch; 7) “faqru fano” – komillikka ishtiyoq sezish, hosil qilingan sifatlarni amalda qo‘llash.

Insondagi salbiy xislatlarni ifoda etadigan qoidalar yig‘indisi “axloqi zamima”, deb yuritiladi. U insondagi boylikka hirs qo‘yish, manmanlik, johillik, kibr-havo singari yomon fe‘l-atvorlarni ifoda etadi. Tasavvuf ahli axloq-odob qoidalarini e‘lon qilish bilan chegaralanib qolmaydi, ayni vaqtda ularning mohiyatini har tomonlama bayon etib boradi, shu asosda faoliyat ko‘rsatishni taqozo qiladi. Bu qoidalar, odatda, tariqatlar deb atalib, tasavvuf manzilini tutgan kishilarni komillikka da‘vat etadi [2, 47].

Yetuk axloq komillik sari yetaklaydi. Aynan So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asarida ham insonni barkamol tarbiyalash asosiy maqsad qilib olingan bo‘lib, har bitta munojot-u hikoyatlarda ezgu fazilatlar ko‘rsatib boriladi. Xususan, bir nechta jihatlarni ko‘rib o‘tsak, kamtarinlik haqida shunday degan:

*Agar bersa jahon sultonlig‘i dast,
Kishi o‘z holini bilmak kerak past.
Agar rutbang erur oloyi ofoq,
Yiqilg‘on xastalarni holig‘a boq.*

Ya‘nikim, agar Alloh bandasiga xalq ustidan sultonlikni ato etgan bo‘lsa-da, o‘zini boshqalardan ustun deb bilmasligi, pastfe‘l bo‘lishi kerakligi aytiladi. Martabang ziyoda bo‘lib ketsa, o‘zingdan yuqoridagilarga emas, aksincha, sendan quyidagilarga boq va xulosa chiqar, deyilgan.

*Tarafmo‘re ki sanda quvvati fil,
Musulmonlig‘da anga marhamat qil.*

Didaktik ruhdagi ko‘pgina asarlarda ezgu fazilatlar ulug‘lanib, tubanlikka yetaklovchi illatlar qoralanadi. Xususan, kibrni emas, kamtarinlikni; ta‘mani emas, mehnatkashlikni; baxillikni emas, saxiylikni; shoshqaloqlikni emas, sabrni; nodonlikni emas, donolikni; dushmanlikni emas, do‘stikni; hasadni emas, havasni; nafsga qul bo‘lishni emas, aksincha, uni tarbiyalashni o‘rganish lozimligi ta‘kidlanadi.

Kibrning ziddi – tavoze: kamtarinlik deganidir. O‘zini boshqalardan ustun ko‘rmaydigan, yaxshilik va go‘zalliklar Allohdan ekanligiga iymon keltirgan inson kamtar insondir. Boshqalarga yuqoridan qaramaydi, insonlarga past nazar solmaydi, yonidagilarni hurmat qilishni biladi. Kibr – katta ketish, har doim o‘zini haq va hammadan ustun bilish deganidir [3, 22].

*Burunga bodi kibr esmay burundin,
Burunduq sol anga, qo‘pmay o‘rundin.*

Yuqoridagi misralarda ham kibr qoralanib, So‘fi Olloyor ishtiyoq san‘ati orqali bu

illatga qarshi kurashga undaydi. Burundan kibr havosi kirib kelmasdan avval, unga burunduq sol, ya'ni kishanlab qo'y, deya nasihat qilinmoqda. Zero, ko'pgina didaktik asarlarda ham kibrdan voz kechish aytilgan:

*Agar bolo chiqib, ketsang o'zungdin,
Yiqilg'oyson toyib yerga yuzingdin.
O'zung dono tutib, kibr aylamoqdin,
Na chobuklar yiqildilar oyoqdin.
Agarchi ul oyoq ostidadur xor,
Xudo maxluqidir, og'ritma zinhor.*

Yuqoridagi baytlarda ham aynan kamtarinlik xususida so'z boradi. Zidlantirish orqali kamtarinlikni yaqqol ko'rsatib bera olgan So'fi Olloyorning ushbu misralari har bir insonning hayotdagi maslagi bo'lishi kerak desak, xato bo'lmaydi. Senda fil kabi quvvat bo'lsa-yu, boshqada chumolichalik bo'lsa, unga marhamat qilishlik; Alloh yaratgan har bir mavjudotni xor qilmaslik xususida so'z boradi.

Shaxs ijtimoiy holatini vujudga keltiruvchi o'ziga xos mexanizm vazifasini axloq, ya'ni axloqiy qiyofa bajaradi. Axloqiy qiyofani shakllanishida insonning tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi ishtirok etadi. Bisotida mavjud bo'lgan butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Xojib ta'kidlaganidek, "insonning buyukligi va bebaholigi, uning aql idrok va tafakkur sohibi ekanligida, aynan shu shurriy qudrat barcha voqea-hodisalar zamiridagi tub mohiyatlarni anglash kalitidir".

So'fi Olloyor ushbu asari orqali ma'nau va jismonan yetuk insonni tarbiyalashga, barkamollik sirlarini xalqqa singdirishga uringan. Har bitta misrada ilm olishga, shirinsuxanlikka, kamtarinlikka, saxiylikka, qanoatga, xullas, ezgu fazilatlarga da'vat etadi:

*Ilikka domani hodiyyi ilm ol,
Chiqib shoyad yegaysan mevayi hol.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olloyor S. Sabot ul-ojizin. – T.: "Mehnat", 1991.
2. Ochilova B.M. Axloq falsafasi. – T.: "Ijod-print", 2019.
3. V. Shodiyeva. Axloqimni o'rganaman. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2018.
4. Qushayriy A. Risolayi Qushayriy. 198-b.

**OGAHIYNING "RIYOZU-D-DAVLA" ASARIDAGI MASNAVIYLARIDA
MUSHTARAK SAN'ATLAR ISTIFODASI**

Madina SAPARBOYEVA,
Urganch davlat universiteti
2-bosqich magistranti
madinasaparboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanilgan

mushtarak san'atlar Ogahiyning "Riyozu-d-davla" asaridagi masnaviylari misolida tadqiq qilingan.

Аннотация: В данной статье на примере маснави в произведении Агахи «Риязу-д-давла» исследуются общеобразовательные искусства, широко используемые в узбекской классической литературе.

Annotation: In this article, common arts widely used in Uzbek classic literature are studied on the example of masnavis in Agakhi's work "Riyazu-d-davla".

Kalit so'zlar: Masnaviy, mushtarak san'atlar, tanosub, ishtiyoq, ta'dil, iqtibos.

Ключевые слова: Маснави, общее искусство, пропорция, страсть, приспособление, цитата.

Key words: Masnavi, common arts, proportion, passion, adaptation, quote.

O'zbek mumtoz adabiyotiga nodir asarlari bilan bitmas xazina qoldirgan Muhammad Erniyozbek o'g'li Ogahiy o'zining "Riyozu-d-davla" asarida tarixiy voqealarni bayon qilishda, asosan, masnaviy janridan foydalangan. Muarrix-ijodkor masnaviylarning badiiyatiga alohida e'tibor qaratib turli xil tasviriy vositalar, she'riy san'atlarni istifoda qilgan. Ogahiyning tarixiy asarlaridagi masnaviylarida mushtarak san'atlar ham alohida o'rin egallaydi.

Mushtarak san'atlar ham lafzga, ham ma'noga aloqador bo'lib, ularni Atoullloh Husayniy **lafzi-yu ma'naviy go'zalliklar** deb ataydi. Biz ushbu o'rinda "Riyozu-d-davla" asarida keltirilgan masnaviylarda qo'llanilgan tanosub, ishtiyoq, ta'dil, iqtibos kabi mushtarak san'atlarga to'xtalib o'tamiz.

Tanosub (*o'zaro munosib*) – bir-biriga munosib bo'lgan uyadosh so'zlar hisoblanadi. Masalan, ko'z, qosh, kiprik kabi so'zlar inson a'zolari sifatida bir ma'noviy guruhga mansub sanaladi.

***Mol** uyla yig'ildi ko'p so'qumg'a,
Sig'may bari **dasht-u tog'-u qumg'a.***

***Teva** bila **yobu** haddin afzun,*

***Qo'y** birla **qo'zi** adaddin afzun. [Ogahiy. 2:263].*

Ushbu masnaviyda to'y jarayoni aks etgan bo'lib, unda xalqqa tarqatish maqsadida maydonga keltirgan mol, tuya, ot, qo'y, qo'zilar; maydon sahni bayonida dasht, tog', qum so'zlari tanosub usulida bir joyda keltirilgan.

"Riyozu-d-davla" asarining bir o'rnida xon sayri haqida keltirilgan bir masnaviyda Chandir daryosi atrofidagi tabiat tasviri bayonini berishda tanosub san'atidan o'rinni foydalanganligining guvohi bo'lamiz:

*Bo'lubon qahqahazan **kabki dar** ham,
Tovushqon har qadamda jilvagar ham.
Surub shah ul to'g'ay ichra tagovar,
Iki yon **qoz** qanoti ahli lashkar.
Uchub haddu adadsiz sayd har yon,
Qilib shah **qarchig'ayin** tez javlon.
Tazarv olib gahe hadd-u garonsiz,
Gahe sayd aylabon **durroj** sonsiz.*

*Shikor aylab gahe hadsiz **tovushqon**,
Gahe **kabk dariy** sayd aylabon oson.
Na yolg'uz sayd etib **parrandalarni**,
Shikor aylab gahe **darrandalarni** [Ogahiy. 2:285].*

Ushbu masnaviyda **kabki dar, tovushqon, g'oz, qarchig'ay, durroj, tazarov** so'zlari yordamida tanosub hosil qilingan bo'lib, unda daryo bo'yi to'qayzorlarining tasviri, ov jarayonlari aks ettirilgan.

Ishtiyoq (so'zdan so'zni ajratmoq) – baytda o'zakdosh so'zlarni qo'llash san'atidir. Bunda shoir bir o'zakdan turli yasalish usullari orqali har xil so'zlar hosil qiladi.

*Jabining mahi osmoni nishot,
Uzoring **guli gulshani** inbisot [Ogahiy. 2:27].
Na **shahkim, shahanshohlar shohi** ul,
Shahanshohlig' rasmi ogohi ul [Ogahiy. 2:29].*

Ushbu masnaviyda **gul, gulshan; shoh, shahanshoh, shahanshohlig'** so'zlari o'zakdosh sanaladi.

“**To'g'rilamoq**” ma'nosini anglatuvchi **ta'dil** san'ati ham “Riyozu-d-davla”dagi masnaviyalarda faol qo'llangan mushtarak san'atlardan biridir. Mazkur tasvir usuli ot turkumiga kiruvchi so'zlarni yonma-yon, ya'ni uyushiq holda qo'llash orqali hosil bo'ladi.

“Riyozu-d-davla”da ta'dil san'ati xilma-xil mavzudagi masnaviyalarda o'rinli qo'llanilgan. Quyidagi masnaviyda **Hayo-u hilm, bahs-u jadal, radd-u badal** so'zlari ta'dil usuli uchun asos bo'lib, unda shoir xonning saxovatpeshalik xislatini ko'rsatishga urinadi.

*Birov mantiqdin og'oz aylabon nutq,
Hayo-u hilm ila soz aylabon nutq...
... Biri izhor etib **bahs-u jadallar**,
Biri jahd aylab **radd-u badallar** [Ogahiy. 2:194].*

Iqtibos san'at turi istilohda “ilm o'zlashtirmoq” degan ma'noni anglatib, ijodkor o'z fikrini diniy isboti tariqasida Qur'on oyatlari yoki hadis bilan dalillab o'tishga harakat qiladi. Demak, iqtibos Qur'on yo hadisdan kerakli ko'chirmani aynan olib, olingan manbaga ishora qilmagan tarzda qo'llashdir. Bundan maqsad, birinchidan, keltirilayotgan fikrni diniy asoslash bo'lsa, ikkinchidan uni muqaddas kalom nuri bilan ziynatlash bo'lgan.

*Azaldin aning lutfi Haq yoridur,
Zafar birla nusrat madadkoridur.
Humoyun boshi uzra yetkurdi zeb,
Zaranduz ikkil fathi qarib.
O'qi no'ki xunxori a'do kelib,
Dami tig'i “**inna fatahno**” kelib [Ogahiy. 2:30].*

Bu oyat “Fath” surasining 1-oyati bo'lib, mazmuni: “Albatta, Biz senga ravshan fathni berdik”. (“Fath” so'zi lug'atda “ochish” ma'nosini anglatib, istilohda biror yurtni Islomga qo'shishga aytiladi. Musulmonlar biror joyga borib,

xoh urush bilan, xoh sulh bilan Islomga kiritsalar, o'sha yerni «fath qilindi deyдилar. Bu oyatdagi “Fath”dan murod mashhur Hudaybiya sulhiga ishora).

Ogahiy ilmi bade'ning chuqur bilimdoni sanalgan holda har bir she'rga e'tibor bilan yondashgan. Shoir ham lafzga, ham ma'noga aloqador mushtarak san'atlarni qo'llash orqali masnaviyalarda ko'zda tutilgan g'oyaviy-badiiy niyatini o'quvchiga yanada yorqinroq, yanada ta'sirchanroq qilib ifodalab bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atoullloh Husayniy. *Badoyi'-us-sanoyi'*. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.
2. Ogahiy. *Riyozu-d-davla*. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, izohlar muallifi hamda forsiy matnlar tarjimoni Abdulla O'rozboyev – Urganch: “Quvanchbek-Mashhura” MCHJ, 2021. – 428 b.



SAODATLI HAYOT MATLABI

Rayhonoy YANGIBOYEVA,
1-bosqich magistrant
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Favoyid ul kibar” devonidan o‘rin olgan ma‘rifiy g‘azali tahlilga tortilgan. Tasavvufiy istilohlar va notanish so‘zlar izohlangan. Bu orqali shoir ifodalagan ma‘no hamda ko‘zda tutgan g‘oyalar-dunyo va uqro, ruh va nafs, faqr-u fano haqidagi qarashlari misolida yoritib berishga harakat qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируется просветительская газель Алишера Навои из книги «Фавоид уль Кибар». Объясняются суфийские термины и незнакомые слова. Благодаря этому была предпринята попытка прояснить смысл, выражаемый поэтом, и идеи, которые он имел в виду - мир и мир, душа и душа, нищета и смерть.

Annotation: In this article, the educational ghazal of Alisher Navoi from the book “Favoyid ul Kibar” is analyzed. Sufi terms and unfamiliar words are explained. Through this, an attempt was made to clarify the meaning expressed by the poet and the ideas he had in mind - the world and the world, the soul and the soul, poverty and death.

Kalit so‘zlar: dahr, Ka‘ba, chig‘atoy, turkman, xalaj.

Ключевые слова: мир, Кааба, чигатой, туркман, халадж.

Key words: world, Kaaba, chigatoy, turkman, khalaj.

Alisher Navoiyning adabiy merosi misoli quyosh bo‘lib, undan zarra tilagan kimki bor, barchasi matlabi qadar ziyolanib kelmoqda. Ilm ahli va butun omma uchun sevimli hisoblanmish Navoiy g‘azallari har davrada mazmunan qayta “kashf etiladi”. Uning “Xazoyin ul maoniy” kulliyotida oshiqona g‘azallarning salmog‘i yuqori. Keyingi o‘rinni orifona g‘azallar egallaydi. Quyida biz Alisher Navoiyning “Favoyid ul kibar” devonidan o‘rin olgan “Biravki dahr moziqidin aylagay maxraj” boshlanmali ma‘rifiy g‘azalini tahlilga tortishga jazm qildik.

Professor A. Hayitmetov Navoiy gʻazallari mavzulari haqida gapirar ekan, shunday yozadi: “Gʻazal Navoiy sheʻriyatining bayroqdor turi, xalqqa ijod bilan xizmat qilishning eng muhim, eng qulay vositasi boʻldi. Biron doston yoki ilmiy asar yozish yozuvchidan maxsus sharoit, vaqt talab qilsa, sheʻr yozish, gʻazal toʻqish uchun bunga alohida ehtiyoj yoʻq. Shuning uchun Navoiy oʻz gʻazallarini yoki oʻz gʻazallarining matlaʻlarini yoki ayrim baytlarini uyda ham, yoʻlda ham, otda ketayotganda ham, piyoda borayotganda ham, yolgʻizlikda ham, majlislarda ham, toʻyda ham, azada ham oʻylagan, yozgan yoki yozishga tayyorlagan. U xursand boʻlsa ham, xafa boʻlsa ham gʻazal yozishga murojaat qilgan” [1, 115]. Navoiy sheʻriyati rang-barangligi, xalqonaligi, ayni damda chuqur mazmunni sodda shaklda yetkazishi bilan qimmatlidir. Quyidagi orifona gʻazalda ham shu unsurlar qorishib ketganligini sezish qiyin emas:

*Biravki dahr moziqidin aylagay maxraj,
Fano-yu faqr tariqi erur anga minhaj*[2, 49].

Kimki bu dunyoni qalbidan chiqarishni istasa, faqr-u fano yoʻli unga kifoyadir. Matlani sharhlash uchun Mavlonoga murojaat qilamiz: ul zot dunyoni suvga, insonni kemaga qiyoslar ekan, suv kema tashida boʻlsa manzilga eltishini, kema ichiga kirsam, halokat yetishini uqtiradi. Navoiy ham faqr-u fano yoʻlini tutish, dunyo gʻavgʻolaridan uzoq boʻlish uchun yechim ekanligini koʻzda tutmoqda.

*Ne Kaʻba shavqida, sen dayr ichinda yor ila boʻl,
Basoki, oʻgʻriligʻ yetgay tavof vaqtida haj.*

Hajni tavof qilish vaqtida juda koʻp oʻgʻriligʻ yetgani uchun sen Kaʻbani istama, balki dunyo ichinda yoring ila boʻl. Bu maʼnodan koʻngil “toʻlmay”, aqlni boshqacha mushohada qilishga undaydi. Dayr - soʻzi lugʻatda butparastlar ibodatxonasi sifatida qayd etilgan [3, 175]. Baytning ochqichi boʻlgan bu soʻzda Shayx Sanʼon va Tarso qiz haqidagi hikoyatga ishora seziladi. “Shayx Sanʼon oʻz zamonasining piri murshidi edi. Ilm-u irfon, karomat-u kashfda yagona edi. Uning kamoli haqida soʻz aytish ortiqcha, chunki Makkaning oʻzida ellik yil shayxlik qilgandi, toʻrt yuzta muridi bor ediki, har biri tariqatda bir yorqin siymo edi. Tushida bir sanamni sevib qolib, uni izlab yoʻlga chiqadi. Mahbubasini koʻrgan zahoti butun iymon-eʼtiqodini boy berib, unga qalbini bogʻlaydi. Muhibi ham, qiblasini ham shu Tarso qiz boʻlib qoladi [4, 46].

Haq borliqda tajalliy etar ekan, Shayx uchun Tarso qiz mazhar boʻldi. U riyozat-u, ibodatdan uzildi, yaʼni ishqqa amallar orqali emas, Haq zuhuri vositasida yetdi. Navoiy demoqchiki, dayrdami, har yerda, har joyda hamisha yoring bilan boʻl, yoding mudom Uning xayoli bilan band boʻlsin, uning vaslini faqat Kaʻbadan izlab, haj shavqida oʻrtanma. Agar sen Uni hamma joyda koʻrmas ekansan, qalbingda U mavjud emas ekan, unda Uning visolini istab Kaʻbani ziyorat qilganingdan ne maʼno?! Basoki - yaʼni juda koʻp marta hajga borsang ham qalabda muhabbat va yor boʻlmasa, haj vaqtida tavof qilishdan faqat jismoniy toliqish va ogʻirliknigina tuyasan, xolos.

Solikda ishq shunchalik kuchliki, endi uning aqlida, koʻnglida va koʻzida faqat yor (Xudo) jilvalanadi.

*Riyozat aylamasun roʻzgoring oshufta,
Adoyi farz-u sunan qil, oʻzunga qoʻyma haraj.*

Bu nochor roʻzgoring seni qiyinchilikka qoʻymasini, farz-u sunnatlarni ado qil, toki

gunohga botmagaysan. Farz-فرض Alloh buyurgan yo‘riqlar, sunan-sunnat سنة so‘zining ko‘pligi, ya‘ni, Payg‘ambarimiz (s.a.v) amallaridir. Oshufta so‘zi-shaydo, mubtalo degan, ro‘zgor esa, kundalik hayot, turmushdan tashqari, tole, baxt degan ma‘nolarni ham ifodalaydi. Shod-xurramlikka cho‘mgan bu hayoting kun kelib, alam tortishingga sabab bo‘lmasin, Alloh farzlari va rasulining amallariga ergash, toki o‘zingni gunohga qo‘ymagaysan.

Namoz adosig‘a qilg‘il ko‘ngulni tengriga tuz:

Ko‘ngul tuz o‘lsa, emas bok, bo‘lsa qiblang kaj.

Namoz-mo‘minning me‘roji ekan, qalbingni Allohga bog‘lab ibodat qilki, qiblang xato bo‘lgani bilan, qalbing to‘g‘ri bo‘lsa shu yetarli.

So‘zung chin o‘lsa, anga hojat dalil ermas:

Quyoshni ulki yorug‘ der, ne hojat anga hujaj!

Chin so‘zga hujjat ne darkor, quyoshni yorug‘ der ekan, buni dalillashga ne hojat?! Chin so‘z aytilganda dalil so‘ralmaydi. Quyoshga yorug‘ sifati berilar ekan, bunga inonmoq uchun unga boqmoq kifoya. Qur‘oni karimning 91-surasidagi ilk oyat quyoshga qasam bilan boshlanganligi sababli unga Shams nomi berilgan. Buning o‘ziga xos sabablari bor. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari sura tafsirini shunday bayon qiladi:” وَالشَّمْسِ وَضُحَاهَا. Quyosh bilan va uning ziyosi bilan qasam [“Shams” surasi]. Ushbu oyatda Alloh taolo quyosh va uning ziyosiga, undan chiqadigan quvvat, harorat, yog‘duga insonlar e‘tiborini qaratmoqda. Hajmi Yerdan 1 million 300 ming marta katta ekanligini mo‘min-u kofir bugun yaxshi biladi. Uning har kvadrat metri 84 ming ot kuchiga teng quvvat taratadi. Olimlar yana shuni aniqlashdiki, agar quyosh yerga taratib turadigan issiqlik biroz kamaysa, yer muzlab, yana bir oz ko‘paysa, yonib ketar ekan. Xo‘sh, quyoshning yerga bunchalik aniqlik bilan issiqlik uzatib turishini kim ta‘min etadi? Kofirlar bu ma‘lumotlarning barchasini tasdiqlaydi-yu, ammo ularni boshqarib turuvchi zot Alloh ekanligiga iymon keltirishmaydi [5]. Olamlarning yaratuvchisi Alloh ekan, bunga dalil so‘rash Quyoshning yorug‘ ekanligiga shubha qilish bilan teng. Aql egalari bunday gumrohlikka bormasliklari sabab, yuqoridagi baytning qalbi muhrlab qo‘yilgan kimsalarga qaratilganligi anglashiladi. Ularga ibrat olishlari uchun o‘lchovli umr, dunyo ne‘matlari in‘om etildi. Zero, butun olamni, quyoshni, uning shakli-yu taftini yaratgan, yerni atrofida aylantirib kecha va kunduzni in‘om etgan Haq taolo aziz va hakim zotdir.

Chu haq dediki, maal usr-yusr mujda sanga

Ne shiddat o‘lsa ayon qil talab so‘ngincha faraj.

Haq taolo senga “Har bir qiyinchilikdan keyin bir yengillik bor”ligini mujda qildi. Nima qiyinchilik bo‘lsa ham, hammasiga chidam ko‘rsat, shodlik talab qil.

Albatta qiyinchilik ketidan yengillik bor. Agar banda sabr bilan Allohga tavakkul qilsa, tanglik ortidan kenglik, mashaqqatdan so‘ng yengillik, albatta, keladi. Qur‘oni Karimda marhamat qilinganidek: “Albatta, mashaqqat ortidan osonlik bor” (“Sharh” surasi). Bu yerda mo‘minlar sabrga chaqirilib, musibat va g‘amlar vaqtincha ekani, hali oldinda yorug‘ kunlar kutib turgani yana bir bor ta‘kidlanmoqda. Hasan roziallohu anhu rivoyat qiladi: “Albatta, qiyinchilik ketidan yengillik bor” oyati nozil

bo'lganda, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Xursand bo'linglar, sizlarga yengillik keldi. Bitta mashaqqat ikki yengillikni zinhor yenga olmaydi", - dedilar (Ibn Jarir, Ibn Mardavayh va Abd ibn Humayd rivoyati). Bunday deyilishidan murod, bir oyat ketma-ket ikki marotaba takrorlanib kelgani uchundir. Insonning matonati kulfat kelganda sinaladi. Qiyinchilikka tushgan odam, bu holatim hech o'nglanmasa kerak, deb oh chekadi. Uning ortidan yechim berilishini aqli qabul qilsa-da, qalban o'zini o'nglab ololmaydi. Shu sababdan, yuqoridagi mujda yana bir daf'a eslatilmoqda. Zulmat ortida nur borligi aniq, baytda qiyin onlarda qilingan chidam va g'ayrat orqali shu yorug'likka chiqish xabari ham berilgan.

Navoiy, ista mazohirda chehrai maqsud,

Arab va gar chig'atoy, yo'qsa turkman-u xalaj.

Navoiy borliqda, jami zuhur qilgan har bir mazohirda Uning san'ati, tajalliysi mujassamligini ta'kidlab, har bir yuzda - xoh u arab bo'lsin yo chig'atoy yoki turkman yoxud xalaj – barchaning qiyofasida maqsud chehrasi – Alloh jamolini, Ma'shuqi azal siymosini ko'rishga chaqiradi. Bu bilan mutafakkir shoir Ma'shuqi Azall vasliga yetmoq, Allohning roziligini topmoq, uning fazli marhamatiga sazovor bo'lmoq, muhabbatini qozonmoq, bir so'z bilan aytganda, ikki olam saodatiga erishmoq uchun millat ayirmaslik, Alloh o'ziga nazargoh qilgan inson qalbini og'ritmaslik, har bir inson yuzida Uni ko'rib, aziz va mukarram qilib yaratgan Insonni qadrlash, hurmatini bajo keltirish, dillariga xushnudlik yetkazish, bir-birovga yorlik, do'stlik qilishga undaydi. Bu ayni paytda bag'rikenglik, baynalmilallik g'oyalarining ham shoirona talqinidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Alisher Navoiy yuqorida tahlilga tortilgan g'azalida dunyo ne'matlaridan nafsini jilovlab, faqr-u fano tariqida qalbini Allohga bog'lab, farz-u sunnatni mahkam tutib, Haq taolaga mustahkam iymon bilan hayot kechirib, g'am kelganda sabr, shodlik paytida shukr qilgan, irqi, millatidan qat'iy nazar, barchani birday ko'rib, inson qalbini Ka'ba kabi muqaddas bilib, insonni aziz tutgan, boshqalarga baxt ulashishda o'z baxtini ko'rgan kishilar oliy saodatga erishishini kuchli dalillar orqali go'zal badiiy libosda ifodalagan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi.- Toshkent: "O'zbekiston", 2015.
2. Navoiy, Alisher. Favoyid ul-kibar. 4-jild // To'la asarlar to'plami, 10 jildlik, - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
3. Navoiy asarlari lug'ati. (Nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). - Toshkent: 1972.
4. Mantiqut-tayr (nasriy bayon) Farididdin Attor, www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. Shayx Muqammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 4-juz. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2019.



SO'FI OLLOYOR IJODIDA KOMIL INSON TALQINI

Maftuna MUXANOVA,
Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojzin" asaridagi komil

inson talqiniga to'xtalib o'tiladi. Pir, murshid, murid, komillik tushunchalariga qisqacha ta'rif berilgan. Komil insonning So'fi Olloyorning talqinidagi sifatleri va xususiyatlari sanalgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается трактовка идеального мужчины в произведении Суфи Аллаяра «Сабот ул-ожизин». Кратко определены понятия пир, муршид, мюрид, совершенство. Перечислены качества и характеристики совершенного человека в интерпретации суфия Оллояра.

Abstract: This article focuses on the interpretation of the perfect man in the work "Sabot ul-Ojizin" by Sufi Olloyar. The concepts of pir, murshid, murid, perfection are briefly defined. The qualities and characteristics of a perfect person in the interpretation of Sufi Olloyar are listed.

Kalit so'zlar: piri komil, tasavvuf, komil inson, nafs.

Ключевые слова: Пир, Камил, мистика, совершенный человек, нафс.

Key words: piri kamil, mysticism, perfect human being, nafs.

Atoqli so'fiy shoir Bobo Tohir "Tasavvuf nima?" - degan savolga "Tasavvuf - o'limi yo'q hayot va hayoti bo'lmagan o'limdir, ya'ni nafsoniy-hayvoniy hayotda o'lmoq va insoniy hayotda yashamoq", - deya izoh beradi. Demakim, tasavvuf jism emas, ruhning yuksalajagi, Allohning roziligi yo'lida nafsoniy istaklaridan voz kechish uchun ahd qilib intilish lozim bo'lgan bir yo'ldir. Komil inson esa ana shu yo'lda o'zining muqaddas maqsadiga yetgan va buni boshqalarga ham targ'ib qilgan shaxsdir. O'z ummatlari uchun chin ma'noda ibrat va Alloh roziligiga yetishish yo'lida eng yaxshi yo'l boshlovchi bo'lgan komil inson Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam bo'lib, komillikning darajasi Payg'ambarimizga nisbatan belgilanadi.

Tasavvuf adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan, komil inson bo'lishga intilish g'oyalarini targ'ib qilgan ijodkorlardan biri So'fi Olloyordir. Sohinafas shoir o'zining "Sabot ul-ujizin" asarining oddiy xalq uchun yozilganligini, bu kitob faqatgina boshlang'ich ma'lumot bo'la olishini ta'kidlasa ham, asarning deyarli barcha boblarida komillikning turli sifatlariga alohida va batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, ijodkor nafsni yengish uchun safarga o'tlanilgan yo'lni shunday ta'riflaydi:

Ajab yo'ldir, aning poyoni yo'qdur,

Xatarlik yerlarining soni yo'qdur.

Ana shunday xavf-u xatarlarga to'la yo'l bo'lgani uchun ham insonga bu yo'lda "yo'l boshlag'uvchi piri" va "bir sohib karomat" lozim.

O'shal pireki, erning eri bo'lg'ay,

Tariqat beshasining sheri bo'lg'ay.

So'fi Olloyor piri ta'ma-yu kibrdan holi, kamtarlikni o'ziga eng go'zal libos qilgan, ilmi yuksak, ruhi boy, ma'naviyati eng go'zal axloq bilan ziynatlangan inson sifatida tasvirlaydi. Ammo shoir faqat piri komil bilan kifoyalanib qolmaydi. Shogirdning ham, ya'ni yo'lga o'tlangan, komil inson bo'lishni istagan tolibning ham ko'ngli ma'rifat va hidoyat nuridan ravshan bo'lmog'i lozim.

Bu ta'riflarga sodiq bo'lsa piring,

Va lekin bo'lmasa ravshan zamiring,

*Erur nuqson o'zingdin ko'rma ondin,
Bo'lur sa'y albatta, "pirman" degandin,
Piring farmonidin qilsang taxalluf,
Taassufdir, taassufdir, taassuf.*

Komil insonning go'zal axloqlaridan yana biri bu albatta, "qazog'a rozi va balog'a sabrli" bo'lmog'idir. Bu ikki xususiyatni o'zida mujassam etgan kishi hattoki ajdaho komida bo'lsa ham shukr qilishdan to'xtamaydi, boshida tegirmon toshi yurgizilsa ham tang ahvolga tushmaydi.

*Agar har kunda ichsa zahr ayog'in,
Suyuklik bandasi chatmas qabog'in.
Kishikim roziliq nominda bo'lsa,
Qilur shukr, ajdaho kominda bo'lsa.*

Shu tariqa ijodkor har bir bobda komil insonda jam bo'lishi zarur bo'lgan turfa xislatlarni sanaydi, atroflicha tushuntiradi va turli hikoyatlar yordamida misollar keltiradi. Umumiy mazmunda deyarli barcha qismlarda dunyoning o'tkinchiligi, nafsning istaklariga berilmaslik, Alloh taolo buyurgan yo'ldan og'ishmaslik haqidagi betakror va badiiy yuksak misralarni va fikrlarni ko'rish mumkin. Masalan, "Kamtarlik haqida" bobida shoir nafsiga murojaat qilib shunday deydi:

*Kel ey nafs, ochmag'il ko'z har qayona,
Yo'q ermish e'timod bu zamona.*

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joziki, So'fi Olloyor qalamiga mansub ushbu asar orqali tasavvufdagi bir qadar murakkab bo'lgan tushunchalarga xalqona, sodda va ravon tilda ishonarli dalillar va misollarga tayanib, yuksak badiiylik mezonlari asosida ta'rif berilgan. Mazkur kitobni joiz bo'lsa, komillik sari intilayotgan solik ruhning yo'riqnomasi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olloyor S. Sabot ul-ojizin. – T.: "Mehnat", 1991.
2. Rashid Zohid. "Ravoyih ur-rayhon"/ – Toshkent: Matbaachi, 2022. -576 b.
3. Asadov M. She'riyat, ma'rifat va kamolot talqini// Kitob dunyosi, 2023-yil 23-24-son.

KOMIL AVAZNING "SOZANDA" ASARI TARIXIY ROMAN SIFATIDA

**Muhlisa BAXTIYOROVA,
UrDU 1-bosqich magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Komil Avaz qalamiga mansub "Sozanda" romani tahlilga tortilgan. Asar sujeti, qahramonlar xarakteri, romanning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy timsollar, asarning badiiy qiymati, sozandalar va oddiy xalq hayoti bilan bog'liq lavhalar tadqiq qilingan. Asarda foydalanilgan hikmatlar, naqlar, xalqona iboralar mazmunini ochib berishga harakat qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируется роман «Созанда» писателя Камиля Аваза. Исследованы сюжет произведения, характеры героев, своеобразие романа, художественная символика, художественная ценность произведения, сцены, связанные с жизнью музыкантов и простых людей. Сделана попытка

раскрыть использованные в произведении пословицы, поговорки, народные обороты, писательское мастерство, общую идею и содержание произведения.

Annotation: This article analyzes the novel “Sozanda” written by writer Kamil Avaz. The plot of the work, the character of the characters, the unique features of the novel, artistic symbols, the artistic value of the work, the scenes related to the musicians and ordinary people's life were researched. An attempt was made to reveal the proverbs, sayings, folk phrases, writer's skill, the general idea and content of the work used in the work.

Kalit so‘zlar: roman, sozanda, xarakter, Xonliklar davri, sho‘ro hukumati, qatag‘onlar.

Ключевые слова: роман, музыкант, ханский период, советская власть, репрессии.

Key words: novel, musician, character, Khanate era, Soviet power, repressions.

Milliy istiqlol davri badiiy adabiyotimizning na‘munalaridan biri bo‘lmish Komil Avazning “Sozanda” romani XIX asarning oxirgi choragi va XX asrning 40-yillari voqealarini gavdalantirgan. Romanda Xorazm xalqining yarim asrdan oshiq muddatni qamrab olgan hayoti, davlat va xalq taqdiri real tarixiy shaxslar va badiiy to‘qima obrazlarning uzviy bog‘liqligida aks ettiriladi.

Darhaqiqat, yozuvchi uch tarixiy davrdagi xalq hayotini yaxlit asar holda tasvirlaydi. Muhammad Rahimxon soniy – Feruz davridagi adabiyot va san‘atning gullab yashnashi, Isfandiyorxon davri talotumlari, Sho‘rolarning yolg‘on “Hurriyat” niqobidagi bosqinchilik yurishlari oqibatida kelib chiqqan siyosiy vaziyatni o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantirishga harakat qiladi.

Asarda bosh qahramonlar Qutlug‘murod, otasi Sultonmurod, onasi Oliya, rafiqasi Qamarsulton, ustoz Abdirim bangilar asosiy voqealar fonida turadi. Asarning asosiy sujetini Qutlug‘murodning Qamarsulton ismli sarrof qiziga ko‘ngil qo‘yishi va unga yetishish yo‘lidagi oldiga chiqqan to‘siqlar, endi muhabbatiga erishdim deganda Isfandiyorxonning biryoqlama siyosati tufayli vujudga kelgan qahatchilik oqibatida ko‘plab kishilar hayoti kabi ularning ham oilasidagi nochorlik, so‘ngra Sovet imperiyasi yuvundixo‘rlarining chaquvi natijasida asl iste‘dod egalari qatori qatag‘onga yuz tutishi, so‘ngra “nomini oqlash uchun” 2-jahon urushiga safarbar etilib urushda mardonavor qurbon bo‘lishi voqealari tashkil etadi.

Qutlug‘murod bolalik davridan sozga, so‘zga muhabbat bilan ulg‘ayadi. Tug‘ma iste‘dod yuragida sozandalikka bo‘lgan ulkan qiziqish va ishtiyoqni alangalatgan yosh Qutlug‘murod otasi sozanda bo‘lishiga qarshiligiga qaramasdan Abdirim bangiga(sozanda va duradgor) shogird tushib, kasb sirlarini o‘rgana boshlaydi. Bir yigitga qirq hunar oz deganlaridek po‘stindo‘zlik va kurash hunarlarini ham o‘zlashtirib hunarli, pahlavon yigit bo‘lib yetishadi. Ilohiy iste‘dod, oq ko‘ngillik, dovyuraklik, mehnatkashlik, ustozlarga sadoqat Qutlug‘murod xarakterining asosiy xususiyatlarini tashkil etadi.

Asardagi yana bir muhim obraz Abdirim bangidir. U asl inson, mahoratli sozanda, adolat va haqiqat kurashchisi sifatida tasvirlangan. Boshqa qah-ramonlardan yaqqol

ajralib turadi. Sho‘rolar siyosatining chirkin va manfur yuzini ko‘ra bilgan ongi uyg‘oq kishilar timsoli. U uzoqni o‘ylab ish ko‘ruvchi, shogirdlariga mehribon va g‘amxo‘r ustozdir. Albatta xonliklar davrining bunday chin insonlari sho‘rolar davrida xush ko‘rilmagan va qatag‘on qurboni bo‘lishgan.

Adib sozandalik kasbi sirlari, mashaqqatlari, sozandalar hayotini tasvirlarkan, mahoratli san‘atkorlar bilan bir qatorda hamma zamonlarda ham iste’dodsiz g‘alamislar bo‘lgani va bunday olchoq, ta‘magir, xasadgo‘y, iste’dodli san‘atkorlar bilan halol raqobatlasha olmay zimdan, yashirin chog‘ qaziydigan, hatto qotillikdan ham qaytmaydigan qo‘shiqchilarning umumiy timsolini Matmurod hofiz – Matti murrik xarakteri orqali mufassal tasvirlaydi. U xiylagarlik va makkorlikda tengi yo‘q. Yosh san‘atkorlarni ustozlariga qarshi qayrashga, hatto qahramonimiz Qutlug‘murodni yo‘ldan urishga harakat qiladi. Ammo ustoziga sadoqat va mehr iplari bilan bog‘langan Qutlug‘murod unga qo‘shilmaydi. Niyatiga yetolmagan olchoq axiyri uning taomiga zahar solishga muvaffaq bo‘ladi. Zahar ta’siridan Tangri inoyati va tabib sharofati bilan halos bo‘lgan Qutlug‘murod Matti murrik o‘limida nohaq ayblanib bir muddat zindonband qilinishi Qutlug‘murod xarakterining o‘sib borishida muhim rol o‘ynaydi.

Yozuvchi Muhammad Rahimxon soniy – Feruz, uning ayonlari, hokimlar, ahli din vakillari bilan bo‘g‘liq lavhalar orqali o‘sha davr Xiva Xonligi madaniy hayoti haqida bir qadar tasavvur beradi. Feruz odil hukmdor, ilm-fan, adabiyot va san‘at rivoji uchun jonkuyar podshoh, oqil kishilar va ahli din fikri bilan hisoblashuvchi, iste’dodli kishilarga qo‘lini uzatuvchi rahnamo sifatida tasvirlanadi. Bundan tashqari uning nodir kitoblar to‘platgani, obodonchilik ishlari, san‘atimiz rivoji yo‘lida qilgan harakatlari, xususan, “Xorazm maqomlari”ni saqlab qolish yo‘lidagi sa‘ylari, o‘lkamizga ilk kinematografiyani olib kiritgani tarixiy manbalardan olingan ma’lumotlar bilan dalillangan. Shuningdek, Isfandiyorxonning otasi siyosatiga qarshi ishlari, uning hukmdorlik davrida nafaqat oddiy xalq, balki, usta hunarmandlar uchun ham ahvol og‘irlashgani, shoirlar, sozandalar, hofizlar, ahli ulamo qadrsizlangani haqqoniy tasvirlangan. Ammo xalqimizning sozga mehri tufayli Xorazm qo‘shiqchilik an‘analari unutilmay saqlanib kelgani, hatto sho‘rolar davrida ham milliy mumtoz qo‘shiqchiligimizni saqlab qolish yo‘lida harakatlar davom etgani kishini quvontiradi.

Romanda uchinchi tarixiy qatlam – sho‘rolarning, puch va’dalar orqali yurtimizni egallagan qizil imperiya bosqinchilarining aldov usullari, xalqimiz boshiga solgan jabr-zulmlari, xalqimizning asl kishilarini, diniy rahnamolarini, nodir insonlarini boshiga tushgan og‘ir kunlari tasvirlanadi. Qutlug‘murod ham ana shunday qatag‘on siyosatidan chetda qolmaydi. Nima gunoh qilganini o‘zi ham bilmagan minglab insonlar kabi sovetlarning dastlabki yillardagi va‘da va uraaa- uralariga ishonib sho‘rolarga xizmat qilayotgan, xatto otasi bilan birga rafiqasi Qamarsultonni paranjisini yoqishga davlat etganligiga qaramay, arzimagan bahonalar bilan millatchilikda ayblanib, uzoq Sibirga surgun qilinadi. Qutlug‘murod urushda vatanidan minglab kilometr o‘lislarda yurtida bo‘layotgan ahvol, oilasi yuz tutgan parokandalikdan bexabar jon beradi. Asar iste’dodli insonlarning fojeaga yuz tutgan ayanchli taqdiri bilan tugallanadi. Biroq, xalqimiz shunday og‘ir kunlarda ham kuy-

navoga qalban bog'langani, hayot mashaqqatlarini soz va so'z yordamida mardonavor qarshilangani o'quvchi ongida unga nisbatan ehtrom uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ramanda uch tarixiy davr, Muhammad Rahimxon – Feruz, Isfandiyorxon va sho'rolar davri voqealari qalamga olingan. Uch davrning san'at, xususan, sozandalikka uch xil munosabati tasvirlangan. Muhammad Rahimxon davrida rivoj topgan va sayqallangan qo'shiqchilik san'ati, Isfandiyorxon davriga kelib qadrsizlanishi, sho'rolar davrida esa o'z mafkuraviy g'oyalari xizmat qildirishga urinishlari tasvirlangan. Sho'rolar siyosatining qo'rqqoligini qarangi, xonlik insonlarining qo'shiqlari qaridagi ma'nolar uyoqda tursin hatto oddiy insonlarning ismlaridan ham qutilishga urinishadi.

Yozuvchi romanda qadim urf-odat va an'analarimizga, xalq o'yinlariga, hikmat va naqlarga ko'p bora murojaat qiladi. Xalqona iboralardan kerakli o'rinlarda ustalik bilan foydalanadi. Xiva xonligi va undagi katta-kichik hududlar, o'ramlar va ko'chalar, bozor va rastalar haqida, turli hunarlar va kasblar haqida, xalqning yashash tarzi, moddiy ahvoli, urf-odatlar, kiyinish uslubi haqida tasavvur beradi. Asardagi qahramonlar ruhiyatini va dunyoqarash tarzini ochishda sheva imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Asarning yozilgan yillariga diqqat qaratsak 1995-2011-yillar oralig'ini tashkil etadi. Bundan ko'rinadiki, adib asarni yozishga puxta kirishgan, tarixiy ma'lumotlar, sozandalikka xos sirlarni o'rgangan. Asarning badiiy qiymati shundan iboratki, o'quvchini nafaqat sozandalik va sozandalar hayoti, balki, mumtoz na'volar og'ushida yaqin o'tmishdagi xalq hayoti bilan tanishtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'onov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018
2. Qo'shjanov M. Mohiyat va badiiy. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977
3. Mahkam Mahmud. Sozanda–xalq taqdiri haqida roman. –T.: 2012
4. Q.Yo'ldoshev. Roman va bugungi kun romanchiligi. Sharq yulduzi, 2011. -4.
5. Yakubov.I.A. Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi. –T.: 2018.

ABDULLA QAHHOR DRAMALARIDA XX ASR IJTIMOYIY MUAMMOLARINING BADIY TALQINI

(“Shohi so'zana” dramasi misolida)

Tamara HAITBOYEVA,

UrDU magistranti

E-mail: thayitboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Qahhor dramalarining yaratilish jarayoni, unga ta'sir qilgan omillar xususida so'z boradi. Shuningdek, asarga o'z vaqtida tanqidchilarning bergan bahosi o'rganilib, bugungi nuqtayi nazardan tahlil qilishga harakat qilingan. Asarning ma'no-mazmunida emas, balki asarning o'zi yaratilish jarayonida ijtimoiy muammolarning roli haqida fikr yuritilgan.

Abstract: The article talks about the process of creation of Abdulla Qahhor's dramas, the factors that influenced it. Also, the assessment of critics at the time was studied and an attempt was made to analyze it from today's point of view. Not in the

meaning of the work, but in the process of creation of the work itself, the role of social problems is considered.

Аннотация: В статье рассказывается о процессе создания драм Абдуллы Каххора, факторах, повлиявших на него. Также была изучена оценка критиков того времени и предпринята попытка проанализировать ее с сегодняшней точки зрения. Не в смысле произведения, а в процессе создания самого произведения рассматривается роль социальных проблем.

Kalit so‘zlar: Obraz, drama, ocherk, shaxsiy manfaat, konfliktsizlik nazariyasi, ijtimoiy muammo, ishchi sinfi, hikoya, tipik obraz, kechinma.

Key words: Image, drama, essay, personal interest, non-conflict theory, social problem, working class, story, typical image, experience.

Ключевые слова: Образ, драма, эссе, личный интерес, теория бесконфликтности, социальная проблема, рабочий класс, рассказ, типичный образ, опыт.

Biz bilamizki, har bir asar yaratilishi jarayonida bevosita ijodkor shaxsiyati, ichki “men”i, shuningdek, o‘sha davr voqealari ham ta’sir qiladi. Natijada, bular asarda u yoki, bu ko‘rinishda aks etadi. Chunki ijodkor o‘zi ko‘rib turgan voqealarni va his qilgan ichki kechinmalarini yanada badiiyashtirish orqali kitobxonni zeriktirmasdan, me’dasiga tegmasdan yetkazib berishga harakat qiladi. Jumladan, Abdulla Qahhor ijodi ham bundan mustasno emas. Abdulla Qahhorning hikoyalarini sanaymizmi (“O‘jar”, “Ming bir jon”, “To‘yda aza” va hakozi) yoki qissalarinimi (“O‘tmishdan ertaklar”, “Sinchalak”, “Muhabbat” kabilari) barchasida ijodkor o‘zi ko‘rgan va yashagan davrni qayta jonlantiradi. O‘z davri uchun tipik obrazlarni gavdalantiradi. Shuningdek, bu obrazlar vositasida ijtimoiy muammolarni yoritadi va ijodkor o‘z badiiy niyatiga erishish yo‘li sifatida turli janrlardan samarali foydalanadi. Hikoya, qissa, roman va drama janrlarida barakali ijod qilgan. Darhaqiqat, Abdulla Qahhor ijodida hikoya janri alohida mavqega ega, biroq ijodkor drama janrida 4 ta asar (“Shohi so‘zana”, “Tobutdan tovush”, “Og‘riq tishlar”, “Ayajonlarim” kabilarni) yaratgan bo‘lsa-da, bu asarlar sahnada qo‘yilishi bilanoq juda ko‘plab tomoshabinlarning qalbini zabt eta olgan.

XX asrning o‘rtalariga kelib Mirzacho‘lni o‘zlashtirish ishlari avj olgan palla bo‘lib, Abdulla Qahhor ham u yerda 3 oy yashab keladi. Mana shu 3 oylik hayot mobaynida “Mirzacho‘lda kuz”, “So‘z G‘anisherga”, “Keling, oshna, cho‘l quvlaymiz” kabi ocherklar dunyo yuzini ko‘rdi. Albatta, bu ocherklar hali kichik zuvalachalar bo‘lib, asosiy yirik asar sifatida “Shohi so‘zana” yoxud “Yangi yer” komediyasi bo‘y ko‘rsatdi. Asar 1947-yili “Yangi yer” nomi ostida yozib tugatildi. Keyinchalik sahna talablariga moslashtirib, bir muncha bo‘sh joylari qayta ishlanib, 1952-yil “Shohi so‘zana” nomi ostida mukammallashtirildi. “Yangi yer” (“Shohi so‘zana”) komediyasini Abdulla Qahhorning o‘sha paytgacha va undan keyin yozilgan hamma yirik asarlari ichida eng omadlisi desa bo‘ladi. Chunki bu komediya adolatsiz, to‘qmoqli tanqid xurujlariga deyarlik yo‘liqmad, aksincha, u dunyoga kelishi bilanoq, jamoatchilikning iliq munosabatini ko‘rdi, keyinroq esa asarni jahonga tanilgan

san'atkorlar va adabiyotchilar qo'llab-quvvatlagach, unga tosh otishni mo'ljallaganlar ham ancha o'ylanib qoldi"[1:193]. Pirmqul Qodirov Abdulla Qahhorning urushdan keyin yozilgan asarlari ustida ishlab, 1955-yilda himoya qilgan kandidatlik dissertatsiyasida bu asarni "qahramonlik komediyasi" deb belgilashni taklif etadi. Sabab sifatida esa, o'z davri uchun qahramon bo'la oladigan insonlar xarakteri ochib berilishini keltirgan. Bu davrdagi qahramonlarning qiyofasi esa, albatta, ishda jonbozlik ko'rsatayotgan, Mirzacho'lni o'zlashtirishga qattiq bel bog'lagan ishchilar qatlami edi. Xolnisa va Hamrobuvi kabi bosh obrazlar orqali XX asr o'rtalarida yashagan, siyosiy targ'ibotlar ta'sirida ulg'aygan va ijtimoiy manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun ko'radigan fidoiy ishchilar namoyon bo'ladi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, Ozod Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda asarda konfliktsizlik nazariyasi mavjud. Bu davrda konfliktsiz asarlar yaratilib, "Yangi yer" dramasini ham chetlab o'tmagan.

"Abdulla Qahhor dramaturgiyasining to'rtta xususiyati va manbai bor. Bu – dramaturgning hayotga murojaat qilishi, dramaturgiyaga hikoyanavislik orqali kirib kelishi, xalq teatrining ilg'or an'analaridan unumli foydalanishi va nihoyat, Gogol asarlari, ayniqsa, "Revizor" komediyasining tarjimasini ustida ishlash jarayonida to'plagan tajribasidir" [2:5].

Abdulla Qahhorning ushbu "Shohi so'zana" asari sahna yuzini ko'rishi bilanoq yozuvchi tomonidan qayta-qayta sayqallanib boradi. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, asarning ma'no-mazmuni, aks etgan sujet chiziqi va voqealar rivoji XX asr ijtimoiy muammolarining ta'sirida yuzaga kelgan. Ya'ni asarning badiiyatida emas, uning yaratilish jarayonida ijtimoiy muammolarning ta'siri muhim rol o'ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati: Monografiya. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
2. Rahimjonov I.I. Abdulla Qahhor va Hamza teatri. – T.: O'zbekiston KP MKning nashriyoti, 1971.
3. Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor [Esse]. – T.: "Yosh gvardiya", 1988.



QASIDA GENEZISIGA DOIR

Sanamjon MASHARIPOVA,
Urganch davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek she'riyatida qasidaning paydo bo'lish tarixiga oid fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация: В статье изложены размышления по поводу истории появления касыды в узбекской поэзии.

Abstract: This article describes the opinions on the history of the qasida in Uzbek poetry. **Kalit so'zlar:** qasida, "Funun ul-balog'a", qo'shug', madh, lirik tur, "Devonu lug'otit-turk", arab adabiyoti.

Ключевые слова: касыда, "Фунун ул-балоба", стихотворение, гимн,

лирический тип, «Словарь Девону-Турецкий», арабская литература.

Keywords: qasida, “Funun ul-balog‘a”, qo‘shug‘, praise, lyrical type, “Devonu lug‘otit-turk”, literature of Arabic.

Qasida Sharq adabiyoti, jumladan, o‘zbek she‘riyatida ham keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, o‘zining maxsus qonuniyatlari va rivojlanish tarixiga ega.

Qasida (قصيده) arabcha qasd (قصد) so‘zidan olingan bo‘lib, “jazm qilingan qat‘iy niyat” [5:527-bet]. ma‘nosini anglatadi. Adabiy termin sifatida lirik turning g‘azal kabi qofiyalanuvchi (a-a, b-a, d-a...), lekin undan farqli o‘laroq hajm jihatidan cheklanmagan, unda taxallus keltirish shart hisoblanmagan [4:384-bet]. janrini bildiradi. Manbalarda qasida haqida gap ketganda biror shaxs (shoh, arbob, qahramon), biror muhim voqea, tabiat va shu kabilarni e‘tirof etish maqsadida, odatda, ko‘tarinki, tantanavor uslubda, baland pardalarda yoziladigan she‘r ekanligi qayd etiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida qasida janri poetikasi va tarixini o‘rganish sohasida birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Bu janrning qonuniyatlari, uning ba‘zi o‘zbek shoirlari ijodida tutgan o‘rni xususida monografiya, darslik va qo‘llanmalarda, shuningdek, to‘plam hamda ilmiy-adabiy maqolalarda fikr-mulohazalar bayon etilgan. Bular sirasida olimlardan A.Hojiahmedov, O.Karimov, I.Sulton, E.Talabov, R.Orzibekov, N.Jumaxo‘ja, H.Homidiy, N.Raxmonovlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo qasida janri xorazmlik shoirlar ijodida alohida o‘rganilgan emas.

Qasida janrining genezisi haqida turli manbalarda turlicha fikrlar mavjud. Jumladan, bu janr haqidagi ilk ma‘lumot XV asrda yashagan yirik adabiyotshunos va shoir Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” (“Balog‘at ilmlari”) asarida keltirilgan. Asar besh qismdan iborat bo‘lib, uning “Al-fannul-avval fi aqsomi ash-she‘r” qismida qasida she‘r nav‘laridan biri (nav‘ deganda janr nazarda tutilgan) sifatida ko‘rsatilib, quyidagicha ta‘riflanadi: “...*Qasidaning aqalli yigirma yetti bo‘lur yo andin o‘ksukrak va aksari muayyan ermas. Har necha qofiya dast bersa ayturlar. Va har ne maqsud bo‘lsa bayong‘a keltururlar...*” [1:32-33-bet]. Hamda muallif qasidaning janr xususiyatlarini sanarkan, unda mamduh (madh qilinuvchi, maqtaluvchi)ning adolat-u insofi, shijoat-u saxovati zikr qilinishi, agar shoirning maqsudi, ya‘ni istagi bo‘lsa, madhdan keyin bayon qilishi lozimligini ta‘kidlaydi, shuningdek, bu janr uchun Amir Mu‘izzi, Rashididdin Vatvot, Xoqoniy, Sayfiddin Isparangiy, Xoja Kamol, mavlono Lutfiy hamda Sakkokiy kabi shoirlar ijodidan namunalari keltiradi. Ammo shu o‘rinda savol tug‘iladi: qasida haqidagi ilk ma‘lumot XV asrga oid bo‘lsa, unda o‘zbek adabiyotida uning ilk ildizlari qachonga borib taqaladi?

Turkiy xalqlar folklorida qasidaning eng qadimgi namunalari bizgacha tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning XI asrning ikkinchi yarmida yozilgan “Devonu lug‘otit-turk” asari orqali yetib kelgan. Bunda olim “qo‘shug‘” atamasini “she‘r, qasida, qo‘shiq” ma‘nosida qo‘llaydi:

*Turkan qatun qutinga
Tegur mendin qo‘shug‘;*

*Ayg'il sizing tabug'chi,
O'tnur yangi tabug'.*

Ma'nosi: Malika (shoh) xotinga mendan maqtov, qasida (qo'shiq) yetkur va xodimingiz yangi xizmat bilan yo'llanadi, deb ayt [3:357-bet]. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida ma'no va mazmun jihatdan madh qasidalarga mos keluvchi "alqish" janri ham mavjud bo'lgan. Buni ham "Devonu lug'otit-turk" asarida uchratamiz: "alqish (القش) – olqish, maqtash; duo qilmoq; tabrik; birovning yaxshi xislatlarini eslash" [3:123-bet]. "Devonu lug'otit-turk" asarida saqlangan bir qahramonlik dostonining muqaddimasida "Tangri alqishi" berilganligi ham buni tasdiqlaydi. "Devon"ni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilgan olimlarning fikricha, undagi she'riy parchalar tarixan islomgacha bo'lgan davrlarga mansubdir. Bu haqda "Devon"ni o'zbek tiliga tarjima qilib, nashrga tayyorlagan olim S.Mutallibov shunday deydi: "Devon"da sitata o'rinda keltirilgan maqola va adabiy parchalar qadimgi adabiy janrlarning namunasi sifatida folklor va adabiyot tarixi uchun behad muhimdir. Undagi adabiy parchalar bir butun asar holida berilmagan bo'lsa ham, Mahmud Koshg'ariyning bu parchalar izohi ustidagi ko'rsatmalari, u parchalar qandaydir biror qasida, qo'shiq, dostonlarning bo'limi ekanidan dalolat beradi...Shuni ham aytish kerakki, devonda berilgan adabiy parchalar yolg'iz XI asr adabiyotidagina namuna bo'lmay, shu bilan birga, ularning katta bir qismi juda uzoq o'tmish davrlar mahsulidir" [3:33-34-bet]. Demak, mavjud yozma manbalar qasida turkiy xalqlar adabiyotida qadim tarixga ega ekanligini to'la tasdiqlaydi. Bundan tashqari, XX asr boshidagi o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotining yetakchi siymolaridan biri Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" (Adabiyot muallimlari ham havasliolari uchun qo'llanma) asarida ham qasidaning janr qonuniyatlari haqida fikrlar mavjud: "G'azal yo'sunida tuzulib, o'n iki baytdan ortuq bo'lg'an tizmalarg'a qasida deyiladi. Qasida g'azaldan kengrakdir. Maxtashlar, maxtanishlar, tabiat tasvirlari, axloqiy fikrlar qasida yo'sunli aytiladi. Bizning o'zbek-chig'atoy adabiyotimizda qasida yo'li judayam kengaymagan, chiroylik o'raklari ozdir"[2:39-bet]. Ammo risolada bu janrning rivojlanish tarixiga doir fikrlarni uchratmaymiz. "Klassik adabiyot janrlari" silsilasida chop etilgan "Qasida" to'plamining muallifi, adabiyotshunos olim Eminjon Talabov o'zbek qasidasining manbalaridan biri sifatida arab qasidachiligi fanini ko'rsatib, bunga sabab sifatida fath etilgan o'lkalarga islom ko'magida faqatgina arab tili emas, balki arab adabiyoti va adabiy ijodning an'anaviy shakllari ham kirib kelganini, arabiynavis shoirlar o'z ona tillarida arab traditsion usullarida ijod qilishni boshlab berganliklarini, natijada arab poetikasi an'analari, jumladan, qasida yozish va aruzning o'zi ham mahalliy xalqlar adabiyotlariga kirib kelganini ta'kidlaydi. Olim o'z fikrlarini davom ettirib, o'zbek qasidasining paydo bo'lishi borasida quyidagi fikrda to'xtaladi: "O'zbek qasidasining janr sifatida tug'ilishi va kamolotida birlamchi va belgilovchi manba – bu qadimgi turk poeziyasining "qo'nug'" janridir. Qo'nug'dan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk"ida keltirilgan parchalar buning isbotidir, shunga ko'ra, qasidaga kelgindi janr sifatida qarash kaltabinlik, albatta. Uning unsurlari she'riyatimiz go'dakligida allalangan beshiklardandir"[7:5-6-bet]. Ammo muallif shu o'rinda xatolikka yo'l qo'ygan ko'rinadi, ya'ni "Devon"ning

1960-yilgi nashriga yuzlanadik bo‘lsak, asarda “she’r, qasida, qo‘shiq” ma’nosida qo‘nug‘ emas, qo‘shug‘ (قشغ) janri keltirilgan. Adabiyotshunos olim, professor N.Rahmonov ham turkiy adabiyotda qasidaning shakllanishida “qo‘shug‘” janri asos bo‘lib xizmat qilganligini ta’kidlaydi: “Har qanday janrning har bir xalq adabiyotida o‘ziga xos shakllanish tarixi mavjud. Qasida ham turkiy adabiyotga o‘z-o‘zidan kirib kelgani yo‘q. Uning ildizlari, avvalo, turkiy adabiyotning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk” asarida “qo‘shug‘” atamasini “she’r”, “qasida”, “qo‘shiq” sifatida ishlatganligi ma’lum” [6:527-528-bet]. Aslini olib qaraganda, qasidalarining asosiy mazmun-mohiyatida mashhur kishilarni madh etish yotadi. Masalan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni qoraxoniylar hukmdorlaridan bo‘lgan Tavg‘ach Bug‘raxonga, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari Dod Sipohsolorbekka, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si Oltin O‘rda xoni Jonibekxonning Sirdaryo muzofotidagi hukmdorlaridan biri Muhammad Xo‘jabekka bag‘ishlangan va shu hukmdorlar madh etilgan hamda “ular da turkiy adabiyotdagi qadimgi qasida hamda fors va arab adabiyoti orqali kirib kelgan qasida janrining xususiyatlari namoyon bo‘lgan madh”[8:13-bet].ni kuzatishimiz mumkin. Binobarin, “Qutadg‘u bilig”ning Bug‘raxonga doir madh qismi an’anaviy qasidalar dan masnaviyda yozilgani bilan farqlansa ham, unda nasib qismining mavjudligi turkiy qasidalarining rivojida alohida o‘rin tutadi. Shunday qilib, “qasida islomdan oldingi adabiyotda madh ko‘rinishida boshqa janrlar tarkibida yashadi”[6:531-bet], keyinchalik arab qasidachiligi va fors adabiyoti ta’sirida qasidaning tarkibiy qismlari shakllandi va mavzu doirasi kengayib, XIV-XV asrlarga kelib janr sifatida o‘zining takomiliga erishdi.

Qasida janrining go‘zal namunalarini xorazmlik shoirlar ijodida ham uchratishimiz mumkin, jumladan, Muhammad Rizo Ogahiy, Munis Xorazmiy, Muhammad Yusufbek Bayoniy, Rojij Xorazmiy, Komil Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Avaz O‘tar hamda Ahmad Tabibiy kabi ijodkorlar o‘z devonlari va asarlariga mumtoz janrlar qatorida qasidani ham kiritib, bu janrning takomiliga munosib hissa qo‘shishgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek adabiyotida qasida janrining shakllanishida xalq ijodiyotidagi qo‘shug‘ janri tamal toshini qo‘ygan, ammo uning keyingi rivojida arab adabiyotining ta’siri mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Taroziy. “Funun ul-balog‘a”. Toshkent, 1996, 32-33.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Toshkent, 2009, 39.
3. Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘otit-turk”. 3 tomlik. 1-tom. Toshkent, 1960, 33-34, 357.
4. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, 2013, 384.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. II jild. Toshkent, 2003, 527.
6. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2017, 527-528, 531.
7. Talabov E. Qasida. To‘plam. Toshkent, 1990, 5-6.
8. Xasanova M. XV asr turkiy she’riyatida qasida janri: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2018, 13.



Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir va nosir Fozil Zohidning hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье собрана информация о жизни и творчестве поэта и прозаика Фазиля Захида.

Abstract: This article contains information about the life and work of the poet and prose writer Fazil Zahid.

Kalit soʻzlar: XX asr, gazeta, nazm, nasr

Ключевые слова: XX век, газета, стихотворение, проза.

Key words: 20 th century, newspaper, poem, prose

Xorazm diyori juda qadim-qadimdan jahonning madaniyat, ilm-fan o'choqlaridan biri bo'lib, bu muqaddas diyorda dunyo ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shgan minglab allomalar yashab, ijod qilgan. Xorazm vohasining Gurlan tumanida nomi saqlanib qolgan avliyolar qabristonlari, Muhammad Sobir Xorazmiy, Shayx Hasan Basra, Fozil va Zohid Oxundiy, Ismoiy eshon kabi tabarruk insonlar yashab o'tgan. Azaldan shoir va fozillar, xalq baxshilari, ulug' allomalar, davlat va jamoat arboblari, hofiz va yozuvchilar yetishib chiqqan. Adabiyot doimo insonlarni ezgulik sari yetaklagan va bu adabiyot ko'p yillik va o'chmas tarixga ega. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Gurlan yurtidan shoir So'fi, Oqil, Ziyrakiy, Pur Komil, Omon Matjon, Ne'mat Solayev, Fozil Zohidov, Ibrohim Yusupov, Mahmud Rajab, Nasiba Jumatova, Rashid Zohidov, Jumanazar Nurummat, Umid Bekmuhammad kabi ijodkorlarning adabiy muhitda o'z so'z va o'rinlari bor. Davrlar sinovida sayqallanib, bugungi kitobxonlarga yetib kelayotgan chinakan adabiy durdonalar juda qadrlidir. Davr va adabiyot munosabati doimo murakkab muammolardan biri bo'lgan. Chunki davr doim harakatda, o'zgarish uchun intilsa, asl adabiyot esa barqarorlikka, uzoq davr yashashga intiladi. "Zamonda turib zamoni ko'rish qiyin, uning biror jihatini baholash esa yanada mushkul. Shuning uchun istiqlol davri adabiyoti, unga xos belgilar haqida gapirish g'oyat mas'uliyatlidir." [1]. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshevning bu fikrlarining isboti o'laroq, o'z zamonida munosib baholanmagan Fozil Zohid hayotiga bir nazar tashlasak.

Fozil Zohid nomi bugun ko'pchilik adabiyot va diniy-ma'rifiy kitoblar muxlislariga yaxshi tanishdir. U islomiy ahkomlarning donishmandir. Umrining ko'p qismini ilm tarqatishga, jonfido targ'ibotchi sifatida komillik sari intilgan zabardast shoir va nosirlikka bag'ishladi. XX asrda tavallud topib, "Komillik kasb etgan fozil inson", "ming oylik" hayotini mazmunli va manfaatli ilm ulashish bilan kechirgan fozil inson-Foziljon hoji ota Zohidjon eshon o'g'li haqida so'z yuritish biz yoshlar uchun mas'uliyatli ekanligini anglamoqdamiz. Fozil Zohidni iymonni asrash qo'lida cho'g'ni asrashdek zamonda yashab, qo'rqmasdan ijod qilgan kaknusmisol qayta tirilgan ijodkorlardan biri deya olamiz. "Fozil Zohid 1926-yilda Gurlanning Eshimjaron

qishlog'ida tug'ilgan."[2]. Fozil Zohidning bolalik va yoshlik yillari mamlakatdagi behalovatlik, alg'ov-dalg'ov davrlarga to'g'ri kelib, hatto fojiali voqealar bilan kechgan. Hayot yo'li birday mashaqqatli, shoir shunday eslaydi: " Bolaligim o'sha davrda mamlakatda sodir bo'lgan keskin ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, shu yo'ldagi xatoliklar, xunrezliklar, qonunsizliklar, odamning qadri chivinchga bo'lmagan pallaga to'g'ri keldi"[3]. Bobosi Ibrohim eshon, tariqat ilmining piri, faqirul haqir Hazrat Ibrohim eshon Rahimatullohu alayh deb atalardilar. Bobosining otasi ham eshonzoda bo'lgan. Gurlan bekligida muftiylik vazifasini bajarganlar. Ibrohim eshonning ikki o'g'li, biri Zohid (shoirning otasi), ikkinchisi Olimohun eshon bo'lgan. 1929-1930-yillarda sovet hukumati yer egalari va din ahllarini sinfiy dushman sifatida yoppasiga tugatishga kirishgan va shoirning barcha mol-mulklarini musodara qilishgan. O'z uylaridan chiqib ketishga majbur bo'lishgan. Ular Amudaryoning narigi tomoni-Shabbozning Biybozor ovulida yashovchi O'razmat shayx uyidan panohtopishgan. U yerga ham ta'qib qilib borib, otasini qamoqqa olinib, surgun qilingan. Ammo uzoq vaqt o'tmasdan xastalanib, vafot etgan. Zangiota qabristoniga dafn etilgan. Oradan ikki yil o'tib, bobosi ham bandalikni bajo keltirgan. Eshonzoda deya tengqur bolalardan ajralib maktabdan haydaldan, onasi, buvisi Odilposhsha momo va singlisi Sharifa bilan qishloqma-qishloq ko'chib yurgan o'n yoshli bolakayning hayotida tubdan o'zgarishlar bo'ldi: onasi amakisining da'vati bilan rais etib saylangan dehqon yigit Erjon Qanatovga turmushga chiqishi, singlisi Sharifaning qazo qilishi, o'gay otasi uni qishloqda ochilgan boshlang'ich maktabga o'qishga berishi kabi. Otasi maktabda o'qishi uchun ism-familiyasini o'zgartirib, Fayzulla Erjonov deb yozdiradi. U a'lo baholarga o'qiganligi uchun kelasi yili birdaniga 3-sinfga o'tkazishadi. 1937-yilning oxirlarida o'gay otasini tuman partiya qo'mitasiga inspector qilib tayinlashdi. Bu esa oila taqdirini alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. Otasini turli xil ayblar bilan qamoqqa olishdi. Haqligini isbotlashga hech qanday imkon beriladi. Oilada yana darbadarlik, dushmanning oilasi deb mol-mulklari ham musodara qilindi. Turli hayot sinovlariga duch kelgan oila yana bobosining kulbasiga qaytishadi, shoir Qirov nomli maktabning 5-sinfida o'qishini davom ettiradi. Shoir bolalik xotiralarini eslaydi: "O'gay otam ham bu paytda qamoqdan chiqib, MTSning neftebasasiga ishga o'rnamshdi. Biroq yangi lavozimda uzoq vaqt ishlay olmadi, allaqaysi kolxozga "bir bochka dizel yonilg'isini hujjatsiz berib yuborgansan", deya uni yana qamashdi. Shu ketgancha otam qaytib kelmadi. Bilsak, u qamoqda vafot etgan ekan. Xonadonimiz boshiga ketma-ket musibat yog'ilaverdi. Buvimdan ham ajralib onam, o'gay ukalarim- Soliya, Shomurod bilan qoldik."[4].

Urush boshlangan vaqtlarning biri otasining do'sti Rahimboy muallim uylariga holahvol so'rab keldi va suhbatlari davomida ota-bobolar, nasb-nasab haqida gaplashib unga nasihat qiladi. Endi sen o'zingni, o'zligingni anglashing kerak. Aslida otang senga Fayzulla emas, Foziljon deya ism qo'ygan. Otangning ismi Erjon emas, Zohid eshon. "Abadul abad shu nomga sodiq qolishing kerak. Haqiqat egiladi, ammo sinmaydi"[5]. dedi. Haqiqatan u Fozil Zohid bo'lib tanildi, doim o'zligiga sodiq bo'ldi. Bolaligidanoq ma'rifat, madaniyat va adabiyotga oshno bo'ldi, nazm-nasr haqidagi munozaralarni jon qulog'i bilan tinglardi. Navoiyning "Xamsa", Sa'diyning "Bo'ston"

va “Guliston” asarlarini qariyb yod olgan edi. Shoir shularning ta’siridan, she’rlar mashq qilish, maqolalar yozishga ishtiyoqi ancha erta uyg’onganligini aytadi. Ilk ijod namunalari “Kolxoz tili” gazetasida “Oyimjon xola” sarlavhali sh’eriy maqolasi bosilib chiqqan. Bu maqola kolxozning ilg’or ketmonchisi qo’shni ayoliga bag’ishlaydi. So’ngra “Salom bahor” nomli she’ri va maktab o’quvchilarining paxta yig’im-terimiga ota-onalariga ko’magi haqidagi xabari chop etilgan. Gazeta muharriri Oqmon Hasanovchaqirib, bo’lajak shoirga ish taklif qiladi.

1941-yil 10-dekabr 7-sinf paytidan tahririyatda muharrir bo’lib ishlay boshlagan. Ma’rifatparvar shoir o’zining hayoti va ish faoliyatida davomida doim jaholatga, nodonlikka, ilmsizlikka qarshi kurashdi. Tustariy aytganidek “Ma’rifat jahlnodonlikka qarshi jangdir.” Ijtimoiy nizolar, urush janglar, mulkiy tengsizlikning tub mohiyati bosh sababi ham inson tabiati va siyratidadir. Inson tabiatidagi salbiy, hayvoniy kuchlarni mavh etish, ya’ni nafsni jilovlash orqali komillikka erishadi. 1944-yilda mas’ul kotib lavozimiga tayinlanadi. Uch tilda chop etiladigan “Qizil suvchi” gazetasining o’zbekcha nashrida ishlay boshlaydi. Urush tugagandan so’ng, uyiga qaytadi, roppa-rosa yigirma kun deganda Gurlanga yetib keladi. 1946-1950-yillarda harbiy xizmatda bo’lgan. Harbiy xizmatdan qaytgach, 1950-1958-yilgacha tuman gazetasida mas’ul kotib lavozimida faoliyat yuritgan. Partiya safiga o’tkazish uchun raykomga chaqiriladi, tarjimai holi o’rganilib, “ijtimoiy kelib chiqishi to’g’ri kelmas” ligi sababli qaytarib yuborishadi. Konfrensiyada ishlab chiqarish faoliyatini tuman va viloyat gazetalarida qattiq tanqid qilgan xo’jalik raislari so’zga chiqib, raykom nashrini partiyasizlardan tozalash, ularni ishdan chetlatish kerakligi aytiladi. Muharrir Q.Qurbonov ularning talab va tazyiqi bilan ertasiyoq Fozil Zohidni ishdan bo’shatadi. Bu voqealar biz yoshlar uchun bir ertakdek tuyuladi. Ammo bularning barchasi haqiqatan ro’y bergan voqealar, qonunsizlik, adolatsizlik, inson qadriyatlarini oyoqosti qilingan davrning jonli manzaralari edi.

Gurlandagi ishidan quvg’in qilingan jurnalist-shoir “Xorazm haqiqati”, “Sovet O’zbekistoni”, “Savdogar” kabi gazetalarda ishlagan.”[6]. 1958-yil “Xorazm haqiqati” viloyat gazetasida adabiy xodim sifatida faoliyati davomida o’zining she’r-u maqolalari bilan elga tanila boshlaydi. 1965-1988-yillari “Sovet O’zbekistoni” gazetasining Xorazm viloyati bo’yicha muxbiri bo’lib mehnat qilgan kezlari she’riy, nasriy va hajviy asarlari respublika nashriyotlarida chop ettiradi. Adabiy anjumanlarda qatnashadi, o’z davrining adiblari, jamiyat arboblari bilan tanishadi. Mustaqillikdan so’ng “Savdogar” gazetasining viloyat bo’yicha muxbiri sifatida faoliyat yurita boshlaydi. Eshonlar avlodidan bo’lganligi uchun diniy-ma’rifiy maqolalar, she’r va dostonlar yoza boshlaydi. Ustoz shoir 2012-yilda omonatini topshirdi. Fozil Zohid adabiy merosini o’rganish adabiyotshunosligimiz oldida turgan navbatdagi dolzarb vazifalardan biridir. Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar shoir va nosirning ijodi haqida mukammalroq tasavvur hosil qilishga imkon beradi, deb o’ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, umrining asosiy qismini Haq yo’liga, ilm-ma’rifatga bag’ishlagan ijodkorning barcha ijod namunalari mavzu doirasi jihatidan ham, g’oyaviy yo’nalishdan ham o’zbek didaktik adabiyotiga katta hissa qo’shgan. Fozil Zohid asarlari kitobxonni halol, pok, mehnatsevar, qanoatli, imon-e’tiqodli bo’lishga

o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
2. K. Nurjonov, U. Bekmuhammad. Gurlan tarixi.- Urganch.: Xorazm. 2006.



RAUF PARFI LIRIKASIDA QOR OBRAZI

Mahliyo RAHIMBOYEVA,
UrDu 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rauf Parfi ijodida uchraydigan qor obrazining badiiy ahamiyati tahlilga tortilgan. Qor obrazi lirik qahramonning doimiy hamrohi, jamiyat va ichki kechinmalar ma'nolarini ifodalab kelgan.

Аннотация: В данной статье анализируется художественное значение образа снега в творчестве Рауфа Парфи. Образ снега — постоянный спутник лирического героя, олицетворяющий смыслы общества и внутренние переживания.

Abstract: This article analyzes the artistic significance of the image of snow in Rauf Parfi's work. The image of snow is a constant companion of the lyrical hero, representing the meanings of society and inner experiences.

Kalit so'zlar: qor, lirik qahramon, obraz, pafos, metafora, jonlantirish, ijtimoiy lirika va boshqalar.

Ключевые слова: снег, лирический персонаж, образ, пафос, метафора, оживление, социальная лирика и др.

Keywords: snow, lyrical character, image, pathos, metaphor, revitalization, social lyric, etc.

Rauf Parfi – serqirra ijodkor. Uning lirikasi o'ziga xos va betakrorligi bilan kitobxonlarning mehrini qozongan. Ayniqsa, tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlari she'rxonlarda o'zgacha taassurot qoldiradi. Taniqli nazariyotchi Bahodir Sarimsoqov shunday yozadi: “Haqiqiy shoir uchun hayot she'riyat bo'lsa, she'riyat uning hayotidir. Men buni ko'plab shoir-u shoirlar hayoti va ijodida kuzatib, shunga iqror bo'ldimki, tug'ma aql, qaynoq hissiyot, kuchli xarakter va adolatpeshalik kabi xislatlar shoir shaxsiyatida mujassam bo'lmog'i shart. Ana shu xislatlardan birortasi oqsasa, shoir ijodining mahsuli noqis bo'ladi” [B.Sarimsoqov, N.Afoqova, 2004: 3]. Bu xislatlarning barchasi Rauf Parfining xarakterikasi va lirikasida namoyondir.

Shamol, bulut, tong, bahor, shudring singari tabiatning betakror mo'jizalari ijodkorning oppoq qog'ozida shoirona ruhda tasvirlanadi. Shoir kumush qishning farzandi bo'lgan oppoq qorni ham o'z chizgilarida namoyon qiladi va epitet va jonlantirish singari badiiy tasvir vositalaridan unumli foylangan:

*Pag'a-pag'a oppoq qor yog'ar,
Bog'lar kiymish ilohiy libos.
Yuragimni bir otash dog'lar-*

Quyosh tutib kelayotir yoz [Parfi R, 2013].

Oppoq qor pag‘a-pag‘a bo‘lib yog‘moqda. Bog‘lar esa qishki ilohiy libosini kiydi. “Oppoq”, “ilohiy” so‘zlari takrorlanmas epitetni [D.Quranov, 2013].- vujudga keltirgan. Qahramonning yuragini bir otash, ya‘ni olov dog‘layapti, kuydiryapti. Quyosh esa xuddiki yozni tutib kelmoqda. Bu bandda jonlantirish san‘atiga asos bo‘luvchi vositalar, ya‘ni bog‘larning ilohiy libos kiyishi, quyoshning yozni tutib kelishi singari tasvirlarni uchratishimiz mumkin. Taniqli adabiyotshunos Dimurod Quranov: “Jonlantirish-mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, shaxsga xos xususiyatlarning hayvonlar, qushlar, jonsiz narsa-predmetlarga nisbat berilishi” [D.Quranov, 2013].-deya yozadi.

*Yog‘ar oppoq pag‘a-pag‘a qor,
Dardim qorlar kabi sochilar.
Huv, yiroqda gullagan bahor,
Bo‘ylari ko‘ksimga sanchilar.*

Dunyoda o‘tkinchi tushunchalar ko‘p. Lekin shoir mazkur misralarda qordagi izlarni ham o‘tkinchi ekanligini ta‘kidlamog‘da. Ya‘ni “qordagi izlar” jumlasini shoir bosib o‘tgan izlar ekanligi barchamizga ayon. U bosib o‘tgan yo‘llar, yashagan hayoti va umri go‘yoki ijodkor uchun o‘tkinchi, besamar:

*Go‘yo qordagi izlar-
O‘tkinchi...*

Insonning yonida qadrdonlari va suyuqli bo‘lgan insonlari yo‘q bo‘lsa, hamma narsalar boshqacha ko‘rinadi. Rauf Parfi ushbu holatni qor, tog‘ va osmon timsollari orqali ifoda etgan. “ “Sensiz”-ko‘ngil sanamisiz, ko‘ngil nurisiz oshiqning “bog‘lari”-hayoti so‘zsiz qorlarga ko‘miladi, osmoni-olami cho‘kib qoladi, yorsiz, yorsiz! Chorasizman...” . Tabiat tasviri bilan bog‘liq holda yaratilgan misralar har doim she‘riy misralarni jonlantiradi va ta‘sirchanlik darajasini oshiradi:

*Qorlaraga qorishdi bog‘larim,
Tog‘larga cho‘kdi osmon,
Sen yo‘qsan. Sen yo‘qsan. Sen yo‘qsan.*

Mazkur baytda ham shoir ma‘shuqasiga yetisha olmaganligini peyzaj tasviri bilan ifoda etgan:

*Sochimni yuladi izg‘irin,
Qorlar pichirlaydi boshimda,
Ko‘zimga sanchilur ismingiz.*

Rauf Parfining faqat tabiat tasviriga bag‘ishlangan she‘rlariga e‘tibor bergan bo‘lsangiz, nafaqat qor obrazi, balki boshqa timsollar orqali jamiyatning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, lirik qahramonning qalb kechinmalari, insoniyatning asliy orzulari va dard-kechinmalarini o‘zining takrorlanmas lirikasida aks ettirgan. Shu o‘rinda Abdurauf Fitratning mazkur fikrlari Rauf Parfining badiiy mahorati kuchli ekanligidan dalolat beradi: “Inson nega she‘r o‘qiydi? Chin shoir o‘quvchiga uning o‘zini tushuntirib beradi, zero, insonning barcha urinishlari botinida o‘zini tushuntirib berish, o‘zini tan oldirish, e‘tirof etilish instinkti ustuvor. Shoir ana shu vazifani uddalay olgandagina, she‘r ko‘ngil va umuminsoniyat mulkiga aylanadi, tongdek

yuraklarga kirib bora oladi. Chunki she`riyat “irratsional niqobdagi ratsional ijod”

Qor pag`a-pag`a yog`ishda davom etmoqda. Shoirning dardlari shu darajada ko`pligidan qorlar kabi sochilmoqda. Yiroqlarda gullagan bahor, ya`ni ijodkor gullarni nazarda tutmoqda, ushbu gullarning hidlari uning ko`ksiga sanchilmoqda. Dardlarning sochilishi, gul bo`ylarining lirik qahramon ko`ksiga sanchilishi jonlantirish san`atining yorqin namunasi.

*Derazamga uriladi qor,
Jaranglaydi jarangsiz kumush,
Derazamga uriladi qor,
Qor singari oppoq bo`ldi tush* [Parfi R, 2013].

Ijodkorning derazasiga qor urilib jarangsiz kumushni jaranglatmoqda. Bu yerda kumush deb qor nazarda tutildi. Bu holatdan lirik qahramonning tushi ham oppoq bo`ldi, qor kabi beg`ubor va sokin. Bandeda takrir (takror) san`atiga ham duch kelamiz. “Derazamga uriladi qor” so`zlari 1-3-misralarda takrorlangan. Bu esa so`zlarning takrori hisoblanadi. “Takror- matniy, kompozitsion yoki tematik birliklarning ma`lum badiiy-estetik maqsadlarni ko`zlagan holda takrorlanishi, badiiy matnga xos shunday unsurlarning umumiy nomi” [D.Quranov, 2013].- Haqiqatdan ham “Derazamga uriladi qor” misralarining takrorlanishi ta`sirchanlik va alohida ta`kid ma`nosini yuzaga keltirgan.

*Bir ajoyib qor yog`ar bu kech,
Uchib tushar mening yonimga
Men-ku seni eslamasman hech
Sen tushasan ammo yodimga* [Parfi R, 2013].

Qor kechasi shunday ajoyib bo`lib yog`moqdaki, qahramonning yoniga uchib kelib, xushnud qilmoqda. Qor yog`gan paytdagi go`zal xotiralarni eslab, o`zini seni eslamas edim hech deb ovutmoqda, ammo shoirning yodiga “u” har doim tushib turadi. Demak, ijodkorga yorini qorlar ham eslatadi.

*Qorlarga qorishdi osmon,
Elay ketdi nurli changini.
Qaydan olsin bechora osmon,
Bunday ma`yus sevinch rangini* [Parfi R, 2013].

Endi osmon qorlar bilan qorishdi. Qorlar osmonning nurli changini elab ketdi, ya`ni yo`qotdi. Bechora rassom (lirik qahramon o`zini bechora rassomga qiyoslamoqda) osmonning bunday ma`yus, sevinch rangini qaydan olishini bilmayapti.

Ikkinchi bandeda esa shoir o`sha rangni izlar, ammo, topolmaydi, xuddiki “o`tga qo`ngan qor kabi behol”. Lekin “o`sha rang” ijodkorning ko`zlarida turardi, u esa osmonlarga bekordan bekorga tikilar edi, xolos:

*Uni izlar, topolmas, garang,
O`tga qo`ngan qor kabi behol.
Ko`zlarida turar o`sha rang,
Osmonlarga tikilar bekor* [Parfi R, 2013].

E`tibor bergan bo`lsangiz, shoir qor obrazi orqali bu she`rida ham ichki his-tuyg`ularini ochib bergan.

Ko‘p hollarda kecha va qor timsollari birgalikda kelib, go‘zal tabiat manzarasini vujudga keltiradi. Jumladan, ijodkor oy, kecha, yulduz va qor timsollari orqali dunyoning ijtimoiy-siyosiy holatini ochib bera olgan:

Oy suzadi. Muzlagan kecha.

Qor ufarar.

Tumanlarda bir yulduz muncha

g‘amgin turar [Parfi R, 2013].

Qor yoqqan payti insonlar ba‘zan bir-birlari bilan uchrashadi. Rauf Parfi ham qor payti yorining qo‘llarini ushlaganligini esga oladi. Ma‘shuqasining qo‘llarini isitishga harakat qiladi. Bu o‘rinda oppoq qor ishq-muhabbat va mehr-oqibat ramziga ishora qilmoqda:

Aylanib tushar qor yo‘limga...

Bahor va qor timsollari har doim bir-biriga zid bo‘lib kelgan. Shoir yorini go‘yoki bahorga qiyos qiladi. Ma‘shuqasining nigohlari qorlarni eritadi. Qorlarda uning izlari borligini she‘riy misrlarda ifodalaydi. Takrorlanmas o‘xshatishlar, mubolag‘ali tasvir va jonlantirish misralarga badiiy ruhiyat bag‘ishlagan:

Nigohing ko‘rinur ko‘zlaring...

Erimasin yerda yotgan qor.

Qor ustida sening izlaring,

Qor ostida mudragan bahor. [Parfi R, 2013].

Rauf Parfining yuqorida tahlilga olingan she‘rlarida qor obrazi turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ldi. Birisida shodlik, quvonch shukuhi tarannum qilinsa, birisida ichki his-tuyg‘ular jilvalandi. Shoirni haqiqiy tabiat farzandi deyishimiz mumkin. Chunki Rauf Parfi ijodida betakror tabiat manzaralari o‘zgacha chizgilarda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Parfi R. Sakina. Toshkent, ‘‘Muharrir’’, 2013-yil.
2. D. Quranov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, ‘‘Akademnashr’’, 2013-yil.
3. Parfi R. Saylanma. –Toshkent.: Akademnashr, 2013-yil.
4. Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: ‘‘Sharq’’ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.
5. G‘aniyev I. Rauf Parfi O‘z turk dunyosi.-T.: Muharrir nashriyoti, 2021.
6. Sarimsoqov B. Qo‘shqanot ijod parvozi/ Afoqova N. Arosat fasli.-Buxoro, Buxoro nashriyoti, 2004.



‘‘XORAZM SHAHODATNOMASI’’ - NAJMIDDIN KUBRO HAYOTI HAQIDA MUHIM MANBA

Gulnora MATKARIMOVA,
UrDU, 2-bosqich talabasi

Annotasiya. Maqolada Najmiddin Kubro to‘g‘risidagi qo‘lyozma hamda rivoyatlar xususida fikr yuritiladi.

Аннотация: В статье рассматривается рукопись и предание о Наджмуддине Кубро.

Annotation: The article discussed the manuscript and narration about Najmuddin Kubro.

Kalit soʻzlar: Najmiddin Kubro, rivoyat, tariqat, kubroviya.

Ключевые слова: Наджмуддин Кубро, предание, ордена, кубравия.

Key words: Najmiddin Kubro, narration, possessor, kubrovia.

Bashariyat madaniyati durdonalaridan hech narsa yoʻq boʻlib ketmaydi. Insonning maʼnaviy talablari va uning hayotidagi anʼanaviy udumlar yuzaga keltirgan bu maʼnaviy merosimiz baʼzan hozirgi kunimiz jabhalaridagi hayotiy jarayonlarga shu qadar hamohanglik kasb etadiki, olis ajdodlarimizning kelajakni oldindan koʻra bilishdek donishmandliklariga qayta-qayta tahsin oʻqiysan, kishi¹.

Shayx Najmiddin Kubroning hayoti va ijodini oʻrganish biz uchun faxrdir. Komillikning oliy timsoli Paygʻambarimiz Muhammad Mustafó sallallohu alayhi vasallamning oʻzlari edilar. U kishining suhbatlari tuproqni kimyo qiladigan, kofirlarning qalbini yumshatib, musulmon qiladigan darajada edi. Muhammad alayhissalomning salohiyat va gʻayratlari, taʼsir quvvatlari gʻoyat baland boʻlgani haqida yuzlab dalillar bor. Valiylar paygʻambarlarimizning davomchilari ekan, demak, ularga ham shunday neʼmatdan nasib etilgan.

Farididdin Attorning «Tazkirat ul-avliyo» asarida avliyolar tasnifi keltiriladi. Muallifning kuzatishicha, avliyolar bir necha turga boʻlinadi, bular maʼrifat ahli, muomilot ahli, muhabbat ahli, tavhid ahli, miskin faqirlar ahli va bashqalar. Lekin shunday buyuk shayxlar borki ularda bir necha sifatlar jamlangan boʻladi. Ulardan biri Najmiddin Kubro tasavvuf taʼlimotining kubroviya yoʻnalishiga asos solgan buyuk mutafakkir allomadir. Butun musulmon olamida katta obroʻ va eʼtiborga ega boʻlgan, hozir ham nomi chuqur hurmat bilan tilga olinib kelinayotgan yirik mutasavvifdir.

Hazrati Alisher Navoiy oʻzining «Nasoyim ul-muhabbat» asarida musulmon olamidagi boshqa buyuk tasavvuf donishmandlari qatori Shayx Najmiddin Kubro haqida ham qimmatbaho maʼlumotlar yozib qoldirgan.

Shayx Najmiddin Kubro-kuniyatlari Abul Jannob, otlari Ahmad ibn Umar Xevaqiyy va laqablari Kubro va debdurlarki, alargʻa Kubro andin laqab boʻldiki, yigitlik avonindagi, zohir ilmi tahsiligʻa mashgʻul ermishlar, har kim bilakim munozara va mubosaha qilsalar ermish, ul kishiga gʻolib boʻlurlar ermish va alarni « Shayxi valitarosh « depdurlar. Aning uchunkim, vajdu hol gʻalabotida muborak nazarlari har kimga tushsa, valoyat martabasigʻa yetar emish «². Alisher Navoiy mazkur asarida Shayx Najmiddin Kubroning mardligi, qahramonligi va Xorazmga bostirib kirgan moʻgʻullar tomonidan qatl etilganligi toʻgʻrisida ham maʼlumot berib oʻtganlar.

Xalq orasida Najmiddin Kubro haqida qator rivoyatlar, qissalar mavjud boʻlib, ular roviylar tomonidan asrlar osha xonaqohlarda, oddiy xalq yigʻinlarida to XX asrning boshlarigacha hikoya qilinib kelingan. XIX-XX asrlarga kelib mazkur rivoyatlar jamlanib, alohida kitob holiga keltirilgan. Oʻzbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasiga qarashli Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining

qo‘lyozmalar jamg‘armasida mazkur rivoyatlar majmuasi «Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro» deb atalgan to‘g‘risida xalq orasida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelatgan rivoyatlari talaygina. “Shayx Najmiddin Kubro” nomi ostida berilgan maqolalarda ham buni ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda Erkin Yusupov, Orif Usmonov, Najmiddin Komilov, Sayid Mu‘ashshirxon Kosoniy, Abdulhakim Sha‘iy Juzjoniy, Aziz Qayumov, Omonulla Bo‘riyev, Kreyya Makrey, Ne‘matulloh Jabborovlar Najmiddin Kubro to‘g‘risidagi maqolalari chop etilgan. Deyarli yuqoridagi aytilgan qo‘lyozmadan foydalanib, Shayx Najmiddin Kubro haqidagi rivoyatlar keltirilgan.

Bilamizki, Shayx Najmiddin Kubro to‘g‘risida xalq orasida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelatgan rivoyatlari talaygina. “Shayx Najmiddin Kubro” nomi ostida berilgan maqolalarda ham buni ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda Erkin Yusupov, Orif Usmonov, Najmiddin Komilov, Sayid Mu‘ashshirxon Kosoniy, Abdulhakim Sha‘iy Juzjoniy, Aziz Qayumov, Omonulla Bo‘riyev, Kreyya Makrey, Ne‘matulloh Jabborovlar Najmiddin Kubro to‘g‘risidagi maqolalari chop etilgan. Deyarli yuqoridagi aytilgan qo‘lyozmadan foydalanib, Shayx Najmiddin Kubro haqidagi rivoyatlar keltirilgan.

Shu o‘rinda ushbu maqolada Kubro karomatlari haqida yozilgan bir asar qo‘lyozmasi haqida ma‘lumot berishni niyat qildik. Xorazm viloyati Gurlan tumani Eshimjiron qishlog‘ida yashaydigan masjid imomi Obidjon domla Fozilov qo‘lida bir necha yillardan beri saqlanib, kelinayotgan qo‘lyozma o‘rganilganda, bu qo‘lyozma hijriy 1315-yilda yozilgan bo‘lib, u “Xorazm shahodatnomasi” deb atalgan. Bu qo‘lyozmada Shayx Najmiddin Kubroning hayoti va ijodi haqida, shuningdek Xorazm tarixi to‘g‘risida bayon etilgan. Najmiddin Kubro haqida bir qator rivoyatlar qissada keltirilgan.

Qo‘lyozma dastlab nasriy yo‘lda yozilgan hamd va na‘t bilan boshlanadi. Keyingi sahifalarda Shayx Najmiddin Kubroning o‘spirin paytlari ilm o‘rganganligi, Xorazmda bo‘lgan voqealar, oxirida esa xorazmlik Muhammad Rojijiy qalamiga mansub g‘azallar keltirilgan. Ushbu qo‘lyozmadagi Najmiddin Kubro to‘g‘risidagi rivoyatlardan biri shunday so‘zlar bilan boshlanadi «...roviylar aytur Bog‘dod shohining o‘g‘liga shahzoda Abdulloh der erdilar ziyoda shatranjboz erdi. Aning oldida hech kim shatranj o‘ynay bilmas erdi. Shatranjbozlik bilan olamni xarob qilgudek bo‘ldi. Yana ham va‘da qilur edikim meni utsa, men ango mute’ bo‘lurmen, yo‘q ersa shahrin olib, o‘z hukumatimg‘a solurmen deb shahar ba shahar, viloyat ba viloyat kezib barcha yerni xarob etib, Xorazm shahriga kelib podshohning bargohiga kirar bo‘ldi. Hojib podshohga xabar berdi. Podshoh aytdi – “ichkari kirsun” tedi. Hojib shahzodani olib kirdilar. Shahzodaga o‘ng tarafidan joy berdilar. Shahzoda aydi men bu viloyatg‘a shatranj o‘ynog‘oni keldim tedi. Sulton aydi biz shatranjbozliq bilmasmiz. Biz tarafdin pirim Shayx Najmiddin o‘ynosun tedi. Shahzoda qabul qildi. Agar yutsa biz ango mute’ bo‘lurmiz valloh yo‘q. Ul vaqtning podshohig‘a Sulton Mahmud der erdilar O‘sh viloyatdin erdilar. Hazrat Eshong‘a kishi yubordi. Hazrat eshitib, amr podshoh odil ne lozim bo‘lsa vojib bilib keldilar. Podshohi Mahmudg‘a xabar qildi. Sulton taxtdin tushub, o‘run berdi. Hazrat voqeani so‘roshib bildi. Ondin so‘ng shahzoda birla Shayx Najmiddin shatranj o‘ynig‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Shahzodani utdilar, yana o‘ynadi yana utdilar uch marta utdilar shahzoda xijolat tortib, taxtdin tushub, hazratning oyoqlarig‘a yiqildi. Jon dil birla Shayx Najmidding‘a murid bo‘lib, xizmat eshiklarida bel bog‘lab turdi. Sulton Mahmud ko‘p inomlar berib, pirlarin qaytarib yubordi. Hazrat shahzoda birla xonoqohlarig‘a borib, ibodatg‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Shahzoda Hazrat yumushig‘a yetti yil xizmat qildilar. Andin so‘ng shahzodag‘a Majmiddin ot qo‘ydilar. Shayx Najmiddin shahzodag‘a shayxliq hilqasini bo‘ynig‘a band qilib, ruxsat berib yubordi. Ul ham xonoqo nesin avliyo bo‘ldi. Murid yeg‘nob

ibodatg'a mashg'ul bo'ldi. Muridlari mingdin ziyoda bo'ldi. Alqissa fayz olami kun kundin ziyoda bo'lur erdi. Roviyy aytur Majmiddin beixtiyor qo'ydi. Pirim beharakat erkan men daryo monand bo'ldim. Yana aydi men uzuk yuzasi erdim. Meni jo'ja qilib chiqardi men kamola yetdim, daryoyi va hudutg'a g'ut urdim. Pirim qurug'da qoldilar. Ul holda muridlaridan biri aydi yo pirim beixtiyor so'zladingiz dedi. Shayx so'rdi ne so'z bo'ldi anda muridlari bo'lg'on voqealarni bir bir bayon qildilar. Ul vaqtda Shayx Majmiddin bir oh urub behush bo'ldi, zamondin so'ng hushig'a kelib, bir mistaq topib oni o't qilib o'z boshig'a qo'yub men pirga ginakor bo'ldum deb, Xorazm sori ravona bo'ldi. Bir necha g'ammorlar Shayxning bu holin ko'rub, Shayx Najmiddin g'a borib chug'ulluq qildilar. Shayx Najmiddin bu so'zlarni eshitib, la'ldek qizib aydi Majmiddin agar bu so'zlarni aytgan bo'lsa, boshin kesib daryoga tashlog'oylar. Hazrat Eshonning bu duoibadlarin yana g'ammozlar Majmiddin oldig'a borib, chug'ulluq qildilar. Ul vaqtda Shayx Majmiddin aydi agar pirim manga bu so'zlarni aytgan bo'lsalar, boshin qalmoq kesgoy dedi. Ondin so'ng Shayx Majmiddin zor-zor yig'lab, goho ko'chalarga chiqib va goho dashtlarga chiqib zokir bo'lub zikr aytur erdi. Hu yo man hu la ilaha illallohu deb yig'lab yurgan holda Sulton Mahmudning qulog'iga bir ovoz mazlumona kelib aydi boring bu kim erkan ul vaqtda badbaxt haromzoda aydi bu pirim Shayx Najmiddinning shahzoda muridi turur tedi. Ul haromzoda shahzodag'a dushman erdi. Ul aydi borki Allohsiz ango ixlos qilursiz ul ziyoda zoni turur. Muningdek zino kunanda olamda yo'qturur. Muning ishi kunduz zokir bo'lib, kecha zino dukonin qurur tedi. Sulton aydi ey zolim bo'hton qilursen tedi. Ul badbaht aydi agar mening bu so'zim yolg'on bo'lsa boshim to'ralarimizning boshidin tasdiq bo'lsun tedi. Podshoh aydi agar rost bo'lsa ani o'tururmen yolg'on bo'lsa sizni o'tururmen deb qasamyod qildi va Allohki bu so'zning rostlig'iga shahodat qildi. Ul zolim aydi sizning ulug' qizingiz birla ishi bor sizga uzin zokir suratida ko'rsatur tedi. Ondin so'ng podshoh o'z haramin bedorliq birla saqladi. Ko'rdikim Shayx beixtiyor podshohning haramig'a kirib kelur Sulton Mahmud ul badbaxt oytg'on so'zin rost xayol qilib boshin tanidin judo qildi va aydi bu boshni daryog'a tashlong tedi. Posbonlar boshin daryog'a aylanib toshlodilar. Ondin so'ng podshoh haramig'a kirib ko'rsa qizi qur'on tilovat qilib o'turur ul tinatini ham daraja shahodatg'a yetkurdi. Qolu inna lillahi va inna ilayhi roji'un".

Ko'rib turganimizdek, Shayx Najmiddin Kubroning duoibadi amalga oshdi o'z o'rnida yana bir rivoyatda Majmiddinning ustozini uchun qilgan duoibadi amalga oshib qalmoq boshini oladi.

Ne'matulloh Jabborov o'zining « Millat va din yulduzi » nomli maqolasida Shayx Najmiddin Kubro to'g'risidagi rivoyatlardan birida, aynan biz yuqorida keltirib o'tgan rivoyatga o'xshaydigan rivoyat keltirib o'tgan. Ammo rivoyatda Shayx Najmiddin Kubro Majiddin shayxlik hirqasini bergani, Bog'dodga borib, shayxlik silsilasini tuzganligi, xonaqoh qurdirib, mingdan ziyod muridlari bo'lganligi va fayzi esa kundin ziyoda bo'lganligi bilan rivoyat yakunlangan.

“Shayx Najmiddin Kubro” maqolalar to'plamidagi rivoyatlar, biz o'rganib chiqqan qo'lyozmadagi rivoyatlar o'rtasidagi farqlarni ilg'amaslikning hech iloji yo'q. Keyingi maqolalarimizda albatta qolgan rivoyatlar to'g'risida bayon etishni ixtiyor etdik.

Nazarimizda bu rivoyatlar og‘izdan–og‘izga o‘tish natijasida biroz turli variantlar yuzaga kelgan bo‘lishi ham mumkin. Haqiqatdan ham tarixiy manbalarda Shayx Najmiddin Kubroning boshini, Xorazmga bostirib kelgan qalmoqlar tomonidan olinganligi to‘g‘risida ta’kidlanadi.

Olis o‘tmishimizda yaratilgan va asrlar osha sayqal topib bizgacha yetib kelgan bu kabi rivoyatlar xalqimizning boy madaniy merosining ajoyib va yorqin namunalari. Shayx Najmiddin Kubro to‘g‘risidagi manbalarni o‘rganar ekanmiz, u insonning nazari kuchli, karomatlar sohibi, poklik ramzi, musulmonlar yo‘lboshchisi, zabardast insonparvar, dovyurak sarkarda va ulug‘ vatanparvar inson ekanligiga yana bir bora amin bo‘ldik. Nazarimda, Shayx Najmiddin Kubroning ajoyib, rivoyatlarga to‘la ibratomuz hayoti va xayrli faoliyati hamda ijodini, kelajak avlod o‘zlariga bir maktab qilib olishsa nur ustiga a’lo nur bo‘lur erdi.

Beqiyos ma’naviy merosimiz bo‘lmish eski o‘zbek tilidagi qo‘lyozmalar, o‘tgan asrlarda toshbosma usulida arab imlosida bosilgan ko‘hna kitoblarda rivoyat, naql, afsonalarning son-sanog‘i yo‘qki, nashiryotlarimiz oldida turgan bugungi kunning eng dolzarb vazifasi – ularni ketma-ket chop etib, yana xalqimizga qaytarib berishdir.⁴

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. Murodov va M. Shayxova. Asotirlar va rivoyatlar. “Yosh gvardiya” nashiryoti 1990. 121-bet.
2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Asarlar. XV jild, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashiryoti, Toshkent. 1968.141-bet.
3. Ne‘matulloh Jabborov. «Millat va din yulduzi» Yozuvchi nashiryoti, Toshkent. 1995. 64-bet.
4. M. Murodov va M. Shayxova. Asotirlar va rivoyatlar. “Yosh gvardiya” nashiryoti 1990. 124-bet.



“UCH ILDIZ” ROMANIDAGI MAHKAM VA OCHIL OBRAZLARIGA CHIZGILAR

Anaxon BOTIROVA,
UrDU 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Pirimqul Qodirov qalamiga mansub “Uch ildiz” romanidagi Mahkam va Ochil obrazlarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlillar asosida ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье на основе анализа раскрываются специфические характеристики персонажей Махкама и Очила в романе Пиримкула Кадырова “Три корня”.

Annotation: In this article, the specific characteristics of Makhkam and Ochil characters in the novel “Three Roots” written by Pirimkul Kadirov are revealed on the basis of analysis.

Kalit so‘zlar: badiiy obraz, roman, personaj, ruhiy holat, portret.

Ключевые слова: художественный образ, роман, герой, душевное состояние,

портрет.

Key words: artistic image, novel, hero, state of mind, image.

“San’atning boshqa turlari kabi badiiy adabiyot ham hayotni, undagi insonlarning ruhiy holati, o‘y-fikrlarini aks ettiradi. Hayot hamisha insonlarning tirikchiligi, mehnat faoliyati, kurashi, his-tuyg‘ulari, kechinmalaridan iborat. Adabiyotning tasvir mavzusi, avvalambor, insondir” [1]. Asar qahramonlarining hayoti, ruhiyati va xarakterlarini ifodalashda ijodkordan yuksak did va mukammal dunyoqarash talab etiladi. Shuningdek, har bir obraz kitobxonga estetik ta’sir ko‘rsatadi, har birida muayyan g‘oya ifodalangan bo‘ladi. Zero, g‘oyasiz obraz –jonsiz tana. Shu jihatdan olib qarasa, Pirmqul Qodirov yaratgan har bir qahramonning aniq vazifasi va maqsadi mavjud. Asar qahramonlarining qaysilaridir to‘g‘ri yo‘lga chorlasa, qolganlari o‘z quvonch-u hasratlariga kitobxonni sherik qiladi. Muallifning “Uch ildiz” asaridagi asosiy qahramonlar Mahkam va Ochil obrazlarida ham aynan shu haqiqatlarni kuzatishimiz mumkin. Romanning asosiy personajlaridan biri Mahkam romanda eng katta yuk tashuvchi obraz hisoblanadi. Ijodkor qahramon portretini quyidagicha yaratadi: “Uning qoshi qop-qora bo‘lsa ham, qoracha yuzida uncha ko‘zga tashlanmaydi. Faqat zich oq tishlari mayin yiltirab, chehrasini ochib turadi. Tubsiz qora ko‘zlari chuqur ichki kechinmalarini uncha bilintirmasdi, og‘ir tekkan narsalar ko‘nglining tubida cho‘kib yotar, yuzida esa doim kishini o‘ziga tortuvchi muloyimlik, bolalikdan qolgan soddalik va dilkashlik aks etib turar edi” [2]. Ochil esa undan ancha farq qiladi, ya’ni Mahkam qanchalik vazmin bo‘lsa, u shunchalik tez va ko‘ngli yumshoq edi: “Ochil o‘rta bo‘yli, qotmadan kelgan, oqish yuzli va terisi yupqa yigit edi. Uning butun vujudi qandaydir juda ta’sirchan tolalardan to‘qilganga o‘xshardi. Qo‘ng‘ir ko‘zlari doim biror narsadan ta’sirlanganligini aks ettirib turar, goh kuchli porlab, qorachig‘ining pastida shaffof nam halqalanar, goh o‘ychan qisilib, piligi pastlatilgan chiroqday qorayardi. Xayolchan kishilarniki kabi bir-biriga botib turgan lablari kulganda yoki gapirganda shaklini tez va keskin o‘zgartirardi. Uning cho‘zinchoq oqish yuzi ham ehtirosli ko‘zlari va labi singari ichki kechinmalarini uzluksiz aks ettirardi. Yuragida bori yuziga tepib turadigan bunday kishilarni ko‘nglida kir yo‘q deb maqtaydilar”. Muallif ikkala qahramonni ham sinchiklab o‘rganadi. Qiyofalaridan tortib bosib o‘tgan yo‘llarigacha mahorat bilan tasvirleydi. Ochil Zarafshon tizma tog‘i etagida chorvador va bog‘dor qishloqda o‘sgan, Mahkam esa Sirdaryo bo‘yidagi sershovqin, gavjum ishchilar shaharchasida katta bo‘lgan edi. Ikkovi ham umrining ko‘p qismini o‘qish bilan o‘tkazgan bo‘lsa-da, o‘qishdan tashqari kechirgan hayotlari har xil edi. Albatta, atrofdagi muhit, bolalikdan qolgan turfa xil xotiralar, oilaviy mojarolar ikki do‘stning kelgusi hayotiga, ayniqsa, ruhiy holatiga ta’sir o‘tkazmasdan qolmagan. Mahkam yoz oylarida lagerga ko‘p chiqardi. U ko‘chilik bilan muomala qilib o‘rgangandi, balki shu uning xarakterini ancha silliqlagandir. Uning bolaligi urush yillariga, qattiqchilik va ocharchilik davrlariga to‘g‘ri keldi. Urushning ikkinchi yili otasi armiyaga ketdi-yu, qo‘lida hunari yo‘q ona ikki bola bilan qoldi. O‘shanda Mahkam onasining dastyoriga, suyangan tog‘iga aylandi. Hattoki, ilgari doim a’lo o‘qigan bola shu yil sinfdan sinfga ko‘cha

olmagandi. Ochil esa omochga bo‘yi yetib-yetmay qo‘sh haydagan, yoz oylarida otasiga qo‘shilib o‘roq o‘rgan, tog‘larda qo‘y boqqan, umuman, maktabdan ortgan vaqtining ko‘p qismini mehnatda o‘tkazgan edi. Olti yasharligida onasi tog‘ ko‘chkisining tagida qolib halok bo‘lgandi. Ikkinchi ona va uning bolalari Ochilga yomon ko‘z bilan qarashmasa ham, u begonasirar, sal narsadan ko‘ngli o‘ksirdi. Shuning uchun u maktabda ham, dalada ham o‘zi to‘g‘risida ko‘p iliq gaplar eshitar, bu iliqlik unga juda yetishmaydigan ona mehrini bir qadar qoplar edi. Demak, ikkala qahramonning hayot yo‘llariga nazar soladigan bo‘lsak, birida dadillik, sabr-qanoat kabi xususiyatlarni, boshqasida esa o‘ychanlik va soddalikni ko‘ramiz. Ayniqsa, Ochilning naqadar qalbi pok, ishonuvchan yigit bo‘lganligiga qoyil qolasan kishi. “Urush yillarining tanqisligida Ochil shunday xayol surardi. Oloviddinning shamchirog‘i unda bo‘lsa-yu, peshonasiga surkab, devni chaqirsa, hammaga yetadigan qilib eng yaxshi ovqatlardan buyursa. Otasi Farhod GES qurilishiga ishga borganda u ham birga brogan va kishilarning qanday sharoitda ishlayotganini ko‘rgan edi. Shunda yana shamchiroqqa joni qamalgan devni ishga solgisi, bir kechada hamma ishni bajartirib qo‘ygisi kelgan edi” – deb yozadi Pirimqul Qodirov. Binobarin, ikkala do‘stga ham xos bo‘lgan beg‘uborlik ularga umr bo‘yi yo‘lboshchilik qildi. Talabalik yillarida ikkalasi ham go‘zal visol onlarini boshdan kechirishdi. Ochil va Zamiraning ham baxtli hayotlari yozuvchi tomonidan mukammallik bilan tasvirlanadi: “Qo‘qonda poyezd to‘xtaganda perronga tushmoqchi bo‘lib o‘rinlaridan turishdi. Ochilning shohi kiteli yag‘riniga tomon bir oz yig‘ilib, burishib qolgan edi. Zamira etagidan tortib to‘g‘rilab qo‘ydi. Mehr-muhabbatni namoyish qilib emas, aksincha, xuddi o‘z boshidagi ro‘molini to‘g‘rilaganday jo‘ngina, yengilgina to‘g‘riladi. Ochil ham buni xuddi o‘z qo‘li bilan qilgandek Zamiraga jo‘n, tabiiy bir mehr bilan qarab qo‘ydi. “Faqat er-u xotinlargina shunday qila oladi, - deb o‘yladi Mahkam, hozir buni eslarkan. Kechagina bir-birini bilmay yurgan Ochil bilan Zamira bugun er-u xotin. Bir oila! Ajoyib!” Roman nihoyasida ikkala do‘st ham o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lib yetishishadi, muhabbatga asoslangan oila qurishadi va asosiysi, haqiqiy komil shaxs bo‘lib voyaga yetishadi. Muallif ta‘biri bilan aytganda, “uchala ildiz”i ham baquvvat va mustahkam qad rostlaydi. Pirimqul Qodirov tarjimayi hollaridan birida shunday fikrlarni bildirib o‘tadi: “Bu asarning asosiy qahramonlari – bizning avlodga mansub yoshlar, aniqrog‘i, universitetimiz talabalari edi. Shu o‘rinda bir oilaviy sirimizni ochishga to‘g‘ri keladi. Asardagi Mahkam va Ochil obrazlari orqali o‘zimning hayotga qarashlarim, orzu-umidlarim o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, Gavhar va Zamira obrazlarida menga baxt ato etgan umr yo‘ldoshim Sofiyaxonning siymosi aks etgan”. Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, romandagi Mahkam, Ochil kabi qahramonlar o‘quvchida havas uyg‘otadi. Ularning har bosgan qadamlarida, qilgan amallarida faqatgina yaxshilik va ezgulik mavjud. Bugungi kun talabalari ham asarning ijobiy fazilatlarga boy qahramonlaridek mehnat qilsalar, o‘z ustida ishlasalar, hayotda mustahkam uch ildizga erishishlari mumkin. Bu asarning salohiyatli yoshlarni voyaga yetkazishdagi o‘rni va ahamiyati kattaligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qarang: // Shermatova M. // Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridagi qahramon obrazlar tavsifi. – 2022. – B. 426.

2. Qodirov P. Uch ildiz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – B. 50.
3. To‘lqin E. Adabiyot uchqunlari. – Toshkent, 2018.-B. 4.



NAVOIY LIRIKASIDA JAMSHID OBRAZI

Mohichehra ODAMBOYEVA,
Urganch davlat universiteti 1-kurs talabasi

“Har qanday ulug‘ san‘atkor she‘rida So‘z, uning o‘zi aks ettirishni istagan fikr va tuyg‘udan bir necha hissa ortiq ma‘nolarni ifodalaydi. Shuning uchun haqiqiy she‘rning g‘oyaviy-badiiy tarkibida hamisha nimalardir sir bo‘lib, ma‘no gavhari yashirinligicha qolaveradi. Eng zukko she‘rshunosning ham tahlil imkoniyati cheklangan. Chunki qancha urinmasin, so‘zning majoziy mohiyatini barcha rang, ohang tovlanishlari bilan gavdalantira olmaydi. Birdaniga bir necha ramziy mazmunlarni tarkibiga birlashtira olgan she‘r-chinakam she‘r”[6, 15]. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning bu fikrlarini Navoiy g‘azaliyoti uchun maxsus ta‘rif deb qabul qilsak xato bo‘lmaydi. Alisher Navoiy asarlari o‘z zamondoshlari ijodiy faoliyatidan mavzu xilma-xilligi, janr rang-barangligi bilan ajralib turadi. Xususan, shoir g‘azallari uning qalbi, ruhiyatining tarjimonidir. Navoiyning lirik qahramonlari goh aftodahol oshiq, goh baxtdan masrur yor qiyofasida gavdalanadi va siz bilan dardi-u baxtini bo‘lishadi. Ishq balosiga giriftor bo‘lgan, uning to‘rida asir bo‘lgan tutqun sifatida sizdan madad so‘raydi. Ishq mayidan sarmast bo‘lgan oshiq bor hasratini sizga to‘kib solidi, tushunishingiz uchun o‘z ahvolini misollar bilan dalillaydi: shu ko‘yga tushgan telba oshiqlar nomini zikr etib, o‘z ahvoli bayonotini keltiradi. Ana shu asnoda o‘tmish qahramonlari Navoiyning lirik qahramoniga yordamga keladi. Bunday o‘rinlarda talmih san‘atiga bot-bot murojaat qilingani ko‘zga tashlanadi.

Talmih (ar.- nazar tashlamoq, chaqmoq chaqishi) - nazm yoki nasrda mashhur tarixiy voqea, afsonalar, qissalar, she‘r, masal yoxud maqollarga ishora qilishga asoslangan she‘riy san‘at. Bunda ko‘proq Qur‘oni Karim suralarida zikri kelgan payg‘ambarlar, farishtalar nomlari; adabiy asar qahramonlari ismlari, joy nomlari nazarda tutiladi[7, 41]. Alisher Navoiy ijodida talmih san‘ati ko‘p o‘rinlarda qo‘llanilgan bo‘lib, ayniqsa, Yusuf(a.s.), Iso(a.s.), Sulaymon(a.s.), Xizr(a.s.), Majnun, Farhod, Iskandar ismlari asosida yuzaga kelgan talmihlar ko‘p uchraydi. Quyida biz shoir she‘riyatida Jamshid ismi asosida yuzaga kelgan talmihlarni tahlilga tortishni maqsad qildik.

Alisher Navoiy Jamshid obraziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, uning ismini turli o‘rinlarda har xil mazmunda talmih qilib keltirganini kuzatamiz. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto” kitobida nomi qayd etilgan qadimgi Eron podshohlaridan biri Jamshid o‘zining adolatparvarligi, erkparvarligi, ixtirochiligi bilan tarixda nom qoldirgan. “Jamshid obrazi VIII-IX asrlarda yaratilgan Abu Hanifa Diynavariyning asarlarida musulmonlashtirib talqin etiladi. Birinchi bo‘lib Diynavariy Jamshidni Nuh payg‘ambarning avlodi sifatida tilga oladi” [5, 71].

Abulqosim Firdavsiy Jamshidni “Avesto” kitobida qayd qilingan xususiyatlarini saqlagan holda ilk bor badiiy obraz sifatida “Shohnoma” asarida qayta jonlantiradi. Alisher Navoiy o‘zining “Tarixi muluki ajam” (“Ajam xalqlari tarixi”) asarida Jamshid haqida shunday yozadi: “Ba’zi ani Tahmurasning qardoshi debdurlar va ba’zi qardoshining o‘g‘li. Chun saltanatga o‘lturdi, jahon mulkin adl va dod bila tuzdi... G‘arib ixtirolar qildi. Va ul jumladin sipohiylik aslahasi... Sinon va harba va pichoq... ul yasadi. Va hammom bino qildi va g‘avvoslig‘ xayol qildi... Va saltanatning zamoni yetti yuz yilg‘acha bo‘ldi... Zahhok (uni) tutib, arra bila ikki bo‘lub, jismin pora-pora qildi”. Rivoyatlarga ko‘ra Jamshid keyinchalik mol-mulkka, shuhratga, shon-sharafga ruju qo‘yadi, xudolik da‘vo qila boshlaydi va Zahhok Eronga bostirib kelib, Jamshidni qatl qiladi. Ba’zi manbalarga ko‘ra Jamshid Hazrati Sulaymonning aynan o‘zi, deb ta’kidlanadi.

Jamshid ismini talmih qilib keltirish orqali uning shaxsiyatiga xos bo‘lgan xususiyatlar, uning tarixi bilan bog‘liq dalillar, podshoh sifatida olib borgan siyosati, qilgan xatolari, erishgan yutuqlari Navoiy qahramonlari “men”ini ochishga xizmat qildiriladi:

Qani Hotam, qani Qorun, qani Jamshid-u Afridun?

Bas ehson qil sanga gardundin adno e‘tibor o‘lg‘ach [1, 96].

Hotam – saxovat va ochiqqo‘lligi bilan mashhur bo‘lgan kishi. To‘liq ismi Hotam bin Abdulloh bin Sa‘d Toiy [3, 255]. Qorun – Muso payg‘ambar zamonida yashagan badavlat shaxs. Uning ismi Qur‘onda to‘rt marta tilga olingan. Juda xushsurat odam bo‘lgan. Muso talab qilgan zakotdan bosh tortadi, hatto unga sehrigar hamda zinokor deb ham tuhmat qiladi. Musoning qarg‘ishi bilan yer uning o‘zini va boyliklarini yutib yuboradi. Mumtoz adabiyotda u behisob boylik va ochko‘zlik timsoli sifatida foydalaniladi [3, 200]. Afridun (yoki Faridun) – qadimgi Erondagi peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh. Navoiyning “Tarixi muluki Ajam”ida yozilishicha, ba’zi manbalarda uni Jamshid nabirasi, boshqalarida esa Taxmuras (Jamshidning aka yoki ukasi) avlodidan, deb qayd qilinadi. U o‘zining xazina-boyligi bilan mashhur [4, 768].

“O‘lg‘och” radifli g‘azalning ushbu 7-baytida saxovatda tengsiz Hotam, boy va xasislikda nom chiqargan Qorun, hammaga hukmini o‘tkazgan Jamshid-u Afridunlarning hech biri boqiy umr topmaganligi, vafot etib ketganligiga ishora qilish orqali shoir ulardan ibrat olishga, falakning gardishi bilan izzat-u e‘tibor, dasti uzunlik-u mol-dunyo, mansab-u amal yetganida imkon qadar ko‘proq ehson qilishga, odamlarga yaxshilik qilishga chaqiradi. Chunki bu dunyoda orttirilgan barcha narsa bu dunyoda qolguvchidir, inson oxiratga o‘zi bilan faqat qilgan yaxshi amallarinigina olib ketishi mumkin.

Yuz qadah qilg‘il murassa ‘kim chekarsen jomi marg,

Hech kim xud topmadi Jamshiddin afzun qadah [1, 102].

“Qadah” radifli g‘azalning mazkur baytida Alisher Navoiy Jamshid va jom obrazlariga murojaat qiladi. Bu baytda har kim yuz qadahni qimmatbaho toshlar bilan bezatsa ham, baribir bir kuni “jomi marg”(o‘lim jomi)dan taqdirning oxirgi jon oluvchi mayini ichadi, chunki hech kimga nasib etmagan turli sifatlarga ega qadah

sohibi bo‘lgan Jamshid ham ajal mayini totmay qolmagan, degan fikrlarni ilgari suradi.

Gar Navoiy ko‘j erur shah xizmatida ne ajab,

Chunki qilmish qullug‘i Jamshid-u Afridunni ko‘j [1, 186].

“Ko‘j” radifli g‘azalda esa shoh xizmatida qomati ko‘j bo‘lgan, ya‘ni shah Husayn Boyqaro qoshida doim qulluqda bo‘lgan Navoiy qaddi bukulganligini ajablanarli hol emasligini ta‘kidlar ekan, Jamshid-u Afridun kabi shohlar ham uning oldida qaddini ko‘j qilishini, ya‘ni bo‘ysunishini talmih vositasida misol qilib keltiradi.

Itlari sing‘an safoli ichra chekting durdi shavq,

Ey Navoiy, ani jom, o‘zungni Jamshid aylading [1, 279].

“Aylading” radifli g‘azalidan olingan ushbu baytda yor itlarining yalog‘i - singan safol tagida qolgan shavq durdi – quyqasini sipqorganidan g‘oyatda huzurlangan, shavqqa to‘lgan lirik qahramonning singan safolni Jamshid jomi, o‘zini esa Jamshid kabi his qilgani bayon qilinadi.

Ne sud bo‘lsa amal nomasi qora gar xud

Oting nishon uza Jamshid yo Qubod etting [1, 283].

Baytda o‘z nomangni, ya‘ni amallar daftaringni qancha yaxshi amallar bilan to‘ldirsang ham, umr nihoyasida yo‘lingdan adashsang va Yaratganga kufr keltirsang, bu nomai a‘moling qora bo‘ladi, barcha solih amallaring habata bo‘lib, sinadi va ularning hech biridan senga sud - foyda bo‘lmaydi. Bu holatdan so‘ng o‘zingni Jamshid yoki Qubod deb bilaver, degan fikr ta‘kidlanadi. Chunki bu ikki obraz mol-dunyoga hirs qo‘yishi tufayli o‘z nafsini jilovlay bilmay qolishadi, ya‘ni Jamshid mol-mulkka, shuhratga, shon-sharafga ruju qo‘yib, xudolik da‘vo qilgan bo‘lsa, “Qubod binni Firuz – Eronda hukmronlik qilgan sosoniy podshoh. U mazdakiylikni qabul etgani uchun bir muddat taxtdan chetlashtiriladi” [3, 203].

Ey Navoiy, g‘am yema boshingg‘a bo‘lsun mustadom,


Ulki, bordur vorisi taxti Jam-u toji Qubod [1, 114].

“Topqali xoki taning‘a novaki ishqing kushod” deb boshlanuvchi g‘azaldan olingan bu baytda Navoiy o‘z “men”iga qarata, ey Navoiy, Jamshid taxti va Qubod tojining vorisi bo‘lgan shoh toki boshingda soyabon ekan, sen g‘am yema, deydi. Bu o‘rinda endi Jamshidning quyosh nuridan porlab, barchani ko‘zini qamashtirgan, ulug‘vorlik va kuchli saltanat nishonasi bo‘lgan taxti e‘tiborga olingan. Binobarin, Jamshid shu taxti ostidagi jahon mulkini adl va dod bilan tuzgan edi. Ushbu taxt vorisi bo‘lgan zamona hukmdorining ham adolat bilan yurtni boshqarishi va haq talablarning arziini bee‘tibor qoldirmasligiga ishora qilish maqsadida shoir Jamshid va uning taxtini talmih qilib keltirgan.

Xulosa qilib aytganda, Jamshid talmihi Navoiy ijodini rang-barang bo‘yoqlar bilan bezaydi, unga takrorlanmas jilo beradi. Shoir devonlarida bot-bot kuzatiladigan Jamshid talmihlari zimmasiga yuklangan yuk bir-birini takrorlamaydi. Ularning har birida Jamshid timsoliga xos bo‘lgan xislatlar turli o‘rinlarda turlicha vazifani bajarib keladi. Alisher Navoiy baytlarini o‘qiganimizda ularning yangicha talqinini kashf eta boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Т.3. – Т.: Фан, 1988.
2. Алишер Навоий. Қаро кўзим. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
3. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. –Т.: “Sharq”, 2016.
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. –Т.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2012.
4. Jabborova M. Jamshid obrazining genezisiga doir// Oltin bitiklar. 2019. № 2. –В. 71-85.
5. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
6. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: ШАРҚ, 1999.



III. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI

“OSHIQNOMA” TURKUM DOSTONLARIDAGI SIFATLASHLARNING AYRIM KO‘RINISHLARI XUSUSIDA

Doniyor YULDASHYEV,

Filologiya fanlari doktori (DSc), UrDU dotsenti.

Guli RO‘ZIMOVA,

UrDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi paradigmatic hodisa sifatida qaraluvchi troplar va sintagmatik nuqtayi nazardan yondashiluvchi uslubiy figuralar, xususan, sifatlashlarning matn takomilidagi o‘rni, uning ko‘rinishlari, nutqning badiiyligini, obrazlilikni vujudga keltiruvchi, badiiy shaklni yaratuvchi vosita ekanligi yoritilgan.

Аннотация: В данной статье с синтагматической точки зрения рассматриваются тропы и стилистические фигуры в эпосе серии “Ошикнома”, в частности, роль метафоры, формы изобразительных средств, в развитии текста, его проявлений, инструмент, создающий художественность речи, образности, создающий художественную форму.

Abstract. In this article, tropes and stylistic figures the epics of the “Oshiqnoma” series, are approached from a syntagmatic point of view, in particular, the role of adjectivest, which is one of the oldest forms of visual means, in the development of the text, its manifestations, the tool that creates the artistry of speech, imagery, and creates an artistic form. it is highlighted.

Kalit so‘zlar: Lingvopoetika, sifatlash, tasviriy vositalar, trop, nutqiy figuralar, metafora, sinesteziya.

Ключевые слова: Языкознание, лингвофольклористика, изобразительные средства, троп, фигуры речи, метафора, синестезия.

Key words: Linguistics, linguo-folkloristics, pictorial means, trope, figures of speech, metaphor, synesthesia.

Badiiy nutqda qo‘llaniladigan barcha so‘zlar u yoki bu darajada tasviriylikni vujudga keltiradi. Chunki har qanday so‘z matnda o‘ziga xos ma’no ifodalaydi, voqea-hodisaning tasvirini yaratadi. Shuningdek, tilda tasviriylikni vujudga keltiruvchi maxsus vositalar ham mavjud bo‘lib, ular fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Shunday vositalardan biri sifatlash (epitet)dir. Sifatlash tropning bir turi bo‘lib, unga badiiy obrazlilikni ta’minlovchi tasviriy vosita sifatida qaralgan [Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М, 1961; Стилистика русского языка. – М, 1969; Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л, 1973; Долинин К.А. Стилистика французского языка. – Л, 1978]. .

Sifatlash umumslubiy vosita. Binobarin, nutqning barcha turlarida bu vositadan foydalaniladi. U narsa, hodisaning biror xususiyatini belgi sifatida alohida ta'riflash vazifasini bajaruvchi tasviriy vositadir.

Sifatlashlar mohiyatan aniqlovchilarga yaqin bo'lib, aniqlovchilardan emotsional ta'sirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi. M.Mukarramov sifatlash va aniqlovchilarning ma'no va grammatik jihatdan farqlanuvchi beshta xususiyatini ajratib ko'rsatgan [Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Б. 15-16.].

A.T.Rubaylo sifatlash tropning metafora va metanomiyaga yaqin bo'lgan turi ekanligini ta'kidlab uni badiiy aniqlovchi deb ataydi [Рубайло А.Т. Художественные средства языка. – М, 1961. С. 46.]. R. Qo'ng'urov sifatlashning doimiy aniqlovchilardan farqli ravishda ekspressivligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi kabi xususiyatlari mavjudligini ta'kidlab, uni poetik aniqlovchi deb ataydi [Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Б. 27.]. Darhaqiqat, sifatlashlar, obrazlilik darajasining kuchliligi, emosional-ekspressivligi va nihoyat badiiy nutqqa xosligi jihatidan aniqlovchilardan keskin farq qiladi. M.Kojina sifatlashni narsa-hodisani obrazli ifodalovchi, xarakterli xususiyatlarini ta'kidlovchi, ko'proq badiiy nutqda qo'llanilib, estetik vazifa bajaruvchi so'z sifatida talqin qiladi [Кожина М.И. Стилистика русского языка. – С. 97.]. Shu nuqtayi nazardan badiiy matnlarda uchraydigan sifatlashlarni xarakteriga ko'ra ikki turga ajratish mumkin: A. umumnutq sifatlashlari; B. badiiy sifatlashlar.

Umunnutq sifatlashlarida obrazlilik, ekspressivlik kuchli bo'lmaydi, umumnutq sifatlashlarida narsa, hodisalarning biror tomoni, hammaga Ma'lum bo'lgan belgi asosida ko'rsatiladi. Sifatlashlarning bu turi ham ifodadorlik ko'lami bilan ajralib turadi. Bunday sifatlashlar inson holatini ta'riflash vazifasini bajaradi va badiiy asarlarda bu tipdagi sifatlashlar orqali inson o'y-kechinmalari, narsa-hodisaga munosabati kabilar ifodalanadi. Masalan, "Oshiqnoma" turkumi dostonlarida ummunnutq sifatlashlarining inson holatini tasvirlash jarayonining obrazli dalilanganligini uchramiz *Bir ruh, bir jon, bir tanli ikki oshiq* (8-kitob, Sh.(y.v.) 118-b.) – *Ikki oshiq bir ruh, bir jon, bir tanli*, // *Bedov otli tabla, shoh sifatli ko'shki ayvon, muhabbatli beklar* (8-kitob, Sh.(y.v.) 143-b.) – *Tabla to'la, bedov otli, Ko'shki ayvon shoh sifatli, Bizning birlan muhabbatli, Beklar ko'rindi-ko'rindi*, // *Bemuruvvat qahbo falak* (8-kitob, Sh.(y.v.) 131-b.) – *Bemuruvvat qahbo falak alindin, Bag'rim shona-shona tilindi turnam*.

Bu misolda inson holatini ifodalanishi va o'y-kechinmalarning narsa-hodisaga munosabati orqali aniq ta'riflangan. Ushbu sifatlash personaj kayfiyatini ko'rsatuvchi, unga bir paytlar sodir bo'lgan allaqanday voqeaga eslatib turuvchi vosita vazifasini bajargan.

Badiiy sifatlashlar ko'pincha individual so'z qo'llanilishining namunasi bo'lib, ifodadagi favquloddalik, yangilik, emotsional-ekspressivlikning kuchayishi uchun imkon yaratadi. Bunday sifatlashlar orqali narsa-hodisa kishi xayolida obrazli gavdalanadi. Badiiy sifatlashlarda ko'pincha ma'no metaforik asosda, yoki o'xshatish-sifatlash asosida vujudga keladi. Badiiy matnlardagi sifatlashlarni sinchiklab kuzatish shunday xulosaga olib keldiki, sifatlashning metaforik sifatlash turi ko'proq poetik

asarlarga xos bo‘lib, nasriy asarlarda bu tur u darajada faol emas. Shu boisdan nasriy matnlarda sifatlashlarning badiiy so‘zlar vujudga kelgan ko‘rinishlari ma’no xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Doston matnida ham tafakkur mahsuli bo‘lgan badiiy sifatlashlar ham yetarlicha uchraydi Masalan, Ajab totli shaftoli (2-kitob, OG‘SH. 45-b.) – *Bog‘boningiz bog‘bon o‘tli, Shaftolingiz ajab totli // Aqiq dudoqli* (7-kitob, Dav. 39-b.) – *La‘li, marjon taqqan, aqiq dudoqli // Qo‘yni jannat parizod bila kechur.* Arab o‘tli bek o‘g‘lonlar (8-kitob, AK. 23-b.) – *Asl arab o‘tli bek o‘g‘lonlari, Tabriza bir bo‘lak so‘na keldimi?*

Badiiy sifatlashlar nutqqa pardozi berish, predmetlarning xarakterli tomonlarini badiiy bo‘yoqdor holda ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi. Sifatlashlarning bu turi emotsional obrazlilikning kuchliligi bilan farqlanadi. Bunday sifatlashlarda aksariyat hollarda bir necha sifatlovchi belgi mavjud bo‘ladi. Masalan, Bilakuzukli qo‘l (8-kitob, Sh.(y.v.) 83-b.) – *Qo‘li bilak uzuklining, Dod alindan, do‘st alindan // Binafsha bo‘y* (2-kitob, OG‘Sh. 22-b.) – *Bu binafsha bo‘ying egib yig‘lama, To‘ti kabi o‘zing so‘za chog‘lama // Bir boqishli humo* (2-kitob, Xir. 232-b.) – *Gul yuzlari ola mangzar, Xush sifatli bola mangzar, Bir boqishli humoya mangzar, Sarvi Xiromon ko‘rindi.* Keltirilgan sifatlashlardagi obrazlilik predmetlardagi bir necha belgining mavjudligi asosida kuchaygan. Zero, sifatlashlarning bu turida predmet belgisini o‘ta aniq, butun tafsiloti bilan ajratib ko‘rsatilishi asosida ekspressivlik darajasi ham kuchayib boradi. Badiiy nasr sifatlashlarga boy bo‘lib, unda doimiy sifatlashlar bilan bir qatorda individual sifatlashlar ham ko‘plab uchraydi [Б.Умуркулов Ўзбек бадиий насрининг лингво-услужий шаклланиш асослари Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. –Тошкент, 2020. – 271 б.]. . Doston matnida qo‘llanilgan quyidagi misollar individual sifatlashlarga misoldir: Bir qatra suva mangzar yuz (8-kitob, Sh.(y.v.) 107-b.) – *Yuzingni mangzatdim bir qatra suva // Bodom qaboqli, Yuzi mengli, Qizil olma yanoqli, La‘li-marjon, Aqiq yanglig‘ saqoqli, Qandday asal shirin tilli qiz* (7-kitob, Dav. 97-b.) – *Qiz juvoni turfa, bodom qaboqli, Yuzi mengli, qizil olma yanoqli, La‘li-marjon, aqiq yanglig‘ saqoqli, Qandday asal shirin tillari bordur // Bo‘g‘in-bo‘g‘in xinoli o‘n barmoq* (8-kitob, Sh.(y.v.) 137-b.) – *O‘n barmog‘i bo‘g‘in-bo‘g‘in xinolim.*

Umuman, badiiy nasrda sifatlashlar predmet, narsa va hodisaning a) belgi xususiyatini bildirgan so‘zlar yordamida hosil bo‘ladi: payvasta qosh, tig‘iz kiprik, bodomgul do‘ppi, tiniq, jozibali yuz, nozik bo‘yin, latif kuy, sarin shabada, mayin shabada va boshqalar. Sifatlashlarning belgi-xususiyatlarni bildiruvchi ushbu so‘zlar asosida vujudga kelgan tiplari doimiy sifatlashlardir. Biroq badiiy so‘zlar asosida vujudga kelgan sifatlashlar nasriy nutq uchungina doimiy, umumnutqda bunday sifatlashlardan foydalanilmaydi. b) predmet, narsahodisaning holatini ifodalaydigan so‘zlar vositasida hosil bo‘lgan: jimjit sahro, o‘tkir qarash, mayus yuz, uyqusiz ko‘z, hissiz nazar va boshqalar. Rang bildiruvchi sifatlashlarning biror predmetning rangiga qiyoslash orqali hosil bo‘lgan turlari ta‘sirchanlik va obrazlilik darajasining kuchliligi bilan ajralib turadi. Chunki sifatlashning bu turida ham o‘xshatish, ham sifatlash holati mavjud bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi

paradigmatik hodisa sifatida qaraluvchi troplar va sintagmatik nuqtayi nazardan yondashiluvchi uslubiy figuralarning matn takomilidagi oʻrni beqiyos. Xususan, sifatlashlar nutqning badiiyligini, obrazlilikni vujudga keltiruvchi, badiiy shaklni yaratuvchi vosita sanaladi. Sifatlashlar maʼnoni ifodalashda, narsa-hodisalarni tavsiflashda chogʻishtirishga asoslanishi bilan dostonida takrorlanmas fikr ifodalaydi va ularning lingvopoetik imkoniyat koʻlami kengdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М, 1961; Стилистика русского языка. – М, 1969; Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л, 1973; Долинин К.А. Стилистика французского языка. – Л, 1978
2. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Б. 15-16.
3. Рубайло А.Т. Художественные средства языка. – М, 1961. С. 46.
4. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Б. 27.
5. Кожина М.И. Стилистика русского языка. – С. 97.
6. Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. –Тошкент, 2020. – 271 б.
7. Хоразм дostonлари. Ошиқнома. 1-китоб \ \ Масъул муҳаррир С.Р.Сапарбоев. – Урганч: “Хоразм” нашриёти, 2005.
8. Хоразм дostonлари. Ошиқнома. 2-китоб \ \ Масъул муҳаррир С.Р.Сапарбоев. – Урганч: “Хоразм” нашриёти, 2005.
9. Хоразм дostonлари. Ошиқнома. 7-китоб \ \ Масъул муҳаррир С.Р.Сапарбоев. – Урганч: “Хоразм” нашриёти, 2018.
10. Хоразм дostonлари. Ошиқнома. 8-китоб \ \ Масъул муҳаррир С.Р.Сапарбоев. – Урганч: “Хоразм” нашриёти, 2019.



QUTB XORAZMIYNING “XUSRAV VA SHIRIN” ASARIDA ТОПОПОЕТОНИМЛАР MASALASI

Doniyor YULDASHYEV,
Filologiya fanlari doktori, UrDU dotsenti
Asaljon BOTIROVA,
UrDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” dostonidagi poetonimlar, xususan, topopoetonimlarning lingvopoetik tahlili masalasi asarda qoʻllangan ayrim toponimlar misolida ochib berilgan.

Kalit soʻzlar. Onomastik birlik, allyuziv nom, poetonim, onomapoetika, poetik toponim, topopoetonim, kosmopoetonim, lingvopoetika, onomastik metafora.

Har bir xalqning millat sifatidagi oʻziga xosligini koʻrsatuvchi muhim omillardan biri bu badiiy adabiyotidir. Badiiy adabiyotlarda qoʻllanuvchi turli birliklarning tadqiqi esa oʻsha xalq va mazkur adabiyotga xos boʻlgan tarixiy, lisoniy va madaniy boyliklarini ham ochib beradi. Shu jihatdan badiiy asarlarda qoʻllanadigan onomastik birliklar ham badiiyatni taʼminlaydigan muhim unsurlardan biridir. Buni, ayniqsa,

poetonimlar misolida yaqqol kuzatishimiz mumkin. Chunki poetonimlar asarda biron badiiy maqsad bilan qoʻllangan nomlardir. Poetonimlar masalasi shu kungacha bir qancha olimlar tomonidan oʻrganilgan. Bu mavzuga bagʻishlangan ilk tadqiqotlar V.N.Mixaylov, L.I.Kolokolova, S.I.Zinin, V.M.Kalinkin kabi olimlar tomonidan olib borilgan [4]. Oʻzbek tilshunosligida ham badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati namunasi ostida oʻrganilgan ishlar bir qancha [3]. Lekin shunday boʻlsa ham, aynan onomastik birliklar, onomapoetonimlarning badiiy matndagi oʻrni va ularning lingvopoetik xususiyatlari haligacha mukammal tarzda oʻrganilgan emas.

Turkiy yodnomalar, jumladan, Xorazm yodnomalari tilidagi poetonimlar masalasi katta bir tadqiqot manbayidir. Shu yuzasidan biz ushbu ishda Xorazm yodnomalaridan biri boʻlmish Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” asaridagi poetonimlar masalasiga qisqacha toʻxtaldik.

Bilamizki, poetonimlar mavzuiy jihatdan antropoetonim, topopoetonim, zoopoetonim, kosmopoetonim kabi turlarga ham boʻlinadi [1]. Shu jihatdan har bir asardagi poetonimlarni mavzuiy jihatdan ham tadqiq qilish masalasi dolzarbdir. Ushbu ishda esa yuqoridagi badiiy asarda qoʻllangan topopoetonimlarning tahlili bilan chegaralanamiz.

Badiiy asarda qoʻllangan turli birliklar singari onomastik birliklar, jumladan, toponimlar ham yozuvchining badiiy niyatiga xizmat qiladi. Bunday toponimlar asarda estetik vazifa bajargan holda topopoetonim vazifasida keladi. Jahon tilshunosligida toponimlarning badiiy matndagi poetik xususiyatlari haqida T.K.Polyakova, I.V.Gruznova, L.A.Dolbunova kabilarning ishlari alohida eʼtiborga molikdir [4]. Oʻzbek tilshunosligida E.Begmatov oʻz davrida toponimlarni lisoniy va maʼnaviy hodisa sifatida tadqiq qilgan edi.

Biz tadqiqiga qoʻl urayotgan “Xusrav va Shirin” dostoni ham turli poetik toponimlar – topopoetonimlarga boydir. Asarda *Qof*, *Arman*, *Eram bogʻi*, *Nil*, *Rum*, *Afrosiyob*, *Jayhun*, *Xuroson*, *Besitun*, *Dajla*, *Bagʻdod*, *Bobil* kabi bir qancha topopoetonimlarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan,

*Tamomkim umri oʻn toʻrt yoshqa yetti,
Bilik semurgʻi tan Qofini tutti.* [2; 344].

Ushbu baytda qoʻllangan *Qof* toponimi oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida uchraydigan afsonaviy togʻ nomi boʻlib, *Koʻhi Qof* shaklida ham uchraydi. Rivoyatlarga koʻra, u yerda parilar, Semurgʻ va Anqo qushlari ham yashaydi. *Qof* – butun dunyoni oʻrab olgan togʻ tarzida ham tasavvur qilinadi. Yuqoridagi oʻrinda koʻchma maʼnoda qoʻllanib, kuchli ekspressivlikni yuzaga keltirgan. Yaʼni bu onomastik birlik baytda Xusravning oʻn toʻrt yoshga yetib, bilimi *Qof* togʻigacha yetganiga ishora tarzida allyuziv nom sifatida qoʻllanib, biror manzilning haddan ziyod olisligini taʼkidlash uchun xizmat qilgan.

*Ajoyibroq iki laʼli Badaxshon,
Koʻrarman boʻlmish ul dur uzra gʻalton...* [2; 352].

Badaxshon – tarixiy oʻlka nomi. Amudaryoning yuqori oqimida, daryoning har ikkala sohilida joylashgan hudud. *Badaxshon* qadimdan savdo markazi boʻlib, oʻzining

la'l, yoqut va zumradlari bilan mashhur. Shuning uchun ham Badaxshon la'lini butun dunyo tan oladi. Badiiy asarda o'xshatish vazifasida ramziy ma'noda kelib, matn ta'sirchanligini oshiradi. Yuqoridagi baytda ham Badaxshon topopoetonimi metaforik ma'noda qo'llanib, badiiy mazmuni ekspressiv tarzda ifodalashga xizmat qilgan.

*Aning ul nargisi maxmurini aysam,
Tegar rayhon **Eram bog'inda** har dam. [2; 354].*

Baytda qo'llangan *Eram bog'i* toponimi Sharq xalqlari og'zaki ijodidagi parilar makoni bo'lib, *Bog'i Eram, Iram bog'i* shakllarida ham qo'llanadi. *Eram bog'i* gulzor, mevazor va o'tloqzorlar bilan qoplangan beqiyos go'zal afsonaviy bog' sifatida talqin qilinadi. Badiiy matnlarda "rohatbaxsh makon, beqiyos go'zal joy" yoki "umuman, go'zallik timsoli" sifatida qo'llanadi. Yuqoridagi baytda ham Shirinning go'zalligini tasvirlashda zarur birlik sifatida qo'llanib, onomastik metaforani hosil qilgan. Toponim asarda boshqa o'rinlarda ham uchraydi:

Eram bog'i mengiz turluk chechaklar,
Aro Xusrav tushub shaftolu terar.. [2; 421].
Asarda gidronimlarni ham kuzatishimiz mumkin:
*Oqib bo'ldi eranlar qoni **Jayhun,**
Qiyomatdin nishon bilgurdi ushul kun.. [2;434].*

Jayhun – Amudaryoning qadimiy nomlaridan biri. Ushbu nom she'riy matnlarda Amudaryo nomining o'rnida qo'llanib, yuqori poetik uslubni yaratishda vosita bo'lgan. Jumladan, yuqoridagi baytda ham *Jayhun* topopoetonimi metaforik ma'noda qo'llanib, matnda ifodalangan g'oyaning shakllanishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, ushbu toponim ijodkorning muayyan hududga mansubligini ko'rsatuvchi vosita bo'lgan desak ham bo'ladi:

*Tamug' ohim qotinda zarra uchg'un,
Erur qatra yoshim uskinda **Jayhun** [2; 467].*

Asarda *Besitun* mifotoponimini ham uchratishimiz mumkin:

*Solib ul tog'ni Xusrav aydikim, bor,
Kim emdi **Besitun** teb atayurlar.. [2;487].*

Besitun tog'i xalq og'zaki ijodida uchraydigan tog' nomidir. Asarda *Bestun* shaklida ham uchraydi.

*Kulub Shirin ayittikim borayin.
Bukun ul **Bestun** tog'in ko'rayin.. [2; 494].*

*Izib, ul **Bestun** tog'ing' a ani,
Qilu ko'r tedilar ushbu jafoni... [2; 497].*

Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" dostonida qo'llangan onomastik birliklarning ichida topopoetonimlarning salmog'i ham anchadir. Maqolada biz ulardan bir nechtasini ko'rdik, xolos. Bu kabi tadqiqotlar, jumladan, onomastik birliklarning badiiy matndagi poetik xususiyatlari – onomapoetika sohosi tilshunosligimizning nisbatan yangi va keng ommalashayotgan sohalaridandir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har qanday badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetik jihatdan ijodkorning subyektiv munosabatini ifodalab keluvchi, matni

shakllantiruvchi vosita hamdir. Shu o‘rinda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, badiiy asar tilida alohida estetik vazifa bajarishi jihatidan topopoetonimlarning o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andaniyozova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi: Filol. fan. falsafa doktori diss. avtoref. – Toshkent, 2017.

2. Qutb Xorazmiy. Xusrav va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986.// www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Махмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; Шу муаллиф. Абдулла Қаххор хикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36; Шу муаллиф. Шайхода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б.12-17; Якуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2000; Шу муаллиф. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009.

4. Михайлов В.Н. Собственные имена персонажей русской художественной литературы XVIII и первой половины XIX в, их функции и словообразование: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М, 1956; Колоколова Л.И. Ономастика в художественной речи А.П.Чехова: Автореф. дисс. ... канд.филол. наук. – Киев, 1970; Зинин С.И. Имена персонажей в художественной литературе и фольклоре / С.И.Зинин, А.Г. Степанов // Антропонимика. – М, 1970. – С. 330–355. Калинин В.М. Теоретические основы поэтической ономастики: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Киев, 2000; Калинин В.М. Поэтика онама. – Донецк, 1999.

5. Полякова Т.К. О поэтической топономастике в стихах М.В.Исаковского // Смоленский край в истории русской культуры. – Смоленск, 1973. – С. 104-109; Грузнова И.В. Функциональная значимость топонимов в структуре англоязычного поэтического текста. – Саранск, 2005. – С . 98-101; Долбунова Л.А, Дюкова Е.В. Роль топонимов в формировании художественного произведения / Лингвистические проблемы коммуникации. – Саранск, 2002. – С. 96-97.



“OSHIQNOMA” DOSTONLARI TILIDA LEKSIK ARXAIZMLARNING QO‘LLANILISHI

Sarvar RO‘ZIMBOYEV,
f.f.n, Urganch davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Oshiqnoma” dostonlari tilida qo‘llanilgan zamondosh qatlam, xususan, arxaizmlar tahlilga tortilgan. Bunda asosiy e‘tibor leksik arxaizmlarga qaratilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется устаревшая лексика, в частности архаизмы, использованные в эпосе “Ашикнаме”. Основное внимание уделяется лексическим архаизмам.

Annotation: This article analyzes outdated vocabulary, in particular archaisms used in the epic “Ashikname”. The main attention is paid to lexical archaisms.

Kalit so‘zlar: *doston, zamondosh qatlam, arxaizm, leksik arxaizm, arxaizm-
leksema, arxaizm-semema, istorizm.*

Ключевые слова: эпос, устаревшая лексика, архаизм, лексический архаизм, историзм.

Key words: epic, outdated vocabulary, archaism, lexical archaism, historicism.

Til, ayniqsa, uning lug‘ati doim o‘shish-o‘zgarishda. Bunday o‘shish-o‘zgarish tez va uzil-kesil sodir bo‘lmaydi. Shu sababli zamonaviyligi jihatidan har xil bo‘lgan lug‘aviy birliklar yonma-yon yashab turadi. Lug‘at boyligining zamonaviyligi jihatidan ikki asosiy qatlam mavjud bo‘ladi: zamonaviy qatlam va zamondosh qatlam.

Zamonaviy qatlamga bugungi til amaliyoti nuqtayi nazaridan odatdagi deb, rasmana deb qaraluvchi lug‘aviy birliklar kiritiladi. Bu qatlamdagi so‘z va iboralar na yangilik bo‘yog‘iga va na eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lmaydi. Lug‘aviy birliklarning ko‘pchiligi xuddi shunday so‘z va iboralardir.

Yangilik yoki eskilik bo‘yog‘i bor so‘z va iboralar lug‘at boyligining zamondosh qatlamini tashkil etadi. Bunday qatlam tilning har bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo‘ladi. Chunki lug‘at boyligi doim o‘shish-o‘zgarib turadi. Shu sababli lug‘at boyligida zamonaviy qatlam bilan bir qatorda, zamondosh qatlam ham yashaydi.

Zamondosh qatlamda o‘zaro biri ikkinchisining aksi bo‘lgan hodisalar mavjud: yangilik bo‘yog‘i bor lug‘aviy birliklar va eskilik bo‘yog‘i bor lug‘aviy birliklar. Dostonlar tilida birinchi tip, ya‘ni neologizmlarni o‘rganish imkoniyati yo‘q. Chunki, ularni bizdan ancha tarixiy davr ajratib turadi va ulardan yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘zlarni axtarish mantiqsizdir. Lekin shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, baxshilar nutqida doston ijrosi jarayonida baxshi o‘zi davri uchun neologizm bo‘lgan ayrim so‘zlarni qo‘llashi tabiiy. S.R.Ro‘zimboyevning og‘zaki ma‘lumotiga ko‘ra, Bola baxshi Abdullayev ba‘zan “chiroq” so‘zi o‘rnida “lampochka” so‘zini ham qo‘llagan o‘rinlar bo‘lgan ekan. Ayrim hollarda shunday bo‘lgan holda ham, bular tilshunoslik nuqtayi nazaridan individual neologizm deb qaraladi va bu esa leksik tadqiqotga manba bo‘lolmaydi. Shuning uchun dostonlar tilida zamondosh leksika mavzusida eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan birliklar - arxaizm va istorizmlar tushuniladi. Ma‘lumki, arxaizm mavjud voqelikning boshqa bir o‘zgacha nomidir. Istorizm esa o‘tmish voqelikning nomi bo‘lib, hozirgi tilda uning o‘rnini bosa oluvchi boshqa lug‘aviy birlik mavjud emas. Arxaizm o‘zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi lug‘aviy birlik bilan yonma-yon yashaydi. Istorizm esa, odatda, o‘zi anglatgan o‘tmish voqelikning yagona nomi bo‘ladi.

Biz tahlil qilayotgan dostonlarimizni XIX asrda ko‘chirilganini hisobga olsak, ular matni tarkibidagi arxaizmlar, tarixiy so‘zlar orasida shunday so‘zlar ham ishlatiladiki, bu so‘zlarda XIX asr nuqtayi nazaridan ham eskilik bo‘yog‘i mavjud bo‘lgan. Masalan, “Shahriyor” dostonida *fir‘avn*, “Roiy Chin” dostonida *fag‘furi* so‘zlari ishlatilgan. Tarixdan ma‘lumki, fir‘avn qadimgi Misr podshohlarining nomi sifatida qo‘llanilgan.

Ushbu maqolamizda asosiy e‘tibor arxaizmlarga qaratilgani uchun istorizmlarga keng to‘xtalib o‘tirmadik.

Ilmiy adabiyotlardan ma‘lumki, **arxaizm** (yunoncha arhaios– “qadimgi”) o‘z o‘rnini boshqa leksemaga bo‘shatib bergan leksik birlik. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida

ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgilari iste'moldan chiqib ketadi. Misollar: [*ulus*]. (xalq), [*lang*]. (cho'loq), [*tilmoch*]. (tarjimon).[5:162-bet].

Leksik arxaizmlar - hozirgi paytda mavjud bo'lgan voqelikning eskirgan nomi yoki, aksincha, hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi (sememasi). Demak, eskirish jarayoni leksemaga yaxlit holda yoki uning bir qismiga (ma'nolaridan biriga) aloqador bo'ladi, shunga ko'ra leksik arxaizm ikki turga bo'linadi. **1. Arxaizm–leksema** - hozirgi paytda mavjud bo'lgan voqelikning eskirgan nomi: *lab* (odam organizmidagi a'zoldan birining hozirgi nomi) – *dudoq* (shu a'zoning eskirgan nomi, arxaizm-leksema); **2. Arxaizm–semema** - hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi. Masalan: *g'am* so'zi hozirgi o'zbek tilida “qayg'u”, “xasrat”, “alam”, “tashvish”, “kulfat” ma'nolarida qo'llanadi, o'tmishda (eski o'zbek tilida) esa bu so'z “ishq”, “muhabbat”, “sevgi” ma'nolarini ham ifodalagan.[2:205-206-bet.].

Leksik arxaizmining har ikki turi leksik ma'noga asoslanadi. Arxaizm-leksema monosemantik so'zning eskirishi natijasida, arxaizm-semema esa polisemantik so'zga xos leksik ma'nolardan birining eskirishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, dostonlar tilida qo'llanilgan *yetim* so'zining o'z lug'aviy ma'nosi ustiga qo'shimcha tarzda “yollanma ishchi” ma'nosi ana shu tipga yaqqol misol bo'la oladi: ...*emdi sen borib, Shohsanambog'bonig'ayetim bo'lib, bog'bon bila chaman bog'lab yuborsang kerak* [3:14-6er].

Dostonlar tilida ham arxaizm-sememaga nisbatan arxaizm-leksema ko'proq uchraydi. Lug'aviy birlikning eski bo'lishi boshqa-yu, eskilik bo'yog'iga ega bo'lishi boshqa. Arxaizm hozirgi tilning lug'atiga xos birlik hisoblanadi; boshqa lug'aviy birliklardan eskilik bo'yog'i borligi bilangina ajralib turadi.

Dostonlar tilida qo'llangan arxaik birliklar haqida gapirar ekanmiz, masalaning ikki jihatiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlashni istar edik: birinchidan, undagi lug'aviy birliklarni hamda grammatik vositalarni arxaik birliklar sifatida ko'rsatishda bugungi tilimizga nisbatan ish ko'riladi. Boshqacha qilib aytganda, dostonlar tilidagi u yoki bu birlikni doston kitobat qilingan davr uchun faol yoki nafaol ekanligini aniqlash o'ta mushkul. Ikkinchidan, dostonlar tilida ham arxaizmlar leksika doirasi bilan cheklanmaydi. Ularni leksik, morfologik, sintaktik tarzida tasnif qilgan holda tekshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Doston tilida quyidagi kabi leksik arxaizmlar faol ishlatilganini ko'rish mumkin:

Ba'dazon. “Undan keyin” ma'nosidagi bu so'z o'zbek tilining izohli lug'atida “ba'daz” shaklida izohlangan.[6:344-bet]. Bu so'z quyidagi qismlardan tashkil topgan: “ba'd” arabcha so'z bo'lib, “keyin”, “so'ng” ma'nolarini beradi, “az” fors tilidagi asosiy predloglardan biri va asosan, o'zbek tilidagi **-dan** chiqish kelishigiga to'g'ri keladi. “On” esa fors tilidagi uzoqdagi predmet, shaxs, voqea-hodisani ko'rsatish uchun ishlatiladigan ko'rsatish olmoshi. Bu so'z ham doston tilidagi ko'plab arxaizmlar kabi uni ko'chirgan kotib uslubiga muvofiq ishlatilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Xalq dostonlarida bu mazmunda “andin so'ng” birikmasi ham faol ishlatiladi: *Ba'dazon Hasanxon vazir vafot topdi* [3:7-bet].

Havl so'zi aslida arab tiliga mansub bo'lib, uning birlamchi ma'nosi

“qo‘rqinch”dir. Xorazm shevalarida esa ma’no kengayishiga uchragan va “shoshish” ma’nosi kasb etgan. Shevalarimizda “havlatmak” fe’lining asosi ham ayni shu so‘zga bog‘lanadi. Doston tilida ham uning “shoshish” mazmuni o‘z aksini topgan. Ana shu e’tibor bilan “Havl bilan” birikmasi esa ravish holi hosil qiladi: *G‘aribjon **havli bilan maktabga bordi*** [3:7-bet].

Purxun so‘zi ham eroniy qatlamga mansub so‘zlardan biri bo‘lib, aslan ikki tarkibiy qismdan tashkil topgan: “pur” – to‘la, ko‘p ma’nosida. Bu ma’noda ushbu so‘z adabiy tilimizdagi “purhikmat”, “purma’no” kabi so‘zlarda ikkinchi tarkibiy qism sifatida ishtirok etadi. “Xun” ham forsiy so‘z bo‘lib, uning ma’nosi “qon”dir. **Purxun** o‘zbek tiliga o‘zlashgan forscha so‘zlardan biri sifatida Abbosali Vafoiy va SHERALI Avazmetovlarning “O‘zbek tiliga o‘zlashgan forscha so‘zlar lug‘ati”da qayd qilinmagan. Buning sababi mualliflar asosan forsiy o‘zlashmalarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol lug‘aviy birliklarini tanlaganligidadir. Masalan:

*Jafo birla **purxun** etib,
Ko‘zda yoshni Jayxun etib,
Mani Layli-Majnun etib,
Qizqlik bozora solding* [3:9-bet].

Gardun ham eroniy qatlamga mansub so‘z bo‘lib, “osmon” ma’nosida ishlatilgan.[1:43-bet]. Bu so‘z o‘zbek mumtoz adabiyoti tilida ham, ma’no kengayishiga uchragan holda “taqdir” mazmunini kasb etgan o‘rinlarni ko‘plab uchratamiz. Bu holni, jumladan, dostonlar tilida ham kuzatamiz :

*Qo‘ymadi o‘z holima bu charxi kaj **gardun** mani,
Hajr dashtida quyundek etdi sargardon mani...* [3:11-bet].

Mohu sol birikmasi ham tarixan eroniy tillarga mansub birliklardan sanaladi. “Moh” so‘zi fors-tojik tilida “oy” ma’nosini anglatadi, “sol” esa “yil” demakdir. “Moh” fors-tojik tilida, o‘zbek tilidagidek, osmon jismi ma’nosida ham, taqvimiy hisob ma’nosida ham ishlatiladi. Dostonda ushbu birikma badiiy talab bilan qo‘llanilgani quyidagi parchada yaqqol ko‘rinadi. Masalan:

*Qaydaki zavoldur, qaydaki visol,
Yig‘lab o‘tsa kerak necha **mohu sol**.
Kel, qocholi mani durust yo‘la sol,
Dushman biza yuzin chitdi, G‘aribjon* [3:11-bet].

Ko‘rinadiki, matnda ushbu arxaizm badiyat talabi bilan, ya’ni tajnis qo‘llash mahorati namoyishi bilan yuzaga kelmoqda. “Yil” ma’nosidagi forsiy “sol” so‘zi va turkiy “solmoq” fe’lining buyruq shakli orqali omofoma hosil qilingan.

Abri navbahor - forsiy izofa orqali birikkan ushbu so‘zlar aynan “yangi bahor buluti” degan ma’noni anglatadi. O‘zbek mumtoz adabiyotida ham, dostonlar tilida “abri navbahor” birikmasi yig‘lab turgan ko‘zga tashbeh qilinadi. Bu ma’noda mumtoz adiblarimiz tilida yana “abri nayson”, ya’ni nayson (aprel) buluti birikmasi ham ishlatiladi. Ushbu birikma ham dostonlar mumtoz adabiyotni yaxshi bilgan, o‘zi ham tab’i nazmga ega insonlar tomonidan kitobat qilinganidan darak beradi. Masalan: *Ul bechora og‘asi G‘aribni ketarin bilib, zor-zor, chun **abri navbahor** yig‘lab bir g‘azal aytg‘oni bul turur* [3:15-bet].

Kuma - yerto‘la; Turkiy “ko‘mmoq” so‘ziga aloqador bo‘lib, dostonlar tilida yer osti qamog‘i ma’nosida keltirilgan. Masalan: *Mirzo Mamad qirq ming otlig‘ kofirni ul kumaga solib, «Sizlar hozir bo‘lib turinglar. Man aldab shul kumaga kirgizurman. Sizlar oldin olib qamab, ushlab bog‘langlar», deb o‘zi yuraberdi* [4:30-bet].

Chotma – yozgi chortoq. Bu ham turkiy so‘z bo‘lib, “yozgi ayvon” ma’nosiga ega. Masalan: *Horib-charchab chatmog‘a baytalini bog‘lab, chotmada choy ichayin deb o‘tirg‘onda Huriza‘faron miyig‘in tortib, qopidan kirib kela berdi. Men Uch gumbaz tog‘idagi chotmada sigir so‘yib bergan bolaman, dedi Go‘ro‘g‘li* [4:263-bet].

Mashvarat - maslahat yig‘ilishi. Arabcha “shavara” maslahat bermoq so‘zidan olingan bo‘lib, dostonlar tilida “yig‘ilish”, “majlis” ma’nolarida qo‘llanilgan. Masalan: *Armani elatini yig‘nab bu so‘zni mashvarat qildi* [3:205-bet].

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda dostonlarda qo‘llangan leksik arxaizmlar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: jamiyatdagi turli o‘zgarishlar natijasida ba’zi so‘zlar o‘rnini boshqa so‘zlar egallaydi, avvalgi so‘zlar ma’noviy jihatdan eskirib, arxaizmlar paydo bo‘ladi; dostonlarda arxaizmlar va ularning turlari ko‘p uchraydi. Buning sababi ushbu dostonlarning eski o‘zbek adabiy tilining o‘zida aks ettirishi bilan izohlanadi. Leksik arxaizmlar ko‘pchilikni tashkil qiladi, ularning aksariyati o‘zlashma qatlamga mansubligi bilan ajralib turadi, ular, asosan, muayyan narsalarning nomlarini ifodalashga xizmat qilgan. Dostonlar tilida ko‘pincha stilistik vosita sifatida qo‘llanilib, o‘zi ishlatilgan davr koloritini saqlashda katta o‘rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. – T.: Fan, 1993.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: «Talqin», 2005. – 272 b.
3. Ro‘zimboyev S.R. “Oshiqnoma” turkum dostonlari. 2-jild. “Xorazm” nashriyoti. Urganch – 2005.
4. Ro‘zimboyev S.R. “Oshiqnoma” turkum dostonlari. 3-jild. “Xorazm” nashriyoti. Urganch – 2008.
5. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R, Boqiyeva G.H, Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q, Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) bakalavri yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tayyorlangan. – Toshkent, 2010. 585 b.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. VI jildlik. / Mas‘ul muharrirlar A.Madvaliyev, D.Xudayberganova. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.



TIL VA MADANIYAT MUNOSABATI

Oysuluv SULTANOVA,
UrDU 2-kurs magistranti,

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va madaniyatning bir-biriga aloqasi tilda madaniyatning aks etishi xususida soʻz boradi.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимосвязь между языком и культурой, с акцентом на то, как культура отражается в языке.

Annotation: This article discusses the interconnection between language and culture in terms of the manifestation of culture through language.

Kalit soʻzlar: til, lingvokulturologiya, mifologik kod, antropomorf kod, teomorf kod, pretsedent nomlar.

Ключевые слова: язык, лингвокультурология, мифологический код, антропоморфный код, теоморфный код, прецедентные имена.

Key words: language, linguoculturology, mythological code, anthropomorphic code, theomorphic code, precedent names.

Keyingi yillar oʻzbek tilshunosligida antroposentrik tadqiqot yoʻnalishlari ancha keng amaliyotga tatbiq qilinib bormoqda. Eng soʻnggi davrlardagi tadqiqotlarga nazar tashlar ekanmiz, tilda inson omilini yetakchi oʻrinda tutuvchi lingvokulturologiya (tilning madaniyat bilan aloqalari), psixolingvistika (tilning inson ruhiyati bilan munosabati) yoki sotsiolingvistika (til va jamiyat oʻrtasidagi munosabat) kabilarga koʻp eʼtibor qaratilmoqda.

Oʻzbek tilshunosligida lingvokulturologiya, boshqa antroposentrik yoʻnalishlarga qaraganda, muayyan darajada yangi soha deyish toʻgʻriroq boʻladi. Shunday boʻlsa ham, oʻzbek tilshunosligida lingvokulturologiya yoʻnalishida bir qancha ishlar amalga oshirilganligini eʼtirof etish joiz deb hisoblaymiz. A.Nurmonov, N.Mahmudov, N.Saidrahimova, D.Xudayberganovalarning til va madaniyat munosabatlari borasida olib borgan tadqiqotlarini ana shu yoʻnalishdagi ishlar toifasiga kiritish mumkin. Ular orasida aynan shu sohaga bagʻishlangan Sh.Usmonovning “Lingvokulturologiya” deb nomlangan darsligi katta ilmiy ahamiyatga molik asardir.

Tilning madaniyat bilan aloqasi haqida gap borar ekan tildagi qaysi yarusda madaniy belgilar koʻproq aks etishiga alohida eʼtibor qaratish zarur. Chunki til yaruslarining barchasida ham madaniy belgilar, madaniyat bilan bogʻliq konseptlar birdek baravar aks etmasligi tabiiy holdir. Biz bu oʻrinda yarus atamasini tilga xos manbalar qatlamlari maʼnosida istifoda etdik. Demoqchimizki, muayyan bir tilga taalluqli manbalar, matnlar, boringki, materiallarning barcha tiplarida ham oʻsha tilning tashuvchisi etnosning madaniy belgilari birdek aks etmaydi.

Masalan, rasmiy yoki ilmiy uslubga xos matnlar bilan badiiy uslubga xos mantlarda madaniy belgilar birdek ifoda etolmaydi. Chunki, har bir matn tipining oʻzigagina tegishli boʻlgan ifoda vositalari, uslubga xos funksiyalari bunga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi, albatta. Bizningcha, madaniy konseptning toʻlaqonli namoyon boʻlishi, asosan, badiiy uslubga xos matnlar tilida kuzatiladi.

Badiiy uslub adabiy tilning ifodalanishi boʻlib, asosan, badiiy asar tiliga xosligi,

inson hayotining barcha tomonlarini qamrab olganligi uchun til va nutqning barcha vositalaridan foydalanadi. Badiiy nutq uslubida har bir uslubga xos bo'lgan "o'z doirasi bilan chegaralanish yo'q", unda hamma uslub materiallaridan foydalanish mumkin, hatto adabiy til me'yorlaridan chekinish ham mumkin. Bu uslubda adabiy tilga oid so'zlar bilan bir qatorda shevaga xos so'zlar ham, turli kasb-hunarga oid so'zlar, arxaik eskirgan so'zlar, hatto maxsus ilmiy atamalar ham ishlatilishi mumkin, biroq bularning barchasi janrga qarab tanlanadi va muayyan maqsadni ifodalashga xizmat qiladi¹.

Tilga taalluqli manbalar orasida aynan badiiy uslubga xos matnlarda madaniy belgilar eng faol kuzatilishi mumkinligini payqash hech kimga qiyinchilik tug'dirmaydi. Biroq mazkur uslubning muayyan janrlari orasida madaniy belgilar aks etishi masalasi ham o'ziga xos baholanishi mumkin. Haqiqatan ham, til insonlar orasidagi aloqa vositasigina emas, u o'zida go'zallikni, emotsional holatlarni, ruhiyat va madaniyatni ifoda etuvchi noyob tilsimdir. Yetakchi o'zbek olimi N.Mahmudovning quyidagi fikrlari ana shunday qarashlarimizning yuzaga kelishida zamin bo'lgan: "...Aslida kommunikativ vazifa bilan bir qatorda til dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqe'lantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi"².

Mazkur maqolamiz doirasida tilning ana shu kabi funksiyalaridan tilning madaniyatni aks ettirish jihatiga ko'proq e'tiborni qaratishga harakat qilamiz. Shoira Usmonovanning "Lingvokulturologiya" deb nomlangan darsligida til va madaniyatning munosabatlari borasida xorijiy tilshunoslik va o'zbek tilshunosligida qayd qilinayotgan quyidagi punktlarni keltiradi:

"Til – madaniyatning ko'zgusi bolib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yigindisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Til – madaniyat xazinas, sandig'i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi³.

Til – madaniyat tashuvchisi bo'lib, ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi.

Til – madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi..."⁴.

Endi mana shu belgilarning aksariyatini o'zida saqlab kelayotgan manba, ya'ni, xalq og'zaki ijodi janrlarini, ularda aks etib turgan tildagi madaniyatga aloqador unsurlarni esga olishga harakat qilamiz. Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof

¹ Muhiddinova X, Xudayberganova D va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'qituvchi, 2006. –B.189.

² Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. –Toshkent: Ma'naviyat, 1999. –B. 44.

³ Верецагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. –Москва: Русский язык, 1990. –С. 26.

⁴ Usmanova Sh. Keltirilgan manba. –B.7.

qilinadi¹. Madaniy belgilarni ifoda etuvchi bunday kodlarning bir qancha shakllari haqida soʻz yuritilgan². Jumladan, *mifologik kod*, *antropomorf kod*, *teomorf kod*, *kiyim-kechak kodi*, *rang-tus kodi* va boshqalar.

Xoʻsh, mazkur kriteriyalarga javob beruvchi oʻzbek tiliga oid manbalar sifatida eng munosibi sifatida qaysi manbalarni keltirish mumkin? Bizningcha, eng avval, folklor manbalarini, xususan, xalq dostonlarini keltirish mumkin deb oʻylaymiz. Masalan, *mifologik kod* haqida gap ketaganda, dostonlar mantlarida uchraydigan mifologik obrazlar va ular ishtirok etuvchi epizodlar koʻz oʻngimizga keladi.

Yoki *antropomorf kod* haqida gap ketganda, dostonlar mantlarida keng qoʻllanilgan, ilmiy adabiyotlarda “pretsedent nomlar³” deb yuritiluvchi kishi nomlarining dostonlar mantida koʻplab qoʻllanishi hodisalarini esga olamiz, albatta. Shuningdek, lingvokulturologiyadagi *teomorf kod* haqida fikr yuritar ekanmiz, xalq dostonlarimiz tilida koʻplab qoʻllanilgan diniy qarashlar bilan bogʻliq pretsedent nomlar, diniy qadriyatlarga aloqador marosimlar bilan bogʻliq lisoniy elementlarning aksariyati folklor manbalari, xususan, dostonlar mantlarida kuzatilishi eʼtiborga molik holatdir.

Shunday ekan, til va madaniyat bir-biriga uzluksiz bogʻliq va madaniy belgilar tilda aks etishi tabiiy. Bunday asarlarni tahlilga tortish esa tilshunoslik uchun ahamiyatlidir.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Mahmudov N. Maʼrifat manzillari. –Toshkent: Maʼnaviyat, 1999.
2. Muhiddinova X, Xudayberganova D va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Toshkent: Oʻqituvchi, 2006.
3. Верещагин Е.М, Костомаров В.Г. Язык и культура. –Москва: Русский язык, 1990.
4. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М, 2016. – №4.
5. ХудойбергANOVA Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.



BADIY TAKRORNING LINGVOPOETIK TAHLILI (OMON MATJON SHEʼRLARI MISOLIDA)

Dilbarjon ALLABERGANOVA,
UrDU oʻqituvchisi
E-mail: d.allaberganova@mail.ru

¹ Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М, 2016. – №4. – С. 79.

² Maslova V.A. Keltirilgan manba, 77-bet.

³ ХудойбергANOVA Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи.-Тошкент: Фан, 2013. –Б.92.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Omon Matjon she'rlarida qo'llangan badiiy takrorning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan bo'lib, shoirning bunday birliklardan mohirlik bilan foydalana bilishi, qo'llash usuli tadqiq qilingan.

Аннотация: В данной статье говорится об особенностях художественного повтора, используемых в стихотворениях Амона Маджона, умелом использовании поэтом таких единиц, изучается способ их употребления.

Annotation: This article talks about the specific features of artistic repetition used in the poems of Amon Matjon, the poet's skillful use of such units, and the way of using them are studied.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, Omon Matjon she'riyati lingvopoetikasi, badiiy takror, alliteratsiya, assonans.

Ключевые слова: лингвопоэтика, лингвопоэтика поэзии Омона Маджона, художественное повторение, аллитерация, ассонанс.

Key words: linguopoetics, linguopoetics of Omon Matjon's poetry, artistic repetition, alliteration, assonance.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tili, unda qo'llanilgan til birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini lingvopoetik jihatdan o'rganish bugungi tilshunosligimizning dolzarb masalalardan biri sanaladi. Darhaqiqat, ijodkorlar nutqiy jozibadorlik uchun tinimsiz izlanishda bo'ladilar. Ularni ifodalashning yangi-yangi vositalarini izlab topishga harakat qiladilar. Ana shuning natijasi sifatida badiiy adabiyot tilidagi uslubiy figuralarning soni birmuncha ko'p va badiiy ta'sirchanlikning yuzaga kelishidagi salmog'i kattadir. Ilmiy adabiyotlardagi dalillarni ko'zdan kechirish bu figuralarning antiteza, apokopa, asindeton (bog'lovchisizlik), assonans, tovushga taqlid, oksimoron, parallelizm, polisenditon (ko'p bog'lovchilik), sanash, ritorik murojaat, ustunlar tengligi, tenglik, kichraytirish, jim qolish, ellipsis, inversiya kabi turlari bo'lganliklarini va ularning ko'plari hozirgi zamon poeziyasida, jumladan o'zbek poeziyasida ham yashab kelayotganligini ko'rsatadi. Birgina takrorning o'ttizga yaqin, masalan, alliteratsiya, anafora, pleonazm, tavnologiya, sharh, epifora, kabi turlarining mavjudligi badiiy uslubda ifoda-tasvir imkoniyatlarining naqadar kengligidan dalolat beradi.

Keltirilgan uslubiy figuralarning hammasi ham o'zbek tili badiiy uslubida mahsuldor sanalmaydi. Buning ustiga ularning ko'pchiligi shu paytga qadar faqatgina adabiyotshunosligimizda lafziy san'atlar sifatida o'rganilib kelinayotgan tasviriy vositalarning aynan o'zidir (4,43).

Omon Matjon ijodida muhim ahamiyat kasb etuvchi va eng ko'p qo'llaniladigan lingvopoetik vositalardan biri takror hisoblanadi. She'riyatda takrori qo'llash bilan shoir kitobxonni tasvirlanayotgan kishining ichki olamiga olib kiradi, uning kechinmalari, his-tuyg'ulari bilan tanishtiradi. Bundan tashqari, kitobxonga ruhiy lazzat, orom bag'ishlashni ham nazarda tutadi. Ko'rinadiki, takrori qo'llashda ham lingvopoetikaga xos bo'lgan o'quvchi badiiy-estetik ehtiyojini qondirish maqsad qilib olinadi.

Jumladan, tovushlar takrori natijasida yuzaga keluvchi alliteratsiya asosida go'zal

she'rlar bitish she'riyatimizda azaldan shakllangan bo'lib, mumtoz adabiyotimizdagi tavze san'ati aynan shu hodisani ifodalovchi arxaik termin hisoblanadi. Alliteratsiya ko'pincha jarangsiz undosh tovushlar asosida hosil qilinadi. Erkin Vohidovning mashhur "Qaro qoshing..." deb boshlanuvchi she'ri *q* tovushi ohangdoshligi asosida yaratilgan edi. Aytmoqchimizki, o'zbek she'riyati va nasrida alliteratsiya imkoniyatlari keng. Omon Matjon ijodida ham *q* tovushi asosida alliteratsiya hosil qilingani kuzatildi. Quyida shunday holatlar bo'yicha misollar keltiramiz:

Yorning aksi quyoshday qalqdi qaroq ichinda

Ohanrabo ohular kezganday tog' ichinda (СЯК, 47).

Na quvsam men uni quvlab tutolmadim

Na qochsam men, qochib undan ketolmadim (СЯК, 79),

Qo'rqma endi,

Qurmoqdamiz qasringni qayta (СЯК, 116).

Unli tovushlarni takrorlash orqali yuzaga keluvchi assonans poetik aktualashtirishda muhim vositalardan biridir. Shoir bular asosida go'zal qofiyalar yaratadi, misralarning turli o'rinlarida ohangdoshlikni yuzaga keltirib, musiqiylik hosil qiladi.

Quyidagi kabi misollarda *o* tovushi assonans yaratishda birinchi o'rinda va *i* tovushi ikkinchi o'rinda turishini kuzatdik: *minorlar, shinorlar, xummorlar* (СЯК, 112); *zaholi, vafoli, safoli* (СЯК, 20); *buloqning, butoqning* (СЯК, 280), *yo'linqirasa, yoqinqirasa, bosinqirasa* (ЭХ, 5), *qoshinda, boshingda, toshingda* (СЯК, 20); *gadamiding, fazomiding, sadomiding* (СЯК, 20), *qoshimdan, yoshimdan, boshimdan* (СЯК, 20), *viydonna, jahonna*. (ЭХ, 25)

Tugundir, tutundir, butundir (СЯК, 80) misollarida *u* tovushi, *to'ldirgusi, kuldirgusi, o'ldirgusi* (СЯК, 80) misollarida *u* va *o'* assonansini ko'rish mumkin.

Quyidagi she'riy parchada *turishning, qirishing, burishing* so'zlari tarkibidagi *u* va *i* tovushlari ohangdorligi orqali go'zal misralar yaratilgan:

Ba'zan, ba'zan aynab turishing yomon,

Ojiz, nimjonlarni qirishing yomon,

Selni vodiylarga burishing yomon,

Bahor, kimligingni ayon et bu gal (СЯК, 281).

Birdir, sirdir (СЯК, 281) kabi misollarda *i* tovushi orqali ohangdorlikni ifodalovchi so'zlardan foydalanilgan bo'lsa, *qayrilish, ayrilish, aytilish* (СЯК, 253), *qayrilma, ayrilma* (СЯК, 10), *aldamchidir, arg'amchidir* (СЯК, 80) kabi misollarda *a* va *i* tovushlari assonansini ko'ramiz.

Shoir she'rlarida *aytar, qaytar, qadar* (СЯК, 16) kabi unilardan faqat *a* tovushi takrori asosidagi, shuningdek, *befarq, bedard* (СЯК, 10) kabi misollarda *a* va *e* tovushi takrori ishtirok etgan so'zlar orqali hosil qilingan assonanslar ham ko'p uchraydi.

Yana shoir ijodida so'z, so'z birikmasi va gap shaklidagi takrorlar poetik maqsadni ifodalash uchun xizmat qilganini kuzatamiz. Masalan, shoirning quyidagi she'rida takror vositasida ma'no kuchayishi ta'minlangan:

Yurtga keling, yurtga keling,

Ichga keling, sirtga keling,

Mayli, chilvir sochga *keling*,
Yo burama murtga *keling*. (IĖ,12)

She'ning dastlabki misrasida undash ma'nosini ifodalagan takrorda oxirgi misrada ta'kid ma'nosi anglashiladi. Shoir ijodida takrorning turli ko'rinishlari qo'llanilgan. "Bu – Mashrab, Mashrab!" she'rida shoir bandda *kim u* shaklini uch marotaba takrorlagan, she'r oxirigacha har band oxirida bir xil misrani keltirish bilan takorni yuzaga keltirgan:

Falak daraxtidan ayni tong chog'i
Oq-qora qushlarni qo'rqitgan kim u?!
Yoz bazmi oldidan o'n sakkiz oqshom
Bulbulga sho'x kuylar o'rgatgan kim u?!
Kim u, so'zlariga sira yo'q taraf,
Bu – Mashrab, Mashrab! (IĖ,13)

E'tibor berilsa, she'rda *ishq* so'zi har misra boshida she'ning boshidan oxirigacha takrorlangan:

Ishqdan hol so'rdim, ul:
"Ishq – hol ermas!" – dedi.
"Ishq, aytgil qismatim?!"
"Ishq – fol ermas! – dedi (KĖ,7).

"Tabassum qil" she'rining har bandi oxirgi misrasida *tabassum qil* birikmasi takrorlanadi:

Nechun oy yo'qdir,
Nurga joy yo'qdir.
Yoshli ko'zing bor,
Jo'shqin soy yo'qdir.
G'amgin ko'rdim seni bu kez-a,
Yosh yarashmas.bu chaqmoq ko'za,
Tabassum qil! (IĖ,224)

Ijodkorning "Men xayol surib ketaman" she'ri besh banddan iborat bo'lib, uning 1-, 3-, 5-bandlari aynan bir xil:

Men xayol surib ketaman,
Kechalari turib ketaman.
Uyg'otar ul oy xayoli,
Pokiza chiroy xayoli (IĖ,320).

Omon Matjon she'riyatidagi har bir takror o'ziga xos ma'no nozikliklariga ega. Shoir ijod jarayonida doimo takrorning bir xil ko'rinishidan foydalanishdan qochadi. U o'rni bilan takrorning so'z, so'z birikmasi, gap shaklidagi ko'rinishlariga murojaat qiladi. Shoir takror vositasida inson his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, voqelikka, undagi o'zgarishlarga, kishilarga bo'lgan subyektiv munosabatini poetik tarzda ifodalaydi. Kutilmagan obrazi, ta'sirchan ifodalarning takrorning turli ko'rinishlarida namoyon bo'lishi Omon Matjon individual uslubining o'ziga xosligini ta'minlagan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish o'rinliki, Omon Matjon she'riyatida qo'llanilgan takrorlar oddiy tovushdan gaplar takrorigacha bo'lgan ko'rinishlarni qamrab oladi.

Umuman, Omon Matjon o‘z ijodi bilan o‘zbek she‘riyatining yangi bosqichga ko‘tarilishiga salmoqli hissa qo‘shgan ijodkordir. Uning lingvopoetik vositalardan o‘rinli foydalanish mahorati takrorini qo‘llashida ham ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omon Matjon. Sени яхши кўраман. Сайланма. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981
2. Omon Matjon. Эркин ҳаволарда. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1997
3. Omon Matjon. Минг бир ёғду. – Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989
4. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. – Б.43 – 44.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.



“FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDA AYRIM ZONIMLAR TADQIQI

Xosiyat BAYMURATOVA,
UrDU o‘qituvchisi

Annatsiya. Mazkur maqola “Firdavs ul-iqbol” asarida qo‘llanilgan zoonimlarni tadqiq etishga bag‘ishlangan. Zoonimlarda kuzatilgan fonetik o‘zgarishlar hamda hozirda qo‘llanilmaydigan ayrim zoonimlarning qo‘llanishi xususida fikrlar yuritilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию зоонимов, использованных в произведении «Фирдавс уль-Икбал». Обсуждаются фонетические изменения, наблюдаемые в зоонимах, а также использование некоторых зоонимов, которые в настоящее время не используются.

Annotation: This article is devoted to the research of zoonyms used in the work "Firdavs ul-Iqbal". Phonetic changes observed in zoonyms and the use of some zoonyms that are not currently used are discussed.

Kalit so‘zlar: zoonim, chug‘z, shahboz, shunqor, anqo, arslon.

Ключевые слова: зооним, чугз, шахбоз, шункор, анко, лев.

Key words: zoonim, chughz, shahboz, shunkor, anko, lion.

Atrofimizni o‘rab turgan tabiatda mavjud bo‘lgan o‘simlik va hayvonot dunyosi xilma-xil va rang-barangdir. Bu rang-baranglik tilda ham o‘z aksini topgan. Shuni aytish kerakki, qadim zamonlardan boshlab turkiy xalqlar uchun chorvachilik hayot kechirishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Chorvachilikka oid atamalarni tarixiy asarlar tilidan o‘rganish tarixiy onomastika uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarida bir guruh zoonimlar ishlatilgan. Misol tariqasida asardan ov jarayoni tasvirlangan quyidagi masnaviyini keltiramiz:

*Har dam qilibon shikor bir nav’,
Har lahza etib shikor bir nav’.*

Har kun bo‘lub o‘zgacha saf aro,
Qush solmoq ila qilib tamosho.
Gohi olibon solib itolg‘u,
Bir lahzada behisob ohu.
Gohi solibon parranda shahboz,
Haddin ko‘b oshib tazarv ila qoz.
Uchmoq bilaki havog‘a lochin,
Hayratdin etib ulusni sokin.
Gohi uchubon baland shunqor,
Bir damda ov oldi necha xarvor.
Har yon yana necha saydandoz,
Oz solmadi qush, ov olmadi oz. (FI, 430)

Ushbu asardagi boshqa bir masnaviyda churg‘, shunqor (Lochinsimonlar oilasiga mansub kuchli yirtqich qush), shahboz (sariq-bosh lochin, shunqor; lochin), shohin, itolgu (Lochinlar oilasiga mansub, ov qushi sifatida foydalaniladigan yirtqich qush), bahri, lochin, tuyg‘un (qirg‘iy yoki qarchig‘ayning erkagi) kabi ov qushlarini ifodalagan (FI:261) zoonimlar hamda mazkur tizimga aloqador so‘zlar qo‘llanilgan.

Yana bir o‘rinda “...*Tushurgan asirlari o‘n besh kishi erdi va olg‘on o‘ljalari teva ot va o‘kuz va eshakdin ikki yuzga yetar erdi*”. [FI,451]. *teva, o‘kuz, eshak* zoonimlari ov jarayoni tasvirlanga voqealarda qo‘llangan.

Himmat qushidur balandparvoz,
Qasri falak uzra oshiyonsoz.
Vayronani qilmos oshiyona,
Ul nav‘ki chug‘zi jovidona.

Ogahiy tarixiy asarlarida o‘zbek mumtoz adiblari tomonidan nisbatan kam qo‘llanilgan zoonimlar ham uchraydi. Masalan, *chug‘z* so‘zi.

Chug‘z – boyqushning eski kitobiy tilda ishlatilgan shaklidir.

Mazkur zoonim Ogahiy lirikasidagi eng e‘tiborli g‘azallardan biri sanalgan “Bo‘lmasa bo‘lmasun, netay” g‘azaliga hamohang tarzda yozilgan Zavqiyning “Kelmasa kelmasun netay” radifli g‘azalida quyidagi baytda uchraydi:

Eski buzuq xarobada chug‘zdek ayladim vatan,
Bir tuzuk oshiyona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Ushbu g‘azalda muallif yorni taklif etarg‘a xona yo‘qligi va chug‘z kabi eski buzuq xarobani vatan aylagani haqida fikr yuritadi.

Anqo افسونافsonaviy Semurg‘ // Simurug‘ qushining arabcha nomi. Uni *Anqoyi mug‘rib* – ajablantuvchi (ajabtovur) *Anqo* ham deydilar. Mumtoz lug‘atlarda shunday nomlanishiga sabab bo‘yni uzun bo‘lgani, degan qaydlar bor. Demak, *Anqo* arabcha bo‘yin, gardan ma‘nosidagi *unuq* عنوقso‘zi bilan o‘zakdosh¹. Haqiqatan, *anqo* “bo‘yni uzun” ma‘nosidagi *a‘naq* اعناقso‘zining muannas shaklidir². *Anqo* Eron mifologiyasida Simurg‘, hind mifologiyasidagi Garuda bilan muvofiq keladi[3:83]. Garuda hind mifologiyasida qushlar shohining nomi bo‘lib, “yeb qo‘yuvchi”,

¹ ۳۵۶ غياث الدين محمد. غياث اللغات. لکهنو. ۱۸۸۶. ص۱

فرهنگ لاروسى عربى- فارسى. ترجمهء كتاب المعجم العربى الحديث. جلد دوم. تهران: امير كبير ۱۳۸۰ ه.ش. ص ۱۴۹۶ ²

“yamlamay yutuvchi”, “komiga tortuvchi” ma’nolarini beradi[3:19].

*Ba’zida lochini qaviy changol,
Urub Anqog’a chang sa’va misol.
Bo’yla qushlarga haddu g’oya yo’q,
Itlariga dag’i nihoyat yo’q
Oldi oni ov, gar ersa Anqo (FI, 261).*

Tasavvuf manbalarida ham Anqoning Semurg’ bilan bir qush nomi ekanligi qayd etilib, tasavvuf atamaları lug’atlaridan biri “Mir’ot ul-ushshoq”da uning anchayin nozik ma’no anglatishi – Semurg’ baqo billoh, Ko’hi Qof fanoyi zotiy va xaloyi asliyni anglatishi qayd etiladi[2:163].

“Hayrat ul-abror” dostonining 7-maqolati qanoat haqida bo’lib, badiiy timsollarga boyligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolatda qanoat go’zal tashbehtar vositasida ifodalab berilganini ko’rishimiz mumkin:

*Qushlar aro shohki, anqo durur,
Nuktaye bu amrda paydo durur.
Bordur agar fikr ila topsang vuquf,
Qoni’yu anqog’a muvofiq huruf. [HA:122].*

Qushlarning ichida anqo shoh hisoblanadi. Bunda ma’lum bir ma’no bor. Agar fikr bilan voqif bo’lishni istasang, “qoni” va “anqo” so’zlarining yozilishida harflar bir-biriga muvofiqligini ko’ramiz.

Asarda muallif metafora va metonimiya hodisasi ishtirokidagi zoonimlardan unumli foydalangan. Bu esa asarning badiiy ifodasini oshirishga, fikrni aniq ifodalashga, adibning so’z qo’llashdagi mahoratini aks ettirishga xizmat qilgan.

*Agarchi shag’al ko’rguzur hoyi qo’y,
Qachon sherlarga bo’lur ro’baro’y.
Qayu yerda bo’lsa hazabr oshkor,
Mag’ok ostida tilku aylar qaror [FI,354].*

Mazkur o’rinda muallif yirtqich arslon ma’nosini ifodalovchi hazabr zoonimini qo’llaydi. Asarda yana bir masnaviyda arslon o’rnida hazabr so’zini qo’llagan:

*Dag’o arsasida xurushanda babr,
Hijo beshasi ichra garron hazabr.
Agar cheksalar yovg’a burrandag’i tig’,
Tumon ming esa qatl etib bedarig’ [FI:187].*

Arslon zoonimi qadimgi turkiy til manbalarida *arslan* shaklida ishlatilgan. Xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida ham shu tarzda qo’llangan.

*Yağida kör arslan yureki kerek
Qarishtuqta äsri bileki yoriq
Urushda botir, arslon yurakli bo’lish kerak,
Jangga kirganda qoplön bilakli bo’lish kerak [QB: 171].*

Arslon – mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon; sher. Ko’chma ma’noda esa barcha asarlarda bahodir, zabardast, dovyurak odam ma’nosida ishlatiladi, ya’ni shu jonivorga nisbat beriladi.

Asarda lashkarboshi, askarlar arslondek qo’rqmas botir bo’lishi nazarda tutilgan.

“Firdavs ul-iqbol” asaridagi zoonimlarni o‘rganish o‘sha davr madaniy hayoti xususiyatlari bilan tanishish imkonini berdi. Zero, asardagi zoonimlar insonlarning ijobiy va salbiy xarakter-xususiyatlarini ifodalash orqali ko‘chma ma’noda hamda ov jarayonlarini tasvirlanganda o‘z ma’nosida ifodalangan. Bundan tashqari, asarda madaniyatlar mushtarakligi yoki farqli tomonlarini aniqlashga doir ma’lumotlar aniqlandi. Shuningdek, bu jarayonda bugungi kunda ishlatilmaydigan hayvon va qushlar nomlari haqida ham ma’lumotga ega bo‘lish mumkin: *shappar* [186]. – *ko‘rshapalak, kaftor* [121]. – *chiyabo‘ri, dag‘o* [129]. – *yirtqich hayvon, xarchang* [129]. – *qisqichbaqa, kurt* [128]. – *bo‘ri, yakron* [130]. – *ot* kabilar.

Shuoi oftob ollida shappar

Na mumkinkim, tura olg‘ay barobar.

Yetushgach bodi sarsar sadamat (zarba)i tez

Pari kohiy nechuk bo‘lmas sabukhez (tez ko‘char, yengil).

Yozuvchi zoonimlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llash orqali asarining badiiy olamini yanada teranlashtirishga erishgan.

Asarda hayvonlar bilan bog‘liq burj nomlari har bir tarixiy jarayonni aks ettirishda keltiriladi. Arslon, baliq, jadiy, aqrab burji nomlari shular jumlasidandir.

Asardagi zoonimlar tahlili ham uning onomastik ko‘lami haqida tasavvur berish bilan birga Ogahiyning har bir lisoniy detaldan mohirona foydalana olish salohiyatini namoyon qiladi. Shu bilan bir qatorda tarixiy asarlar onomastikasini o‘rganish orqali etimologik va terminologik lug‘atlar tuzish borasida qimmatli ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. – Тошкент Гафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 262.
2. Ўразбоев А.Д. Огахийнинг тарихий асарлари лексикаси Филол. фанл. док. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б.252.
3. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1965. – С. 163.
4. Мифы народов мира. Том первый. – М.: СЭ, 1980. – С. 83.
5. Мунис ва Огахий “Фирдавс ул-икбол”. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. 520 б.



HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA “ISHTIQOQ” SHE’RIY SAN’ATINING IFODALANISHI

Farog‘at OTAJONOVA,
UrDU o‘qituvchisi,
+998941187722

Farogatotajonova69@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada ishtiyoq she'riy san'atining Hofiz Xorazmiy devonida mahorat bilan qo'llanilgan misollarining tahliliy bayoni berilgan. Hofiz Xorazmiy ijodining o'zbek lirik she'riyatining rivojida tutgan o'rni haqida mulohazalar ilgari suriladi.*

Annotation: *The article provides an analytical description of the examples of the poetic arts of ishtikak and tavze' skillfully used in the court of Hafiz Khorezmi. Comments on the role of Hafiz Khorezmi's work in the development of Uzbek lyrical poetry are presented.*

Аннотация: *В статье дается аналитическая характеристика примеров поэтического искусства иштикак и тавзе, умело использовавшихся при дворе Хафиза Хорезми. Представлены комментарии о роли творчества Хафиза Хорезми в развитии узбекской лирической поэзии.*

Kalit so'zlar: Hofiz Xorazmiy ijodi, devon tarkibi, ishtiyoq san'ati, "Badoyi'u-s-sanoyi'" asari, tavzi' san'ati.

Key words: Hafiz Khorezmi's work, the composition of the divan, the art of enthusiasm, the work "Baday'i'u-s-sanoyi'", the art of tavzi.

Ключевые слова: творчество Хафиза Хорезми, композиция дивана, искусство энтузиазма, произведение «Бадаиу-с-санойи», искусство тавзи.

She'r misralarida bir o'zakdan kelib chiqqan yoki bir o'zakdan kelib chiqqandek ko'rinadigan so'zlarni keltirish ishtiyoq san'ati deb yuritiladi. Atoullloh Husayniy o'zining "Badoyi'u-s-sanoyi'" asarida "Ishtiyoq" lug'atda so'zdan so'zni ajratmoqdir, *iqtizob* esa biror narsaning bo'lagini ochmoqtur. Atash vajhi zohirdur"¹, – deb ta'rif beradi hamda ishtiyoq san'atining sakkizta turini badiiy asarlardan olingan rang-barang misollar bilan ifoda qiladi. Shuningdek, Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy "Funun al-balog'a" asarida ishtiyoq san'ati bayonida "Bu san'at bo'lurkim, ikki kalima keltururlarkim, birisi biridin mushtaq bo'lg'ay. Xoja Salmon aytur:

*Lafzi tu gavharist ki dar rishtai xirad
Dorad hazor dona durri samini suman*"² –

misolini keltiradi.

Misolda *samin* va *suman* so'zlari bir o'zakdan yasalgan so'zlardek ko'rigani bois ishtiyoq hosil qilmoqda. Shu o'rinda ishtiyoq uchun muhim belgi baytdagi so'zlarning o'zaro mushtaq bo'lishi, ya'ni biri ikkinchisidan yasalishidir. Bir so'zning bir necha siyg'a (grammatik shakl)da kelishi ishtiyoq uchun asos bo'lmaydi. Masalan,

Gul o'xshar ul yuzina tesam, vajhsiz erur,
Chun **gulni** qilmadi kishi nisbat giyoh ila (3-g'.)

baytidagi *gul* va *gulni* so'zlari ishtiyoq hosil qila olmaydi.

Shu o'rinda *mushtaq* tushunchasiga ham oydilik kiritib o'tish kerak. Ishtiyoq so'z yasash, so'z hosil ma'nosi bilan birga grammatik termin sifatida etimologiya va so'z

¹ Атоуллох Хусайний. Бадойиу-с-санойиъ. Форс тилидан Алибек Рустамов таржимаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1981. – Б. 52.

² Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул балога // Ўзбек тили ва адабиёти журнали №5: 2002 – Б.

yasalishii bildiradi¹. *Mushtaq* esa hosila, yasama ma'nosini anglatib, yasama so'z *kalimatun mushtaq(un)* deyiladi. Shu bois *mushtaq* kimyo termini sifatida biror biror moddadan oigan mahsulot ma'nosini ham beradi².

Mumtoz adabiyotimizda ishtiyoq faqat badiiy san'at emas, muhim ijtimoiy-siyosiy fikrlar ifodasi uchun ham xizmat qilgan. O'zaro qarindosh insonlar nasliy umumiyliigi bo'lgani kabi bir-biridan mushtaq (kelib chiqqan) so'zlar ham orasida ham mantiqiy va hissiy yaqinlik borligi chiroyli tarzda bayon qilingan satrlarni Alisher Navoiy ijodida uchratamiz. Jumlada, hazrat Navoiy "Mahbub ul-qulub"da aytadi: "*Vazir vizrdin mushtaqdur* va bu fe'l aning zotig'a ahaq va alyaqdur"³, *vazir* (yuk ko'tarishuvchi)ning *vizr* – yuk⁴ (uning gunoh ma'nosi mana yuk, mas'uliyat, og'irlik ma'nolaridan kelib chiqqan) so'zida kelib chiqqan chiqqani bejiz emas, bu fe'l – xislat uning asl mohiyatiga juda munosib va loyiqdir. Yana bir o'rinda Alisher Navoiy *inson* so'z *nisyon* (unutish) so'zidan kelib chiqqan, bunga uning o'zini va ahdini unutmagan dalil bo'ladi, mazmunida nihoyatda muhim hayotiy haqiqatni bayon etadi:

Chu derlar *insonni mushtaq o'ldi nisyonidin*,
O'zinu ahdin unutmoq etar dalolat anga⁵.

Hofiz ijodida ham ishtiyoq boshqa badiiy san'atlar kabi she'r mazmunini kuchaytirish, o'quvchi zehiga ta'sirni oshirish maqsadida ishlatiladi. Masalan, quyidagi parchada *gunoh* va *begunoh* o'zakdoshligi asosida ishtiyoq ishlatilgan:

Hofiz *gunohi* ushbukim, ey jon, sani sevar,
O'turma *begunoh* oni ushbu gunoh ila. (3-g'.)

Baytda *gunoh* so'zining ikki marta qo'llanishi asosida takrir yuzaga keltirilgan.

Biror belgiga ega emaslik ma'nosidagi *be-* qo'shimchasining qo'shilishi g'oyat oddiy hodisa bo'lib tuyulsa ham, ba'zan ayni qo'shimcha o'z asosining qarama-qarshi xususiyatini aks ettirishdan ham ortiq bo'lgan chuqur mazmudagi istiloh hosil qilishi mumkin. Masalan, til ma'nosidagi *zabon* so'ziga qo'shib, *be-* tasavvufiy islohlardan biri bo'lgan *bezabon* so'zi hosil qiladi.

Arbobi ishq so'zini anglamoq izdasang,
Bas *bezabonlar* orasinda kir, *zabon* tila. (17-g'.)

Shoir bu baytda ishq egalari so'zini anglamoq istagan kishi bezabonlar (pokdomolar, mas'iyatdan xoli odamlar) orasiga kirib zabon (sirlari kaliti) tilashi kerakligini ta'kidlaydi. Baytdagi zabon so'zining chuqur falsafiy mazmuni Maxtumlulning "og'izdan til ketar, *zabon* to'xtamas" satrlarini eslatadi.

Xuddi shu fikrni quyidagi baytda ishlatilgan *nishon* va *benishon* so'zlari haqida ham aytish mumkin:

Bahri muhit ichra *nishon* sazovor emas,

¹ Иброҳимов Н. ва бошқалар. Ал-қомус. Арабча-ўзбекча қомусий луғат. II жилд.– Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 685.

² Иброҳимов Н. ва бошқалар. Ал-қомус. Арабча-ўзбекча қомусий луғат. II жилд.– Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 686.

³ Аlisher Navoiy. Муқаммал асарлар тўплами. 14-том. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 11.

⁴ <http://arabus.ru/search/وزر>

⁵ Аlisher Navoiy. Муқаммал асарлар тўплами. 6-том. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 12.

O‘zungni *benishon* qilu bas *benishon* tila. (17-g‘.)

Nishon va *benishon* orqali ishtiyoq san‘ati yuzaga kelishini shoirning boshqa bir she‘rida ham ko‘ramiz.

Nishonda izdayu ishqingda *benishon* bo‘ldum,
Vale *nishoni* muhabbat hamon turur jonda. (49-g‘.)

Ko‘rinadiki, bu baytlarda *nishon* so‘zining *alamat*; *ta’sir*: iz kabi qator ma’nolari borligidan unumli foydalanilgan holda iyhom ham yuzaga kelitirilgan, ya’ni *nishoni muhabbat* izofiy birikmasini *muhabbat izi* va *muhabbat belgisi* deb talqin qilishga asos bor.

Ishtiyoq ayni paytda shoirning ishtiyoq ilmi (etimologiya)ni qay darajada bilishini ham namoyon qiladi:

Boshim elga borur bo‘lsa qaro zulfi havosindin,
Muhabbatda manga, Hofiz, o‘shuldur *sudu* ham *savdo* (10-g‘.)

Misoldagi *sud* va *savdo* so‘zlari tarixan o‘zakdosh so‘zlar sanaladi.

Shoirning boshqa ayrim she‘rlarida ham *sud* va *savdo* so‘zlari orqali ishtiyoq; *savdo* so‘zining esa omonim (tijorat va qora ma’nolari) va ko‘pma’noliligi (*qora*; *tashvish*, *g‘am*)dan iyhom va tajnis qo‘llangan o‘rinlar ko‘p uchraydi. Masalan,

Ohki, kechdi umr borisi *savdo* bila,
Sud qachon bo‘lg‘usi bizga bu *savdo* bila. (20-g‘.)

Quyidagi baytda esa *afsun*//*fusun* va *afsona*//*fasona* o‘ziga xos tarzda go‘zal ifoda topgan. Undagi o‘ziga xoslik shundaki, o‘zakdosh so‘zlarning birinchi misrada qisqartirilgan (*fusun* va *fasona*), ikkinchi misrada esa to‘liq (*afsun* va *afsona*) shakllari ishlatilgan. Shuningdek, *afsun o‘qimoq* (jalb qilmoq) va *afsona o‘qimoq* (yorni ta’rif-tavsif qilib kuylamoq) ma’nolari orqali iyhom barobar ishlatilgan:

Fusun birla *fasona* ul paripaykar uchun Hofiz
O‘qir, har lahza ul *afsun* bila *afsonani* izda. (19-g‘.)

Albatta, Hofiz o‘z zamonining ilg‘or ziyolisi sifatida arab tilini ham, arabiyati ham puhta bilgan zukko olim edi. Buni, jumladan, uning ishtiyoq san‘atidan mohirona foydalanishida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, quyidagi misrada *sof* va *safo* o‘zakdosh so‘zlari ijtimoiy-axloqiy mazmun kasb etgan holda ishlatilgan:

Oshiq-i xastadil bila xush yorishib yarashako‘r,
Sof qil oyinangni san izdar esang base safo. (12-g‘.)

Quyidagi baytda esa *dars* va *mudarris* so‘zlari orqali ishtiyoq bilan birga *dars*, *mudarris*, *sabaq* birliklari orqali tanosub yuzaga keltirilmoqda.

Agar *darsi* ilohiydin bu so‘zlar kelmasa har dam,
Qachon bilgay eding, Hofiz, *mudarrisdin* sabaq birla. (37-g‘.)

Haqiqatan, Hofiz Xorazmiy so‘zlari ilohiy fayz bilan yo‘g‘rilgan iste’dod sohibi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Сулаймонов М. Хофиз Хоразмий ижодининг Туркияда ўрганилиши // “Жаҳон адабиёти” журналі, №8. 2018. – Б. 182.
2. Сулаймон Ҳ. Ўзбек шоири Хофиз Хоразмий ва унинг Ҳайдарободдан топилган девони. //Адабий мерос: –1976. 6.-Б.34 43.
3. Хоразмий, Хофиз. Шеърятдан. –Тошкент: Ўз КПКМ нашрети, 1980. 120 б.

4. Хорезми, Хафиз. Избранное. Перевод С.Иванов. – Т.: Изд. ЦК КУ, 1981. – 144 с.
5. Ҳаёт васфи” Ўзбек адабиёти бўстони. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 13-226.
6. Harezmlî Hafîz’ in divanî. – Ankara: Turk Dil Kurumu, 1998. – 775, – 586 bet.
7. TOPARLI. Dr. Reesep, Cagatay Sairi. Hafiz Harezmi. Turk Dunyasi Arastirmalari Degresi, Subat 1984, s, 1-32. ; TOPARLI. Dr. Reesep, Harezmlî Hafiz Divanindan Secmeler. Ankara. 1994. Kultur Bakanligi yayinlari 1600, Turk Klasikleri Dizisi 31. X+317 s.№ TOPARLI. Dr. Reesep, Hafiz Harezmi’nin Sultan Ibrahim’in Olumu Uzerine Yazdigi Mersiye (Trakya Universitesi Fen-Edebiyat Fakultesi Dergisi Prof. Necmettin HACIEMINOGLU Ozel Sayisi’nda yayimlanacak).
8. Жўраев Ж. Ҳофиз Хоразмийнинг Иброҳим Султонга марсияси.// Sharqshunoslik. 2015. №3-4. – Б.216-226.: Шу муаллиф. Ўзбек адабиётидаги илк марсия.// “Шарқ юлдузи” журнали. 2015. №6. – Б. 10-21.
9. Иноғомхўжаева М. Ҳофиз Хоразмий девонида ирсоли масал санъатининг берилиши// Адабий мерос /УзССР ФА, Ҳ.С.Сулаймонов номидаги Қўлёмалар институти. – 1987. – № 1 (39). – Б. 30–35.; Иноғомхўжаева М. Шоир Ҳофиз Хоразмийнинг ҳаёти ҳақида баъзи мулоҳазалар// Адабий мерос/УзССР ФА, Ҳ. С. Сулаймонов номидаги Қўлёмалар институти. – 1989. №3 (49). – Б. 15 –18.
10. Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ижодининг Туркияда ўрганилиши // “Жаҳон адабиёти” журнали, №8. 2018. – Б. 182 – 186.
11. НамДУ илмий ахборотномаси – 2019 йил 4-сон.



XORAZM SHEVALARIDAGI O‘ZIGA XOS EVFEMIZMLAR VA DISFEMIZMLAR XUSUSIDA

Navbahor SADULLAYEVA,
UrDU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm shevalarida uchraydigan ba’zi bir no‘joya so‘zlar o‘rnida qo‘llanuvchi va uning o‘rni bosuvchi ifoda sifatidagi evfemizmlar va evfemizmning aksi hisoblangan disfemizmlar tahlilga tortildi.

Аннотация: В данной статье вместо некоторых посторонних слов, встречающихся в хорезмийских диалектах, и в качестве замещающих выражений используются эвфемизмы и дисфемизмы, считающиеся противоположностью эвфемизму.

Annotation: In this article, euphemisms and dysphemisms, which are considered the opposite of euphemism, are used instead of some extraneous words found in the Khorezm dialects and as substitute expressions.

Kalit so‘zlar: til, evfemizm, disfemizm, sheva, frazeologik birliklar.

Ключевые слова: язык, эвфемизмы, дисфемизмы, диалект, фразеологизмы.

Key words: language, euphemism, dysphemism, dialect, phraseological units.

Ma’lumki, har bir tilning rivojlanishida shu millatning madaniyati, urf-odatlari, diniy qarashlari ta’sir ko‘rsatadi. Ayni damda bu sohalarning taraqqiy etishida nutq birligi – tilning ahamiyati katta. Har bir millat o‘zida ma’lum bir milliy an’analarni, qadriyatlarni aks ettiradi. Shevalarda muloqot vaqtida ko‘p qo‘llaniladigan turli

nojo‘ya, qo‘pol va salbiy bo‘yoqdor so‘zlar ya‘ni disfemizmlar qo‘llaniladi, bunday so‘zlarga zid tarzda evfemizmlar ishlatiladi.

Evfemizm aytilishi nojo‘ya bo‘lgan so‘zlarning o‘rniga boshqa so‘zni qo‘llash demakdir. Tabu va evfemizmlar hanuz tilshunoslikda chuqur tadqiq qilinmagan. Evfemizmlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri biror narsaga bog‘lik narsa yoki vaziyatni tasvirlab bermaydi. Balki, ular aytilmaydigan, istalmagan, turli salbiy, qo‘pol, yoqimsiz, ranjituvchi, uyaltiradigan so‘zlarga o‘rindosh so‘z yoki ibora sifatida qo‘llaniladi. Aksariyat odamlar o‘zlarini ishlari bo‘yicha ijobiy fikrlarni eshitishni xohlashadi. Ular vazifalarini qanday taqdim etishlaridan va bajarishlaridan qat‘iy nazar, ijobiy javob eshitishga moyildirlar. Evfemizmlardan foydalanish so‘zlovchining qay darajada xushmuomala va madaniyatli ekanligini belgilab beradi [1-188].

Aksariyat lingvomadaniyatlarda keng tarqalgan evfemik so‘zlardan biri “*o‘lim*”dir. Insonlarning tasavvurlarida o‘lim eng katta baxtsizlik sanaladi. Shuning uchun ko‘pchilik xalqlarning tilida o‘lim so‘zi tilga olinmaydi va u turli evfemik so‘zlar va iboralar vositasida ifodalanadi [2-123]. Masalan, Xorazm shevalariga oid evfemizmlar biror bir shaxsga yoki holatga nisbatan yovuz g‘araz fikrlar, so‘zlar ya‘ni *o‘lim* so‘zi o‘rnida *umri guni yetibdi* [úmrì gúnì jetìbdì], *qaytish bo‘libdi* [qajtìs bolìbdì], *qazasi bo‘libdi* [qazasì bolìbdì], *o‘tibdi* [otìbdì], *deravarsin bo‘libdi* [derävärsìn bolìbdì], *jenazasi bo‘libdi* [jenazasì bolìbdì]. kabi so‘zlar qo‘llaniladi. Bunday evfemizmlar o‘zaro muloqot jarayonida hurmat va nafosat ramzini ko‘rsatishdan iboratdir. O‘zbek tili shevalardagi evfemizmlarning ildizi diniy qarashlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, islom dini ta‘limotiga ko‘ra, yomon so‘zlarni ishlatib til bilan bo‘lsada birovning ko‘ngliga ozor berish gunoh sanaladi. O‘zbek xonadonlarida “*homilador*” ayolga nisbatan “*boshi qorong‘u*”, “*og‘ir oyoq*”, “*ikki qat*” evfemizimlari Xorazm shevalarida esa *bo‘yida bor* [bojidä bar], *yukli* [júkli], *yerik* [jerik], *ikki qat* [ikki qät]. kabi so‘zlar bilan ifodalaniladi.

Tillarning geneologik va morfologik qurilishlariga bog‘liq ravishda har bir tilda tabulashgan va evfemik ma‘no fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, frazeologik, paremiologik va noverbal vositalar bilan ham ifodalanadi. Evfemik ma‘noning namoyon bo‘lishida situativ-pragmatik va ijtimoiy omillar mazkur lisoniy vositalar bilan yaxlitlik hosil qiladi [3-787].

Xorazm shevalarida qo‘llanilib qarg‘ishni ifodalovchi frazeologik disfemizmlar – *o‘ling chiqqoy* [ölin çiqqaj], *qon qusqir* [qan qusqir], *xorom qotqoysan* [xaram qatqajsan], *qirg‘innan getgir* [qiryinnan getgir], *qorsildob uchib shorpildob tushgaysan* [qarsildab uçib şarpildab túsgäjsän], *qiz bo‘may bir qisim buz bo‘l* [qiz bomaj búz bol], *biring ikki bo‘lmasin* [biring ikki bomasän], *og‘zingnan chiqib yaqanga yopishsin* [ayzìnnan çiqib jaqana japışsìn], *itdin huravarma* [itdin hürävärmä], *juvornamak bo‘lgaysan* [žúvarnämäk bolgäjsan]. kabi disfemizmlar mavjud bo‘lib, ularni yana davom qildirish mumkin. Disfemizmlarning semantik guruhlari doirasi ham asosan so‘kish, haqorat, qarg‘ish, kinoya, masxara, o‘lim, kasallik tushunchalarini ifodalovchi birliklarni o‘z ichiga oladi [4-319].

Disfemizm hodisasi shevalarda leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasnif

qilinadi. So‘kishni ifodalovchi disfemik birliklar – *qirchin* [qìrçin], *yaloq* [jālaq], *xorom* [xaram], *girmik* [gìrmik], *g‘illik* [yìllik], *tovuq miya* [tavuq mijä], *jekkorinži* [jekkörinžì].; haqoratni ifodalovchi disfemik birliklar – *zoti past* [zäti past], *maraz* [märäz], *yetim* [jetim], *gachchini aldi oyoqi* [gäççinì äldì ajaqì], satari [sätäri], *it izg‘a* [it izyā].; qarg‘ish ifodalovchi disfemik birliklar – *xorom qotqaysan* [xaram qatqajsan], *buyurmagiy* [bújurmagij], *teshib chiqqoy* [tešib çiqqaj], *go‘zzing do‘shilgiy* [gözzinğ döšilgij].; kinoya, masxara ifodalovchi disfemik birliklar – *lobirdovuc* [labirdavuc], *sheyton* [šejtan], *yuvilmagan qashiq* [jüvilmagan qašiq].; o‘limni ifodalovchi disfemizmar *o‘libdi* [olibdi], *qutoribdi* [qutaribdi], *getibdi* [getibdi], kasallik, jismoniy va ma‘naviy nuqsonlarni bildirib keluvchi disfemizmlar – *cho‘loq* [çolaq], *kalta* [kältä], *ko‘r* [kor], *lang* [län]. kabi.

Xulosa o‘rnida shuni aytilish joizki, evfemizmlar – insoniyat nutqiy jarayonida tinglovchi tomon yo‘llanayotgan ba‘zi salbiy fikrlarni ijobiy tarzda yetkazib beruvchi muhim til vositasi sifatida hali hamon muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tilning jozibadorligi yillar o‘tgan sayin sayqallashib borishiga talab juda kuchli ekan, dunyo tilshunos olimlarining evfemizm va disfemizmlarni tadqiq etish doiralari va yo‘nalishlari kundan kunga oshib boraveradi. Disfemizm evfemizm bilan munosabatdosh bo‘lganligi sababli ularning tasnifida ham evfemizmlar tasnifidagi ayrim belgilar tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yusupova M. B. Evfemizm izohlariga doir filologiyaning dolzarb masalalari. – Qo‘qon. 2023. –B 188.
2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: TDO‘TAU, 2019. –B 123.
3. Jo‘raxonova S. Urf-odat ifodalovchi leksemalarda tabu va evfemizmlar. // Scientific journal impact factor. № 2, 03. 2022. –B. 787.
4. Rasulova K. “Navoiy” romanidagi milliylikning evfemizm va disfemizmlar vositasida ifodalanishi. // “Markaziy va janubiy osiyo: madaniyatlararo muloqot chorrahasida”. № 2, 25. 2022. –B 319.



ERKIN SAMANDARNING “SULTON JALOLIDDIN” ROMANIDA ANTROPONIMLARNING QO‘LLANILISHI BORASIDA BA‘ZI MULOHAZALAR

Farida MASHARIPOVA,
UrDU 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Biz ushbu maqolada Erkin Samandarning “ Sulton Jaloliddin” tarixiy romanida qo‘llanilgan antroponimlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qildik va mazmun-mohiyatini misollar orqali ochib berishga harakat qildik.

Аннотация: В данной статье мы проанализировали антропонимы, использованные в историческом романе Эркина Самандара «Султан

Джалолiddин», с точки зрения лингвистики и попытались раскрыть их значение на примерах.

Abstract. In this article, we analyzed the anthroponyms used in Erkin Samandar's historical novel "Sultan Jaloliddin" from the point of view of linguistics and tried to reveal their meaning through examples.

Kalit so‘z: antroponim, atoqli ot, ismshunoslik, konnotativ, patronim

Ключевые слова: антропоним, имя существительное, номенклатура, коннотатив, отчество.

Key words: anthroponym, noun, nomenclature, connotative, patronymic.

Iste‘dodli shoir, nosir va dramaturg Erkin Samandar ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yozuvchining individual uslubi, badiiy asarlarining sifati va jozibador tiliga tan bermasdan ilojimiz yo‘q. Ijodkorning badiiy asar tili va individual uslubi uning har bir asarida yaqqol ko‘rinib turadi.

Ma‘lumki, “antroponim” yunoncha antropos + onoma atoqli ot so‘zlaridan olingan bo‘lib, kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar) ma‘nosini bildiradi. Ya‘ni, antroponim atoqli ot tiplaridan, onomastik birliklardan biri degan tushunchani ifodalaydi.¹

“Antroponimika” esa “ismshunoslik”, ya‘ni nomshunoslikning kishi atoqli otlari (antroponimlar) ning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi alohida bo‘limi, sohasi ma‘nolarini bildiradi. Shu bilan birga antroponimlar, asosan, badiiy va publitsistik matnlarda xilma-xil qo‘shimcha (konnotativ) uslubiy ma‘nolarga ham ega bo‘lib, ularning bunday xususiyatlarini antroponimik uslubiyat sohasi o‘rganadi.² Adabiyotshunoslikda bu soha “onomapoetika” deb nomlanadi, o‘z vaqtida taniqli adabiyotshunos olim E.B.Magazanik rus adabiyotida onomapoetika, “gapiruvchi nomlar” masalasini maxsus tadqiq etib, monografiya e‘lon qilgan edi.³

O‘zbek tilshunosligida antroponimlarni o‘rganish ishini taniqli tilshunos E.Begmatov o‘z nomzodlik ishi bilan boshlab berdi.⁴ Keyinchalik bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Taniqli yozuvchi Erkin Samandarning o‘z asarlarida antroponimlardan foydalanish mahoratini kuzatish, uning asarlarida qo‘llangan antroponimlarni lingvopoetik tahlil etish orqali bunga to‘la ishonch hosil qilish mumkin.

Erkin Samandar o‘zining nasriy asarlarida, jumladan, “Sulton Jaloliddin” nomli tarixiy romanida antroponimlardan mohirlik bilan foydalangan. Yozuvchining ushbu tarixiy romanidagi antroponimlar kishi diqqatini o‘ziga jalb etadi.

Ism va ism qo‘yish odati - biror yakka shaxslarni o‘zgalardan farqlash, ajratish ehtiyoji tufayli tug‘ilgan. Keyinchalik yuzaga kelgan va rasmiy odat tusini olgan familiyalar, laqablar, ota ismlar, ajdodiy (patronimik) nomlar va ularning turli-tuman ko‘rinishlari, kishini atashning boshqa shakllari va usullari ana shunday hayotiy

¹ Begmatov E, Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati.-Namangan,2006.-B.13.

² Силаева Г.А. Антропонимия художественных произведений Л.Н.Толстого. Учебное пособие к спецкурсу.-Рязань,1986. - С,5-12.

³ Магазаник Э.Б. Ономапоэтика, или “говорящие имена” в литературе. - Ташкент: Фан, 1978. - С. 5-12.

⁴ Бегматов Э.А. Антропонимика узбекского языка. Автореф. дис...канд.филол. наук - Ташкент, 1965.-25 с.

ehtiyojning qonuniy mahsulidir.⁵

Kishini nomlashning eng qadimiysi ismlar, urug' va qabilalarning nomlaridir. Laqablar esa ma'lum shaxsning nomini yanada oydinlashtirish (konkretlashtirish) uchun xizmat qilgan.⁶

Erkin Samandarning **“Sulton Jaloliddin”** nomli tarixiy romanida qo'llangan antroponimlarni komponent tarkibi jihatidan quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Birinchi komponenti **“abdu(l)”** so'zi bilan ifodalangan antroponimlar: Abdul Mahak kabilar: “Abdul Mahak bir o'g'il so'ng ketma-ket yetti qiz ko'rdi. O'g'li To'g'onbek pahlavon usta bo'lib yetishdi, qizlarining jamoli va kamoli og'izga tushib, sovchilarning keti uzilmay turgan asno... yog'iy qal'aga yopirildi, ilonday bo'g'ib jonini sug'urdi” (“Sulton Jaloliddin” 53-bet).

2. Birinchi komponenti **“abu”** so'zi bilan ifodalangan antroponimlar: Abu Inomxon kabilar: “ – Demakki dedi Abu Inomxon, - do'stni siyla, dushmani qiyrat. Shu yerda ham Abu Inomxon ko'p aytguvchi iborasini ishlatganidan yigitlar kulib yuborishdi” (“Sulton Jaloliddin” 23-bet).

3. Birinchi komponenti **“yigit”** so'zi bilan ifodalangan antroponimlar: Yigit Malik kabilar: “ Yigit Malik o'zi sevadigan so'zga urg'u berdi. Demakki, yashasang, yengib yasha! Yana kulgu ko'tarildi. Soyirja Pahlavon so'zni boshqa ma'noga burdi. Ha , bugun bazm, bizlar ersa mumdek muloyimmiz sizga boqib buni ko'rmayapman-da, - dedi Yigit Malik uni gapga solish uchun” (“Sulton Jaloliddin” 23-bet).

4. Birinchi komponenti **“amin”** so'zi bilan ifodalangan antroponimlar: “ Amin Malik kabilar: “Sultonni qarshilamoq uchun sohilda qatorlashib turgan Hirot hokimi Amin Malik (Jaloliddinning qaynotasi) halajlar sardori Ag'rok, hazorlar qo'mondoni Malikshoh yuzlarida istehzo aralash nimtabassum ko'rdi shahzoda” (“Sulton Jaloliddin” 25-bet).

5. Birinchi komponenti **“oy”** so'zi bilan ifodalangan antroponimlar: Oychechak Oyo'lan kabilar: “ Boyimxon yurak yutib so'radi: “Jaloliddin kuch-qudratga to'lmish yog'iyning dodin berayotg'on ermish, ondin nabiralaringizdin madad so'ralsa bo'lmasmi erdi. Turkon xotun titrandi. “Bo'lmas erdi. Jalolidding'a, oning onasi Oychechakka yalinganimdin, Chingizga qul bo'lg'onim afzaldir” (“Sulton Jaloliddin” 43-bet); “Bir vaqtlar Yosug'ay bahodir markitlarning to'yini buzgan, kelinni naq go'shangadan olib qochgan va zo'rlik bilan unga uylangan edi. Yovqur markitlarni dog'da qoldirayin degan. Yo'qsa, kelin Oyo'lanni avval ko'rmagan – bilmagan. Daf'atan to'yaravada ko'rib, ko'hlikkina bo'lgani uchun shunday qilgan. So'ng Oyo'lan unga o'g'ul – Timuchinni tug'ib bergan” (“Sulton Jaloliddin” 63-bet).

6. Birinchi komponenti **“ibn”** so'zi bilan ifodalangan antroponimlar: Ibn Hojib kabi: Ushbu obraz asarda Vatanini sotgan salbiy qahramon sifatida qatnashgan. “Ibn Hojib Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish dargohiga kirib borganida hali Sind savashi davom etayotgan edi. Ilk uchrashuvdayoq Hojib ko'rdiki, Eltutmish har narsaga qiziquvchi va ishonuvchi odam” (“Sulton Jaloliddin” 164-bet).

Antroponimlar komponent tarkibi jihatidan ismning boshida yoki oxirida ham

⁵ Begmatov E. Ismlarning sexli olami. - Toshkent: “O'zbekistonp”, 2014. - B. 12-24.

⁶ Бегматов Э.А. Исм чиройи. - Ташкент: Фан,1994.-Б.4-5.

qo‘lanilishi mumkin. Muallifning “Sulton jaloliddin” romanini tahlil qilish jarayonida ismdan keyin kelgan antroponimlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ikkinchi komponenti **“xotun”** so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Turkon xotun kabi: ”Qullfi qopulardan, qalin devorlardan o‘tib qarg‘ish yana ichkari kirdi. Iloyo, Xorazmshoh onasini yer yutsin, iloyo... Turkon xotun yana quloqlariga paxta tiqadi” (“Sulton Jaloliddin” 13-bet).

2. Ikkinchi komponenti **“shoh”** so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Xorazmshoh, Komakishoh, Malikshoh, Haydarshoh kabilar: “Hayriyat Komahishoh Boymxonning tizzasida o‘ltirgancha undan nimanidir berilib tinglardi. Ibratli hikoyatlardan so‘ylayotgandir bul yigit” (“Sulton Jaloliddin” 12-bet); ”O‘ror qamali paytida Ibn Hojib Xorazmshohni tark etib, xoqon xizmatiga o‘tgan. Xorazmshoh bir vaqtlar uning ota-bobolarini qirib tashlagani uchun, ildizlarini qirqqani uchun” (“Sulton Jaloliddin” 12-bet); “Sultonni qarshilamoq uchun sohilda qatorlashib turgan Hirot hokimi Amin Malik (Jaloliddin qaynotasi) halajlar sardori Ag‘rok, hazorlar qo‘mondoni Malikshoh yuzlarida istehzo aralash nintabassum ko‘rdi shahzoda” (“Sulton Jaloliddin” 25-bet); “Amin Malikning o‘n ikki yashar kenja o‘g‘li Haydarshoh bunga havaslanib turar, ko‘pdan ko‘rmagan opasiga mehri oshar, unga talpinar edi” (“Sulton Jaloliddin” 90-bet);

3. Ikkinchi komponenti **“begim”** so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Xonsultonbegim, Gulbegim kabilar: “Peshayvondan tepadagi xonada tabiatan shaddod va quvnoq Xonsulton begimni g‘am tog‘i bosib yotmoqda edi” (“Sulton Jaloliddin” 14-bet); “Jaloliddin bilan Gubegimning to‘yi bundan to‘rt yil oldin bo‘lib o‘tgan edi. O‘g‘ilchalari Jamoliddin hozir uchga kirgan” (“Sulton Jaloliddin” 79-bet).

4. Ikkinchi komponenti **“pahlavon”** so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Jahon Pahlavon, Soyirja Pahlavon kabilar: “...sarkarda Jahon Pahlavon, u Jaloliddinga sodiq qipchoq beklaridan. Boshqalaridan uning yoshi ham, gavdasi ham kattaroq bo‘lgani va Jaloliddinning eng yaqin salafi hisoblangani uchunmi yigitlar ko‘proq uning ra‘yiga qarashi ko‘rinib turardi” (“Sulton Jaloliddin” 22-bet); “Soyirja Pahlvonga o‘zi shu kerak edi. Ochilib sho‘x-sho‘x she‘rlar o‘qishga tushdi” (“Sulton Jaloliddin” 23-bet).

5. Ikkinchi komponenti **“inoq”** so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Tojiddin Inoq kabi: “Jaloliddin uni tanidi. Tojiddin Inoq. Sultonning xazinadori” (“Sulton Jaloliddin” 32-bet).

11. Ikkinchi komponenti **“bika”** so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Xumorbika kabi: “Shul tunda, el ayog‘i tingach, qo‘shiningni onang va opang Xumorbekani ol-da, qal‘adan pinxona chiqib ket. – Qayga? – so‘radi Soyirja Pahlavon otasining javobini oldindan bilsa-da” (“Sulton Jaloliddin” 221-bet).

6. **“Bek”** komponenti qo‘shimcha sifatida qo‘llangan antroponimlar: To‘xtabek, To‘g‘onbek, Qarshibek kabilar: “Timuchin urushga ketgan edi. Olislarda edi. Shundan foydalangan markitlar uning ulusiga hujum qilib xotini Bo‘rtako‘chinni o‘lja olishgan edi. To‘xtabekning ishi edi bu” (“Sulton Jaloliddin” 63-bet); “Yerto‘lada ular bir kecha-kunduz o‘ltirishdi, lekin otadan xabar bo‘lmadi. To‘g‘onbek o‘shanda uzoq o‘ylagan. Padari buzrukvor uni va katta qizlari qolib kenja Qambarnisoni nega daf‘atan yerto‘laga jo‘natgan?” (“Sulton Jaloliddin” 80-bet); “Shul kecha el oyog‘i tingan

mahal qabriston orqasida kutgaymen. Avloq yerdan kelgaysiz. Ilojini topub, sarkarda uchun ishlangan shamshirni olib olgaysiz. Yerto‘la og‘zida sizlarni o‘z odamimiz kutgay. Qarshibek” (“Sulton Jaloliddin” 81-bet).

13. **“Jon”** komponenti qo‘shimcha sifatida qo‘llangan antroponimlar: Sanamjon kabi: “Ikki suvoriy – Yovbosar va O‘tbosar... Ular xushfe‘l va xushqiliq edilar. Ko‘ngillari yomg‘irdan keyingi gul barglaridek beg‘ubor edi. Ikkovining e‘tiqod darajasiga ko‘tarilgan do‘stligi Buxorada og‘izga tushgan, buning bir jihati Sanamjon degan benihoya suluv qiz bilan bog‘liq edi” (“Sulton Jaloliddin” 183-bet).

Qo‘shimcha holida qo‘llangan komponentli antroponimlarni ham kuzatamiz.

1. **-ar**” komponenti qo‘shimcha sifatida qo‘llangan antroponimlar:Yovbosar, O‘tbosar kabilar: “Yovbosar va O‘tbosar Arkning aylanma yo‘llaridan chiqib, qal‘ani tark etdilar. Bir to‘p yigitlari bilan Jaloliddin huzuriga yo‘l oldilar” (“Sulton Jaloliddin” 184-bet).

2. **“Xon”** komponenti qo‘shimcha sifatida qo‘llangan antroponimlar: Boyimxon, Chingizxon, Robiyaxon, Puraxon kabilar: “Boyimxonning qo‘lidagi fonus yo‘lni bazo‘r yoritar, tosh so‘qmoq g‘adir-budur, egri-bugri bo‘lganidan ular oldinma-keyin turtinib borishar, dillarini bir ishonch nuri yoritisa, bir gumon azobi tirnardi” (“Sulton Jaloliddin” 16-bet);

Romanda laqab bilan bog‘liq antroponimlar uchraydi. Abu Sovuq kabi: “Abu Ayozbek Kubachaning qassobsifat sarkardalaridan, badbashara, gavdasi bes o‘naqay, fe‘li sovuq kishi edi. Shundan bo‘lsa kerak, sheriklari unga Abu Sovuq deb laqab bergan edilar, bora-bora bu uning ismiga aylanib qolgandi” (“Sulton Jaloliddin” 174-bet).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yozuvchi Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” tarixiy romanida qo‘llanilgan antroponimlar tuzilishi va tarkibi jihatidan turfa xildir. Asardagi antroponimlar kitobxonga o‘sha davr lug‘aviy qatlamini yorqin aks ettirish bilan bir qatorda antroponimiyasi haqida ham ma‘lumot berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begmatov E, Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati.-Namangan,2006.- B.13.
2. Erkin Samandar. Sulton Jaloliddin. – T.: “Adabiyot va san‘at”,2007, – B .286. 2.
3. Бегматов Э.А. Антропонимика узбекского языка. Автореф. дис...канд.филол. наук - Ташкент, 1965.-25 с.
4. Бегматов Э.А. Исм чиройи. - Ташкент: Фан,1994.-Б.4-5.
5. Бегматов Э.А. Узбек тили антропонимикаси. Монография. - Тошкент: “Фан”, 2013. - 264 б.
6. Магазаник Э.Б. Ономапэтика, или “говорящие имена” в литературе. - Ташкент: Фан, 1978. - С. 5-12.
7. Силаева Г.А. Антропонимия художественных произведений Л.Н.Толстого. Учебное пособие к спецкурсу.- Рязань,1986. - С,5-12.



REKLAMANING MULOQOT SHAKLI SIFATIDA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat va reklama o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalari tadqiq qilingan. Tahlil asnosida jamiyat reklama faoliyatini rivojlantirib, faollashtirishi, reklama texnologiyalari esa, o'z navbatida, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asos bo'lishi aniqlangan.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос взаимодействия общества и рекламы. Отмечается, что общество развивает и интенсифицирует рекламную деятельность, а рекламные технологии, в свою очередь, дают соответствующий стимул социально-экономическому развитию общества.

Annotation: This article examines the issue of interaction between society and advertising. It is noted that society develops and intensifies advertising activities, and advertising technologies, in turn, provide a corresponding stimulus to the socio-economic development of society.

Kalit so'zlar: *reklama, reklama kommunikatsiyasi, jamiyat, axborot funksiyalari, ekspressiv funksiyalar, pragmatik funksiyalar*

Ключевые слова: *реклама, рекламная коммуникация, общество, информационные функции, экспрессивные функции, прагматические функции*

Keywords: *advertising, advertising communication, society, information functions, expressive functions, pragmatic functions*

Reklama barcha tarkibiy qismlarida ijtimoiy hodisadir. U ijtimoiy munosabatlarning barcha turlari: iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, diniy jihatdan o'ziga xos keng qamrovli ijtimoiy ahamiyatga ega. Reklama, V.G.Zazikinning fikriga ko'ra, "insonga, uning g'oyalari va baholashlariga atroflicha ta'sir ko'rsatadi. U yakuniy maqsad - mahsulot va xizmatlarni sotishga qaratilgan barcha imkoniyatlar va usullarni o'z ichiga qamrab oladi" [3: 7].

Reklama kommunikatsiyasi reklama beruvchiga bozor munosabatlari rivojlanayotgan va aniq reklama mahsulotini yaratish jarayonida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash sharoitida boshqaruvning asosiy axborot bazasi sifatida xizmat qiladi. Uning ta'siri ham bevosita, ham bilvosita bo'lishi mumkin [3: 10].

Reklama jamiyatda inson hayotini yanada qulay qilish uchun yaratilgan innovatsiyalar haqida xabardor qilish uchun ishlatiladi, bu yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish bilan bog'liq.

Muloqot jarayoni voqealar, ijtimoiy hayot presedentlari haqida ma'lumot berish, odamlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, muloqot jarayonini boshqarish kabi eng keng qamrovli vazifalarni o'zida mujassam etadi. Bundan tashqari, reklama o'zining jamiyat hayotidagi asosiy vazifasini bajaradi: o'rnatilgan birlashmalarni yaratadi, berilgan tasvirlarni shakllantiradi, oluvchini ma'lum bir mahsulot yoki xizmatni sotib olish zarurligiga ishontiradi, unda reklama qilingan mahsulotni samarali va befarq sotib olish istagini yaratadi. Reklamachilarning maqsadi - odamlar ongiga keyinchalik

stereotipga aylanadigan reklama tasvirini kiritish, bu orqali ularga ta'sir qilish osonroq bo'ladi.

O'z mijozining ongiga faol ta'sir ko'rsatish va mahsulotning turli xususiyatlarini targ'ib qilish orqali reklama bir butun sifatida ehtiyojlar doirasini, ya'ni qabul qiluvchining turmush tarzi, darajasi va uslubi va boshqalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

Jamiyat va reklama o'rtasidagi o'zaro ta'sir ikki tomonlama jarayon bo'lib chiqadi: jamiyat reklama faoliyatini rivojlantiradi va faollashtiradi, reklama texnologiyalari esa, o'z navbatida, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tegishli turtki beradi. "Reklamaning aloqa tizimiga a'zoliqligi reklama bajaradigan turli funktsiyalar bilan belgilanadi. Muloqot nuqtai nazaridan reklama ma'lum bir reklama beruvchi tomonidan ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda boshqariladigan ta'sir sifatida belgilanishi mumkin" [4: 133].

Reklama (fransuzcha *reclame* – "reklama", lot. *reclamare* – "baqirish, baqirish") faoliyat turi sifatida jamoatchilik bilan aloqalar sohasiga kiradi. Hatto tarixdan oldingi davrda reklama prototipining birinchi tashuvchilari ham talabni rag'batlantirish vazifasini qo'ygan. Reklamaning ushbu asosiy maqsadi bugungi kungacha o'zgarishsiz qoldi. Zamonaviy inson butun umri davomida reklama bilan "qoplangan" va bugungi kunda reklamaning o'zi juda xilma-xil bo'lib, o'ziga xos, janr, texnologik, instrumental va funksional farqlarga ega.

A.P.Juravlevning fikricha, aloqa tizimida reklama o'rnini aniqlashning muhim mezonini aloqa ishtirokchilari soni hisoblanadi. "Ko'pchilik hollarda reklama ommaviy kommunikatsiyalarga taalluqlidir, garchi quyida muhokama qilinadigan marketing kommunikatsiyalarining boshqa vositalari uchun (to'g'ridan to'g'ri marketing, sotishni rag'batlantirish va boshqalar) barcha turdagi aloqalar dolzarb bo'lib qoladi." [2: 22].

Muloqotning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat:

- 1) axborot (axborot uzatish);
- 2) ekspressiv (nafaqat semantik, balki baholovchi ma'lumotlarni ham ifodalash qobiliyati);
- 3) pragmatik (qabul qiluvchiga ma'lum bir ta'sir ko'rsatadigan aloqa munosabatini etkazish qobiliyati).

Aytish joizki, reklama aloqa vositasi sifatida ushbu uchta funktsiyani bajarishga intiladi. Xulosa to'g'ri: ijtimoiy aloqaning barcha uchta funktsiyasi reklamaning uni oluvchiga ta'sir qilish jarayonida qo'llaniladi [2: 27].

Reklama kommunikatsiyasi jarayonida quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) ma'lum bir to'plamdan belgilarni tanlab, ularni ma'lum qonuniyatlar bo'yicha birlashtiruvchi reklama xabarini jo'natuvchi; 2) reklama xabari uzatiladigan kanal; 3) belgilarni qabul qiluvchi oluvchi.

Xabar jo'natuvchisi (kommunikator) nafaqat jismoniy yoki yuridik shaxs - reklama agentligidan reklama buyurtma qilgan va uning haqini to'laydigan shaxs, balki reklama agentligi ham bo'lishi mumkin. Bunday holda, ushbu komponent reklama aloqasining boshlang'ich nuqtasi, boshlanishi hisoblanadi.

Reklama aloqasi tizimida axborotni uzatishning bir yoki bir nechta texnologik usullari: televidenie, radio, matbuot, Internet, shuningdek, reklama tarqatishning boshqa usullari (bilbordlar, do‘konlar vitrinalari, jamoat transporti, belgilar va boshqalar) hokazo.

Reklama kommunikatsiyasining uchinchi komponenti - bu xabarni oluvchi. Uni maqsadli auditoriya deb ham atash mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, reklama aloqasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda qabul qiluvchining xususiyatlari: demografik, psixologik, ijtimoiy rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, reklama, bir qator tadqiqotchilar, xususan, A.P.Juravlev, I.L.Vikentyevlarning fikriga ko‘ra, “bir yo‘nalishli va shaxsiy bo‘lmagan xarakterdagi ma’lumotli-majoziy, ekspressiv-taklifli matnlar yaratiladigan va tarqatiladigan, haq to‘lanadigan ommaviy aloqa turidir. Reklama orqali ommaga murojaat qilinib, reklama beruvchi xohlagan tanlov va harakatni amalga oshirishga undaydi [2: 37].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Валгина, Н.С.и др. Современный русский язык: Учебник для филологи-ческих специальностей вузов/ Н.С. Валгина, Д.Э.Розенталь, М.И.Фомина.- Москва,1987.- 480с.
2. Викентьев, И.Л. Приемы рекламы / И.Л. Викентьев. - Санкт- Петербург: Питер, 2001. - С. 37 - 94.
3. Гальперин, И.Р. Текст как объект лингвистического исследования / И.Р. Гальперин. - Москва: Наука, 2001. - 274 с.
4. Ильясова, С. В, Амири, Л. П. Языковая игра в коммуникативном пространстве СМИ и рекламы / С.В. Ильясова, Л.П. Амири. - Москва: Флинта, Наука, 2012. - 325 с.
5. Лингвистический энциклопедический словарь.- Москва,1990.- 685 с.
6. Мандель, Б.Р. Социальная реклама: Учеб. пособие / Б.Р. Мандель. - Москва: Вузовский учебник: ИНФА, 2012. - 302 с.



IV. JAHON FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

ÖZBEK TİLİNİN İZAHLI LUGATİNDEKİ İKİ FARKLI ŞEKİLDE KULLANILAN SÖZCÜKLER ÜZERİNE

Prof. Dr. Nergis BİRAY,

*Pamukkale Üniversitesi İnsan ve Toplum Bilimleri Fakültesi
Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Denizli, Türkiye
nergisb@gmail.com 0000-0002-4168-220X.*

ÖZET:

Türk Dilinin güneydoğu kolunda yer alan Özbek yazı dilinin açıklanmalı sözlüklerinden *Özbek Tilining İzahlı Lugati I-V (2006)*’nde bazı sözcüklerin ses veya şekil bakımından farklı iki kullanıma sahip oldukları görülmektedir. Sözlükten tespit edilen bu ikili kullanıma sahip sözcüklerde genellikle ses ve şekil bilgisine dayalı ikili kullanılışlar söz konusudur. Ünlü ve ünsüzlerdeki farklılaşmalar bazı sözcüklerde ünlü

ve ünsüz uyumlarının bozulmasıyla ilgili olabilmekteyken bazılarında uyumlarla ilgili değildir. Bazı ses değişikliklerinin daha eski dönemlere ait olduğu da düşünülmektedir. İkili şekli ve kullanımı olan sözcüklerin çok azında anlam değişikliği karşımıza çıkmakta çoğunda böyle bir değişim de görülmemektedir. Sözlükte yer alan bütün ikili kullanımlar tespit edilmiş, bildiri boyutunu aşacağı için bu bildiride sadece iki şekilli kullanımı olan fiiller ele alınmıştır. Tespit edilen fiillerin hepsi anlam bakımından da incelenmiş, anlamında değişiklik olanlar tespit edilmiştir. Bildiride iki şekilli kullanımlar tasnif edilerek varsa farklılıklar verilecek, sonuçta genel bir değerlendirme yapılmaya çalışılacaktır.

Anahtar Kelimeler: Özbekçe, Özbek Tilining İzahlı Lugati, ikili kullanımlar, ses ve şekil bilgisi, anlam bilgisi.

ON THE WORDS USED IN TWO DIFFERENT WAYS IN THE UZBEK LANGUAGE DICTIONARY

ABSTRACT

In Uzbek Tilining İzahlı Lugati I-V (2006), one of the annotated dictionaries of the Uzbek written language, which is located in the southeastern branch of the Turkic language, it is seen that some words have dual usages. In the words with these dual usages identified in the dictionary, there are generally dual usages based on phonology and morphology. While vowel and consonant variations may be related to vowel and consonant harmonisation in some words, they are not related to harmonisation in others. It is also thought that some sound changes belong to older periods. In very few of the words with dual usage, a change in meaning is observed, and in most of them no such change is observed. All the dual usages in the dictionary have been identified, but since it would exceed the size of the paper, only the verbs with dual usage are discussed in this paper. All of the identified verbs were also analysed in terms of meaning, and those with a change in meaning were identified. In the paper, the differences in binary usages will be classified and an evaluation will be tried to be made at the end.

Key Words: Uzbek language, Uzbek language dictionary, dual uses, phonology and morphology, semantics.

0. GİRİŞ

